



YOSHLAR
KUTUBXONASI

Tohir Malik

ALVIDO ... BOLALIK



Tohir MALIK

ALVIDO...
BOLALIK

Qissa



YOSHLAR NASHRIYOT UYI
TOSHKENT – 2019

UO'K 821.512.133-32
KBK 84(50')
M 22

Тўққон ағамини то

Malik, Tohir.

Alvido... bolalik [Matn]: Qissa / Tohir Malik. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – 184 b.


«Alvido... bolalik» Tohir Malik ijodida alohida o'rin tutadi. Asardagi asosiy g'oya – hech kim jinoyatchi bo'lib tug'ilmaydi, bolani atrof-muhit, jamiyatdagi turli illatlar jinoyatchiga aylantiradi.

Adib jinoyat olamini «Shaytanat», ya'ni shaytonlar yetovidagi zulmkorlar mamlakati deb atab, «Ehtiyot bo'ling, bu ko'chaga yaqin yo'lamang. Boshni berk bu ko'chaning adog'ida faqatgina azobli, xorli o'lim topasiz», demoqchi bo'ladi.

Bu qissani yoshlar uchun bir ogohlantirish deb atash mumkin.

UO'K 821.512.133-32
KBK 84(50')

10 45755
2.91



ISBN 978-9943-5530-4-0

© Tohir Malik
© YOSHLAR NASHRIYOT UYI,
2019

MUQADDIMA

Quyosh qayerdadir tog' ortidan, qayerdadir cho'l adog'idan, qayerdadir asriy muzliklar orasidan bosh ko'taradi. Qayerdadir daraxt kokillarini o'ynab, billuriy buloq suvlariga to'yib olgach, xonadonlarga mo'ralaydi. Qayerdadir qurib-qaqshab yotgan tikonlarni, chanqoq qum barxanlarni yalab o'tib, odamlar yashaydigan yerlarga oshiqadi. Qayerdadir asriy muzliklar orasida panoj topolmay, odamzotga duch kelishdan umidini uzib, tezroq ko'z yumishga oshiqadi.

Bahor ham shunday. U iliq shabada nafasida, qaldirg'och qanotida, turnalar solgan arg'imchoqda kirib kelib, tashna ko'ngillarga tiriklik suvini beradi.

Quyoshning tongdagi, ayniqsa, bahor tongidagi ko'rkini ko'rish barchaga ham nasib etavermaydi.

«Quyosh barchaga baravar nur sochadi», deydilar. Haq gap. Biroq, uning nuridan hamma ham bir xilda bahramand bo'lavermaydi.

Tikanli sim, temir panjaralar, baland devorlar ortidan mo'ralagan tonggi quyosh ko'ngilga ozod hayotdagi kabi ilqlikni bera olarmikan? Tikanli simlar bilan o'ralgan qamoqxona hovlisiga ham bahor kiradi, bu yerdagi daraxtlar kurtagi ham ko'z ochadi, surxchalar barg chiqaradi. Ammo, bahor gashti tikanli simlarni oshib bu yerga o'ta olarmikan?

Ozodlik so'zini bu yerda nonday aziz ko'rishadi. Bu yerda oylar sanaladi, kunlar, soatlar sanaladi.

Har bir lahza, soat, kun... ularni ozodlikka yaqinlashtiradi.

Har bir lahza, soat, kun... ularni iskanjaga oladi, ular o'ylamay bosilgan qadamlarini la'natlab yashashadi.

Bu yer – bolalar axloq tuzatish mehnat koloniyasi. O'n to'rt yoshdan o'n sakkiz yoshgacha bo'lgan jinoyatchilar jazo muddatlarini shu yerda o'taydilar. Bu yerga avtomat tarzda

ochilib-yopiladigan temir eshiklardan kiriladi. Bir xil kiyim kiygan, ko'zlarda mung, ba'zan alam yashiringan bolalar yangi odamni darrov ilg'ashadi. Ikkinchi marta borganingizda siz haqingizdagi ma'lumotdan darak topishgan bo'lishadi.

Men bu koloniyaga besh yil avval bir kelgan edim. Mana endi, yozilib, yakunlanay deb qolgan asar bahonasida yana yo'lim tushdi. Bu yerdagilarning barchasi ham suhbatdosh bo'lavermaydi. Ayrimlari gaplashadi, ba'zilari esa nigohini bir nuqtaga tikib turaveradi. Tabiatan shundaymi ular yo tergovchilarning so'roqlaridan keyin shunaqa bo'lib qolishganmi? Balki tergovda ochilmay qolgan sirlarini boy berib qo'ymaslik uchun tillari tish hatlamas? Bilmadim. Bilolmadim. Harhol-da ular menga jumboq bo'lib qolishgan. Ularning ayrimlarini sirtidan taniyman. Krandan suv ichib, alanglab qo'ygan bola qo'shni kampirni «to'polon qilma, chekma» deb tergapani uchun o'roq bilan chopib tashlagan. Hozir nimadan cho'chib alangladi: ko'ziga o'sha kampir ko'rindimi yo? Kichkina bola ekanida o'sha ayol uni ko'tarib suygan, erkalagan, bog'idagi mevalar bilan siylagan. Oqibatda esa... bir gapi uchun qonga belangan. Hozir bu bola o'roq ko'tarib kampirga tashlanganini esladimi yo birinchi marta nasha chekkaninimi?

Anavi daraxtga suyanib turgan bola katta o'g'rilarga qo'shilgan. Katta o'g'riliklar bo'layotgan damda balki u shu holda - daraxtga suyanib poyloqchilik qilgandir? Balki hozir uning ko'z oldiga orqa kuragi ostiga pichoq sanchilgan qorovul kelgandir? Axir qorovulni u gapga solib, chalg'itib turgan edi, uning ko'z oldida sanchishdi pichoqni! Bu dahshat iskanjasidan uzoq yillar qutula olmasa kerak u.

Hamrohim - kapitanni telefonda yo'qlab chaqirishdi. Qiyg'os gullagan olma ostiga qo'yilgan o'rindiqda yolg'iz qoldim. Xuddi shuni poylab turganday bir bola yaqinlashib, salom berdi:

- Yozuvchimishsiz, shu rostmi? - dedi qiziqishini yashirmay. - Kitobingiz kutubxonada bor ekan. Lekin hali o'qimadim. Endi biz haqimizda felyeton yozasizmi?

- Felyeton? Kim aytdi?

- Hamma aytyapti.
- Felyeton nimaligini bilasanmi o'zing?
- Qamalganlar haqida yoziladi-da?

- Yo'q, bu gaping noto'g'ri. Felyeton birovni fosh qilish, undan kulish uchun yoziladi. Sizlarni fosh qilib bo'lishgan. Ahvolingizdan kulish esa insofdan emas. Senga o'xshagan bolaning ahvolini bir kitob qilmoqchiman. Shuni o'qigan bola yomon yo'lga kirishdan o'zini tiyar degan niyatim bor.

- U bolangiz nima qilgan ekan?
- Odam o'ldirgan.
- Ishi chatoq ekan, ko'p o'tiradi.
- O'zing-chi?

Bola jinoyat kodeksining moddasini aytdi. Keyin ayyoro-na kulimsirab qo'shib qo'ydi:

- Mendaqalarni qadim zamonda devor tagiga bostirish-gan ekan.

- Yoki toshbo'ron qilishgan, - deb men ham qo'shimcha qildim. - Hammasini bilar ekansan, nimaga kirding bu no-ma'qul ko'chaga?

U gardanini qashigan bo'lib kulimsiradi:

- O'zim ham bilmayman. Bir ahmoq bo'ldim-da. Hozir esim kirgan. Aslida... meni qamashmasa ham bo'lardi. Aybim-ga tushundim, boshqa qilmayman bu ishni. Manavi kallake-sarlar bilan yurishim yaxshimi?

Uning falsafasi qiziq edi. Bir jihatdan qarasangiz u haq. Aybiga tushunib yetdi. Bu yerda ushlab turishdan ma'no yo'q. Ammo masalaning boshqa jihati ham bor-da. Ozodlikka chiqib, yana shunday vaziyatga duch kelsa, o'zini ushlab tura oladimi? Axir bu yerdagi bolalar ichida ikkinchi marta qamal-ganlar oz emas-ku?

- Bu yer joningga tegdimi? - deb so'radim undan.

- Gapingiz qiziq-ku? - dedi u ajablanib. - Maza qilib o'ynab-kuladigan davringda o'tirish... alam qilmaydimi?

- Alam qiladi... lekin, sen va senga o'xshaganlar dastidan jabr chekkanlar-chi? Sen-ku, bu yil bo'lmasa keyingi yillar ozodlikka chiqasan, o'ynab-kulasan. Lekin, baxti yarim-

ta o'sha qiz-chi? U bir umr azob chekmaydimi? O'ldirilgan odamlar-chi? Ular ham yoshmi-qarimi, o'ynab-kulish istagida bo'lganlar-ku? Mana shularni o'ylamaysanlarmi, vijdonlaring qiynalmaydimi?

Bola jim qoldi. Men javob kutdim. U birozdan keyin tilga kirdi:

- Bunaqa gaplarni ko'p eshitamiz. Siz ham nasihatni yaxshi ko'rar ekansiz. Men sizdan boshqa narsani so'ramoqchi edim.

U «so'rayveraymi?» degan ma'noda menga savol nazari bilan qaradi.

- So'rayver.

- Men boshimdan o'tganini kitob qilib yozmoqchiman. Bo'larmikan?

Bunday gapni kutmagan edim, shu bois gangib qoldim.

- Kitob?.. - Shunday dedim-u ajablanishim uni kamsitib, ranjitib qo'yishi mumkinligini anglab, gapni maromga soldim. - Yozishing mumkin, albatta. Lekin... yozishdan avval aniq maqsadni belgilab olish kerak.

- Maqsadim bor. Hali aytdingiz-ku, boshqalar kirmasin bu ko'chaga, deb. Hayotim bilan tanishgan mendaqalarning ko'zi ochilarmikan?

- Maqsading yaxshi. Yozaver. Kerak bo'lsa, yordam beray.

- Yozishni bilmayman. Birovga xat yozishni ham shu yerda o'rgandim. Kitob yozish qiyindir?

Bu ishning mas'uliyati, mashaqqatini tushuntirganim bilan anglab yetishi qiyin edi. Bu ish juda og'ir, desam, bolaning shashti ham qaytishi mumkin. Nima deyishni bilmay turganimda uning o'zi jonimga oro kirdi.

- Bu yerga yana kelsangiz yangi kitobingizni olvololmay-sizmi? O'qib, o'shanga o'xshatib yozardim.

- Hali bitmaganda u... - shunday dedim-u xayolimga kelgan fikrdan ko'nglim yorishdi. - Yaxshi, bitgan qismini senga o'qib beraman. Bahonada fikringni bilaman. Ammo kelishib olaylik: yoqqan-yoqmaganini ochiq bildirasan. Ha, aytmoqchi, isming nima?

U aytdi, keyin qo'shib qo'ydi:

- Kitobingizga meni ham qo'shsangiz, boshqacha qilib o'zgartirib yozing. Odamlardan uyalaman.

- Nima deymiz?

- Ahbor deya qoling.

Shunga kelishdik.

Oradan o'n besh kun o'tdi. Uning oldiga ertaga boraman. Birinchi o'quvchi, birinchi tanqidchi bilan uchrashishga tayyorlanypman. Yozganlarimni qayta ko'ryapman. Qani, Ahbor nima derkin?

UYQUSIZ TUN

*yoxud qotillardan birining tundagi ruhiy
kechinmalari haqida hikoya*

Asrorni onasi turtib uyg'otdi:

- Yomon tush ko'rdingmi, muncha baqirmasang?

Asror indamadi. Uyquli ko'zlarini chirt yumib oldi.

- Yonboshlab yot, bosinqirabsan...

Onasi shunday deb chiqib ketdi. Asror ko'zini ochdi. Bu tushmi... yo'q, tush emas... Kecha o'z ko'zi bilan ko'rganlari... Shunchaki ko'rgan bo'lganida koshki edi... O'zi ham urdi uni. Tepdi, yomon tepdi. Bechora dod deb yubordi. Kim edi u? Asror tanimaydi. Hozir bir narsanigina biladi - sigaret berganida ortiqcha mashmasha yo'q edi. Xasisligi boshini yedi uning.

Endi nima bo'ladi?

U dahanini yostiqqa tiraganicha muk tushib yotdi. Hozir militsiya ularni qidirayotgandir? «Yo'q, hali qidirmaydi, - deb o'yladi Asror, - u odam suv ostida cho'kib yotibdi. Necha kunda chiqarkin yuzaga? Ana o'shandan keyin boshlashadi qidirishni. U odamning oilasi militsiyaga arz qilsa-chi? Ular voqeani bilishmaydi. «Yo'qolib qoldi» deyishadi. Uning hech kimi yo'qdir balki... Unda yaxshi... Suv tagida balchiq bosib qolib ketsa yana yaxshi...» xayoliga shu fikr kelib, Asror biroz yengil tortdi.

Hozir u pivoxonadan sarxush chiqqan, keyin bolalar orasida ko'ptokday tepilgan, murdasi suvga tashlab yuborilgan odamni emas, o'z taqdirini o'ylardi. Militsiya... Uning ortidan qamoq... Shu fikrning o'ziyoq uni g'ippa bo'g'ib olardi.

Ko'zini yumdi. O'sha odamning nigohlari... Ko'zlari unga tikilib turibdi. «Men senga nima yomonlik qildim», deb so'rayapti. Asror aniq eslaydi: qorniga tepgan paytida u odam shunday qaraganday bo'ldi. Qiziq, nimaga u odamning ko'zlari ko'rinyapti? Axir qorong'i edi, ko'zlarini ko'rmagan edi-ku? U odam pichoq chiqardi, Salimning soniga urdi... «Ha, ha, bo'ldi, hamma ayb o'zida, pichoq chiqarmaganida tegmas edik. Shuni hamma bolalar qaytarsa, bizga balo ham urmaydi». Asror bu fikrdan yana biroz yengil tortib, qaddini rostlab o'tirdi. «Shu gap bolalarning xayoliga kelarmikan, – deb o'yladi u, – yo aytib chiqsammikan? Birontasini militsiya kuzatayotgan bo'lsa-chi? Qamar o'tirib chiqqan. Uni kuzatishlari mumkin. Salim ham shunikida. Yarasiga qarashganmikan? Qamar qararmikan?»

Qamariddinning yaxshi-yomonligini Asror shu paytgacha aniq bilmaydi. Bir qarasang – xo'roz, o'rtog'ini deb o'tga tushishdan ham tap tortmaydi. Bir qarasang – yovuz, o'zinikilarini ham ayamaydi. Shundanmi, barcha undan qo'rqadi. Asror ham bundan mustasno emas. Qamariddin o'l desa o'ladi, tiril desa, tiriladi. Avval qo'rqqanidan shunday qilardi. Endi ko'nikib qolgan. Osmonda quyosh sochayotganini ko'rib ajablanmagani kabi, Qamariddinga qulday tobe ekaniga ham hayron bo'lmaydi. Ha, Qamariddin ularga xoja, ular esa qul edi. Ammo birortasining xayoliga «Men qulman yoinki, «nima uchun men qulman» degan fikr kelmasdi. Ularning nazarida Qamariddin xoja emas, balki vallomat, ayrimlariga esa vasiy edi.

Hozir ham Asror uning yaxshi yo yomon tomonlarini o'ylamadi. Shunchaki «Salimga qararmikan?» degan fikr xayolini bir yoritib o'tdi, xolos.

Asrorning ko'kragi qizib, o'rnidan turdi-da, oshxonaga chiqdi. Muzdek suvdan simirib, ko'ngli orom topdi. Hozirgina suv ichib yengil tortganday bo'lgan edi. Dam o'tmay

yana ko'kragi qizib, nafas olishi og'irlashdi. Derazani ochdi. Ko'chani to'zitib yurgan shamol uning dimog'iga chang ufurdi. U pastga qaradi. Ularning uyi beshinchi qavatda. Shundaygina derazalari ostidagi kaftdek yerga uch tup gilos ekib, «bog'» qilib qo'yishgan. Sal narida garajlari. Otasi tunda ikki-uch marta shu yerdan turib xabar oladi. Dadasining bu ishini dastlab ko'rganida Asror «birov mashinani olib qochmoqchi bo'lsa, shu beshinchi qavatdan o'zlarini tashlasalar kerak», deb o'ylagan edi. Hozir nimagadir shu gap esiga tushdi. «Agar militsiya bilib qolib uyga qidirib kelsa, o'zimni shu yerdan tashlayman. Qamalganimdan ko'ra birdaniga o'lganim yaxshi». Bu fikr miyasiga urildi-yu, tovonigacha zirillab ketdi. Peshonasidan muzdek ter chiqdi. Qo'rqib ketganidan darrov derazani yopdi. «Jinni bo'libmanmi, nimaga tashlarkanman, nimaga meni qamarkan, – deb o'ziga o'zi tasalli bera boshladi, – men o'ldiribmanmi uni, tepgan bo'lsam bitta tepdim. Salimga pichoq urgach, tepdim...»

Yulduzli osmonni bir chetdan yamlab kelayotgan qo'ng'ir bulutlar orasida nifoq chiqib, yashin chaqnadi. Uning nuri peshayvon derazalaridan o'tib, gullar tushirilgan devorga urildi. Asrorning nazarida, osmonda chaqmoq chaqnamadi, balki o'sha odamning ko'zlari yondi. Nur ham o'sha ko'zlaridan chiqdi. «Men qotilimni izlab edim, topdim», deya shu beshinchi qavat peshayvoniga otildi. Momaqaldiroq gumburladi. Asrorning nazarida, o'sha odam na'ra tortdi. «Qarang, qotilimni topdim», deya shahar ahlini uyg'otmoqchi bo'ldi.

Asror orqasiga tisarilib, oshxonaga qaytdi. Balkon eshigini qattiq yopdi. Jo'mrakdan suv oqizib yuziga tutdi. Orqada sharpa sezib, sapchib tushdi. Qarasa – onasi. Sinchkov nazarini qadab turibdi.

– Senga nima bo'ldi? – dedi u, Asrorning sochini silab.

Asror onasidan ko'zini olib qochdi, keyin yutunib:

– Uyqum kelmayapti, – dedi.

– Charchagansan. Kechagi to'yda uxlatishmabdi, eshitdim. Kirib yot, uyqung kelmasa, sana. Yuzgachami, minggachami, sanayver. Uxlaganingni bilmay qolasan.

Asror onasiga qarab oldi. «Onamning soddaliklari ham yaxshi», deb o'yladi-da, xonasiga qarab yurdi.

«Urinib qolyapti, bolam boyaqish, – deb o'yladi Ma'suma uning izidan qarab, – to'yga yubormay desam bo'lmasa, borsa bu ahvol. Erta-indin havo yurishib ketsa, to'y yana ko'payadi. Bolamga yana javr. Bormasa, otasiga javr. Topgan-tutganlari shularga-da axir, ko'tarib ketarmidi. Yaxshi hamki Asrorim buni tushunadi. Tushungani uchun indamaydi. Yana bir-ikki yil... keyin o'zi ham yo'lga kirib ketadi».

Ma'suma orzularining oqibati ko'pincha «keyin yo'lga kirib ketadi» degan fikrga qadaladi. Shunda birov «qaysi yo'lga kiradi?» deb so'rasa daf'atan javob bera olmaydi. Xo'sh, qaysi yo'lga kiradi?

Otasining yo'lga – san'atgami, yoki ota-onadan pinhon tutayotgani Qamariddin yo'ligami? Yoki kul bosgan umidi – ilm yo'ligami? Buni na Ma'suma, na Asrorning o'zi biladi.

Asror xuddi ertaklardagiday uch yo'l qarshisiga kelib qolgan. Bir yo'lning boshida oq shayton turibdi. «Pul topib, aql topmagan odamlar ko'p ekan, shu yo'lga kir. Pul, maishat ichidasan. Odamlar boshingdan pul sochishadi, ammo istagan yo'riqlariga solishadi. It bo'lib vovulla deyishsa, vovullaysan, mushuk bo'lib miyovla deyishsa miyovlaysan, kul desa kulasan, xo'rlikka chidayolmasang ham kulasan, kula turib «rahmat, akaxon», deb ta'zim ham qilasan. Ammo, bu bilan ishing bo'lmasin. Pulini olsang, bas!» Bu oq shayton Asrorning tushlariga ham kiradi. Ajablanarlisi shuki, ko'pincha bu oq shayton dadasiga o'xshab ketadi. Asror bola bo'lib dadasining ko'ziga tik qaramagan. Shu sababli oq shayton ko'ziga qaraganda cho'chib tushadi.

Ikkinchi yo'lda qora shayton turadi. «Yigitning yo'li shu yo'l, – deydi u, – birovga egilmaysan, senga qulluq qilishadi. Sendan qo'rqishadi. Nimani istasang, shunga egasan. Ozodsan, eng muhimi shu – erkin qushsan!» Qora shayton Qamariddin bo'lib ko'ringanda cho'chimaydi. Nimagadir otasidan ko'ra ko'proq uni yoqtiradi. Suyagi buzuq, ko'zi g'ilay bo'lsa ham, shu yigit Asrorga istarali ko'rinadi.

Uchinchi yo'l boshida hech kim yo'q. Ko'cha ham g'ira-shira qorong'ilik ichida. To'g'ri, bu qorong'ilikda ba'zan muallimi Mahkam aka ko'rinib qoladi. O'zi yosh, ammo sochlari tekis oqargan bu olim uni imlaydi. «Bir umr azobga mahkum etilganlaringina olim bo'lishadi, – deydi u, – olim dam olish nima, dabdabali hayot nima – bilmaydi. Bir umr ishlaydi, kecha-yu kunduz tinim bilmaydi. Boyvachchalar undan kulishadi, amaldorlar ko'krigidan itaradi, noqobillar hazar qiladi. U esa hammasiga chidab chumoliday ishlayveradi. Uning mehnati mevasini o'sha boyvachchalar, amaldorlar, noqobillar ham baham ko'rishadi. Bir umrlik mehnat azobidan, talashish-tor-tishishlardan qo'rqmagan odam kirsin bu yo'lga...»

Asror bulardan qo'rqmas edi, kirardi. Nolimasdi ham. Faqat avval oq shayton, so'ng qora shayton uchradi unga. Mana, hozir ikki shayton quliga aylangan bola ko'zlarini chirt yumib, birdan yuzgacha, yuzdan minggacha sanab yotibdi. Sanagani foyda berdimi yo uyqusizlik yengdimi – uxlab qoldi.

Tushida shahar bezovta emish. Militsionerlar yelib-yugurisharmish. Ularni o'sha o'lgan odamning o'zi boshlab yurganmish. Nuqul «Qotil qani?» deb baqirisharmish. Asror uni ko'rgan sari «Tirik ekan-ku!» deb xursand bo'larmish. Keyin «Tirik bo'lsa, yana qanaqa qotilni izlashyapti?» deb taajjublanarmish. Beshinchi qavatga chiqib, qo'ng'iroq tugmasini bosishganmish...

Asror eshik qo'ng'irog'ining asabiy jarangidan sapchib turib ketdi. Turishga turdi-yu, nima qilarini bilmay taxtaday qotdi. Onasining «hozir» degan ovozi, eshik ochilgandan keyin qo'shni ayolning «Ma'sumaxon, ikkitagina tuxum berib turing, aylanay» deganini eshitib, sal o'ziga keldi. Vujudida jon-pon qolmaganini shundagina his qildi. Bo'sh qopday shalvirab o'tirib qoldi. Sovqotgan odamday badaniga yengil titroq turdi. Onasi:

– Turdingmi, bolaginam? – dedi eshikni qiya ochib.

«Bormayman maktabga, – deb o'yladi Asror, – hech qa-yoqqa chiqmayman». «Uyda yotib olganimdan shubhalanishsa-chi?» degan o'y xayoliga kelib, boshini ko'tardi. Keyin

«muncha qo'rqaman, axir uni men o'ldirganim yo'q-ku!» deb o'ziga-o'zi tasalli berganicha o'rnidan turdi. «Men o'ldirganim yo'q!» deb qayta-qayta takrorladi. O'zini shunga ishon-tirmoqchi bo'ldi. Bu ruhiy muolaja ta'sir etdimi, sal yengil tortdi.

Tomog'idan narsa o'tmasa ham, o'zini majburlab nonush-ta qildi. Ko'chaga chiqdi. Chiqdi-yu beixtiyor atrofga alanglab oldi. Burchakdagi uy qarshisida Dilfuza uni poylayotgan edi. Ular har kuni shu yerda uchrashib, birga maktabga ketishar-di. Dilfuza uni jilmayib qarshi olardi. Hozir mahzun bir ahvol-da. «U ham uxlamaganga o'xshaydi», deb o'yladi Asror. Bosh irg'ab salomlashishdi. Xuddi urishib qolganday indamasdan yurishdi.

- Endi nima bo'ladi? - dedi Dilfuza past ovozda.

Asror unga bir qarab oldi, ammo javob qaytarmadi.

- Qamariddin boshlamagandaydi...

- Qamar boshlamadi, nimaga o'zi pichoq chiqaradi! - dedi Asror jahl bilan. - Sen... kecha u yerda yo'q eding, bildingmi?

- Siz-chi? - Dilfuza Asrorning biligidan ushlab to'xtatdi, - siz-chi?

- Men... bilmadim...

- Siz ham yo'q edingiz. Birga... kinoda edik. Guvohlarim bor.

- Guvoh?

- Ha, dadamga kinoda edik, deganman. Tasdiqlashlari mumkin.

Asror javob qaytarishga ulgurmasi. Orqadan kimdir cha-qirib qoldi. Ikkovlari baravar to'xtab, qarashdi. O'ttiz qadam-cha narida sinfdoshlari Zoir yugurib kelayotgan ekan.

- Kecha Turob bilan boruvdik, uyingda yo'q ekansan, oying aytdilarmi borganimizni? - deb so'radi u yetib kelgach.

- Kecha... kinoda edik, - Asror beixtiyor shunday deb Dilfu-zaga qaradi. Dilfuza ko'z ishorasi bilan uning gapini ma'qulladi.

- Nimaga boruvdinglar?

- Turobning opasi erga tegyapti-ku? Yigirma ikkinchida ziyofati ekan. Bir qizitib berasan.

- Yigirma ikkinchi... shanbami? Bilmadim. Dadam to'y olib qo'ygan bo'lishlari mumkin.

- Agar Turobning boshida tashvishlari bo'lmaganida senga yalinmasdik. O'zing xo'p deganding-ku?

- Xo'p deganman, lekin boshqa kunlar bo'lsin-da. Juma, shanba, yakshanba band bo'lamiz.

- Pulini bersak-chi?

- Kim beradi?

- Ishing bo'lmasin. Dadangga ayt, pulini to'laymiz.

Zoir shunday degach, xuddi darsdan kechikayotganday yugurib ketdi. Uning achchiqlanganini, birga yurishdan or qilganini Asror ham, Dilfuza ham sezdi. Sezsa-da, bir-biriga bu haqida so'z ochishmadi. Chunki, odamgar-chilik haqida bahslashadigan kayfiyatda emasdilar. Hozir ularning xayoli bir narsa bilan - kechagi mudhish voqea bilan band edi.

Kinoxonaga yaqinlashganda Asror qator teraklar tomonga o'g'rincha qarab qo'ydi. Qamariddinning o'tiradigan yeri shu joy. O'tgan yili xuddi shu yerda, xuddi shu paytda Qamariddin uni chaqirgan edi. Asror Qamariddinni ham, uning atrofidagilarni ham sirtidan tanir edi. Bir necha oy muqaddam qamoqdan chiqqan Qamariddinning, sheriklarining yomon bolalar ekanligini ham bilardi. Qamariddin chaqirganida ko'ngli nimanidir sezib, oyog'idan mador ketdi. Bormay, qochib ketsam-chi, deb ham o'yladi. Ammo, qochib qayoqqa ham borardi. Besh-olti soatdan keyin yana shu yerdan o'tadi. Ertaga ham, indinga ham... Noiloj bordi.

- Kecha to'yda yaxshi tushdimi? - dedi Qamariddin ishshayib. O'shanda uning ishshayganidan ko'rinuvchi so'yloq tishlari ham, g'ilay ko'zi ham Asrorga dahshatli ko'ringan edi. Nima deb javob berishni bilmay, indamay turgandi. Qamariddin esa uning yelkasiga qo'lini qo'yib, yumshoq ohangda, ammo qat'iy buyruq qilgan edi, - Shirinkomadan cho'zish kerak. Bizdan qochma. Men bilan bo'lsang, birov chertmaydi seni. Bo'lmasa, o'zingga qiyin.

Dadasi Asrorga pul bermasdi. Asror onasidan olgan ovqat puliga qanoat qilardi. O'shanda ham cho'ntagida arzimagan tangalar bor edi. Qamariddin uning boshini silab turib mazax

qildi. O'shanda Asror to'yga borilganda qistirilgan pullardan berkitib qolib, unga keltirib berish lozimligini tushundi.

Bora-bora Asrorning o'zi ham Qamariddinning «ishonchini oqlab», shu yerda o'tiradigan bo'ldi. Qamariddin esa undan boshqa pul so'ramadi.

Hozir ularning joyi bo'sh. Hech kim yo'q. «Hammasi in-inida berkinib yotibdi, – deb o'yladi Asror, – maktabga kelganim yaxshi bo'ldi».

Maktab ko'chasiga burilishganda Asror qadamini tezlatdi.

– Sekinroq borarsan, – dedi Dilfuzaga qarab.

– Bugun ko'rishamizmi? – dedi Dilfuza siniq ovozda.

– Bilmayman.

Dilfuza sakkizinchida o'qiydi, Asror bilan birga maktabga kelib-ketishi, tanaffuslarda gaplashib turishi ayrim o'quvchi, hatto o'qituvchilarda noto'g'ri fikr uyg'otgan, keraksiz mish-mishlarga sabab bo'lgan, oqibatda sinf rahbari qizni tartibga chaqirgan edi. Asror kecha «tarbiyaviy soat» natijalarini Dulfuzaning o'zidan eshitdi. Maktabga yetmay ajralishlariga shu sabab edi. Endi ularni birga ko'rmaganlari ma'qul.

Hozircha ular maktabga bora tursinlar. Biz ularni o'z tashvishlari, xayollari mayliga tashlab qo'yaylik-da, bu yerdan uch chaqirim naridagi rayon militsiyasiga boraylik. U yerda biz kutilmagan uchrashuvga duch kelamiz.

MILITSIYAGA YETIB KELGAN XABAR

*yoxud pensiyaga chiqishni mo'ljallab turgan jinoyatga doir
qidiruv bo'limi nozirining arizasini qaytarib olgani
haqidagi hikoya*

Mayor Maqsud Soliyev yarim tunda operatsiyani yakunlab, uch oydan beri izma-iz quvib kelayotgan o'g'riboshini qo'lga olgach, uyga qaytgan edi. Kech yotganiga qaramay, odaticha erta turdi. Nonushta payti xotiniga qarab:

– Ish bitdi. Va'da bo'yicha bugun arizamga qo'l qo'yishadi.

Ana endi ikkimiz qarilik gashtini suramiz, – dedi.

– Siz-a?.. – dedi xotini kinoya bilan, – uyda o'tira olarmikansiz?

– Bu gaping ham to'g'ri, yengilroq bir ishga kirarman.

Mayor bugun ishga shoshilmasa ham bo'lardi. Lekin tarki odat – amrimahol deganlaridek, choy icha turib ham soatiga bir-ikki qarab qo'ydi. Xotini buni sezib, yengil uf tortdi.

– Boraqoling ishingizga. Yana dunyoni o'g'ri bosib ketmasin, – deb kesatdi. Maqsud Soliyev bunday kesatiqlarga, xotini esa uning hamisha shoshib turishiga ko'nikib qolgan. Agar u ishga shoshilmasa, uyda o'tirsa, xotiniga kesatiqlar uchun vaj qolmaydi. Ana shunda ikkovi chekishni tashlagan kashandaday garangsirab qolsa kerag-ov... Shubhasiz, sobiq mayor ishini qo'msaydi. Xotin esa gap bilan uzib-uzib olishni. To yangicha boshlanajak sokin hayotga ko'nikkunlaricha qiynalishlari aniq.

Tunlari jinoyatchini quvishlar, ayozli kunlarda dildirab yo'l poylashlar, olishuvlar... hammasi tushda ko'rganday o'tadi-ketadi. Hamma qatori shomda televizor ko'radi, hamma qatori yotib uxlaydi. Yelib-yugurmaydi. Ishga kirsakirar, bo'lmasa, choyxonada choyxo'rlik qilib yuraveradi-da.

Aslida, pensiyaga o'tgan yili chiqish kerak edi. Avval o'zi paysalga soldi. Ishdan ketsa, joni uziladiganday bo'laverdi. Keyin yuragi sanchib, nafasi qisilavergach, ariza berdi. Bo'lim boshlig'i ancha oyoq tiradi. Osonlikcha bo'shatmasliklarini mayor bilardi. Boshliq yosh, shoshqaloqroq. Jinoyatchilarni tez qo'lga tushirsa-yu, shuhratga burkansa, yuqoriroqqa ko'tarilsa. Bilakda kuch bor, g'ayrat bor, ammo Maqsud Soliyevdagi tajriba, aql unda yo'q. Shunday bo'lgach, ishongan xodimini osongina pensiyaga kuzata qolarmidi? Bundan uch oy avval mayorning ahdi qat'iyligini bilgach, ko'ndi. Biroq, bir shart qo'ydi. «Kechagi o'g'rilikni o'zingiz ochasiz», deb turib oldi. O'g'rilarning ish usuli mayorga tanish edi: bir ayol eshikni taqillatadi, qolganlar poylab turadi. Eshik ochilgach, bostirib kirishadi. Mana shu oddiy usul, ko'p aql talab etmaydigan o'g'rilik mayorni uch oy gangitdi. Nihoyat, kecha ishga yakun yasaldi. Bugun va'da bo'yicha, arizaga imzo chekiladi.

Nonushta paytida Maqsud Soliyevning dili ravshan edi. Ko'chaga chiqib ishxonaga yaqinlashgani sayin ko'ngli xiralashib boraverdi. Hozir boshliq huzuriga kiradi. Imzo chekiladi. Tamom! O'ttiz yillik mehnatiga shu zaylda yakun yasaladi. Balki boshqarmadan faxriy yorliq berishar, balki majlis chaqirib, tantanali ravishda kuzatishar. Mayor ularni o'ylab qayg'urmaydi. Uning qayg'usi boshqa – o'ttiz yil umrini bergan ish bilan vidolashishda.

Militsiya binosi ko'ringach, oyoqlari yurishdan bosh tortayotganday tuyuldi. «Ishqilib boshliq joyida bo'lmasin», «Ishqilib boshliq ko'nmasin», degan xayollar vujudini qamrab oldi.

Ichkariga kirishi bilan navbatchi militsioner «Boshliq yo'qlayapti, tez kiring» degach, tarvuzi qo'ltig'idan tushdi. «Tamom, ish pishibdi. Boshliq ko'nibdi. Hozir men bilan xayrlashishadi».

Podpolkovnikning xonasida bo'lim boshlig'i bilan yana bir notanish kishi bor edi. Maqsud Soliyev kiringach, podpolkovnik o'rnidan turib unga peshvoz chiqdi:

– Tabriklayman. Rahmat, sizga, – dedi u, mayorni ikki yelkasidan quchib. Keyin joyiga borib o'tirdi-da, notanish kishini tanishtirdi:

– O'rtoq Imomaliyev bizga bir xabar yetkazdilar. Kecha shom qorong'isida besh-olti bezori bir odamni kaltaklab, keyin suvga tashlab yuboribdi.

Bu xabar mayorning g'ujg'on xayollarini bir zumda tarqatib sergak torttirdi. U bir zumning o'zida, pensiyaga chiqayotgan odam libosini itqitib, jinoyatga doir qidiruv bo'limining tajribali noziri qiyofasiga qaytdi. U sarsari xayollarini unutib:

– Qayerda? – deb so'radi.

– «Chehra» degan pivoxona bor-ku, o'shandan yuz metrcha narida. Anhor bo'yida urishdi, – dedi Imomaliyev.

– Bezorilarni taniysizmi?

– Yo'q.

– Jabrlangan odamni-chi?

– Hech qaysisini tanimayman. Pivo ichib o'tirib ko'zim tushdi. Avval urishdi. Odam yiqilganda tepishdi. Keyin bir ni-

malar qilishdi. Ko'zim ilg'amadi. Keyin... odam o'lgan bo'lsa kerak, suvga otishdi.

Ikki yonog'i qip-qizil bu odam Maqsud Soliyevning ko'ziga yomon ko'rinib ketdi.

– Indamay o'tiraverdingizmi pivo ichib, yordamga bormadingizmi?

– Kechirasiz, – dedi Imomaliyev o'rnidan turib, – bezorilarga zarba berish – sizning ishingiz. Men burchimni ado etdim – sizga xabar qildim.

– Shunga ham shukr, katta rahmat sizga, – podpolkovnik shunday deb o'rnidan turdi-da, unga qo'l uzatdi. – Kerak bo'lsangiz yana bezovta qilamiz.

Imomaliyev chiqishga shaylanganda mayor uni gapga tutdi:

– Bezorilar necha kishi edi?

– Besh-oltita dedim-ku!

– Aniqroq bilmaysizmi? Yoshi-chi, yoshlarmi yo kattalarmi?

– Bilmadim, g'ira-shirada ajratib bo'lmadi. Gavdasiga qaraganda bolalar edi.

– Sizdan iltimos, ko'rganlaringizni boshqalarga aytmay turing.

Imomaliyev xo'p, deb chiqib ketgach, podpolkovnik Maqsud Soliyevga ayyorona qarab oldi.


– Nima qilamiz? Prokurorni ogohlantirdik. G'avvoslarni chaqirdik.

– Hozircha shov-shuv ko'tarmay turish kerak. O'ldirilganini bildirmay turaylik.

Podpolkovnik mayorning maqsadini tushundi: qotillar hozir in-iniga kirib ketgan. Jinoiy ish qo'zg'alganini bilishsa hali-beri chiqishmaydi. Shunchaki baxtsiz hodisa, deyilsa, ularning yuzaga chiqishi tezlashadi. Mana shularni nazarda tutib, podpolkovnik uning taklifiga rozi bo'ldi.

– Shu ish bilan o'zingiz shug'ullanmaysizmi? Mana, bo'lim boshlig'i rozi bu taklifga.

Bu gapdan mayor gangidi. Bu yerga kirishdan maqsad boshqa edi. Gap teskari tomonga aylanib ketdi-ku? «Bo'lim



mudiri rozimish, – deb o'yladi mayor, – bu taklif uning o'zidan chiqqandir, hoynahoy, ha, ayyor bola!»

– Men... nima desam ekan?

– Xohlang, taklif o'rnida qabul qiling, xohlang, buyruq.

– Men... ariza berib qo'ygan edim.

Podpolkovnik stoli ustidagi bir varaq qog'ozni olib unga uzatdi.

– Mang olib qo'ying. Hali erta sizga. Endi kuchga to'lib, yetilgan paytingizda ketmoqchimisiz?

– Salomatligim... – Maqsud Soliyev gapini oxiriga yetkaza olmadi. Podpolkovnik uni shart kesdi:

– Shu ishni oxiriga yetkazing-chi, keyin gaplashamiz.

Maqsud Soliyev yo'q, deb turib olishi, kattaroq boshliqlarga murojaat qilishi ham mumkin edi. Lekin, haq gapga ko'chilsa, hozirgi taklif unga yoqdi. Shuning uchun arizaga qo'l uzatganini o'zi ham sezmay qoldi. Hatto chiqar mahalida «yaxshi bo'ldi» degan fikr diliga ravshanlik olib kirdi.

Dahlizda Imomaliyevga duch kelib to'xtadi.

– O'rtoq mayor, ular orasida bir qiz ham bor edi. Chetda turuvdi.

– Indamay turuvdimi?

– Ha, u urishga qo'shilmadi, chetda edi.

– Men bu ma'noda so'ramadim, qiz qichqirmadimi, yordamga chaqirmadimi?

– Yo'q, qichqirsa eshitardim.

– Ertaga ertalab, yo'q sahar soat oltida pivoxona yoniga kela olasizmi?

– Zarur bo'lsa, kelaman.

– Rahmat sizga, yana biror nima esingizga tushib qolsa, telefon qiling, – Maqsud Soliyev shunday deb unga tashrif qog'ozini uzatdi.

«Shunisiga ham shukr deymiz, – deb o'yladi u nari ketgan Imomaliyevning orqasidan qarab. – Ko'rgan ekan, yugurib bormaydimi, odam to'plamaydimi. Ozigina harakati bilan bir bechorani o'limdan saqlab qolardi. Pivoxonada boshqalar ham ko'rishgan janjalni. Lekin, biron-bir insof egasi topil-

magan – birontasi ham o'rnidan qo'zg'almagan. Tag'in ham bunda insof bor ekan, xabar qildi. Boshqalar-chi? Qo'rqqoqmi? Loqaydmi? Ular o'sha odamning o'limida o'zlarini aybdor his qilarmikanlar? «Men o'rtaga tushganimda tirik qolardi», deb vijdonlari azoblanarmikan?»

Maqsud Soliyev o'ttiz yillik ishi davomida odamlarning turfa xilini ko'rdi. U tajribasiga suyangan holda bir narsaga amin bo'ldi: jamiyat uchun jinoyatchidan ko'ra loqayd odam xavfliroq! Jinoyatchi jabrini tortadi, balki to'g'ri yo'lini topib oladi. Loqayd odam esa yangi-yangi jinoyatlarni ko'rganida ham ko'z yumib ketaveradi. Buning uchun uni hech kim ayblamaydi. Loqaydlik degan dard bo'lmaganida qanchadan-qancha odam jinoyat jari yoqasida to'xtatib qolinardi. Maqsud Soliyev mana shu hol bilan sira murosa qila olmaydi.

Maqsud Soliyev xonasiga kirib, balog'atga yetmaganlar bilan ish olib boruvchi bo'limga qo'ng'iroq qilib, pivoxona atrofini nazorat qiluvchi nozirni topdi.

– Ro'yxatingizda turuvchi barcha o'smirlar haqidagi ma'lumotni olib keling, – deb iltimos qildi. Uning ishni o'smirlardan boshlashiga faqat Imomaliyevning ma'lumoti emas, balki ko'p yillik tajribasi ham sabab edi. Bir kishiga ko'pchilik bo'lib hujum qilinsa ko'p holda ular orasida o'smirlar uchrardi. Kalavaning uchini topish ham aynan shulardan boshlanardi. Dastlabki jinoyat qo'rquvi ularni fosh qilib qo'yardi...

Mayor telefondagi gapini tugatmay, bo'lim boshlig'i yosh yigitni boshlab xonaga kirib keldi.

– Ukamizni qanotingizga oling, Tal'at Shoumarov. Ikkinchi kursda o'qir ekanlar. Praktikantlar. Afg'onistonda xizmat qilgan ekanlar. Kuch yetarli. Ammo, bilim bilan tajriba boshqa.

Bo'lim boshlig'i shoshilib turgan ekan, chiqib ketdi. Mayor Tal'at bilan suhbatlashib, uning oilasi, harbiydagi xizmatini so'rab bildi. Keyin boshlanajak ishni ma'lum qildi.

– Bir rejam bor, siz shuni amalga oshirishda yordam berasiz. Hozircha siz student emas, bekorchisiz. Pivoni yaxshi ko'rasizmi? Ichmasangiz ham pivoxona atrofida o'ralashishga

to'g'ri keladi. Oqshomda siz bilan o'sha yerda uchrashamiz. Siz meni tanimaysiz, men sizni.

Ular shu qarorga kelib xayrlashdilar.

Mayor oqshomda uyiga o'tib kiyimlarini almashtirib chiqdi-da, pivoxona tomon yo'l oldi.

Biz mayor bilan pivoxonada hali uchrashamiz. U oqshomga qadar mayda-chuyda ishlari bilan ovora bo'lib tura tursin. Unga qadar maktabga qaytaylik. Asrorning holidaydan bir xabar olaylik.

KECHA QAYERDA EDIK?

*yoxud har ehtimolga qarshi topilgan
bahonalar haqida hikoya*

Birinchi soatdagi darsda Asror o'z mayli, o'z xayollari-ga bandi bo'lib o'tirdi. Unga hech kim xalal bermadi. Aljabr muallimasi – ellikdan oshgan, behad semiz ayol Asror borligi sababli shu sinfga kirishga yuragi bezillab turadi. Asror buni biladi. Ba'zan muallimaga achinadi, ba'zan undan achchiqlanadi. «O'ttiz yildan beri daqqi bo'lib ketgan. Matematika olamidagi oddiy yangiliklarni bilmaganidan keyin pensiyaga qanoat qilib o'tiravermaydimi? Qo'llanmadagi ming yillik nazariyani qaytargani-qaytargan...» Muallima ham o'zini «eskirib» qolganini sezadi. Ba'zan ustalik qilmoqchi bo'lib, dars o'tishni Asrorga yuklar, Asror avvaliga bundan quvonar ham edi. Bir-ikki shunday tajribadan keyin Asror muallimaning maqsadini payqab qolib, uning taklifini rad etadigan bo'ldi. Undan tashqari bolalarda bilim poydevori omonat, Asror qurmoqchi bo'lgan imoratga dosh berolmas edi. Harholda matematiklar tayyorlaydigan maxsus maktab bilan, oddiy maktab bilimi o'rtasida xitoy devori bo'lmagan taqdirda ham, kattagina farq mavjud. Asror dars o'tishga xohish bildirmay qo'ygach, muallima undan cho'chib qoldi. Xorazmiyning ilmiy merosi, Bernullining qobiliyati haqida soatlab hikoya qiluvchi o'quvchidan cho'chisa arziydi. Muallima dars o'taturib

dam-badam Asrorga qaraydi. Biron-bir savol berib qolmasa go'rga edi, deb xavotirlanadi. Bugun ham shunday bo'ldi. Biroq, Asror bunga e'tibor bermadi.

Ikkinchi soat – geografiya. Asror shu darsda muallima-ning qahr o'qiga duch kelishini sezgan edi. O'ttiz beshlarga borib qolgan, ozg'in, serjahl bu ayoldan hamma bezillar edi. U hali-hanuz turmush qurmaganmi, yo erdan chiqqanmi, bolalar bilishmaydi. Ularga bir narsa aniq – muallima yolg'iz. Shu yolg'izlikdan bo'lsa kerak, serjahl. Bir kuni Asror undan jahli chiqib: «Bu xotinning sochidan to oyog'idagi tirnog'igacha zahar» degan edi. Shu ayol Dilfuzaning sinfiga rahbar. Dilfuzani «Asror bilan yurma», deb shu siquvga olgan. Kecha darsdan keyin Dilfuza kinoteatr oldida Asrorni kutib turgan edi. Asrorni ko'rdi-yu, yig'lamoqdan beri bo'lib, ilmiy bo'lim mudiri xonasidagi mashmashani aytib berdi. «Davlat bizga falon so'm sarflarmish, biz esa sanqib yurganmishmiz. O'g'il bola bilan yurishga ertamish. Voy tavba, o'g'il bola bilan birga o'qigandan keyin, tanaffusda ham gaplashib bo'lmaydimi? Ichi qozon kuyasidan ham qora-da, uning. O'zi birov bilan yurmaydi, shunga bizni ko'rolmaydi...»

Asror qizning gaplarini eshitib hayron bo'ldi. Ularning ko'ngliga shunaqa qora fikr kelgan ekan, nima uchun qizni qiynashadi? Nima uchun uning o'ziga hech nima deyishmaydi. Agar yomon niyatda yurishgan bo'lsa, aybdor qiz emas, avvalo bola bo'lmaydimi? Bu savolga Asror tez javob topdi. U – a'lochi, maktab faxri, matematika, fizika, kimyo olimpiadalarida birinchi o'rinni olib bergan. Badiiy havaskorlarning ishi Asrorsiz bitmaydi. Eng muhimi u – oltin medalga da'vogarlardan biri! Unga gard yuqishi mumkin emas. Dilfuzaga esa mumkin. O'qishi o'rta. (Balki bu yil sakkizinchini bitirishi hamon biron bilim yurtiga jo'natish harakatiga tushib qolishar?) Eng muhimi, u bolalar uyida tarbiya ko'rib kelgan. Onasi vafot etib, otasi avariya uchrab yotib qolgach, u singlisi va ukasi bilan ikki yil bolalar uyida yashadi. Sal ulg'aygach, otasi «menga qarasin» deb, uni uyga olib keldi. Shunday ekan, nima yomonlik bo'lsa, faqat shu «bevosh» qizdan chiqadi.

Asror sinf rahbari bilan ilmiy bo'lim mudirining xulosasini aynan to'g'ri fahmlagan edi.

Asror taxmin qilganiday, muallima birinchi bo'lib uni yo'qladi.

– Xo'sh, Mirisayev, Lotin Amerikasi mamlakatlarining tashqi bozorga qaramligi nimalarda yaqqol ko'rinib turar ekan?

Muallimaning kinoyasi Asrorga og'ir botdi. Qo'pol gapirib yubormaslik uchun labini tishlab, indamadi. Muallima deraza ortida chayqalayotgan daraxt shoxlariga qarab o'tirganicha savoliga javob kutdi. O'quvchisidan sado chiqavermagach, ko'zini tashqaridan olmagan holda so'radi:

– O'rtoq, Mirisayev, qulog'imiz sizda. Transport shoxobchalari konfiguratsiyasidan ko'rinarmidi?

Achchiqni achchiq, zaharni zahar kesadi deganlariday, Asror chidab turolmay, o'zi bilmagan holda kinoya bilan javob qaytardi:

– O'rtoq A'zamxonova, baxtsizlikni qarangki, men Lotin Amerikasi mamlakatlarining tashqi bozorga qaramligi bilan qiziqib ko'rmabman.

– Shunaqami? – muallima shunday deb unga o'girildi, lablari pirpirab ketdi, – unda nimaga qiziqdingiz, o'rtoq Mirisayev?

– Ichki bozorga qiziqibman, o'rtoq A'zamxonova.

Kinoya o'yini dovuldan darak berardi. Shu sababli Asrorning gapiga piq etib kulgani qizni bolalarning o'zlari turtib, tinchitishdi. Muallima sinfdagi ahvolga e'tbor qilmadi. Hozir u uchun eng muhimi, Asror. Qotmadan kelgan, qora kipriklari qizlarnikiday uzun, ko'zlaridan aqlliligi sezilib turgan bu mo'min bolaning bu qadar beadabligi uni lol qoldirgan, yo'q, lol qoldirgan, desak yumshoq gapirgan bo'lamiz, uni darg'azablik minorasiga chiqarib qo'ygan edi. Muallima kechagi «tarbiyaviy soat»dan Asrorning xabar topganini bilib, arining uyasini kavlab qo'yganini sezdi. Sezishga sezdi-yu, ammo vaqt o'tgan edi. O'yinni o'zi boshladi. Evini qilib, yutib chiqmasa, bolalar oldida obro'yi sariq chaqa bo'ladi.

– Yaxshi, – u barmoqlaridagi titroqni yashirish uchun musht qilib tugib oldi, – unda ichki bozorda ahvol qanday ekan?

Asror unga tik qaramoqchi edi, eplolmadi. Muallimaning gezargan lablaridagi titroqni ko'rdi-yu, ko'zini olib qochdi. Avvalgi shashtidan asar ham qolmadi.

– Yomon ekan, – dedi boyagidan pastroq ovozda, – ayniqsa pattachilari yomon ekan. Aqli yetmagan ishlarga aralashaverarkan. Sen bu yerda sotma, sal naryog'da savdo qil, deb g'alva ko'taraverarkan.

Bolalar buni hazil deb tushunib, kulishdi. Ammo o'q nishonga tekkan edi. Muallima titrab ketdi. Asror tomon bir qadam qo'ydi-yu, yana to'xtadi. O'quvchisining bu qadar badaxloqligi undagi g'azab daryosini toshirib yuborgan edi.

– Siz charchabsiz, dam oling yoki davolaning, – dedi muallima so'nggi so'ziga urg'u berib.

– Biz kecha yaxshi dam olganmiz. Bir emas, ikkita kino ko'rdik. Bor charchog'imiz chiqib ketdi, – Asror shunday de-yishga dedi-yu, «kinoni durust aytdim» deb o'z-o'zidan mamnun bo'ldi.

– Sizga ruxsat, siz... bo'shsiz, – muallima shunday deb eshikni ko'rsatdi. Uning boshqa iloji yo'q edi – o'yinning mag'lubiyat bilan yakunlanishi aniq bo'lib qolgan edi.

Asror madaniyatli kiborlar kabi bosh egib, ta'zim qildi-da:

– Zavuchning xonasida ko'rishguncha xayr, – deb chiqib ketdi. Sinfda kulgi ko'tarildi. Muallima bolalarning bu gaplar-ni oddiy maynavozchilik, deb bilganlaridan bir tomoni qu-vondi. Agar ular Asror aytgan gaplarning mag'zini chaqishsa bormi... Bozordagi pattachiga tenglashtirib qo'ydi-ya... Shu fikr miyasiga yana to'qmoqday urilib, Alining alamini Validan oldi – stolga musht urib «jim!» deb baqirdi.

Asror qilib qo'ygan ishining yaxshimi-yomon ekanini bil-may, gangigan bir ahvolda koridorda asta-sekin yurib borar-di. Unga kechagi fojining o'zi yetarli edi. Nima qilardi o'qi-tuvchi bilan o'chakishib... Birdan Asrorning fikri yorishib ket-di: to'g'ri qildi o'qituvchini haqoratlab. Axir kechagi g'alvaga

aralashishiga bosh sababchi o'sha-ku? Asror kecha darsdan keyin uyiga borib dam olmoqchi edi. Tuni bilan mast-alast boyvachchalar xizmatida bo'lish uni ancha horitgan edi. Qamariddin bilan uchrashish, unga qo'shilib sanqib yurish rejasi yo'q edi. Kinoxona yaqinidan o'tayotib qarasa, Dilfuza o'shalar bilan turibdi. Esi yo'q qizchaga u yerda nima bor ekan, deb yaqinlashib, mudir xonasidagi mashmashadan xabar topdi. Qamariddinga uchragan bola osonlikcha ketarkanmi? Shu-shu ularga ilakishib, oqshomga qadar yuraverdi. Keyin Qamariddin pivoxonaga birrov kirib chiqqach, anhor yoqasida o'tirishdi. So'ng bir odam pivoxonadan chiqdi. Sigaretalari qolmagan edi. Qamariddin bilan Salim uning yo'lini to'sishdi. U odam «kutib turibsanzlarmi, haromilar» deb so'kdi. Shunda Qamariddin u odamni bir urdi. U odam esa Qamariddinni kalla qilib uchirib yubordi. Salim sergakroq ekan, sakrab turib tepdi. U odam esa pichoq chiqarishga ulgurib, Salimning sonini tilib yubordi. Shundan keyin hammalari yopirilishdi. Asror bo'lgan voqeani bir-bir eslab, «bosh sababchi – muallima» degan qarorga keldi.

U hovliga chiqaverishda komsorgga to'qnash keldi. Pedagogika institutida sirtidan o'qiydigan bu yigit, Asrorning nazarida, sal hovliqmaroq edi. Ishining tayini yo'q, ammo gap desa qop-qop topib beruvchi bu yigitga Asrorning hushi yo'q, shu sababli komsorgning jamoat ishlariga tortishga urinishlari zoe ketardi.

– Asrorbek, yaxshi bo'ldi uchratganim. Raykomsomol rejani sal o'zgartirdi. Ertaga boshqacharoq qilib o'tkazamiz.

– Nimani? – deb so'radi Asror.

– Iye, esingdan chiqdimi? «Xorazmiy – kibernetika otasi» degan kecha o'tkazamiz, deb kelishgan edik-ku? Buning o'rniga «Lomonosov – ulug' olim» degan mavzuda suhbat o'tkazib berasan.

Asror peshonasini trishtirdi. Asrorning sinfda dars o'tib, Xorazmiy haqida gapirganini eshitgan komsorg hovliqib kelib, uni savolga tutgan edi.

– Rostdanmi? – deb so'ragandi u o'shanda xuddi tomdan tarasha tushgandek qilib.

- Nimani so'rayapsiz? - deb hayron bo'lgan edi Asror.
 - Xorazmiyni-da, kibernetikani yaratgani rostmi?
 - Eshitmaganmidingiz? Hozir «algebra» deyiladigan «aljabr» fanini tartibga keltirib, kibernetika asoslarini yaratgan.
 - Qachon?

- Ming yildan oshdi, - Asror «bu odam chindan johilmi yo laqillatyaptimi», deb qarab qo'yib, shunday qo'shimcha qilgan edi: - Kibernetikani algoritm, algorifm degan iboralari Xorazmiy sharafiga qo'yilgan. Yevropaliklar «al Gorezmi» deb yurib, borib-borib «algoritm»ga aylanib ketgan.

- Uni qara-ya! Boylik-ku, bu! Unga bag'ishlab kecha o'tkazamiz. Sen ma'ruzachisan. Men raykomning ruxsatini olib beraman.

...Bu suhbat Asrorning xayolidan ko'tarilgan edi. Komsorg esa unutmagan ekan. Lekin... mavzuning o'zgarishi...

- Ma'ruzang ertalabgacha tayyor bo'lsin. Raykomdagilar «Kopernik bilan Mendeleyevni ham qo'shinglar», deyish-yapti. Ma'ruzangga qo'shib qo'y, xo'pmi?

- Ularning kibernetikaga nima aloqasi bor?

- Ha, endi raykom aytgandan keyin qo'shib qo'yaver-da. Ma'ruzangni oldin bizga ko'rsatasan, komitetda ko'rib chiqamiz.

- Komitetdagilar Xorazmiyni bilishadimi? - dedi Asror, uning gapidan g'ashi kelib.

- Bilsa-bilmasa ma'ruza ko'rib chiqilishi shart. Ayniqsa, hozirgi kunda har bir ma'ruza siyosiy jihatdan puxta bo'lishi zarur.

- Men buni eplolmayman. Lomonosovning hayotini bilmayman. Agar gapiradigan bo'lsam, shu paytgacha Xorazmiyni bilmaganinglar uchun tanqid qilaman. Kopernik bilan Xorazmiyning farqiga bormaydigan raykomingizni ham ayta-man. Bu yoqda hali Forobiy turibdi. Ibn Sino, Ulug'bek, Ali Qushchi...

- To'xta-to'xta, bularni bilmasligimizga komsomol komiteti aybdormi, nimaga tanqid qilarkansan?

- Hamma aybdor. Bularni bilmay turib yaxshi bilim olib bo'lmaydi.

– Sen bu gaplaringni qo'y. Ma'ruza qilasanmi?

– Yo'q, qo'limdan kelmaydi.

– Unda komitetda o'zingni muhokama qilamiz.

– Qanday qilib? Axir men hali komsomolga a'zo emasman-ku?

– Yo'g'-e, nimaga o'tmading?

– Hali qabul qilganingiz yo'q, – Asror shunday deb istehzo bilan kuldi-da, uning yonidan o'tib, hovliga chiqdi. Baqateraklar orasiga qo'yilgan o'rindiqqa borib o'tirdi. Shamol terak barglarini beayov yulib xiralik qilardi. Qirq yildan beri charchamay turgan barabanchi pioner haykali atrofida chang to'zitadi. Baraban cho'plari o'n yillar avval sinib ketgan, har yili kumush rangga bo'yaluvchi bola nigohini uzoq ufqqa tikkanicha shamolning qilig'iga pisand qilmaydi. Shu yerga o'rnatilgandan beri necha bo'ronni, do'l-yomg'irni ko'rmagan bu haykal. Xashaki shamol nima degan gap uning ko'rganlari oldida.

Tanaffusga qo'ng'iroq chalingach, Asror «sinfga kirsammi-kirmasammi, yo uyga ketaversammikin» deb ikkilandi. Endi turib yurgan paytda shoshilib kelayotgan sinfdoshi Otaullani ko'rib, to'xtadi. Sochi jingalak, o'ziga oro berib yurishni yaxshi ko'radigan Otaulla o'zini Asrorga yaqin tutardi. Hozir shoshilib kelishi ham shundan.

– Nima qilib qo'yding, boss? – dedi u Asrorning yelkasiga turtib. – Qilig'ingni boshqa o'qituvchiga qilmaysanmi? Bu geografiya, bu yil oxirgi marta kiradi. Baho attestatga ketadi-ya! Shunga o'chakishasanmi?

– Nima qipti, – dedi Asror yelka qisib. U hozir bu haqda gaplashishni istamasdi. Shu sababli gapini qisqa qilmoqchi edi, aksincha bo'lib, Otaullaning gap xaltasini ochishga sabab tug'dirib berdi.

– Boss, bu nima deganing? Institutda hisobga olishadi o'rtacha bahoni.

– Institutga kirsam uning bahosisiz ham kiraman.

– Ha, senga gapirish oson. Kallang bor. Ammo... xafa bo'lma-yu, sen uchun kechirim so'rab qo'ydim.

- Xafamasman, berdim senga o'sha «besh»ni.

- E, besh kerakmas, «to'rt» ham teshib chiqmaydi. Menga shuning geografiyasi kerak ekanmi? Menga Braziliya iqtisodining nima zarurligi bor? O'zi funksiyalariningning «maksimum nuqtasi», «minimum nuqtasi» deganlarning manavi yerimga kelib qoldi, - Otaulla shunday deb ko'rsatkich barmog'ini bo'g'ziga bigiz qildi. - Lekin ilojim yo'q. Attestatni yaxshilab narxozga bormasam, batkam kallamni oladi. Men attestatni yaxshilasam bas, qolgani batkamning ishi. Batkamni bilasan-ku, boss?

Uning otasini, ikki qavatli do'kon mudirini kim bilmas ekan? O'quvchilar ham, muallimlar ham yaxshi bilishadi.

- Menga nima uchun diydiyo qilib qolding? - dedi Asror uning maqsadini tushunmay. - Meni urishgani keldingmi yo boshqa darding bormi?

- Vey, boss, senga gap yoqmaydigan bo'lib qolibdi. Men seni geografiya bilan yarashtiraman. Sen kampingga aytib qo'y, meni ko'p qiynamasin. Tenglama-teoremalariga baribir aqlim yetmaydi. Mening kelajagim tayin: karra jadvalni bil-sam bo'lgani, nima qilaman boshimni qotirib.

- Bo'пти aytaman.

Boshqa payt, boshqa kayfiyat bo'lganida Asror Otaullani ayamay, bu ochiq savdosi uchun aytadiganini aytardi. Hozir bir ijirg'anib qo'ydi-yu, gapni chuvalashtirmadi. Uning osonlik bilan ko'nganiga Otaulla sevindi.

- Maladessan-da, boss, ketvorgan bolasan. Ertaga yigirma beshni beraman.

- Qanaqa yigirma besh?

- Yig'ishyapti-ku? To'yga... sen aytuvdingmi?

Asrorning ko'zlaridan o't chaqnab ketdi. «Aytganini qilib-di-da, axir. Menga pul yig'ib berishmoqchi! Voy, boyvochchalar-e!..» U tez-tez yurib ketdi. Sinfga kirib Zoirni yoqasidan olmoqchi edi. Yetib borguncha darsga qo'ng'iroq chalindi. Asror kitob-daftarini ko'tarib chiqib ketishga ham ulgurmad.

Adabiyot o'qituvchisi jurnalni stol ustiga qo'ydi-da, duma-loq ko'zoynagini burni uchiga qo'ndirib, sinfga razm soldi.

- Demak, gap bunday: o'ttizinchi yillar adabiyotini o'rganishni kechiktiramiz. RayONOdan topshiriq bo'ldi, bugun siz bizga «Baxtli bolalik» degan mavzuda erkin insho yozib berasiz.

- Hamma yozadimi?

- Bu nima deganlari bo'ldi? Zoirali bo'tam, sizga alohida taklif lozimmi, yo?

- Inshoni erkin deyapsiz-ku?

- Nomi shunaqa, bo'tam. Qani, qog'oz olib, ish boshlanglar. Vaqt ketmasin.

- Samad aka, biz bolalikdan o'tdik-ku, nimasini yozamiz?

- Hali o'tib bo'lganingizcha yo'q, Zoirali bo'tam, endi o'tyapsiz. Qilayotgan ishingizga o'zingiz to'g'ri baho bera olgan oningizdan boshlab bolaligingiz bilan vidolashasiz. Ha-ha, aynan vidolashasiz. Bolalik sizning xotirangizga ko'chadi. Vaqti kelib, bu xotira vijdon azobiga soladi, vaqti kelib nimalarnidir qo'msashga majbur qiladi. Xullas, sizni har kuyga soladi. U bilan vidolashishga oshiqmang. Bolalik - hayotning asal pallasini, undan ko'proq bahramand bo'lishga intiling. Asaldan keyin turli achchiqliklarga duch kelasiz.

- Samad aka, shularni yozsak-chi? «Baxtli bolalik» emas, «Alvido, bolalik» desak-chi?

- Bo'tam, ko'p aqlli bolasiz-ku, biroq ayrim vaqtlarda kaltafahmlik qilib qo'yasiz. Tushuning, «Baxtli bolalik» menga emas, rayONOGa kerak. Shu bois men bilan tortishmang. Ishni boshlang.

Bolalarni sizlab, yumshoq gapiruvchi bu odam ko'pincha o'z ishini o'zi qiyinlashtirardi. Bolalar uni bo'shang deb bilib, baravar tortishishdan tap tortishmasdi. Ba'zan butun dars tortishuv bilan o'tardi. Kitob o'qishni jonidan ham yaxshi ko'radigan Zoir ko'pincha bahs boshlab qolardi.

Samad aka bugungi bahsga barham berish uchun deraza oldiga bordi-da, qo'lini orqasiga qilib, hovliga tikilib oldi.

Sinfda shivir-shivir, qog'ozlar shitiri boshlandi.

Asror daftar orasidan ikki varaq yirtib olib «Baxtli bolalik» deb yozdi-da, o'yga toldi:

«Zoir to'g'ri aytdi. Insho erkin bo'lganidan keyin hammani majbur qilishning nima keragi bor? Hamma o'zini baxtli deb hisoblaydimi? Ana, Turob, akasining jasadini Afg'onistondan olib kelishdi. Onasi bunga chidolmay jinni bo'lib qoldi. Hozir jinnixonada. Yetti bola otasining o'ziga qolgan. «Men baxtliman...» deb boshlaydimi inshosini. Manzura-chi? Otasi ketib qolgan. Onasi ikkovi turadi. U nima deb yozadi? Otaullaga ham qiyin. «Men baxtliman, chunki otamning puli ko'p» deya olmaydi. Aslida-ku, ular pulning ko'pligini baxt deb bilishadi. Lekin ochiq ayta olishmaydi. Pul dengiz bo'lib mavjlanadi ularning uyida. Biroq, o'zlari xohlaganicha ishlata olishmaydi. Bu baxtmi yo baxtsizlik? Harholda nima deb yozarkin, u boyvachcha? Bunaqa gaplarga Zoir usta, qotirib tashlaydi. Umuman, baxtli bola u. Ota-onasi injener, uyda o'zi-yu singlisi. Gazetaga xabar yozadi. Nima istasa, shunga erishadi. Ergash-chi? Otasi aravakash. Dars tugashi bilan somonbozorga yuguradi. Shuni yozadimi? Agar Dilfuzalarga ham shu mavzu berilsa u nimani yozardi? Ikki oyog'i qirqib tashlangan otasining injiqliklari, onasiz qolishning naqadar baxtsizlik ekanini bayon qiladimi? Xo'sh, o'zim-chi? O'zim nimani yozay, kechagi voqeanimi yo otam bilan to'y-ma-to'y yurishimnimi? Otamning o'yinchi xotinga suykalishinimi? Ming la'nat!» Asror xayoliga kelgan fikrdan titrab, o'zini tutolmay qoldi. Qalamni stol ustiga taq etib urdi. O'ziga tikilgan nigohlarni tuyib, boshini egdi. Ich-ichida nimadir qizib, ko'kragini yondirdi. U sinfda o'tira olmasligini sezib, shart o'rnidan turdi-da, chiqib ketdi.

Eshikni yopa turib: «Boss kasal bo'p qopti», degan ovozni eshitdi.

Asror hech narsaga qaramay, ko'chaga chiqdi. Kinoteatr qarshisidan o'ta turib yana o'sha joylariga qaradi. Ne ko'z bilan ko'rsinki, Qamariddin sigaret tutatib o'tirardi. Yonida ikki yugurdagi. Qamariddin Asrori ko'rib imladi.

- Kecha qayerda eding?

- Kinodaydim.

- Vo, professor bu, eshitdilaringmi? Bashkasi ishlaydi. Sen kecha meni ko'rganing yo'q, demak. Qayoqdan ham

ko'rarding? Kecha men yo'lda edim. Andijondan keldim bugun ertalab. Poyezddan endi tushib turibman. Mana biletim, - u shunday deb ko'krak cho'ntagidan poyezd biletini olib ko'rsatdi. «Demak, ertalab vokzalga borgan, biletini o'sha yerda kimdandir so'rab olgan, yo o'margan. Ishi pishiq buning», deb o'yladi Asror.

- Demak, gap bunday, bratishka, hamma qayerdaligini yaxshi biladi. Kecha hech qanday voqea yuz bermadi. Bugun sabanto'y.

- Mening vaqtim yo'q.

- O'zing bilasan. Bilib qo'y: bashkangni yo'qotma. O'zingga qiyin. Meni hech qanday qarmoq ilintira olmaydi. Sen maktabda professor bo'lsang, men u yoqda... - Qamariddin barmoqlarini panjara qilib ko'rsatdi, - akademik bo'lib kelganman. Omon qolaman, desang, mendan uzoqlashma.

- Salimning yarasini bog'ladingmi?

- Salimning ishi besh, undan xavotir olma. Sen faqat qo'rqmasang bas, bu yog'i o'key bo'ladi.

Qamariddinning gapidan keyin Asror o'ylanib qoldi. «Hozir bu yerdan ketib qayoqqa ham borardim. Uyga qaytsam hisob berishim kerak. Bir o'zim shaharda sanqib yuramanmi?» Shu fikrga kelib, Qamariddinning yonidan joy oldi.

Endi ularni shu yerda qoldiraylik-da, mayor Maqsud Soliyev bilan uchrashaylik. Tajribali izquvar rejasi bilan tanishaylik.

ASHYOVIIY DALIL

*yoxud murdaning suvdan chiqarib olinishi
haqida hikoya*

Pivoxonada odam ko'p. Pivo hidi, sigaret tutunidan nafas qaytadi. Otni ertaroq qamchilaganlar stollar atrofida, kechroq qolganlar duch kelgan yerda tik turganicha nafs balosining ko'nglini ovlash bilan band. Tal'at shundaygina konditsioner yaqinidagi stoldan joy olgan. Stol usti shishaga to'lgan. Ayrim

shishalar bo'sh, ayrimlaridagi pivo «ozodlikka chiqishni» kutib, mute odamday payt poylayapti.

Maqsud Soliyev ichkari kirib atrofga tezgina ko'z yugurtir-di. Tal'atda nigohini to'xtatmadi. Yonidagilarga gap uqtirayot-gan Tal'at ham Soliyevni ko'rib ko'rmaganga oldi. «Nimalar-ni gapirayotibdi ekan, hammani o'ziga qaratib olibdi-ku? Yo «qamoqda ko'rgan-kechirganlarinimi?»

Peshtaxta atrofida odam ko'rinmaganidan bildiki, pivo yo'q. Shunday bo'lsa ham sotuvchiga yaqinlashib, pivo so'radi.

– Pivo sop bo'ldi, okam, bu yog'ini tortib qo'yishgan. Erta-ga vohliroq kelas, – dedi yuzlari bo'riqib qizarib turgan yigit-cha. Narida pul sanayotgan yoshi kattaroq kishi Soliyevga bir qarab oldi-yu, ishini xotirjam davom ettirdi.

– Zorimiz bor, zo'rimiz yo'q, iloj qancha, – dedi Maq-sud Soliyev nari ketarkan. Eshik og'zida tarbiyasi buzilgan o'smirlar bilan ishlovchi nozirni ko'rib, ko'zini olib qochdi. Yosh leytenant yigit buning ma'nisiga yetmay, mayor bilan so'rashdi. Yaxshiki kaftini chakkasiga olib kelmadi. Endi in-damay chiqib ketish mumkin emas. Qaytish kerak. Ayb ma-yorning o'zida. Tal'atni ogohlantiribdi-yu, tarbiyasi buzilgan o'smirlarning hujjatlarini olib kelgan leytenantga kunduzi bu haqda hech nima demabdi.

Maqsud Soliyev leytenantni qo'ltig'idan oldi.

– Mening kimligimni bu yerdagilarning bilmasligi durust edi, – dedi u, – bo'lar ish bo'ldi. Pivoxona xo'jayiniga so'zingiz o'tadimi?

– O'tganda qandoq. Hozir aytaman. Sizni yurfakdagi dom-lam deb qo'ya qolaman.

Leytenant sotuvchi tomon bordi-da, kattasiga nimadir deb shipshidi. Katta yigitchaga gapirmadi hisob. Kishi bil-mas imo qilib qo'ya qoldi. Yigitcha shoshilganicha peshtax-ta ortidan chiqib, burchakda ustiga shishalar terib qo'yilgan stolni bo'shatdi-da, artib, kirroq bo'lsa ham dasturxon yozdi. Ichkaridan ikkita stul olib chiqib qo'ygach, qulluq qilganicha mayorga joy ko'rsatdi.

Pivoxona kattasiga leytenant yana bir narsa degach, o'tirmay chiqib ketdi. Katta esa to'rt shisha pivoni keltirib qo'ydi-da, mayor bilan qo'shqo'llab so'rashdi.

– Tanimasni siylamas deydilar. Sizga o'xshagan hurmatli akaxonlarga olib qo'ymasak, uyalib qolamiz. Qani, olsinlar, – u shunday deb bir paytlar oppoq bo'lgan xalati cho'ntagidan ikkita qurut chiqarib qo'ydi. Mayor cho'ntagidan pul olmoqchi edi, «qattiq xafa bo'l»ishini aytib, qulluq qila-qila joyiga qaytdi.

«Bu iltifotlar qo'rquv natijasimi yoinki «arzimas bir iltimos»ning muqaddimasimi? – deb o'yladi mayor uning izidan qarab. – Bugun to'rtta pivo qo'ydi. Ertaga to'rtta emas, kerak bo'lib qolsa, qirqta qo'yadi. Dasta-dasta pullarni taxlab bir uchini ko'rsatadi-da, o'sha «arzimas iltimos»ini aytadi. Karra jadvaldan boshqasini bilmaydigan shu dumbul o'g'li yo ukasining «yurfakda o'qishga ishtiyoqi baland»ligini bildiradi. Chindan domla bo'lsam nima qilaman – ko'naman. Ko'nmaydiganlar ham bormi? Bor bo'lsa bilimsiz, iqtidorsiz, tuyg'usiz studentlar qayoqdan yog'ilyapti? Domlalariga bu bilimsizlar ikki tomonlama foyda: ham kirishda ishlab olishadi, ham besh yil o'quv davomida sog'in sigirdek sog'ishadi. Bilimli boladan ularga nima naf bor? Otasining puliga o'qiyotgan bolada insof, vijdon degan narsa qolarmikan? O'qishni bitirguncha poraxo'rlik, yulg'ichlik yo'llarini to'la-to'kis egallab olmaydimi? Jinoyat ko'payayapti, deymiz, qayoqdan paydo bo'lyapti, bu nusxalar, deymiz. Axir ularni o'zimiz shunday tarbiya qilyapmiz-ku? Akasining puli evaziga o'qiyotganini ko'rgan uka maktabda durust tarbiya, bilim oladi, deb kim kafolat beradi?»

Mayorning xayolidan shu gaplar o'tib, pivo ichgisi kelmay qoldi. Lekin ichishga majbur. Katta qarab-qarab qo'yayapti. Maqsud Soliyev stakanga pivodan quyib simirdi.

«Bu ahvolda jinoyatni kamaytirib ham, oldini olib ham bo'lmaydi, – deb o'yida davom etdi mayor. Kechagi marhumni ham, qotillarni ham bu yerdagilarning ko'pi ko'rgan, ammo so'rasang, bez bo'lib turib olishadi. Ba'zilar qo'rqanlaridan aytishmaydi, ayrimlarning sarson bo'lishga toqatlari yo'q.

Qiziq... agar hozir tursam-da: «o'rtoqlar, kecha besh-olti bezori bir odamni o'ldirib ketibdi. Militsiya ularni qidirmaydi ham, topmaydi ham», desam nima qilisharkin? O, g'alayon ko'tarvorishar? «Nimaga tutmaysiz, tutishga majbursiz, bu sizning vazifangiz...» deb da'vo qilishadi. Bizga yordam berishni istamagan odam ertaga o'sha bezorilar qo'lga tushib qolsa-chi? Ko'ring tomoshani...»

Mayor beixtiyor Tal'at o'tirgan tomonga ko'z tashladi. Tal'at ham u tomon qarab-qarab qo'yib gapirardi. Bir mahal o'rnidan turdi-yu, to'g'ri mayorga qarab yurdi.

- Amaki, bir o'zingizga to'rta pivo ko'plik qilar, ikkitasini menga soting, - deb uch so'm uzatdi. Keyin tusini o'zgartirmagan holda qo'shib qo'ydi: - tanishib oldim, kunda-shundalar ekan.

- Uchtasini ola qol, ichmayman, - mayor shunday deb shishalarni surib qo'ydi-da, Tal'at uzatgan pulni oldi.

Tal'at uzoqlashishi bilan pivoxona egasi yugurib keldi:

- Nima bo'ldi, domlajon?

- Ko'ngli tortib qolibdi. Menga ko'plik qiladi. Sotib yubora qoldim, - mayor shunday deb unga pulni uzatdi. U indamay olib, cho'ntagiga soldi. - Siz xijolat chekmang, - dedi mayor yumshoq ohangda, - men shunchaki chanqoqbosdiga kirgan edim. Sizni ham urintirdim, uzr.

- Qiziqmisiz, domlajon, siz tuya so'yib chorlasak ham kelmaydigan odamsiz, bir kep qopsiz, - katta «men hozir» dedi-da, ichkari kirib ketdi. Dam o'tmay ikkita shishani gazetaga o'rab olib chiqib, stol ustiga yotqizib qo'ydi.

- Uyda oyoqni uzatib bir xumordan chiqasiz. Bu yerda, manavilar oldida ishtaha ham bo'g'ilib ketadi.

Mayor unga minnatdorlik bildirdi-da, Tal'atga imo qilib so'radi:

- Bu yigit ko'p ichadimi, deyman, yana g'alva-palva ko'tar-masaydi.

- Bu yigitni bilmayman, bugun paydo bo'lib qoldi. Ammo sheriklari g'alva chiqarishmaydi. Molday ichishga-ichishadi-yu, ammo indamay ketishadi.

– Mijozlaringizni bilar ekansiz-da?

– Kasbimiz shu-da.

– Ishqilib tinch ketishsa bas, zamon og‘ir hozir. Sizga ham gap tegib qolishi mumkin.

– Tinch ketishadi. Biz tomonlarda g‘alva yo‘q. Ikki yildan beri shu yerdaman, bir marta ham g‘alva chiqmadi.

Mayor yana minnatdorlik bildirdi-da, tashqari tomon yurdi. Katta uni ko‘chaga qadar kuzatib, qo‘shqo‘llab xayrlashdi.

– Ertadan keyin bir keling, domlajon. Chimkentnikidan olib kelib qo‘yaman. Bilasiz-a, hozir eng zo‘ri shu Chimkentniki. Og‘aynilar bir-ikki yashik berib turishadi. Sizga o‘xshagan akaxonlarga deb olib qolamiz.

«Demak, Chimkent pivosidan boshlab, keyin Arman konyagiga, balki fransuzlarning «Napoleon» konyagiga o‘tsak kerak. Ishimiz «besh»ku», deb o‘yladi mayor g‘ijjib. U anhor yoqalab yurdi. Pivoxonadan yuz qadamcha uzoqlashgach, orqasiga o‘girildi. Ichkarida o‘tirganlarga bemalol ko‘rinadigan yer. Ertaga tongda Imomaliyev joyni aniqroq ko‘rsatishi mumkin. Mayor stolbaga yaqinlashib tepaga qaradi: lampochka sindirilgan. «Qachon sindirilgan, kechami yo ancha bo‘lganmi? Kim biladi buni? Hech kim. Faqat ekspertiza aniqlab berishi mumkin... Demak, qorong‘i bo‘lgan... Yo‘q, kecha oydin edi-ku? Qotillik barvaqtroq sodir bo‘lgan. Pivoxona qorong‘i tushguncha ishlamas. Tal‘at so‘rab bilsa yaxshi edi...»

Mana shu ohista oqayotgan suv ostida bir odam yotibdi. Uning gunohi nima edi? Nima uchun besh-olti bezori uni kop-tok qilib tepdi? Ularni vahshiylikka nima da‘vat etdi? Unda alamlari bor edimi? Yoki shunchaki yo‘lto‘sarlik qilishganmi? Yo‘q, yo‘lto‘sarlik bo‘lsa, bir-ikki urib tarqalishardi. O‘ldirib suvga tashlashga boshqa muhimroq sabab kerakdir. Bugun tunda g‘avvoslar murdani olib chiqishadi. Yonida biror hujjati bo‘lsa-ku, durust. Bo‘lmasa, yaqinlari qidirguncha noma‘lumligicha qola turadi.

Mayor Soliyev shularni o‘ylab borardi. «Agar g‘avvoslar kunduzi ish boshlashganda pivoxonada hozir barcha shu voqea haqida gapirayotgan bo‘lardi. Bugun qotillar bu yerga

yaqinlashishmagan. Agar murda topilgani, militsiya ish boshlaganidan xabar topishsa mutlaqo yaqinlashishmaydi bu yerga». Mayor «Qotillar shu atrofda yashaydigan odamlarmi yo marhumning izidan tushganlardanmi?» degan savolni ko'p o'yladi. Uning fikricha, qotillar shu atrofda o'ralashib yuradigan bebosh yoshlar bo'lishi kerak. Chunki qasddan qilindigan qotillik uchun xoli joy tanlanadi. Bu yer - yo'l usti, sal narida gavjum pivoxona. U odam pivoxonadan chiqqan. Pivoxonaga esa faqat shu yo'ldan borib-qaytiladi. Yo'ning nari-gi boshi kavlab tashlangan. Hozircha Maqsud Soliyev qat'iy qarorga kelganicha yo'q. Marhumning shaxsi aniqlangandan keyingina bir xulosaga kelish mumkin.

G'avvoslar tungi soat uchda ish boshlashdi. Anhor sokin oqardi, shuning uchun ish uzoq cho'zilmadi. Murdani ekspertizaga jo'natib, anhor yoqasida mayorning o'zi qoldi. Tongda bu yerga Imomaliyev kelishi kerak. U marhum kaltaklangan joyni aniqroq ko'rsatib beradi. Balki ashyoviy dalil topilib qolar? Hozircha mayorga bir narsa aniq: marhumning cho'ntagidan chiqqan guvohnomaga qaraganda u - Mirqosim Mirtillayev - samolyotsozlik zavodining ishchisi. Ertaga kunduzi zavodga borib, ma'lumot to'plashni boshlaydi.

Mayor oy nurida jimirlayotgan anhor suviga tikilib turar edi, odam sharpasi eshilib, orqasiga qaradi. Tal'atni ko'rib, ajablandi.

- Siz nima qilib yuribsiz? Sizni aytmagan edim-ku?

- Yordamim kerak bo'lib qolarmikan, devdim.

- Sizga aniq vazifa yuklangan.

- Bajaryapman, - dedi Tal'at sal jonlanib, - haligi ko'rganlaringiz ichkilik desa o'zlarini tomdan tashlashadi. Qurilishda ishlasharkan. Kecha pivo ko'p bo'libdi. Pivoxona o'n ikkilarda yopilibdi. Bezori bolalar ham o'ralashib yurisharkan. Janjal ham bo'lib turarkan.

- Bezorilar bugun ko'rinishmabdimi?

- Bir-ikkitasi ko'rinishdi. Menga g'ilay yigitni ko'rsatishdi. Atrofiga bolalarni yig'ib yurarkan. Yana olifta kiyingan uch yigitcha kelib o'tirdi.

- G'ilay deganingiz bolalar bilan kirdimi?

- Yo'q, bir o'zi. Uch shisha pivo ichib chiqib ketdi. Ko'p o'tirmadi.

- Kuzatayotganingizni sezdirib qo'ymadingizmi?

- Yo'q, gap orasida shunchaki so'rab ko'rdim. Lekin kechagi janjalni tilga olishmadi. Ko'rmaganga o'xshashadi.

- Bo'lishi mumkin. Ammo ko'pincha ko'rishsa ham ko'rmaganga olishadi. Siz hali ishingizda bunaqalarga ko'p duch kelasiz. Siz endi bunday qilasiz: bezorilar yakka-yolg'iz yurishmaydi sira. Undan tashqari ular bir necha guruh bo'ladi. Siz zo'ravon guruhni aniqlang. G'ilayning guruhimi, yo uchta oliftami, yo boshqami. Siz zo'ravon guruhning zo'ri bilan yakkama-yakka chiqishingiz kerak. Shunda qolganlari ham qo'lingizda bo'ladi. Ertaga kunduzi sizga koloniyani ko'rsatishadi. Qamoqdan ozod qilish haqidagi qog'ozni berishadi. Siz shartli ravishda ozod qilingan bezorisiz. Bizning rayon militsiyasida ro'yxatda turasiz.

- O'rtoq mayor, shartmi shular, axir bunaqa usullar yirik jinoyatlarni fosh qilishda qo'llanilmaydimi?

- Yirik? - mayor Tal'atga boshdan-oyoq razm soldi. Ammo undan achchiqlanmadi. Bir u emas, boshqa yoshlar ham shunaqa fikr yuritishadi, Maqsud Soliyev esa jinoyatni katta-kichikka ajratmaydi. Bu ajratish ishni qiyinlashtirishga olib kelishini biladi. Hozir shular haqida gapirgisi keldi-yu, biroq vaqti-soati bilan o'zi farqlab olar degan fikrda qaroridan qaytdi.

- Shu atrofda jinoyatlar ko'payayapti. Siz aytmoqchi «mayda jinoyatlar» bari. Qani, bir harakat qilib ko'raylik-chi? Avval qotillarni topishimiz kerak. Keyin adashib, sanqib yurgan boshqa bezorilarni to'g'ri yo'lga solishimiz zarur.

- Biz to'g'ri yo'lga solamizmi? Ular, meningcha, sira to'g'ri yo'lga tushishmaydi. Shartta oborib qamash kerak. Qotillarni shart peshonasidan otib tashlash kerak. Shunda tartib bo'ladi.

Ikki-uch yildan keyin odamlarning taqdirini hal qilishi lozim bo'lgan yigitdan bu gaplarni eshitib Maqsud Soliyev lol qoldi. Demak, jinoyatchiga nisbatan unda faqat nafrat bor.

Ana shu nafrat haqiqat yo'lga hamisha to'sqinlik qilib turadi. Jinoyatchining yuragiga qo'l solishga imkon bermaydi. Adash xulosalar, adash hukmlar shundan kelib chiqadi. Shu nafrat tufayli to'g'ri yo'lga qaytishi mumkin bo'lgan jinoyatchilar hayotdan alamzada bo'lib, qayta-qayta o'ch olishga kirishadilar. Tal'atga bu nafrat qayerdan yuqdi? Unga jinoyatni ochish yo'llarini emas, avval jinoyatchini to'g'ri tushunishni o'rgatish kerak ekan.

Mayor shularni xayolidan o'tkazib, biroz jim qoldi. Keyin uni qo'ltig'idan olib asta yurdi.

– Siz Afg'onistonda o'lim bilan yuzma-yuz bo'lib qaytgan-siz. Ro'parangizda ashaddiy dushmanlar bilan bir qatorda adashganlar ham bo'lgan, shundaymi? U yerda o'q kim dushman, kim adashgan – ajratib o'tirmaydi. Bu yerda ham ashaddiy jinoyatchilar bor, adashganlar bor. Biz baravariga o'qqa tutsak, bilasizmi, nima bo'ladi? Biz adashganlarga, hatto ashaddiyarlarga ham, to'g'ri yo'lga tushish uchun imkon yaratib berishimiz kerak.

– Ular-chi? Ular to'g'ri yo'lga tushgunlaricha o'g'rilik qilaveradilar, odam o'ldiraveradilar. Biz esa imkon tug'dirib beraveramizmi? Unda bizning nima keragimiz bor?

– Inim, ko'nglingizga olmang-u, ammo bir savolim bor: bu sohaga nima uchun kirdingiz? Afg'onistonga borib kelganningiz uchun berilgan imkoniyat mavjudligi uchunmi?

– Men u yerda o'limlarni ko'rdim, vahshiyliklarni ko'rdim, o'rtoq mayor. O'shalarga nisbat qilsangiz – biz jannatda yashayapmiz. Shunaqa hayotning qadriga yetmaganlarni otib tashlagim keladi. Nima uchun o'g'rilik qilishadi, nima uchun odam o'ldirishadi? Nima yetishmayapti ularga? Mehnat qilsa och qolmaydi-ku hech kim? Men harbiyga chaqirilmasimdan oldin ham shularni o'ylardim. Avvaliga o'qishga kirolmadim. Keyin siz aytganday imkoniyatdan foydalandim.

– Lekin bu kayfiyat, bu nafrat bilan ishlab bo'lmaydi, – mayor shunday deb hozirginada ko'nglidan o'tgan gaplarni tushuntirgan bo'ldi. Tal'at anchagina qaysar ekan, o'zinikini ma'qul deb turaverdi.

– Men xat oldim quroldosh do‘stimdan, – dedi u gapini ma‘qullab. – Ular bir poraxo‘rni fosh etishib, militsiyani ham, idoralarni ham ogohlantirishibdi. Ular esa, siz aytganday, imkon yaratib berishibdi. Poraxo‘rga chora ko‘rilmagach, uyiga o‘t qo‘yishibdi. Hozir ishlari tergovda emish.

– Dubrovskiychasiga ish ko‘rishibdi-da?

– Yana boshqa ilojlari bormidi? Militsiya jinoyatchini tushunishga harakat qilguncha u qancha odamlarning sho‘rini quritadi. Yo‘q, o‘rtoq mayor, keskinroq bo‘lish kerak. Shartta-shartta ishlash kerak. Ayamaslik kerak ularni. Ularning tuzalib ketishlariga men ishonmayman!

– Agar shu fikrda qat‘iy qolsangiz, men sizni ishdan chetlatishga majburman. Sizning harakatingiz mening ish uslubimga mutlaqo zid. O‘ylab ko‘ring. Menga xalal bermang.

Mayor uning bilagidan qo‘lini olib, nari ketdi. Tal‘at uning orqasidan anchagacha qarab turdi-da, keyin tez-tez yurib borib unga yetib oldi.

Ular tongga qadar anhor yoqasini kezdilar. Tal‘at mayor bilan boshqa bahslashmadi. Afg‘onistonda ko‘rganlarini gapirib berdi. O‘n sakkiz yil issiq o‘rinda ulg‘aygan yigitning urush sharoitiga tushib qolgandagi ahvoli ruhiyasi ham ma‘lum. Mayor bunga tushunardi. O‘zi ham dastlab jinoyatchilar bilan olishganda, biqinidan o‘q yeganda mana shunday xayollarga borgan. Vaqt o‘tishi bilan sovuqqonlikka ham o‘rgandi. Hali Tal‘at ham ko‘nikadi bunga. Eng muhimi, bu yigitda maqsad bor, jamiyatni tozalash niyati bor. Bunaqa odamni pora u yoqda tursin, dunyo berib ham sotib olish mumkin emas. Mayorning Tal‘at haqidagi dastlabki taasuroti shu.

Tongda, belgilangan vaqtda suratchi, ekspert, keyin Imomaliyev yetib keldi. Suratchi pivoxonani, uning atrofini, so‘ng Imomaliyev ko‘rsatgan joyni suratga oldi.

Maqsud Soliyev kecha odam o‘ldirilgan joyni sinchiklab kuzatdi. Sohilda o‘tlar toptalgan. Ammo ashyoviy dalil bo‘la oladigan biror narsa, hatto sigaret qoldig‘i yo‘q. Mayor shundan ajablanadi. Nahot shuncha boladan birontasi chekmasa? Yo atrofni tozalab ketishganmi? Nazarga tushadigan faqat bir

narsa – ko'lmak o'rnida oyoq izi qolgan edi. Ekspertning asosiy ishi shu bo'ldi.

Ular ko'chada harakat ko'paymasdan ishlarini yakunladilar.

– Haligi gapimni unutmang, o'ylab ko'ring, munosabatingizni o'zgartirsangiz birga ishlaymiz. Bo'lmasa, yo'q, – dedi Maqsud Soliyev Tal'at bilan xayrlashar ekan.

Endi mayor uyiga borib ozgina mizg'ib oladi. Keyin militsiyaga qaytadi. Sudmedekspert xulosasi bilan tanishadi. Unga qadar biz Asrorning yoniga qaytamiz. Uni Qamariddinga ro'para qilib qo'yib, boshqa voqeaga ko'chgan edik. Qani, u Qamariddin bilan nimalarni gaplashdi ekan?

ALAMZADA ODAM

*yoxud onasi tashlab ketgan bolaning ayanchli hayoti
haqida hikoya*

Asror o'tirishi bilan Qamariddin yonidagi ikki bolani «sigaret olib kellaring», deb turg'izib yubordi.

– Darsdan qochdingmi? – dedi Qamariddin, Asrorga diqqat bilan tikilib.

– Qochmadim, chiqib ketdim. Asror maktabdagi voqeani aytgisi kelmadi.

– Professor, basharanga rang qolmabdi. Shunchalik qo'rqyapsanmi? Sen qo'rqma. O'zim o'tirsam ham seni tortmayman. Bolalarga ham tayinlayman. Sen yo'qsan oramizda. Sen ichimizda bashkalik bolasan. O'qishing kerak. Men bari-bir qamalib ketaman. Bugun bo'lmasa, ertaga. Senga o'n besh yil vaqt beraman. Agar o'n besh yilda professor bo'lolmasang, o'g'rilarga qo'shib yuboraman.

Qamariddin shunday deb uning yelkasiga mushtladi. Asror uni hazillashyapti, deb o'yladi. Yo'q, Qamariddinning ko'zida quvlik yo'q edi. Qarashlari jiddiy, hatto o'ychan edi.

– O'ninchini bitirib, uyingdan chiqib ket. Gapimga xafa bo'lma. Otang seni o'qitgisi kelmayapti. Seni men o'qitaman. Pulim bor. O'ninchini bitirgan kuning beraman. Ungacha qa-

malib ketsam, xat bilan ma'lum qilaman. Kitobni falon joydan, falon odamdan olib yubor, desam, pulni tushunaver. O'zing olib ishlatasan. O'qimay yurib pulni yeb yursang... o'ldiraman.

Qamariddin keyingi gapini sovuqqina qilib aytdi. Asrorning eti seskandi. Qamariddin gapini qanday sovuqqonlik bilan aytsa, shunday sovuqqonlik bilan amalga oshirishi mumkin edi. Asror bunga kecha guvoh bo'ldi. Qamariddin taloto'pda shoshib ham qolmadi, hayajonlanmadi ham. O'lgan odamning cho'ntagini kavlab pulini oldi-da, suv bo'yiga sudrab keldi. Keyin to'rt kishi ko'tarib anhorga otishdi. Qamariddin shunchaki tosh irg'itgandek otdi. Keyin «jo'nalaring, bugun biz ko'rishmadik», dedi. Ovozida zarracha hayajon, qo'rquv sezilmadi. U kunda, kunora mol so'yib yuradigan qas-soblardek xotirjam edi.

Asror uchun Qamariddinning bu himmati yangilik emas. Qamariddin ko'pdan beri «Seni o'qitaman, professor bo'lasan», deb yurardi. Lekin Asror buni hazil deb tushunardi. Asror Qamariddinni avvaliga shunchaki mayda yo'lto'sar, kisa-vur deb o'ylagan edi. Ayniqsa, uni dastlab chaqirib pul talab qilganida shu fikrda edi. Keyin qo'rquv tufayli unga yaqinlashib qolgach, fikri o'zgarib boshladi. Qamariddin yo'lto'sarlik qilmas edi. Ayniqsa yosh bolalarga tegmas edi. Yonidagi bolalar Qamariddin yo'q paytdagina bu ishga qo'l urishga jur'at etishardi. Qizig'i shuki, Qamariddin yosh bolalarga tegishga yo'l qo'ymas, ammo biron-bir bolaning bu ishga qo'l urganini bilgach, uni jazolamasdi ham. Asror uning mana shu jumboqli fe'lidan ajablanardi.

Qamariddinning yonidan sira pul arimasdi. Bolalarni hamisha mehmon qilib yurardi. Uning vujudida ham mehr, ham vahshiylik yashiringan edi. Asror qachon mehr, qachon vahshiylik bosh ko'tarishini bilmas edi. Mana hozir Qamariddin mehr hukmiga bo'ysunib o'tiribdi. U bekordan-bekorga gapirmaydi. Aytganini qiladi. Pul beraman dedimi, beradi. Uraman, desa, uradi. O'ldiraman, desa, o'ldiradi, tamom!

Asror ham, boshqa bolalar ham Qamariddinning armoni-ni bilishmaydi. Qamariddinning dardi ichida. Faqat bir mar-

ta, kayf qilib o'tirib, Asrorning bo'ynidan ushlab, peshonasini peshonasiga bosib xo'rsingan: «Mening ham o'qigim kelardi, student bo'lib yurgim kelardi. Olim bo'lib oq «Volga»larda kerilib yurgim kelardi», degan edi. Ana shunda Asror uning qalbida katta dard, alam borligini sezgan edi.

Hozir Qamariddinning o'sha xo'rsinib aytgan gaplarini esladi. «Demak, o'zi erisholmagan darajani menga in'om etmoqchi», degan to'xtamga keldi.

- Senga bir maslahat aytay: anavi marjaga uylan, yaxshi ko'rmasang ham uylan. Uning yuragi yarimta. Uylangin-u, ammo burningdan ip o'tkazib olishiga yo'l qo'yma.

Qamariddin «marja» deb Dilfuzani nazarda tutgan edi.

- Uni... yaxshi ko'rmayman, bilasan-ku...

Ha, Qamariddin biladi. Sochi kalta qirqilgan, durkun bu qiz bolalar uyidan qaytib, shu maktabga qatnay boshlagach, uning atrofida o'ralashadiganlar ko'payib qoldi. Otasi bu ahvolda, onasi yo'q, deb unga tinchlik bermay qo'yishdi. Bir kuni ikkitasi qizning yo'lini to'sib xiralik qilayotganida Asror kelib o'rtaga tushdi. Ikki bola uradigan bo'lsa, Asror bas kelolmas edi. Lekin bolalar Asrorning Qamariddin degan homiysi borligini bilishardi. Shu-shu Asror Dilfuza bilan maktabga birga kelib-ketib yurib, qizni bu balolardan qutqardi.

Dilfuzaning ko'ngli chinakam yarimta edi. Uyda dardini eshitadigan dardkashi yo'q edi. Maktabda ham, ko'chada ham yo'q edi bunday dardkash. Shundanmi, bora-bora Asror uning ko'ziga avliyo bo'lib ko'rina boshladi. Dardini ham, hasratini ham unga aytadigan bo'ldi. Dilfuza yaxshi kiyinib yuradigan sinfdoshlariga havas qilardi. Ammo otasining nafaqasi tirikchilikka arang yetardi. Amakilarining topish-tutishlari yaxshi bo'lgani bilan qayishishmas edi. Asror bundan xabar topib, to'yda otasidan yashirib qolgan pullarni Dilfuzaga sarf eta boshladi. Avval chiroyli sumka olib berdi. Keyin tufli... Dilfuza Asrorni mana shu mehribonliklari evaziga yaxshi ko'rib qoldi. U Asrorning rahmdilligi tufayligina shunday qilayotganini tushunib yetmagan edi. Buni Qamariddingina bilardi. Bolalar uyida o'sgani uchun qiz uning himoyasida edi. Bir

kuni Shomil Asror yo'g'ida Dilfuzaga tegajog'lik qilganida Qamariddin ko'radiganini ko'rgan edi. «O'z og'ayningga nomardlik qilishni o'rgansalaring kallalarini olaman» deb do'q urgach, Dिल्фуза guruhda erka singilga aylandi.

– Ma, marjangga ber? – Qamariddin cho'ntagidan bitta yuztalikni olib, Asrorga uzatdi.

– Olmaydi, kechagi odamnikimi?

– Ishing bo'lmasin, beraver, o'zirniki de. Otasiga yangi aravacha olish kerak, deyatuvding-ku?

– Sen xuddi bir yoqqa ketadigan odamga o'xshab gapiryapsan, – dedi Asror pulni olib cho'ntagiga solar ekan.

– Ba'zi gaplarni vaqtida aytib qo'yish kerak. Ketishga-ku, hech qayoqqa ketmayman. O'zi safardan bugun keldim-ku? – Qamariddin shunday deb ishshaydi. Endi u tamom boshqa odamga aylandi. Undagi mehr qayoqqadir yashirindi. Asrorning ko'z oldiga uning kechagi holati – o'likning cho'ntaklarini kavlashi keldi.

– Qamar, sen nimaga o'likning pulini olding? – Asror shunday deb uning g'ilay ko'zlariga tikildi. Bu ko'zlardan biror ma'no uqmoqchi bo'ldi. Qamariddin esa unga javoban yana xunuk ishshaydi:

– Pul – xalq mulki, u suvda chirimasligi kerak.

Shu javob kifoya edi. Asror nafasini yutdi.

Bu orada ikki yugurdak sigaret keltirdi. Asror Qamariddinning maqsadini shunda bildi: Asror bilan guvohlarsiz gaplashmoqchi ekan.

Qamariddin «baribir qamalib ketaman» deb to'g'ri aytgan edi. Garchi kechagi voqeadan qutulib qolish chorasini ko'rib qo'rgan bo'lsa ham, ertaga yo keyingi oydami yuz berajak voqeada qo'lga tushishiga amin edi. Qadimgi yunonlar odamni hayot ummonidagi qayiqqa, taqdirni esa shu qayiq yelkanlariga urilib suruvchi shamolga qiyos etgan ekanlar. Qamariddinning kemasi adog'i ufqqa tutash bepoyon dengizda emas, balki atrofi qoyalar bilan o'ralgan ko'rfazda ekani biladi. U o'zi istagan kengliklarga chiqib ketolmaydi. Yo'q, agar astoydil istasa, chiqib ketishi ham mumkin. Lekin bunga

o'zida ishonch yo'q. O'zini-o'zi shu ko'rfazga moslagan, taqdir shamoli turib qoyalarga urilishi tayin ekaniga ishontirgan. Ayni chog'da atrofidagi odamlarga ishonmay qo'ygan. Ayniqsa, kayf qilganida odamlar uning ko'ziga yomon bo'lib ko'rinaradi. «Eh, siz, to'yganlar!..» deb g'ijinaveradi.

Nima uchun bunday deyayotganini bolalar bilishmaydi, tushunishmaydi. Bilish uchun, tushunish uchun Qamariddin bo'lib tug'ilish, Qamariddin bo'lib yashash, u totgan zahar-zaqqumlardan totish kerak.

Qamariddin otasi kimligini haligacha bilmaydi. Onasini uchinchi sinfga borayotganida ilk bor ko'rgan. Bor gapni keyin buvisi aytgan. «Tug'ilganingni bilib xursand bo'ldim. Onang chiqadigan kuni guldasta ko'tarib borsam, bir o'zi kelyapti. Maqsadini tushundim. U yosh edi. Umrini badnom qilgisi kelmagan. Turmush qurib yaxshi bo'lib ketar devdim. Seni menga berishmadi. Haqqim yo'q ekan. Lekin ismingni men qo'yganman: oydek yuzi yorug' bo'lib yursin, deb Qamariddin qo'yganman, bolam...» Qamariddin buvisining nima uchun haqqi yo'qligini ancha keyin, uning o'limidan keyin bildi. Avvalo, u buvi emas, mutlaqo begona – Qamariddinning onasi unikida ijarada turib ona-bola tutinishgan ekan. Ikkinchidan, bu ayol hali uncha qari bo'lmasa ham, sihati yomonligi uchun pensiyaga chiqqan ekan. Qamariddin tug'ruqxonada ko'z ochib, bolalar uyida tetapoya bo'ldi, bolalar uyida esini tanidi. Ota-ona mehri, kindik qoni to'kilgan uy degan tushunchalar unga begona edi.

Qamariddin notanish odamlar kelib bolalarni olib ketishlarini bilgach, qandaydir umid bilan kimningdir kelishini, boshidan silashini, mahkam quchoqlab o'pishini intiq kutardi. Odamlar kelishardi, ammo uni olib ketishmas edi. G'ilay bo'lgani sabablimi yo ayiqpolvonday xunuk yurishini yoqtirmaymi, uni hech kim chaqirmas, boshini silamas, mahkam quchoqlamas, o'pmas edi. U faqat buvisidan umid qilardi. Ammo buvisi nima uchundir uni olib ketmas edi.

Ota-onalarining kelishlaridan umidlari uzilganda bolalar to'planib olib afsonalar to'qishardi.

– Mening dadam bilan oyim kosmonavt bo'lishgan. Qu-yoshgacha uchib borib, qaytib kelishayotganida benzinlari tamom bo'lib qolib portlab ketgan, uyda rasmlari bor, – deydi uyi bor-yo'qligini aniq bilmaydigan do'mboq qizcha. Qamariddin u bilan o'ynashni yaxshi ko'rardi. Hozir, yillar o'tgach, uning ismini unutgan. Hamisha ota-onam kosmonavt edi, deyavergach, kattaroq bolalar uni Tereshkova, deb chaqiradigan bo'lishgan edi.

Bu afsonani yolg'on ekanini hamma bilardi. Lekin hech kim yolg'on deb masxaralamasdi. Shundanmi, ayrim bolalar o'zlari to'qigan afsonaga o'zlari ishonib qolishardi. Qamariddin ham otasining uchuvchi, onasining harbiy vrach ekaniga, ularning urush adog'iga yetgan kuni Berlinda halok bo'lishganiga ishonib qolayozgan edi. Sanashni o'rganganidan keyingina o'zining urushdan yigirma yil o'tgach tug'ilganini bilib qoldi. Boshqa afsona to'qishga to'g'ri keldi: ota-onasi Toshkentda yer qimirlaganda odamlarni qutqarayotib halok bo'lishgan. Uchinchi sinfda o'qiyotganida bu afsona ham barham topdi. Aniq eslaydi: bahor edi. Osmonda pag'a-pag'a oppoq bulutlar suzib yurardi. Hovlidagi daraxtlar gullagan palla edi. Uni direktor xonasiga chaqirdilar. Sochi kalta qir qilgan, lablariga qizil surtilib, ko'zlariga surma tortilgan oq shim, oq kurtka kiygan chiroyli ayolni ko'rib «kim ekan bu?» degan xayolda unga tikilib qoldi.

– Qamariddin degan azamatimiz shu, – dedi direktor.

Ayol o'rnidan turib quchoq ochdi.

– O'g'lim, jonim o'g'lim, – deb Qamariddin tomon yurdi.

Qamariddin avvaliga anqayib turdi. Bolalik ongi onasini avval Berlinga, keyinroq Toshkentga dafn etgan edi. Uning tasavvuridagi onasi dastlab fashistlardan ham qo'rqmaydigan qahramon, keyinroq odamlarga kuyunuvchi, mehribon ayol edi. Tasavvuridagi ikki ona ham tasavvuridagi qabrda yotibdi. Bu olifta kim bo'ldi? Rostdan onasimi? Bundan olti-yetti yil avval shu voqea sodir bo'lsa balki Qamariddin o'zini uning bag'riga otardi. Hozir uni nima ushlab turibdi? «Qani, Qamariddin, o'zingni ot uning bag'riga, quvon, shod-

lan, onang keldi!» deydi bir ovoz. «Qamariddin qochib qol, bu ona emas, yalmog'iz, sendan o'n yil xabar olmagan xotin ona bo'larkanmi?» deydi ikkinchi ovoz.

Ayol Qamariddinni go'dak fahmlab xato qilgan edi. Ota-onasiz o'sayotgan bolalarning hayot falsafasi, hayot haqidagi, beimon otalar, bevafo onalar haqidagi tushunchalari ancha barvaqt shakllanadi. Ularning mitti yuraklarida bu beimonlarga, bu bevafolarga nisbatan nafrat ancha ilgari ko'z ochgan bo'ladi. Qamariddinni qochishga undagan ikkinchi ovoz ana shu nafrat ovozi edi. U shu ovozga quloq tutdi. Onasi ikkinchi, uchinchi kelganda ham yaqin bormadi. Buvisi yo'qlab kelganda «ayting, endi ko'rinmasin, o'ldiraman» dedi. Buvisi o'n yashar boladan bunday gap kutmagan edi, qo'rqib ketdi. Ancha nasihat qildi, onasini maqtadi. U o'sha onda bolaning ahdi qat'iy ekanini ham fahmladi. Shundan so'ng o'zini «ona» deb tanitgan ayol ikki yilgacha kelmay qo'ydi. Faqat bir mar-ta – buvisi olamdan o'tganda kelib olib ketdi. U mehribon kampirning o'limi Qamariddinda mehr-shafqat uyg'otar, deb o'ylagan edi. Yo'q, Qamariddin ikki kundan so'ng bolalar uyiga qaytdi.

Buvisidan so'ng bu olam aro Qamariddinning yolg'iz o'zi qolgan edi. O'rtoqlari bilan ham, enagalari bilan ham ishi yo'q edi. U barcha xo'rliklarga oltinchi sinfga qadar chidadi. Sinfda bironing daftarimi, qalamimi yo'qolsa, Qamariddindan hadiksirashardi. U kurash to'garagiga qatnashar, o'zidan kattaroqlarga ham bas kelardi. Undan yiqilganlar «davlatning tekin ovqatini yeb quturyapti-da, bu» deb jig'iga tegishardi.

Qamariddin oltinchi sinfda o'qir edi. O'qishning ikkinchi haftasi edi. Maktab yo'li ikki qavatli kottejlar yonidan o'tardi. Qamariddin bu yerdan o'tayotganida «ana, detdom bolalari» degan haqoratomuz so'zlarni ko'p eshitgan. Bu safar havorang «Volga» atrofida uch bola turgan ekan.

– E, haromi tashlandiqlar, bu ko'chada yurmalarimg, – dedi ulardan biri. Qamariddin uni tanirdi. Otasi shu «Volga»ning, shu uyning egasi. O'zi sakkizinchida o'qiydi, umrida ovqat yemaganday ozg'in, rangpar bola. Nimasiga oliftagarchilik

qiladi, Qamariddin tushunmaydi. Agar Qamariddin yolg'iz bo'lganida bu gapga balki indamasdi. Yonida uchinchi sinfda o'qiydigan to'rt qizaloq bor. Ular balki haromi, tashlandiq degan so'zlarning ma'nosiga yetishmas, ammo Qamariddin yaxshi bilardi. U ana shu qizaloqlar oldida haqorat uchun o'ch olishga o'zini majbur deb his etdi. Papkasini yerga qo'yib, bolaga yaqinlashdi-da, jag'iga musht tushirdi. Bu bolaga shuning o'ziyoq kifoya qildi. Ikkinchi bola hamla qilgan edi, Qamariddin yelkasidan oshirib otdi. Uchinchi bola unga yaqinlashishga jur'at etolmay, qochib qoldi. Bu orada «Volga»ning egasi chiqdi.

- O'zlari boshlashdi, - dedi Qamariddin undan najot kutib. U esa ko'zlari mo'ltillab turgan bolaga tarsaki tortib yubordi.

- Haromi, beadab, turqingni ko'rsatma bu yerda, - dedi so'kinib.

Qamariddin yig'lab yubordi. Qo'rquv bilan qarab turgan qizchalar yoniga qaytib, papkasini qo'liga oldi. U ilojsiz edi, bu odamga kuchi yetmasdi, ammo alamini ham ichiga sig'dirolmasdi.

- O'zing haromisan! - dedi u bor ovozda baqirib. Shundan keyingina biroz yengil tortganday, amlari unutilganday bo'ldi.

Ertasiga Qamariddinning axloqi maktabda ham, bolalar uyida ham muhokama etildi. Qamariddin uch-to'rt kungacha azobda yurdi.

«Nima uchun gunohkor emas, begunoh odam jazolanadi? Aybim ota-onam yo'qligimi, yetimligimmi? Endi hamisha shunday bo'laveradimi? Nima qilishim kerak? Himoyachim kim mening?» Qamariddin ko'p o'yladi. U hayotda bundan battar nohaqliklar ham borligini bilmasdi hali. Uning uchun eng katta nohaqlik - tirik yetimlik. Boshqa nohaqliklar shundan kelib chiqaveradi. «Sening himoyaching yo'q, hech kim senga qayishmaydi, nohaqlikka qarshi o'zing kurashishing kerak. O'zingni o'zing himoya qil, kurash, yengib chiq. Kimligingni ko'rsat ularga! Agar yengib chiqolmasang, o'zingni ko'rsatib qo'ya olmasang, o'lib ketganing ming marta yaxshi!»

Qamariddin shu qarorga keldi. Aql nuqtayi nazaridan qaralganda bu noto'g'ri qaror, biroq yaxshilar mehriga muhtoj, qalbi zada bola uchun esa birdan-bir to'g'ri yo'l shu edi.

Bir kuni kechki ovqatdan keyin haqoratga guvoh bo'lgan qizlarni, hamisha kalaka ostida yuradigan zaifroq bolalarni to'pladi-da, kottejlar tomon boshladi. O'sha kottej, o'sha «Volga», o'sha bolalar... faqat uchta emas, beshta. Hammasi qiltiriq. Qamariddin g'azabga minsa, beshoviga ham bas kela oladi.

– Men senga nima deganman? – dedi tunov kuni mustht yegan bola. U sheriklariga orqa qilib gapirgan bo'lsa ham, hadik bor edi.

– Sendan kechirim so'ragani keldim, – dedi Qamariddin.

– O, detdomda odam tarbiyalaydigan bo'lishibdi, – dedi bola xaxolab kulib.

Qamariddin unga yaqinlashib qo'l uzatdi:

– Kechir.

– Nazimchik, bechorani kechira qol. O'zi shundog'am Xudo urib qo'yibdi, – dedi bolalardan biri.

Nozim deganlari «ha, mayli» deb qo'l berdi. Qamariddin bu nozik panjalarni mahkam qisib edi, bola ingrab o'tirib qolayozdi.

– Men sendan, haromi, o'sha kuni yaxshilab urmaganim uchun kechirim so'ramoqchiman!

Qamariddin shunday deb uni o'ziga siltab tortib, chilib yubordi. Nozim voy-voylashga ham ulgurmay o'zini Qamariddinning yelkasida ko'rdi. Nafas o'tmay esa o'rtoqlari ustiga uchib tushdi. Qamariddin duch kelgan bolani ushlab uraverdi. Bu orada Nozimning otasi pijama kiygan ahvolda yugurib chiqdi. Endi Qamariddin undan najot kutib turmadi. Katta toshni olib shaylandi. U odamning vajohati yomon edi. Ayni chog'da Qamariddinning ko'ziga ham hech nima ko'rinmasdi – u toshni mo'ljallab, zarb bilan otdi. U odam o'zini himoya qilishga ulgurmay boshini changallaganicha o'tirib qoldi. Shunda Qamariddin yugurib kelib uni tepdi. Kap-katta odam kichkina bolaning tepkisidan cho'zildi. Qamariddin

bunga ham qanoat qilmay qo'liga haligi toshni olib mashinaga otdi. Mashina oynasi chil-chil sindi. Qamariddin ana shundan keyingina qochdi. Bolalar uyiga emas, o'zini duch kelgan ko'chalarga urdi. Tunda vokzalga bordi. Yurib ketayotgan poyezdga osilib chiqdi. Xullas uni besh kundan keyin Qizil O'rdada tutib, iziga qaytardilar. Endi u o'zi uchun qaddon bo'lib qolgan bolalar uyiga emas, balki tarbiyasi og'ir bolalarning maxsus maktabiga jo'natildi. Qamariddin atrofi baland devor, simto'siq bilan o'ralgan maxsus maktabga shu zaylda tushdi. Dastlabki qasos uni dastlabki jazo, dastlabki qamoq bilan mukofotladi.

Maxsus maktabda yaxshilik haqida ko'p gaplar eshitdi. Tinglangan nasihatlari to'plansa, katta bir kitob bo'lar. Biroq, u nasihatlarni quloqqa ilmadi. Undagi alamzadalikning qora buluti har qanday yorug'lik, har qanday nurga to'siq bo'la olardi. Xullas, yaxshilik nuri uning yuragiga yo'l topmadi, qalbiga sepilgan yaxshilik urug'i yorug'likdan bebahra bo'lgani uchun chiqmadi. Uning ko'z oldida «Volga» yonidagi qiltiriq, uning vajohatli otasi ketmas edi. Ular bilan kunda bir urishar edi. Ulardan yana qasos olishning ming bir xilini o'ylab topardi. Kunlar, oylar o'tgan sayin shu baland devor ortida erkin yurgan barcha odam o'sha qiltiriq, o'sha vajohatli otaday tuyulaverdi unga. Bir necha kishiga nisbatan bo'lgan g'azabi ortib, butun odamzotdan nafratlana boshladi.

Nafrat o'qiga eng avvalo bevafo onasi, so'ng beimon otasi duch bo'lishgan edi. Endi ular haqidagi afsona tumanday tarqalib ketgan, ularning asl basharalari quyosh yorug'ida mana man deb turardi. Maxsus maktabning katta, og'ir jigar-rang darvozasi bo'lardi. Uning ro'parasidagi o'rindiqqqa o'tirib Qamariddin xayol surardi: «Hozir qo'limga miltiq berib qo'yishsa-yu, darvozadan otam bilan onam kirib kelishsa, shartta otardim. Ana undan keyin o'zimni otib yuborishsa mayli. Yo'q, avval sud bo'lishi kerak. Bolasini tashlab ketgan ota-onaning jazosi shu, deyman. Tirik yetimlar, hammangiz ablah ota-onangizni topib otib yuboring. Yolg'on gaplar to'qib, ularni yaxshi odam qilib ko'rsatmang bir-biringizga, ayamay

otib tashlang, deyman. Tirik yetimlarga miltiq beringlar, deyman! Ana shundan keyin meni otishsa ham mayli».

Qamariddin shunday o'ylagani bilan onasining yoniga qaytishga majbur bo'ldi. To'g'rirog'i, onasi uni garovga olgani sababli maxsus maktabdan barvaqt chiqarishdi. Hunar bilim yurtiga kirishga majbur qilishdi. Uning bundan bo'lak iloji ham yo'q edi. Qamariddinni oddiy maktablarga qabul qilishmas edi. U yerdagilar bo'sh o'qiydigan, sho'xroq bolalardan qutulish payida yurishadi. Qamariddindaqalarni ko'rishganda dod deganday qilib eshiklarini taqa-taq berkitishadi. Qamariddin avval o'qigan maktabiga ham bordi. Harholda yaxshi o'qirdi, sportda peshqadam edi. Yo'q, bu gaplar unutilganday, qabul qilishmadi. U hunar bilim yurtiga uch kungina qatnadi. Keyin bormay qo'ydi. Bilim yurtidagilar uning ketib qolganidan quvonishdimi, har qalay nimaga kelmayapsan, deb xabar olishmadi. Qamariddinday «tarbiyasi og'ir bola»ga ularning ham toqati yo'q edi. Qamariddin faqatgina militsiyagagina kerak ekan. Dam-badam inspeksiyaga chaqirishadi. Ishga joylashishga yordam bermoqchi bo'lishadi. Qamariddin ishlashga rozi, o'qishdan ko'ngli sovib bo'lgan. Ammo ishga oladigan azamat yo'q. Hali u, hali bu bahona. Onasi ishda, o'zi kun bo'yi ko'chada. Omadini qarang, u ko'chadagilarga ham kerak ekan, u kabi bola kam emas ekan. Pes pesni qorong'ida topganday, ko'chabazorilar bir-birlari bilan tez topishar ekan. Shu ahvolda erkin yuraverdi. Ammo to'daga qo'shilib bi-rovlarni tunamadi. Buni mayda ish deb bildi. Uning hayotdan alami bor, qasos olganda ham birvarakayiga olishni istardi. Shunday qasos oni yaqinlashib kelardi.

Ularnikiga bir odam serqatnov edi. Dastlab ko'ringanida onasi «dadangning do'sti, bizdan xabar olib turadi» deb izoh berdi. Qamariddin «dadamning o'zi qayerda, nima uchun o'zi xabar olmaydi» deb so'ramadi. U go'dak emaski, bu odamning maqsadini bilmasa. Avvaliga Qamariddin qo'qqisidan kirib qolsa, ichib o'tirganlarini yashirishga harakat qildilar. U go'l emaski, aroqning hidini bilmasa. Keyinroq borib yashirmay ichaverdilar. Bir kuni Qamariddin kelib u kishining ro'parasi-

ga o'tirdi. Ko'chada bolalar bilan musallas ichgan, shirakayf edi. Piyolada onasiga quyilgan aroq turgan ekan, shartta olib ichib yubordi-da, yana quying, deb «otasining do'sti»ga uzatdi.

- Yoshlik qilasan, - dedi u odam piyolani chetga olib qo'yib.

Shu paytgacha Qamariddin u bilan deyarli gaplashmagan edi. Salom berardi-yu, ko'chaga chiqib ketardi. Bugun kayf ta'sirida qitmirlik qilgisi keldi.

- Sening bolang bormi? - dedi u dabdurustdan sensirab.

- Bor, - dedi «dadasining do'sti» g'azabini ichiga yutib.

- Detdomdami?

- Nimaga detdomda, uyda.

- Tashlab ketmaysanmi?

- Jinni bo'lganmisan?

- Bolalaringni tashlab, onamga uylan. Meni o'g'il qilib ol.

Shu payt oshxonadagi onasi kirib, ularning suhbatidan lol bo'lib tosh qotdi. «Otasining do'sti» ham bu taklifdan tamom gangidi.

- Qamarjon, bunaqa masalada hazil qilma.

- Uylansang, uylan, bo'lmasa, o'ldiraman.

- Qamar! - dedi onasi, uni yelkasidan ushlab.

Qamariddin qitmirlik bilan ularni masxaralamoqchi edi. Ammo o'zi kutmagan holda nafrati uyg'onib, g'azabi qo'zg'iy boshladi.

- Sen ablahsan, odammassan, - dedi u, onasining silab-siypashiga e'tibor bermay.

U odam o'rnidan turib, eshik tomon yurdi. Qamariddin ham irg'ib o'rnidan turdi-da, yo'lini to'sdi.

- Sen hayvonsan! Sen... san! - deb haqoratlashda davom etdi.

Bu mishiqidan shunday so'zlarni eshitishga ori keldi bu odamning: Qamariddinning yuziga shapati qo'yib yubordi. Xuddi o'sha kottej, o'sha «Volga» egasiday urdi. Unda Qamariddin yig'lab yuborgan edi. Bu safar yig'lamadi, kuldi. Bu kulgusida zahar zohir edi. Bu kulgusi yomon bir narsaning darakchisi edi. Qamariddin kulib turganicha uning qorniga

kalla qilib bukchaytirib qo'ydi. Tepmoqchi edi, o'rtaga onasi tushdi. Qamariddin «ha, mayli» dedi-da, oshxonaga kirib katta pichoqni oldi. Xonaga kirganida onasi stulda, u odam esa yerda onasining tizzasiga bosh qo'yib o'tirgan edi. Onasi pichoq ushlagan Qamariddinni ko'rdi. Baqirib yubordi. Ammo u odam boshini ko'tarishga ulgurmasdi. Qamariddin otilib kelib uning bo'yniga pichoq sanchdi. Oshxonada, pichoq olayotgan chog'da, onasini ham o'ldirishni fikr qilgan edi. Ammo onasiga qo'l ko'tara olmadi. Nimaga shunday bo'lganini keyinroq ham ko'p o'yladi. Biroq, ming o'ylagani bilan sababini bilolmasdi. U bir narsani aniq bilardi: uni o'zi ham sezmagandaydir kuch ushlab qolgan edi.

U maxsus maktabda yurganida beimon otasini, bevafo, bemehr onasini o'ldirishni xayol qilardi. Onasini o'ldirolmasdi, biroq begonani o'ldirdi. «To'g'ri qildim, – deb o'ylardi u qamoqda yurgan kezlarda, – bolalari beimon otadan qutulishdi. Bolalarini aldab yurgan odam odammi?»

Sud bo'ldi. Sudda yillab o'ylab yurgan gaplarini aytdi. Gaplar e'tiborga olinmasdi. U o'zini endi bolalar axloq tuzatish mehnat koloniyasida ko'rdi. Uch yil shu yerda bo'ldi, keyin kattalarning koloniyasiga o'tdi. Qimor ham, aroq ham, nasha ham, bir-birini bo'g'ishlar... hammasi bor edi bu yerda. Yetti yilda o'zi, Asrorga aytganday, «akademik» darajasiga yetdi. Onasi qamoqdan qutulib chiqqan o'g'lini kutib olmadi. Uyga o'zi bostirib bordi. Unga boshpana kerak edi. Uni kutib turgan birodarlari bor edi. O'shalar bilan ish boshladi.

Qamariddin birovga xizmat qilishni yoqtirmasdi. O'zi mustaqil ish boshqarishni istardi. Eng muhimi, hayotda o'z maqsadi bor edi. Bu maqsadiga mustaqil yashasagina erishardi. «Akademiya»da orttirganlari unga qul emas, xoja edi. Ular Qamariddinning maqsadiga tushuna olishmasdi. Ular uchun pul bo'lsa, maishat bo'lsa bas. Qolgan tushunchalar, tuyg'ular barchasi bir chaqa. Qamariddin bilan ularning hayot haqidagi tushunchalari boshqa-boshqa. Qamariddinning ulardan panoh izlashiga sabab bor: u hozircha olam aro yolg'iz. Yonida ishonchli odamlari yo'q. Bu odamlarni to'pla-

guncha fursat kerak. Quruq cho'ntak bilan esa oddiy ish ham bitmaydi. Shunday qilib, Qamariddin qamoqdan chiqib ikki yo'nalishdagi hayotni boshladi. U asta-sekinlik bilan atrofiga bekorchilarni to'plab, bo'lajak ishlariga tayyorlandi. Mushtlashishga o'rgatdi. Eng muhimi, ularda atrofda qilarga nisbatan nafrat uyg'otishga kirishdi. U Asrorni avvaliga boshqa ishga mo'ljallagan edi. Harholda to'yima-to'y yuradi, kerakli axborotni beradi, deb o'ylovdi. Keyin uning o'qishini, otasining nomardligini bilib, bolani tinch qo'yishga ahd qildi. «Meni birov suyamagan edi. Men shu bolani odam qilaman, o'zim qamalib, otilib ketsam ham, uni o'qitaman!» degan qarorga keldi. Shuning barobarida qobiliyatli o'g'lini o'qishiga monelik qilayotgan otasining adabini berib qo'yishni ham ko'ngliga tugib qo'ydi.

Qamariddinning atrofida to'plangan bolalar uning fe'lini tushunib ololmasdilar. Chunki ular Qamariddin o'zini jinoyatchi emas, qasoskor deb hisoblashidan bexabar edilar.

Asror Qamariddinni sal-pal tushunardi. Ammo kechagi qotillikdan so'ng undan qo'rqib qoldi. Odamni o'ldirib qo'yishi yetmaganday, cho'ntagidagi pulni olishi uni dovdiratib qo'ydi.

Hozir esa... hotamtoylik qilib o'tiribdi...

Maktabda darslar tugadi shekilli, ko'chada bolalar ko'rindi.

– Qamar, men ketdim. Salimni borib ko'raman. Bir o'zi siqilib yotgandir?

– Xo'p, sen boraver. Haligi gapimni unutma. Uyingdan chiqib ket. Otang podlets odam, u bilan yashab bo'lmaydi.

«Otang podlets odam» degan gapni eshitib Asrorning ko'zlaridan olov sachrab ketganday bo'ldi. U otasining kim ekanligini yaxshi biladi. Otasi ming yomon bo'lganda ham birovning og'zidan haqorat eshitish Asrorga og'ir edi. Ayniqsa, bu ikki bola oldida aytilishi uni g'azabga mindirdi. Qamariddin bu gapni bir emas, bir necha marta aytgan. Har safar ham Asror g'azabli nigohi bilan unga qarshilik bildirgan. Uning boshqa chorasi ham yo'q. Birinchi safar bu gapni eshitib sanchib tushgan, «otamga til tekkizma!» deb baqirganida Qa-

mariddin xunuk tirjayib, uning bo'ynini bosib turgan sochini tutamlab tortgan, joyiga o'tqizgan edi.

– O'pkangni bos, bratishka. Yaxshini yaxshi deyish kerak, podletsni podlets. Xohlasang, otangning podletsligini isbotlab beraman.

Asror unda Qamariddinni yaxshi bilmas edi. Shuning uchun bir voqea ko'z oldiga kelib qo'rqib ketdi. Otasi aytib bergan edi: bir elaro mashhur hofizni to'ydan keyin qolib, qimorbozlar toza kalaka qilishgan ekan. Elliktalik, yuztalik pulni xuddi buzuq xotinlarning siynabandiga qistirganday hofizning yoqasiga qistirishgan, dunyodagi jami bema'ni qilishlarni qilishgan, bu ham yetmaganday bir sigirni yetaklab keltirib, hofizni uning qulog'iga qo'shiq aytishga majbur qilishgan ekan. Asror bu voqeani eshitganda eti uvishib ketgan edi. Qamariddin «isbotlab beraman» deganda sigirning qulog'iga ashula aytayotgan odam o'rnida otasini ko'rib qo'rqib ketgan edi. Qamariddin «otang podlets odam» deganda Asrorning indamay qolishi, g'azabini ichiga yutishi shundan.

– Sen menga chaqchayma. Yaxshini yaxshi deyman, podletsni podlets, sen dorixonaga kirib, bint ol, ko'proq ol. Yarasini bog'lab qo'y.

Asror Qamariddin uzatgan pulni olib, o'rnidan turdi. Yo'l-yo'lakay dorixonaga kirib, bint xarid qildi.

Qamariddin g'ishtli uyning ikkinchi qavatida turardi. Yaxshi jihozlangan shinam bu uyda Asror ko'p bo'lgan, ammo Qamariddinning onasini kam ko'rgan. U bugun ham yo'q edi. Salimning bir o'zi katta uydagi divanda chalqancha tushib, ingrab yotgan edi. Asrori ko'rib, nimagadir ko'zlarini yumib oldi.

– Og'riyaptimi? – dedi Asror unga yaqin kelib. Salimning yuziga qarab qo'rqib ketdi: rangi oppoq, lablari yorilgan. Peshonasiga qo'lini qo'ydi: issiq. – Doktor chaqiraymi?

Salim ko'zini ochdi. «Yo'q, – dedi zaif ovozda. – Shunga ham doktormi... Suv ber, ichim kuyayapti...»

Suvni icha turib yana ingrab yubordi. Asror junchoyshabni ko'tardi. Soni bintlab tashlangan. Qon bintning sirtiga sizib

chiqqan. Qimirlaganida yara ochilib, yana qonayotganga o'xshaydi.

- Boshqatdan bog'lab qo'yaymi?

- Yo'q, tegma. Qamar yod qo'ygan. Bosilib qoladi. Nega kelding?

- Nega bo'lardi, seni ko'rgani keldim.

- Boshqa kelma. Sen meni bilmaysan. Kecha yo'q eding sen.

- Qamar aytdimi?

- Qamar aytmasa ham kallam ishlaydi.

- Salim, men ham uni tepdim. Men tepganimdan keyin o'lib qoldi shekilli?

- Bilmadim, men seni ko'rmadim u yerda.

- Odammisan o'zing?! - Asrorning g'azabi qo'zib, o'rnidan turib ketdi. - Axir u senga pichoq urdi. Biz uni kaltaklab to'g'ri qildik. Haqqimiz bor.

- Haqqing yo'q, ahmoq! - Salim shunday deb ingrab yubordi. - Yo'qol, chiqib ket...

Asror turib chiqib ketarini ham, ketmasligini ham bilmay o'tiraverdi. Salim jon achchig'ida haydayaptimi yo rostdan ko'rgisi yo'qmi, farqlay olmadi. Bir mahal, og'riq o'tdi shekilli, Salim ko'zini ochdi.

- Uyimdakilarga aytib qo'y, shoshilinch musobaqaga olib ketishdi, de. Suv ber...

Salim suvni yutoqib ichdi. Badaniga sal rohat oraladimi, ko'zini ohista yumib, chuqur nafas oldi.

- Anavi yerni qara, Qamarning sigareti bor, olib ber.

Asror stol ustidagi sigaret qutisini olib Salimga uzatdi. U ochiqqan odam nonga tashlanganday sigaretni titroq qo'llari bilan changalladi. Quti ichidan birini olib hidladi. G'ijinib otdi. Keyin boshqasini... Oxiri qutini g'ijimladi. «O'... haromi, tashlab ketmabdi» dedi tishlarini g'ijirlatib. Asror Salim nasha-ning xumorida ezilayotganini bildi. «Qara, u yer-bu yerni» deb baqirdi Salim unga. Asror xonani qarab chiqqan bo'ldi. Topilmagach, Salim baqirib, bo'ralab so'ka boshladi. Shundan so'ng Asror choynakni to'ldirib suv olib keltirdi-da, Salimning bosh tomonidagi stulga qo'yib, chiqib ketdi.

Salimning uyi anhorning narigi sohilida. Ko'p qavatli uylar shahar tomondan bostirib kelib, shularning hovlisiga taqalib qolgan. «Mana hozir yanchib yuboraman», deganday turgan to'qqiz qavatli beton uyning adog'i – Salim yashaydigan uy. Yigirma besh yil avval Salimning bobosi solib ketgan ikki uy bir dahliz to'kilay, to'kilay deb turibdi. Bobosining o'limi tufayli bitmay qolgan ayvon hali ham o'sha-o'sha – chala. Salimning otasi bolaligida oyog'ini sindirib olganmi yo tug'ma cho'loqmi, har holda hassasiz yurolmaydi. Qaldirg'ochmo'ylov qo'yib, sochni qirdirib, do'ppi kiyib yuradigan bu odamning mehnatga tobi-toqati yo'q. Shamollasa, aksirishga ham erinadigan ota bolasi nechtaligini ham bilmasa kerak. O'n bir bola nima yeb, nima ichyapti, ikki qiz nima uchun erga chiqmay turib tug'ib oldi, endi ularning turish-turmushi nima bo'ladi – ishi yo'q. Hammasiga Salimning onasi balogardon. Bechora uzzukun tinmaydi. Asror qachon shu uyga kelsa, bu ayolni ish ustida ko'radi. Ularning bir sigiri bor. Salimning opalari uyma-uy sut-qatiq sotib yurib, bola orttirib olishgan. Birinchisida nimagadir da'vo qilishmadi. Ikkinchisida bir yigitni mahkam ushlab, o'tgan yili to'ycha qilib berishdi. Ammo u ham nomigagina turmush. Salimning opasi bir kun u yerda tursa, bir oy bu yerda – o'z uyida. Shundanmi, Salimning onasi asabiyroq. Sal narsaga bobillab beradi. Keyingi paytda undan eri ham qo'rqib qolgan shekilli, ko'chaga chiqib pista-qurut sotib o'tirishga majbur bo'ldi.

Asrorning Salimga achinishi bejiz emas. Salim uning bolalikdan qadrdoni. Shu ko'chalarda birga ulg'ayishgan. Bir sinfda o'qishdi. O'tgan yili Salim sakkizinchini bitirdi-yu, «oilaga yordam berishim kerak», deb hunar-texnika bilim yurtiga ketdi. Asrorlarning uylari mana shu bahaybat to'qqiz qavatli uyning o'rnida edi. Katta qurilish bahonasida uylari buzilib, anhorning narigi betiga ko'chishdi. Asrorning Qamariddinga ro'para bo'lishiga ham shu Salim sababchi. Asrorning benihoya qobiliyatli ekani, maxsus matematika maktabida o'qiyotganda dadasi «menga yordamlashsin», deb u yerdan chiqarib olgani, ana endi Asror otasi bilan to'y-ma-to'y yurib,

qobiliyatini xor qilayotganini Qamariddinga Salim aytgan edi. Salim aytmasa, Asrorning Qamariddin nazaridan chetda qolishi turgan gap edi. Qamariddin bilan Salimning o'rtasida boshqalar bilmaydigan sir ham bor edi. Bu sirni na Asror, na boshqa bolalar bilishardi. Salim Qamariddin bilan birga yana uchta katta o'g'riga sherik, ularning qilmishlarini tun qorong'isi berkitar edi. Ularning o'g'riliklari haqidagi xabar militsiya qulog'iga yetib kelmasdi. Chunki jabrdiydalar darak berishga qo'rqishardi. «Shuncha narsamni o'g'irlashdi», deyishsa, militsiya «maoshingiz bir yuz yigirma so'm ekan, bu narsalarni qayerdan topdingiz?» deb qolishi mumkin-da. Ular duch kelganni uyini urmay, tanlab, obdan o'rganib bo'lishgandan keyin ishga kirishishardi.

Qamariddin Asrordan ham foydalanmoqchi bo'lganida, Salim yo'l qo'ymadi. To'g'ri, Qamariddin Asrordan bir mar-tagina foydalangan. Salim uyidan arazlab daydib yurgan mahallar edi. Shoshilinch ish chiqdi. Asrorning vazifasi jo'n: Qamariddin ko'rsatgan uyga borib, qo'ng'iroq tugmasini bosadi. Eshik ochgan ayolga hovliqib: «Hakim akamlar qo'lga tushib qoldilar. Mollarni berkitar ekansiz», deydi-yu, g'oyib bo'lad. Asror Qamariddin aytganday qildi o'shanda. Uning gapini eshitib, semiz ayolning rangi birdan o'zgardi. «Voy, sho'ri-i-im» deb o'tirib qoldi. Keyin esa esini yig'di-yu, darvoza eshigini taraq etib yopdi. Qamariddinning rejasi bo'yicha, Asror o'sha zahoti ketishi kerak edi. «Shumxabar»ni eshitgan ayol Asrordan ham tezroq harakat qildi. Asrorga shu holat qiziq tuyulib nariroqqa borib, muyulish panasida poylab turdi. Yarim soatga qolmay haligi darvoza oldida oq «Volga» to'xtab, undan oq kostum kiyib, qora ko'zoynak taqqan ikki kishi tushdi. Qo'ng'iroq tugmasi bosildi. Eshik ochildi. Ular ichkari kirib ketishdi. Dam o'tmay tugunlar tashib chiqilib, mashinaga ortildi.

Dag'-dag' titrayotgan semiz ayol ham ko'chaga chiqdi.

– Hech nimani yashirib qolmadingizmi? – deb so'radi qora ko'zoynaklining biri.

– Yo'q, yo'-o'q, baraka topgur, shu hammasi, – deb javob berdi semiz ayol.

- Bilib qo'ying, u yoqda eringiz ro'yxat yozib o'tiribdi. Mollarni shu ro'yxatga solishtiramiz-a, to'g'ri chiqmasa, o'zingizni ham olib ketamiz.

Ular shunday deb mashinaga o'tirdilar-u, jo'nab qoldilar. Ayol o'krab yig'lab yuborib, ichkari kirib ketdi. U erining qo'lga tushganidan fig'on chekdimi yo qo'ldan ketgan mol-dunyo alamidanmi, Asror bilmadi. U avvaliga Qamariddin biron chayqovchi og'aynisiga yaxshilik qildi, deb o'yladi. Haligi ikki kishi Qamariddinning sheriklari ekanidan, Hakim aka deganlari bu paytda bozorda javlon urayotganidan xabari yo'q edi. Salim keyinroq bu gapdan ogoh bo'lib, Asrorning go'lligi uchun so'kkan edi.

Hozir Salimlarnikiga ketayotgan Asror shularni esladi.

U anhor tomon burilganida yuragi g'alati bo'lib ketdi. Oyog'i o'ziga bo'ysunmay, yurishdan bosh tortdi. Shart orqasiga burilib ketmoqchi ham bo'ldi. Aksiga olib, Salimnikiga boshqa yo'l yo'q. Bu yerdanmi, ikki chaqirim naridanmi, bari-bir, anhorni kesib o'tish kerak.

Asror ko'prikka yaqinlashib, ko'zi anhor suviga tushdi-yu, nafasi bo'g'ziga taqaldi: anhor tubidan xuddi o'sha odam qarab turganday tuyuldi. Voqea uch-to'rt chaqirim narida, anhorning quyi oqimida yuz bergan. O'lik oqsa ham bu yerga, yuqoriga emas, quyiga oqadi. Asror buni yaxshi bilsa ham, suv yuzasida murdaning ko'zi ko'rinib, qo'rqdi.

Ko'prikdan o'tayotganda yana esxonasi chiqdi: bu safar murda suv yuzasiga qalqib chiqqanday bo'ldi. Asror ko'prikdan yugurib ketganini o'zi ham sezmedi. Salimning uyiga yaqinlashganda nafas rostlab, qo'rqqoligi uchun o'zini-o'zi koyidi.

Salimning onasi molga tert qorayotgan ekan. Asrorning salomiga alik oldi-yu, ishini qilaverdi.

- O'rtog'ing yo'q uyda, - dedi g'o'dayib turgan Asrorga bir qarab olib.

- Bilaman, - dedi Asror, - aytib qo'y, devdi. Musobaqaga ketdi. Esimdan chiqibdi, shuni aytgani keluvdim.

- Qachon ketdi u, juvonmarg bo'lgur.

– Kechamidi... o'tgan kuni. Shoshib turgan ekan.
 – Shoshmay bo'yinginasi uzilsin. Onani ona demasa, otani ota demasa. Bokslariga iloyim qirg'ingina kelsin.
 – Musobaqa tugagandan keyin keladi.
 – Kelmay go'rga borarmidi, keladi mulla mingan eshakday bo'li-i-ib.

– Men ketdim bo'lmasa.
 – Onang sho'rlik yaxshimi, ishqilib. Bir kelsin, gaplashi-i-ib yuragining chigalini yozib ketsin. Senlarning dastingdan bir yoqqa chiqib ham bo'lmaydi.

Asror onasiga bu taklifni aytishi ham mumkin, onasi kelishi ham mumkin. Ammo bu ayol «gaplashi-i-ib o'tirish»ga vaqt toparmikan?

Asror ko'prikka yaqinlashganda yana yuragida titroq turdi. Ammo bu safar o'zini tez qo'lga oldi.

Shu ketishda u uyiga bordi.

Endi uni bu kech xoli qo'yaylik. U tunda bir necha bor cho'chib uyg'onadi. Ko'ziga o'sha odam ko'rinaveradi. Xonaning qorong'i burchagida biqinib turganday tuyulaveradi. G'avvoslar murdani chiqarayotgan damda Asror tunning ayovsiz tirnoqlari orasida azob chekayotgan bo'ladi. Biz bu tun uning azoblariga sherik bo'lmaymiz. Hali oldinda to'lg'oqli tunlar ko'p. Hozircha uni qiynoqlar iskanjasiga tashlaymiz-da, kalavanning uchini qidirayotgan mayor Soliyev huzuriga qaytamiz. Yodingizda bo'lsa, mayorni hordiq chiqarish uchun uyiga kuzatgan edik. Endi uni rayon militsiyasida uchratamiz.

BIR IPNING IKKINCHI KALAVASI

*yoxud ikkinchi jinoyatning ochilishi
 haqida hikoya*

Ekspertiza xulosasi mayor Soliyev uchun kutilmagan edi: marhum Mirqosim Mirtillayev kaltaklanish natijasida o'lmagan, suvga tashlash paytida tirik bo'lgan. Demak, qotillar shoshib qolishgan. Shoshganiga qaraganda bu yoshlarning

ishiga, mayorning mo'ljali esa to'g'riga o'xshaydi. Endi bir narsani aniqlash kerak: bu tasodifiy voqeami yo Mirtillayevning payiga tushishganmi? Maqsud Soliyev shuni aniqlash maqsadida zavodga yo'l oldi. Sex boshlig'i uning gapini eshitib, avvaliga ishonmadi.

- Kecha ishga chiqmadi. Tobi qochgandir deb, o'ylabmiz. Bolalari ham telefon qilishmadi. Hayron bo'lib turuvdim. O'tgan kuni maosh oluvdi.

- Ko'pmi?

- Ko'p bo'lishi kerak. Ham oylik maosh, ham mukofot puli. Sizga anig'i kerakmi? - sex boshlig'i buxgalterga telefon qilgach, mayorga qaradi: - To'rt yuz o'n ikki so'm yetmish sakkiz tiyin.

- Kassirdan so'rab biling-chi, pullar besh so'mlikmi, o'nmi, yigirma beshtalikmi?

Sex boshlig'i buni ham aniqlab berdi: uch va besh so'mlik aralash ekan.

- Nimaga kerak bu? - deb so'radi u ajablanib.

- Mayda pulda cho'ntak qappayibroq turadi.

- Tunashgan deb o'ylaysizmi?

- Hozircha hech narsa deb o'ylamayman. Mirtillayevning ishchilar bilan munosabati yaxshi edimi?

- Ha. Yigirma yildan beri birgamiz... birga edik u bilan.

- Yoshlar bilan-chi?

- Ular bilan ham durust edi. Ish o'rgatardi. Faqat bittasi... bittasi bilan olishib qolgan ekan. U bo'shab ketibdi. Mirtillayev shu bolani mendan ol, deb uch-to'rt kirdi. Keyin orada gap qochib, bir shapaloq urgan ekan.

- Kim edi u?

- Hozir, hozir aytaman, sex boshlig'i darrov esolmadi. Qandaydir daftarni varaqlab ko'rdi: - Ha, Keldiyorov Sanjar.

- Adresi bormi?

- Bor, - sex boshlig'i daftarga qarab aytdi.

Maqsud Soliyev adresni eshitib, ajablendi. Keldiyorov marhum bilan bir mavzeda yashar ekan. Yana ham ajablanarlisi - qotillik sodir bo'lgan mavzeda. Lekin Keldiyorovning

nomi bolalar inspeksiyasi ro'yxatida uchramagan edi. Shu sababli mayor zavoddan chiqib, to'g'ri inspeksiyaga keldi. Omadini qarangki, leytenant Mullaqo'ziyev shu yerda ekan.

- Pivoxo'rlik yaxshi o'tdimi, o'rtoq mayor, - dedi u, Soliyevni jilmayib qarshi olib.

- Olmoqning bermog'i bor, deydilar. Ziyofatni men yeb, o'g'lini siz o'qishga kiritasiz endi. Chimkentning pivosi ham turibdi meni kutib. Topgan bahonangizni yo'qqa chiqarmaningiz bo'lmas.

- Bundan osoni bormi, hozir nima ko'p, ishdan ketdi ko'p. Sizni ham shular qatoriga kiritamiz-da.

- Xo'p, bu masala hal. Yigirma uchinchi uy sizga qaraydimi? Keldiyorov degan bolani bilasizmi?

- Keldiyorov Sanjarmi? Yetmish birinchi yilda tug'ilgan, a?

- Ha, shu. Ro'yxatda turganmi?

- Turishi kerak edi... Lekin...

- Qani, bir boshidan bayon qiling-chi. «Lekin...»da ancha gap borga o'xshaydi.

- O'rtoq mayor, bu bolani xoli qo'yganingiz ma'qul. Otasining qo'li uzun.

- Shu yurak bilan ishlab yuribsizmi?

- O'rtoq mayor, bilaman, hozir zamon boshqa. Lekin... u odamning qo'li ilgari ham uzun edi, hozir ham... tinch qo'yganingiz ma'qul.

Mullaqo'ziyevning mujmalligi mayorning g'ashini keltirdi.

- O'rtoq leytenant, ogohlantirganingiz uchun rahmat. Endi marhamat qilib, Keldiyorovning qilmishlarini ayting menga, - dedi u qat'iy ohangda.

- Keldiyorov o'ziga o'xshagan to'rt bola bilan pul yig'ib videomagnitofon olgan.

- Videomagnitofon kimniki, yaponlarnikimi?

- Ha.

- Narxini bilasizmi? Bolalar qanday qilib shuncha pul yig'ishi mumkin?

- Aytdim-ku, otalarining qo'llari uzun.

- Yaxshi, davom eting.

- Ular yashirincha videosalon ochib, bolalarga tomoshalar ko'rsatishgan.

- Tekingami?

- Yo'q, pulga. Bir kishiga yigirma besh so'mdan. Biz shu ishni ochdik. Kechasi bosdik. Ertalab hujjat tayyorlayatuvdik, qo'ng'iroq bo'ldi. Shundan keyin o'g'lini zavodga kiritib qo'yuvdi.

- Videosalonda boshqa ishlar bo'lganmi?

- Ochig'ini aytsam... oz-moz nasha ham topiluvdi... Nasha chekisharkan.

- Oz-moz nasha ham topiluvdi deng? «Oz-moz» ishlardan yana bordir?

Leytenant uning o'tkir nigohiga dosh berolmay ko'zlarini olib qochdi.

- Gapiravering, bu oz-moz ishlardan latta hidi kelib turibdi.

- Sizga aytgan ishlarimni kechirsa ham bo'lardi, ammo bir qilig'i... Shuni yopdi-yopdi bo'lganiga armondaman. Bu boyvachcha kechasi kasalxonaga kiribdi, bir o'rtog'i bilan navbatchi vrachdan avval iltimos qilibdi, ko'nmagach do'pposlabdi. Vrachni qo'rqitishdimi, ko'nglini olishdimi, da'vosidan kechdi.

Mayor Soliyev giyohvand yoshlarning kechasi kasalxonalarga bostirib kirishlari, qo'rqitib, urib morfiydan ukol olayotganlarini prokuraturadagi do'stidan eshitgan edi. Sanjar Keldiyorov shularning biri ekan. U shunchaki erkatoy emas, balki jinoyat ko'chasiga butkul kirib olgan, shu ko'chadan jarlik tomon borayotgan odam. Oraga tushib uni shu jar yoqasidan ushlab qolishdimi yo butunlay tubsizlik chohiga itarib yuborishdimi?..

Leytenant hali ham Soliyevga qarashga botinolmay turardi. U mayorni g'azablanyapti deb o'ylardi. Bir jihatdan u haq. Soliyev g'azabga mingan edi. Ammo, u faqat Keldiyorov ishi-ning «yopdi-yopdi» bo'lganidan emas, balki bu «yopdi-yopdi»larning hamon davom etayotganidan g'azabda edi. Shu yoshga yetguncha necha-necha jinoyatni ochdi, ishni «yopdi-yopdi» qilish haqida necha iltimoslar, necha po'pisalar, necha ko'rsatmalar, necha buyruqlar oldi. Biriga chap berdi,

biriga qattiq turdi, biriga bo'sh kelmadi... ammo, yon bosgan kezlari ham bo'ldi. Ayrim hollarda ilojsizlik qildi, suyanadigan qoyasi bo'lmadi. Mana bu yigit ham shu holda: ilojsizlikdanmi, suyanadigan qoyasi bo'lmagandanmi ezilib turibdi. Bor voqeani nima uchun Soliyevga aytyapti? Yo uni qoya deb o'ylab, suyanmoqchimi, kirlangan vijdonini poklab olmoqchimi?

«Men bularga qoya bo'la olarmikanman?» Soliyev xayoliga kelgan savolga javob topa olmadi. Keraksiz fikrlarga berilmalik uchun shart o'rnidan turdi:

- Qani yuring, Keldiyorovnikiga boramiz.

- Axir...

- Yuravering, men u bolani ko'rishim kerak. Bo'ladigan qo'ng'iroqlardan qo'rqmang...

Mullaqo'ziyev noiloj yo'l boshladi.

Eshikni jingalak sochli, yuzlari yumaloq, egniga olachipor ko'ylak-shim kiygan yigitcha ochdi. Mayorni, shubhasiz, tanimadi. Leytenantni esa darrov tanib, qo'lingdan nima ish kelardi, deganday kiborlik bilan qarab qo'ydi.

- Sanjar, uyingda kim bor? - deb so'radi leytenant.

- O'zimman.

- Adang, oying-chi?

- Ketishgan, kurortga.

- Sen ishlaysan shekilli, nimaga ishga bormading? - deb so'radi mayor uning bezbetligidan achchiqlanib.

- Otpuskadaman.

- Demak, har kuni uydasan?

- Nimaydi, kimsiz o'zi, nimaga surishtirib qoldingiz?

- Biz birga ishlaymiz, - dedi leytenant.

- Ustang Mirtillayevni qachon ko'ruvding?

- Ming yil bo'ldi, esimda yo'q.

- Zavodda u seni urgan ekan, shu rostmi?

Sanjar qo'l siltadi.

- Durak on, - dedi u, - meni odam qilmoqchimish. Mehnat maymunni odamga aylantirganmish, mehnat qilmasa, odam qayta maymunga aylanarmish.

- Xo'sh, keyin-chi?

– Nima, keyin?

– Sen indamay ketaverdingmi?

– Nu... so'kdim uni, nimaydi?

– U-chi?

– U urdi! Shu kerakmi sizga?! – Sanjar shunday deb ko'zini lo'q qilib oldi. – A ya mejdu prochem, uni urmadim. Qo'limni harom qilgim kelmadi.

– Vaqti kelsa alamingni olarsan?

– Mi eto posmotrim. Bo'ldimi?

– Bo'ldi. Demak... yolg'izsan?

– Ha.

– Bizni uyga ham taklif etmading? – dedi mayor unga sinovchan qarab.

– Papul begonalarni qo'yma, deganlar, – Sanjar «begonalarni» deb atay burab gapirdi. U o'zining gaplari, ko'z qarashlari bilan militsiya deganlarini sariq chaqaga ham olmasligini oshkor qilib turardi. U mayorning g'ashi kelayotganini bilib atay o'tga moy sepdi. – Siz birovnikiga kirishdan oldin prokuroringizdan order olishingiz kerak shekilli?

– Ha, ruxsat kerak. Qonunni yaxshi bilar ekansan. Xo'p, omon bo'l.

Ko'chaga chiqishgach, Mullaqo'ziyev «endi nima qilamiz?» deganday mayorga qaradi.

– Xonangizda o'tira turing. Men sizga ikki soatdan keyin telefon qilaman, – dedi mayor unga.

Maqsud Soliyevning kayfiyati buzilgan edi. U bunday bezbetlikni birinchi marta ko'rayotgani yo'q. Bundan battarlariga ham duch kelgan. Ahmoqning katta-kichigi bo'lmaydi, deganlariday, beadablik ham yoshga qaramaydi. Sanjarni barchaga shunday muomala qiladi, deyish noto'g'ri. Mayor buni yaxshi tushunadi. Sanjar tarbiya topgan oilada odamlarni navlarga ajratib muomala qilish rasm bo'lganligi sezilib turibdi. O'zlaridan yuqoriroqda turuvchi odamning iti adashib kelib qolsa ham unga salom beriladi, «biznikiga kirib bir vovullab ketmasangiz, xafa bo'lamiz» deb tavallolar qilishadi. Pastroq odamni esa ko'rib ko'rmaganga olishadi. Sanjar leytenantni tanidi.

Otasining qo'li uzunligiga ishonmaganida, militsionerni ko'ri-boq tashvishga tushardi. Endi unga leytenant nima ekan, general kelmaydimi...

Mayor mana shularni o'ylab siqildi. «Bola tarbiyasi haqida radio tinmaydi, televizor tinmaydi, matbuot tinmaydi. Tarbiya esa yaxshilanish o'rniga... – deb o'yladi u. – Xo'p bu odamning bugun qo'li uzun. Ertaga-chi? Ertaga surobi to'g'ri bo'lgach, bu dumbul erkatoy nima qiladi? Dodini kimga aytadi? Buni o'ylamaydi. Ular bugun bilan yashashadi. Agar bu bola Mirtillayevning qotillaridan biri bo'lib chiqsa, unda nima qilishadi? Video, kasalxona voqeasidan quruq chiqishibdi. Qotillikdan-chi? Kim o'rtaga tushadi? Nahot bu safar ham zo'r kelisha?! Nahot men so'nggi ishimni shunday sharmandalarcha yakunlasam?»

Maqsud Soliyev shu ketishida shahar prokuraturasiga bordi. Baxtiga, unga kerakli odam xonasida ekan. U mayorning gaplarini eshitib, gumonlarini taroziga solib ko'rdi.

– Keldiyorovning qo'li uzun edi, – dedi u, – rayoningizdagi-lar ana shu «edi»ni hisobga olishmabdi. Siz vaziyatga qarab erkin harakat qilavering. Keldiyorov aralashguday bo'lsa, o'ziga yomon.

Mayor bu gapdan ancha dalda olib, leytenant Mullaqo'ziyevga telefon qildi-da, kech soat o'n birda uchrashuv tayinladi.

Maqsud Soliyevning rejasi sodda edi. Keldiyorovlar kurortda ekan, demak, Sanjar uchun to'la ozodlik muhayyo etilgan. U bundan foydalanmay qo'ymaydi. Videosalonlari ishini shu uyda davom ettirsa ajabmas.

...Avval qo'shnilarni bezovta qilishdi. O'ng tomondagi eshikdan chiqqan o'rta yosh ayol Soliyevning gapini eshitib:

– Xayriyat-e, haqiqat bor ekan-ku, – dedi-da, guvohlikka o'tishga darrov ko'na qoldi.

Chap qo'shni sal ikkilandimi-cho'chidimi, darrov rozi bo'lmadi. Mayor «nailoj, yuqori qavatdagilarni chaqirib tushamiz» degandan keyin ko'ndi.

Eshik qo'ng'irog'ini qo'shni ayol chaldi.

Sanjar yarimyalang'och holda eshikni ochib, ayolga o'qraydi. Keyin Maqsud Soliyevni ko'rib cho'chib tushdi-da, eshikni yopmoqchi bo'ldi. Mullaqo'ziyev oyoq tirab olmaganida yopib olardi ham.

– O'zing aytganday, mehmonga ruxsatnoma olib keldik, – mayor shunday deb orderni uzatdi. – Yolg'izmisan, yo mehmonlar bormi?

Mayor javob kutmay ichkari kirdi.

– Sen joyingdan qimirlama, – dedi mayor, hamon talmov-sirab turgan Sanjarga. Keyin guvohlarga qaradi: – Sizlar men bilan yuringlar.

Ichkari xonada ajnabiy tilda so'zlashuvlar quloqqa chalindi. Mayor eshikni asta ochib, qaradi. Televizorda ajnabiy film, xonada esa filmdan qolishmaydigan tomoshalar bo'layotgan edi. Qo'shni xonalardan ham g'o'ng'ir-g'o'ng'ir ovozlari chiqardi.

Mayor televizor qo'yig'liq xonaga kirib chiroqni yoqdi. Yarimyalang'och qizlar va bolalar cho'chib tushishdi. Militsonerni ko'rib qizlar chinqirib yuborishdi.

– Manavilarga qarab qo'yinglar, – dedi mayor guvohlarni ichkari taklif etib. Keyin «teletomoshabinlar»ga qat'iy buyurdi: – Hamma o'z joyida qolsin. Leytenant manavi qo'lbola sigaretlarni yig'ib olib, so'roqni boshlang.

Boshqa xonalarda kichikroq davralar bor edi.

Sanjarda avvalgi bezbetlik, qat'iyat yo'q, aksincha sarosima mavjud edi. Mayor uning telefonga qarab-qarab qo'yayotganini sezdi. «Kimdandir najot kutyapti yo kimgadir arz-dod qilmoqchi. Qani, kimga ekan?»

– Senga birov telefon qilmoqchimidimi? – deb so'radi mayor undan.

– Yo'q... Men telefon qilib olsam maylimi?

– Mayli, telefon seniki, – dedi mayor. U Sanjar tergan raqamlarga razm solib, yodiga muhrladi. Narigi tomonda go'shak ko'tarildi shekilli, Sanjar mayorga tezgina qarab oldi.

– Men Sanjarman, – dedi u, – uyimizda mehmon bor. Militsiya...

Tamom. Gap shu bilan tugadi.

- Sen endi ichkari kir. Leytenantning so'rog'iga javob ber, - dedi mayor. Sanjar kirib ketgach, telefon go'shagini ko'tarib, boshqarmaga qo'ng'iroq qildi-da, Sanjar tergan raqamlarni aytdi: - Telefon egasini tezda aniqlab bering. Ish joyini ham.

Boshqarmadan javob hayallamadi. Sanjardan axborot olgan odam - Keldiyorovning yordamchisi ekan. Masala ravshan. Faqat bir narsa qorong'i: Keldiyorov shaharga qaytarmikan yo o'sha yerdan turib telefon orqali ish bitirarmikan?

Xonalarni aylanib chiqqan mayor bir narsaga ajablandi: uyda bir emas, ikkita videomagnitofon, uchta magnitola, fotoapparat... bor edi, hammasi yaponlarniki. Pulga chaqilsa - falon ming so'm. Keldiyorov kambag'al odam emas, uy tutishining o'ziyoq ko'rsatib turibdi buni. Ammo puli oshib-toshib ketsa ham ikkita videomagnitofonning nima keragi bor unga? Qizig'i shuki, to'plangan bolalar, qizlarning bu narsalardan xabarlarini yo'q. Sanjargina «barchasi o'zimizniki» deb turibdi.

Maqsud Soliyev uchun kutilmagan voqealar aynan shu damlarda yuz berdi. Bir o'yi oxiriga yetmay, ikkinchi jumboq qad rostlayverdi. Bolalar, qizlar qotillik yuz bergan kechasi qayerda ekanliklarini o'ylab o'tirmay, shartta-shartta aytdilar. Faqat kichik xonadagi kichik davra ishtirokchilaridan uch bola mujmal javob berdi.

Shu bolalardan birini so'roq qilayotganda telefon jiringladi. Sanjar go'shakni ko'tardi. Mayorga qaradi:

- Ha, shu yerda, - dedi-da, Soliyevni telefonga chaqirdi.

Mayor Soliyev rayon ichki ishlar bo'limi boshlig'i o'rinbosarining ovozini eshitib ajablandi.

- Soliyev, - dedi boshliq o'rinbosari dabdurustdan, - Keldiyorovlarni o'z holiga qo'y. Bola yosh, vaqti-soati kelib, esini tanib oladi. Bir-ikki po'pisa qil-u chiqib ket.

- Tushunmadim? - dedi Soliyev.

- Nimaga tushunmaysan?! - dedi boshliq o'rinbosari. - Erta-indin pensiyaga chiqadigan odamsan, tinchgina ket-sang-chi, nima qilasan Keldiyorovning jig'iga tegib.

– Men arizamni qaytarib olganman, xabaringiz yo'qmi?
 – Qaytib olganmisan-yo'qmi, baribir qiladigan ishingni qilib bo'lgansan. Endi bittagina mukofot olib, tinchgina ketishingni o'yla.

– O'ylamasam-chi?

– Men senga buyuraman.

– Buyrug'ingizni yozma ravishda yuboring. Ishni ana shunda to'xtataman. Keldiyorovingizga aytib qo'ying: men undan zo'rlarini ham ko'rganman.

Soliyev go'shakni shunday deb joyiga qo'ydi. Keyin yana ko'tardi-da, boshliqning uyiga qo'ng'iroq qildi.

Soliyevning gaplarini podpolkovnik bo'lmay eshitdi.

– Nozik ishga duch kelibsiz, – dedi nihoyat u. Keyin bir nafas jim qoldi. Soliyev uning ikki o't orasida ekanini sezdi. Keldiyorov rostdan ham zo'r bo'lsa, podpolkovnikni joyidan jildirib yuboradi. Soliyevning ishi oson: pensiyaga chiqadiketadi. Endigina qad rostlayotgan podpolkovnik esa boshqa ko'karmaydigan bo'lib yerga kirib ketishi mumkin. Podpolkovnik jimib qolganda shularni o'yladimi ekan? Nihoyat, boshliq tilga kirdi: – Nimani lozim ko'rsangiz, shuni qiling. Yosh bola emassiz!

Shu bilan gap tamom. Podpolkovnik nima demoqchi bo'ldi? «Yosh bola emassiz, o'rinbosarim bilib aytgan, uning yo'rig'idan chiqmang», dedimi yo «Yosh bola emassiz, kim nima desa yo'rg'alab ketaverasizmi», dedimi? Ha, Soliyev yosh bola emas. Boshliqqa telefon qilishdan maqsad maslahat so'rash emas, balki charxpalak o'yinining boshlanganidan xabardor qilish. Balki Soliyev kechikkandir, Keldiyorovning shotirlari undan avvalroq podpolkovnikka telefon qilib, uni pishitib qo'yishgandir?

Maqsud Soliyevning ko'ngli xira bo'lib, ichkari xonaga kirdi. Haligina boshlarini xam qilib o'tirgan bolalar telefonning kuchini sezishgan shekilli, qadrlarini rostlab, oyoqlarini chalishtirib o'tirib olishibdi. Ko'z qarashlaridan: «Akaxon, nima qilardingiz bizning maishatimizni buzib, bir telefonlik holingiz bor ekan-ku?» degan ma'noni uqish mumkin edi.

– Ayrim o'rtoqlar sizlarga jon kuydirishyapti. Tinch qo'ying, deyishyapti, – Soliyev shunday deb bolalarga bir-bir tikildi. Ularning nigohidan bulutni yorib chiqqan oftobmisol nur chaqnab chiqdi.

– Biz boshqa qilmaymiz, va'da beramiz, bizni qamamang, amakijon, – dedi bolalardan biri kinoya ohangida.

– Sizlarni hozir qamash niyatim yo'q.

– O, shundaymi, minnatdormiz sizdan.

– Gap bunday: telefon qilganlar chuchvarani xom sana-shibdi. Jumladan, sizlar ham. Shuning uchun hozir o'tirib, ikki kun avval qayerda bo'lganingizni yozib berasiz.

– Keyin bizga javobmi?

– Shoshilib nima qilasiz? Axir uyingizda bu tun sizni kutishmaydi-ku? Agar uyga qaytg'ingiz kelayotgan bo'lsa, marhamat, ota-onangizga telefon qilamiz, olib ketishadi.

– Uyimizda telefon yo'q.

– Shundaymi, unda boshqa yo'l qilamiz. Leytenant, shahar navbatchisiga telefon qiling: bir guruh noma'lum shaxslar, balog'atga yetmagan yoshlar jinoyat ustida qo'lga olindi, adreslar bo'yicha ota-onalariga xabar qilishsin. Qizlarning yotoqxonalariga borib, ma'muriyatni olib kelishsin.

Leytenant Mullaqo'ziyev xo'p, deb o'girilgan ham ediki, bolalardan biri o'rnidan turib ketdi:

– To'xtang, bo'пти, mushuk-sichqon o'ynamaymiz. Uylarimizda telefon bor. Lekin bilib qo'ying, biz ko'chada sanqib yuradigan tashlandiqlar emasmiz. Otalarimiz tinch qo'yishmaydi sizlarni.

– Leytenant, telefonlarni yozib olib, ishga kirishing, – dedi mayor u bolaning gapiga e'tibor qilmaganday.

Qo'yib berilsa-ku, bu bezbetning tumshug'ini yerga ishqardi-ya, ammo xizmat burchi bunga yo'l qo'ymaydi. Soliyev qanchadan-qancha jinoyatchiga duch keldi. Ba'zan jinoyatchini shartta otib tashlashni istardi ham. Ammo o'zini tutib qolardi. Tal'at bir tomondan haq. Bu bolalarning tarbiyasini endi tuzatib bo'lmaydi. Endi ular battar bo'lsa-bo'ladiki yaxshi tomonga o'zgarmaydi. Jamiyatni bulg'ab yashayvera-

di. Daraxtga qurt yo shira tushsa, dori sepib, chora ko'riladi. Bundaylarga esa chidab yurilaveradi. To'g'ri, jinoyatchini aksari o'zini o'nglaydi. Soliyev buni tushunadi, bundaylarga imkoniyat yaratib berishni o'z burchi deb biladi. Ammo tuzaladigan jinoyatchilar boshqa, mana bundaylar boshqa. Bular «men ham jamiyatga foydam tegadigan odam bo'lishim kerak» demaydi. «Men xojaman, jamiyat qulim, nima istasam shuni qilishim shart», deydi.

Bola to'g'ri dag'dag'a qilgan edi: ularning otalari, ayrimlarning onalari ko'pga so'zi o'tadigan odamlar ekan. Ayrimlari voqea qisqa bayon etilgach, qo'yib yubora qoling, deb iltimos qilishdi, ayrimlari do'q urishdi, faqat ikkitasigina «hozir yetib boraman», deb gapni kalta qildi.

Bu orada yana telefon jiringladi. Sanjar go'shakni qulog'iga olib keldi-yu, birdan tund chehrasi yorishib ketdi.

– Da, papul, vse v poryadke, – dedi u mayorga tikilgan holda, – prosto oshnalar bilan o'tiruvdik. Nichego ploxogo. Net, papul, ne boldeli. Te je rebyata. Xo'p, – u mayorni imlab chaqirdi, – sizni so'rayapti, dadam.

Mayor go'shakni oldi:

– Mayor Soliyev, – dedi u quruqqina qilib.

– Keldiyorovman, – deb eshitildi vazmin ovoz, – nima gap, o'rtoq mayor?

– Man etilgan ishlar bilan shug'ullanishyapti bolalar.

– O'rtoqlarning uchrashuvi man etilganmi?

– Uchrashuv man etilmagan, ammo buzuqchilik bilan shug'ullanish, nashavandlik qilish jinoyat hisoblanadi.

Keldiyorov jimib qoldi. Aftidan, birinchi hodisadan o'g'lini qutqarib olgach, «tarbiyaviy soat» o'tkazgan, Sanjarning va'dasiga ishonib, dam olishga xotirjam otlanganga o'xshaydi.

– O'rtoq mayor, sizdan iltimos, bolalarning sho'xligini afv eting. Qaytib borganimda siz bilan bafurja gaplashaman.

– O'rtoq Keldiyorov, bu sho'xlik emas, jinoyat.

– Yaxshi, jinoyat bo'lsa jinoyat! – Keldiyorov g'azabini oshkor qilib qo'ydi. – Biz siz bilan til topisharmiz, a?

– O'rtoq Keldiyorov, telefon qilganingiz yaxshi bo'ldi: aytinch-i, uyingizda nechta videomagnitofon bor?

– Bitta ham yo'q.

– Yapon magnitolasi-chi?

– Bunaqa narsalar yo'q menda. Nimaga so'rayapsiz?

– Foto bilan o'zingiz shug'ullanasizmi yo Sanjarmi?

– Gapni aylantirmang. Men sizga til topishib ketamizmi, dedim. Gapimga tushungandirsiz?

– Gapingizga tushunmadim. O'g'lingizni aytishicha, uyingizdagi ikki videomagnitofon ham sizniki emish. Shunday deb yozib ham berdi.

– Shunaqami?.. Men ertaga yetib boraman. Sizdan iltimos, hujjatlarni rasmiylashtirmay turing. Tushundingizmi, biz til topisha olamiz siz bilan.

Mayorning chehrasiga g'olib odamning nuri urildi. Go'shakni qo'ydi-da, ichkari kirib kresloga o'tirdi.

– Dadang fotosuratchilik bilan shug'ullanmas ekanlar. Gaping to'g'ri chiqdi. Fotoapparat o'zingniki ekan. Shu apparatda hech surat olganmisan?

– Ha. – Sanjar vaziyat o'zgarganini bilib muloyimlashdi.

– Sergey Aleksandrovich! – mayor shunday deb o'zi bilan birga kelgan suratkashni chaqirdi. Xonaga tepakal, past bo'yli kishi kirgach, undan iltimos qildi: – Sergey Aleksandrovich, fotoapparatga qiziquvdingiz, mana, egasi tushuntirib beradi.

Suratkash mayorning maqsadini tushunib, javonda turgan yap-yangi fotoapparatni qo'lga oldi.

– Viderjkasi avtomatmi yo'..

Sanjar ularning hiylasini tushundi.

– Hammasi avtomat, – dedi gapni qisqa qilib.

– Diafragmasi qayerda belgilanadi?

– Hammasi avtomat dedim-ku?

– Harholda, qayerdaligini bilarsan?

– Yo'q, bilmayman, hali yaxshi o'rganmadim.

Xullas, shu zaylda Sanjarning fotoapparatni ishlatishdan bexabar ekani ma'lum bo'ldi.

– Leytenant buni ham protokolga kiritib, qo'l qo'ydirib oling, guvohlar ham imzo chekishsin.

Keldiyorovning uyida boshlangan ish shu zaylda davom etdi.

Bu bobga yakun yasamay turib, Tal'at Shomurodov holidan xabar olsak. U bilan erta tongda xayrlashib edik. Bezori qiyofasiga kirgan bu yigit kimlar bilan uchrashdi ekan?

Tal'at avvaliga mayorning gaplarini hazm qilgisi kelmadi. Yotoqxonasiga borib dam olay, deb yotdi-yu, ko'ziga uyqu ilinmadi. Mayorning gaplari miyasida g'ujg'on aylanaverdi. Xizmat burchi nuqtayi nazaridan olib qaralganda mayor haq: jinoyatchilarni botqoqdan tortib chiqarib, odam qatoriga qo'shish kerak. Bo'ladigan odam bir marta qoqilgandan keyin ko'ziga qarab yuradi, boshqa qoqilmaydi. Ikkinchi, uchinchi marta jinoyat qilganlar-chi? Ularning tuzalishiga kim kafolat beradi, mayormi? Yo'q, hatto u ham ishonch bilan kafolat bera olmaydi. Kechagi qotillar orasida, hech bo'lmasa, bir marta o'tirib chiqqanlar ham bor. Xo'sh, ular qo'lga olinib, jazosini tortib chiqqach, yaxshi odamlarga aylanadimi?

Tal'at mana shularni o'ylay-o'ylay, o'yiga yetolmasdan oxiri qo'l siltadi. «Mening vazifam – jinoyatchini ushlab, qolganiga qonun bor. Qonun nima buyursa – shu», degan qarorga keldi.

Biroz hordiq chiqargach, mayor aytgan hujjatlarni oldi-yu, to'g'ri pivoxonaga bordi. U yerda ish qizg'in: katta yuk mashinasiga kecha bo'shagan shishalar ortilardi. Pivo to'la shishalar ortilgan yuk mashina esa kutib turardi. Bu Tal'at uchun ayni muddao edi. U to'g'ri pivoxona xo'jayiniga ro'para bo'ldi:

– Qarashvoraymi, shef? – dedi. Shoshilib turgan xo'jayin arzon xizmatkorning o'z oyog'i bilan kelib qolganidan mamnun bo'ldi.

– To'rttaga ko'nsang, mayli, qarashvor, – dedi.

– To'rt donami? – dedi Tal'at norozi ohangda.

– Xo'p, besh shisha beraman.

– Yo'q, oltitadan kamiga bo'lmaydi.

Xo'jayin bir to'ng'illab oldi-yu, noiloj ko'ndi. Tal'at olti shisha evaziga mashinadagi pivoni tashib beradigan bo'ldi.

Ishini yakunlashi bilan xo'jayin olti shisha pivoni ajratib, terib qo'ydi.

- E, hozir ichmayman, - dedi Tal'at, - nima, bir o'zim ichib, alkashmanmi? Odamlar kelsin, hamsuhbat topay. Ungacha xolodilnikda tura tursin.

-Vey, ja bez bola ekansan-ku! Kechayoq biluvdim. Tuppa-tuzuk odamning pivosini tortib olding-e.

- Tuppa-tuzuk odamingiz icha olmagandan keyin nima qiladi o'zini qiynab. Pulini berdim, oldim. Men tekinga tomoq yemayman. Tekin tomoq tanni toza qiladi, deganlar boshqalar. Umuman, xo'jayin, agar ko'nsangiz besh-o'n kun sizga qarashib turay. Pasport qo'lga tegsa, ishga kirib ketaman. Ungacha menga ham ermak kerak. Ammo mendan qo'rqmang. O'g'ri emasman. Faqat qo'lim qichib turadi. Birov jig'imga tegsa ayamayman. Sizga birov oliftalik qilsa, menga ro'para bo'laveradi, mana, qog'ozim, ishonmasangiz ko'ring.

Xo'jayin «qamoqdan ozod qilish haqidagi guvohnoma»ni sinchiklab o'qisa ham tushunmadi.

- Nimaga qamalgansan?

- Yozib qo'yibdi-ku, 204-modda. Bezorilik uchun. Bittasi-ning jag'ini teskari qilib yuboribman.

- Bo'lmaydi, sendaqalarga qayishib, balo orttiraman.

- Bo'lmasa-bo'lmas, oltita pivoga itday ishlab beradigan go'lni topib ko'ring-chi?

Xo'jayin biroz o'ylangach, noiloj rozi bo'ldi. Shundan so'ng Tal'at shart qo'ydi:

- Oltita pivoni tekinga berasiz. Qirqtasini sotib olaman.

- Nima qilasan?

- Siz saroyingizni berkitib ketaverasiz, men qolaman, odamlarning hojatini chiqarish kerak-ku?

- Bekor aytibsan, bor, toshingni ter. Seni deb endi...

Xo'jayin gapini tugatib ololmadi. Tal'at shart yoqasidan bo'g'di. Xo'jayinning o'g'li buni ko'rib yordamga tashlanmoqchi edi, Tal'at oyog'ining uchi bilan uning dahaniga sekin

tepdı. Uning uchib tushishiga shu sekin tepki ham yetarli bo'ldi.

– Sen bola aralashma. Shishalaringga Chimkentning yorlig'ini yopishtirib turaver. Biz adang bilan kelishib olamiz. Kelishamiz, a?

– Kelishdik, – dedi xo'jayin, nafasi qaytib. Shundan so'ng yoqasi bo'shadi. – Faqat nariroqqa oborib sotasan. Ana, huv ko'prik ostiga olib bor.

– Qayerda sotishim bilan ishingiz bo'lmasin. Men ikki soatdan keyin kelaman. Kecha o'tirgan joyim bo'sh tursin.

Tal'at bir tavakkal qilgan edi, mo'ljalı to'g'ri chiqdi. Qaytib kelganida stoli atrofida uch yigitni ko'rdi. Bir xilda – pochasi bo'g'ma, tizza yoniga ham shapaloqday cho'ntak tikilgan olachipor shim, olachipor kurtka, «Salamandra» deb dong taratgan oq tuflı kiyib olgan bu yigitlarnı Tal'at kecha ham ko'rgan edi. Ularning kerilib o'tirishidan bildiki, xo'jayin yana o'nta pivoning bahridan o'tgan. Shu yigitlar zo'ri bilan Tal'atning ta'zirini berib qo'ymoqchi bo'lgan. Tal'at yigitlarga yaqinlashdi-da, ularga hech nima demay xo'jayinni imlab chaqirdi.

– Stolning bandligini bu ukalarga aytganmisiz? – dedi Tal'at qo'pol ohangda.

Bunday bo'lishini kutmagan xo'jayin talmovsirab «ha» deb yubordi.

– Siz xolodilnikdagi oltita pivoni olib keling. Ungacha ukaxonlar joynı bo'shatishadi, – dedi Tal'at yigitlarga bir-bir qarab. Ular ham o'zaro ko'z urishtirib olishdi, ammo indashmadi. Tal'at stol ustidagi qopqog'i ochiq turgan shishani so'ramasdan olib, ko'tardi. Yarmını ichib, joyiga qo'ydi-da, to'rda o'tirgan yigitga qaradi:

– Joynı bo'shatish kerak, ukam.

– Ertaga kelsang, bo'shaydi, – dedi yigit unga o'qrayib.

– Bugungi ishni ertaga qo'yib nima qilamiz. Yur, erkak, otamlashaylik.

Ularning uchovi baravar turib tashqariga yo'nalishdi. Tal'at esa shoshilmay, stullarnı qiyshaytirib, suyanchiqlarını

stolga tirab, yondagi stolda o'tirganlarga «qarab turinglar, band», dedi-da, bamaylixotir yurib, tashqariga chiqdi.

Pivoxona xo'jayini ulardan ko'z uzmay qarab turgani bilan uchta yigitning qanday qilib uch tomonga uchib tushganini bilmay qoldi. Yigitlar birin-sirin turib yana Tal'atga tashlanishdi, biroq yana avvalgiday uchib tushishdi. «Bola emas, balo ekan-ku, bu», deb qo'ydi o'zicha xo'jayin.

Tal'at uchala yigitni boshlab qaytdi. To'g'ri peshtaxta ortiga o'tib xo'jayinning stulini oldi-da, band qilib qo'ygan stoliga bordi. U xuddi pivoxona xo'jayiniday erkin harakat qilardi. Bu o'yinda yutqizganini fahmlagan xo'jayin g'azabi-ni sezdimadi. Muloyimlik bilan kelib, oltita muzdek pivoni qo'yib ketdi.

Suhbat avvaliga qovushmadi. Uch yigit alamdanni, qo'ruqvdanmi harholda haligacha o'ziga kelolmagan edi. Tal'at esa xuddi hech narsa bo'lmaganday ularni bir tog'dan-bir bog'dan qilib gapga tutishga harakat qilardi.

Uchta stol narida bir g'ilay ikki o'spirin bilan o'tirardi. Ular kecha ham shu yerda edilar.

– Anavi kim? – dedi Tal'at yonida o'tirgan yigitga qarab.

– G'ilaymi? Qamar degan bola.

– Kunda-shundami?

– Hushiga kelsa, har kuni shu yerda, bo'lmasa yo'q.

– Kunda-shundalar ko'pmi?

Yigit bir-ikki odamni ko'rsatdi.

– Bularda ishing bormi?

– Pul kerak, – dedi Tal'at. – Ishga kirgunimcha pul kerak.

– Bizda pul yo'q.

– Bilib turibman. Senlar oliftalikni bilasanlar. Qamar-da-chi, bormikin?

– Uning qo'lida ko'p pul ko'rmaganman. Mayda bolalarni oldiga to'plab balki pinhona ishlar?

– Manavi ikkita pivoni qo'yib kel, stoliga, keyin o'zini chaqiramiz.

Qamariddin pivoni noxush qabul qildi. Yonidagi bolaga bir nima degan edi, u chaqqon o'rnidan turib pivoxona xo'ja-

yuniga bordi-da, peshtaxta ortidan sakkizta pivo olib Tal'atning stoliga keltirib qo'ydi.

- Bizbop ekan bu Qamariddin, - dedi Tal'at, - borib chaqirib kel, Graf chaqiryapti, de.

Qamariddin taklifni eshitib, turishga shoshilmadi. Oldidagi pivoni ichib bo'lgandan keyingina o'rnidan asta qo'zg'aldi.

Tal'at o'tirgan joyida unga qo'l uzatdi. Qamariddin ham qo'l uchida so'rashdi.

- Men Grafman, eshitganmisan?

- Graflar ko'p. Qaysi birisan?

- Kurortdan keldim.

- Kurortdan kelganlar ham ko'p. Nima demoqchisan?

- Ishga kirgunimcha pul bilan joy kerak.

- Kerak bo'lsa, qidirib top.

- Yordam bermaysanmi?

- Men bunaqa ishlarni tashlab yuborganman.

- Sen mehmondo'stlikni unutilib qo'yibsiz, eslatib qo'yishim mumkin?

- Yur, - Qamariddin shunday deb o'rnidan turdi.

Qamariddinning o'ziga bunchalik ishonishida jon bor ekan. Bir-ikki hamlasi ustalik bilan qaytarilgandan keyin Tal'at buni sezib, olishishni bas qildi.

- Menbop yigit ekansan, ke, do'st bo'laylik.

Tal'atning uzatgan qo'li muallaq qoldi.

- Mendan uzoqroq yuraver, Graf! - Qamariddin shunday dedi-da, eshik og'zida poylab turgan ikki o'spirinni ergashtirib katta yo'l sari ketdi.

Tal'at uning harakatiga tushunmay biroz gangib turdi-da, keyin joyiga qaytdi.

- Menbop yigit ekan, - dedi u, - kelishib oldik. Ha, nima-ga soatlaringga qarayapsanlar, qaytishlaring kerakmi? Bo'пти, men har kuni shu yerdaman.

Yigitlar turib ketishi bilan Tal'at kecha tanishgan ulfatlaridan biri hovliqib keldi.

- Baxtimdan aylanay, siz bor ekansiz. Nomardlar ishdan keyin olib qolib majlis qilsa deng. Qayta qursang quraver-

maysanmi, nima qilasan bizni gangitib? – u shunday deb shishani ko'tardi-da, yutoqib-yutoqib ichdi.

– Rosa chanqabman, shu majlisni deb kech qoldim. Qayta qurishni aytaman, bizga vaqtida g'isht ber, vaqtida siymon ber, ishingni qotirib tashlaylik, – u ikkinchi shishani ko'tardi. – Eshitdingizmi, bir odam cho'kibdi. Shu yaqin orada cho'kkanmish. Tanirdim uni. Bolalariga javr bo'пти.

– Xurmachaga qarab ichmagan-da.

– Be, ichgan bo'lsa, ikkita yo uchta ichgandir. Chanqovbosdiga kirgan ekan. Laqillab ancha o'tirdi. Hayronman, qanday qilib suvga tushib ketgan ekan?

– Bitta-yarimta urib tashlab yuborgandir?

– Be, uni urib kim baraka topardi. Birovda qasdi bo'lmasa. Yana kim biladi, birov ursa, milisa aralashmaydimi, tinch-kular?

Ulfat javragandan-javradi. Tal'at bugungi ishini bajarib bo'lgan edi. Unga «hozir kelaman», dedi-yu, chiqib ketdi.

Mayor Maqsud Soliyev bilan Tal'at Shoumarovning ishlari haqidagi hikoyamiz xiyla cho'zilib, muhtaram o'quvchimiz Asror bilan uchrashuvga betoqat bo'layotgandir. U holda biz Tal'atni tun qo'yniga uzatamiz-u o'zimiz tong bilan Asrornikiga mo'ralaymiz. Qotillikdan keyingi navbatdagi tun iskanjasi-da arang qutulgan Asrorni nonushta ustida uchratamiz.

XUMDA KATTA BO'LGAN BOLA

*yoхуд Asrorning sinfdoshlari oldidagi sharmandalikdan
qutulib qolgani haqida hikoya*

Asrorning nonushta qilgisi yo'q edi. Shunday bo'lsa ham noiloj katta xonaga chiqdi. Ukalari allaqachon joy-joylarini olgan. To'rda dadasi. Bir narsadan quruq qolayotganday shoshilib choyini ichyapti. Uning odati shu, gapirganda ham tez gapiradi. Ishlaganda ham tez ishlaydi. Dadasi Asrorning salomiga alik olmadi. Bu – xafalik alomati. Asror kecha u aytgan joyga bormadi. Borib doira chaladigan ahvolda emasdi.

Asror yolg'izlikni, faqat yolg'izlikni istardi. Qamariddin buni tushundi. Uni xoli qo'ydi. Ammo dadasi... Dadasida ayb yo'q. Axir u o'g'lining ahvolidan bexabar-ku... Unga tushuntirib bo'lmasa, aytib bo'lmasa...

Ma'suma erining fe'lini bilgani uchun Asrorga ko'z qarashi bilan «parvo qilma, jahlidan tushib qoladi», deb dalda berdi.

Nonushta osoyishta, aniqrog'i, o'lik bir sukutda davom etdi. Ma'suma bunga toqat qilolmadi. Nonushtadan keyin aytmoqchi bo'lgan gapini hozirning o'zida aytib yubora qoldi:

- Dadasi, eshitdingizmi, Mirqosim aka olamdan o'tibdi, - dedi u eriga qarab.

- Mirqosim akami, qachon? Nima bo'пти?

- Anhorga cho'kkanmishlar.

- Anhorga? Cho'milibdimi?

- Yo'g'-a, birov yiqilibdi, deydi, birov o'ldirib tashlashgan-dir deydi. Pivoxona o'lgur bor-ku, o'shaning yaqinidan chiqib-di jasadlari.

Asror piyolani ko'targanicha qotib qoldi. Bu o'sha odam-mi? Uni ota-onasi tanirkanmi? Demak, uning qarashi... Asror-ni taniganmi u? Nima uchun u - Asror tanimadi? Yaxshi ham-ki onasi gapirib qoldi, bo'lmasa Asror shu qotganicha qancha turardi, bilmaydi.

- Asror, dadang bilan borgin fotihaga, bechora kich-kinaligingda seni yaxshi ko'rardi, iloyim endi yaxshi ko'rma-sin.

«Yaxshi ko'rib yoniga chaqirmasin», degan ma'noda aytil-gan bu gap Asrorga «Sen uni o'ldirding, shu sabab endi seni yaxshi ko'rmasin», deganday tuyulib, badani titrab ketdi.

- Buning tanimaydi ularni, esida yo'q, - dedi dadasi.

- Ha, bordi-keldi bo'lmaganidan keyin... Asror, ular esing-da yo'qmi?

Asror javob beradigan ahvolda emasdi. Bosh silkitib qo'ya qoldi.

- Biz ularnikida ijaraga turganmiz. Biram yaxshi odamlar edi boyaqishlar. Kuzda xotini to'ppa-to'satdan qaytish qilib beruvdi. Endi o'zi... bolalariga javr bo'ldi.

- Nechta edi bolasi? – deb so'radi dadasi.
- Oltita shekilli? To'ng'ichi Asrordan ikki yoshgina katta-da.
- Bolalarning rizqi o'zi bilan. Qarindoshlari bordir. Bo'lmasa, detdom bor, ko'chada qolishmaydi.

Shu payt ko'cha qo'ng'irog'i chalinib, suhbat uzildi. Shu bahonada Asror o'rnidan turib ketmoqchi edi, otasi «o'tir, gap bor», deb to'xtatdi. Asror uchun sira kutilmaganda onasi Zoir bilan Turobni boshlab kirdi. Asror ularning maqsadlarini bilgani uchun ham qafasdagi qushcha holiga tushdi. O'zining dardi o'ziga yetarli edi. Endi uyatdan yorilib o'lishi kerakmi? Shubhasiz, ular pul olib kelishgan. Pulni sinfdagi bolalar to'plab berishgan. Asror Zoirga gapirgani bilan unga gap ta'sir qilmagan, baribir aytganini qilgan.

Zoir – muomalaga usta bola. Kira solib Asrorning dadasi bilan eski qadrdonlarday quyuq so'rashdi.

- Hofiz amaki, bir xizmat chiqib turibdi, yo'q demaysiz. Do'stimiz opasini uzatyapti, shunga mana, xamir uchidan partir, – u shunday deb bir dasta pul uzatdi. – Hozircha uch yuz. Qolganini kelisharmiz?

- Iye, iye, ovora bo'libsiz-ku, o'g'lim. To'y qachon o'zi? Bi-laylik-chi?

Turob aytdi. Asrorning dadasi daftarchasini varaqladi.

- Baxtingizni qarang, shu kuni bo'sh ekanmiz. Mana, Asrorbek bilan bi-ir qizitib beramiz to'yni, bu yog'idan xavotir bo'lmanglar. Qani, choyga marhamat.

Bolalar darsga kechikamiz, deb unashmadi. Ular Asrorga «yur, sen ham borasanmi maktabga», deyishmadi ham. Xuddi uni ko'rmaganday chiqib ketishdi. Bundan ko'ra Asrorni do'pposlashmaydimi, sen ablahsan, iflossan... deyishmaydimi, eng yomon haqoratlarga bulg'ab tashlashmaydimi?.. Asrorga bunchalik og'ir bo'lmasmidi shunda. Hozir esa... aftiga tupur-ganday qilishdi. Go'yo «o'l, bu kuningdan» deb ketishdi.

Asrorning ukalari birin-ketin turishdi. Dadasi shundagina tilga kirdi:

- Ko'chada turgan mashina, bu uy, bu mol-mulkni men orqalab ketmayman. Hammasi sizniki o'g'lim. Dunyo omonat.

Mendan keyin ukalaringizgi siz boshsiz. Xudo ovozni menga bir umrlik qilib bermagan. Erta-indin ovozdan qolsam, bizga birov bitta non bermaydi. Xudo berib turgan paytda to'plab olmasak bo'lmaydi. Kecha bormadingiz. «Yuz bola»ni yetti yot begona cho'ntagiga solib ketdi. Nimangizga kerilasiz?

Bu sizlab gapirish, bu kinoya jonni bittadan sug'urib olish demak, Asror endi nima qilsin: shart turib o'zini derazadan tashlasinmi yo o'zini tramvayning tagiga otsinmi? Hammasidan birato'la qutula qolsinmi? U odamning (endi uning ismini biladi) ta'qibidan ham, sinfdoshlarning malomatidan ham, dadasining minnatli oshidan ham... barchasidan birato'la qutula qanday yaxshi...

– Dadasi, qo'ying, kecha tobi yo'q edi. Shu paytgacha bir gapingizni ikki qilibdimi?

Onasining ovozi birdan tun bag'riga yopirilib kirgan yorug' nurday bo'ldi. Hozir badbin fikrlarga berilganda nima uchun onasini o'ylamadi? Onasini tashlab qayoqqa ketadi? Shunday mehribon, munis onani alamlar oloviga tashlab ketish mumkinmi?

Asror shunday xayollar qafasi ichida o'tirar edi.

Ota-onasining esa o'ylari butunlay boshqacha:

«Bolaginam kecha o'jarlik qilganiga pushaymon yeb o'tiribdi. Otasiga tik qaramaydi, shunisiga shukur», deb o'ylardi ona.

«Bolaga qattiq turish kerak. Kecha o'zicha bir erkalik qildi. Indamasam, ertaga yana taroziga soladi. Uzib olganim durust bo'ldi», deb o'ylardi ota.

Ota «tavbasiga tayangan» o'g'liga ruxsat berdi. Asror xonasiga kirib qaysi kitobni olishni bilmay garangsib turdi. Bugun qanday darslar bo'lishi mutlaqo xayolidan ko'tarilgan edi. Bundan o'zi ham ajablendi. «Bunaqada jinni bo'lib qolaman-ku» deb o'yladi o'zicha. Keyin duch kelgan kitob-daftarni diplomatga solib, maktabga yo'l oldi. Zoir uzatgan pulni olayotganida dadasidan nafratlangan edi. Hozir o'sha nafrat o'qlari qaytib o'zining yuragiga sanchila boshladi. Dadasini emas, o'zini la'natlay ketdi. «Dadamga tushuntirib aytsam nima qilardi. «Aka-

si Afg'onistonda halok bo'lgan, onasi aqldan ozib jinnixonada yotibdi, ularga qiyin, ko'ngillarini ko'taraylik» desam tushunmasmidilar? «Tomsuvoqlaring jonga tegdi» dermidilar yo?»

Savolga Asrorda javob yo'q edi. Dadasi shunday deb qayirib tashlashi ham hech gapmas.

Endi nima qilish kerak? Qaysi yuz bilan sinfga kirib bora-di? Birdan xayoliga yashin kabi urilgan fikr muzga chulg'anayotgan qalbiga qayta jon ato etdi. Qamariddin!!! Uni bu sharmandalikdan Qamariddin qutqaradi!

U yo'lni Qamariddinnikiga qarab burdi. Eshikni Qamariddinning onasi ochdi. Xushro'ygina bu ayolning ko'zida bu safar g'azab bor edi. Qamariddinning ham kayfiyati buzilgan edi. Asror sezdi: ona-bola jig'illashib olishgan. Qamariddin Asrori o'zining xonasiga boshladi. Orqasidan onasi «Bilib qo'y, bolaning uvoliga qolasan», deganicha qoldi.

Salim Qamariddinning karavotida yotardi. Shu uch kun ichida yanayam ozib, rangi oqargan. Lablarining sog' joyi qolmagan. Ilgarigiday ingramaydi. Holsizgina yotibdi. Asrorning savollariga asosan imo-ishora bilan javob qaytardi: gapirishni yo xohlamadi, yo holi yo'q, yo... og'riqni bosish uchun nasha chekib olgan edi. Asror ertalab uyida bo'lgan voqeani aytib berib, Qamariddindan pul so'radi. Qamariddin uning maqsadini angladi. Javonni ochib pul oldi.

- Ma, to'rt yuz. Yuzi sendan to'yona. Otangni baribir adabini berish kerak. Bir kunmas-bir kun o'zing ham xohlab qolasan buni. Lekin unda Qamar bo'ladimi-yo'qmi... - Qamariddin shunday deb ayanchli jilmaydi. Asror hayron bo'ldi. Uni bu ahvolda sira ko'rmagan edi.

- Men bilan otang o'rtasida nima farq bor, bilasanmi? Bil-maysan. Men o'g'riman. Qo'lga tushsam, ketdim. Otang ham o'g'ri. Lekin u qo'lga tushmaydi. Men odamlarni qon qaqshatib olaman. Otang kuldirib turib, o'ynatib turib yuladi. Farqimiz bormi?

- Qamar so'ksang, o'zimni so'k, otamga tegma.

- Eh, bratishka, senga qiyin, senga rahmim keladi. Ukam bo'lganingdami... Baribir ukamsan. Xohlasang-xohlamasang,

akangman. Yillar o'tib, unutib yuborsang ham mayli. Lekin tirik ekanman, senga akaman. Boshqa gap yo'q.

- Qamar, o'sha odamni topishibdi.

- Bilaman.

- O'zi cho'kkan, deyishayotganmish.

- Yanayam yaxshi. Demak, ishlar yomon emas. Bor, maktabingdan kech qolma.

Qamariddin Asrorning go'lligidan quvondi. Agar shu gapga ishonsa - yaxshi, qo'rqib yurmaydi, dovdiramaydi. Qamariddin esa militsiyaga ko'p narsa ayonligini yaxshi biladi. U odamning kaltaklangani, keyin suvga tashlab yuborilganini uzoqdan bo'lsa ham kimdir ko'rganiga, o'sha «kimdir» xabar berganiga Qamariddin ichki bir tuyg'usi bilan ishonar edi. Shu sababli erta tongda kelib, o'tirgan yerlarida qolgan sigaret qoldiqlari, suv yoqasidagi butaga ilashib turgan shishani suvga otgan, ashyoviy dalillarni shu zaylda yo'qotgan, u odamning qo'lidan tushgan pichoqchani esa ro'molchasiga o'rab cho'ntagiga solgan, keyin vokzalga borib provodnikdan «komandirovka hisoboti uchun» ikkita bilet so'rab olgan edi. Oqshomda esa pivoxonada Maqsud Soliyevni ko'rgach, gumonlari haqiqatga aylandi.

Qamariddinning xotirasi juda yaxshi edi. Bir ko'rgan odamini esdan chiqarmasdi. Mayorni rayon militsiyasida formada ko'rib esda saqlab qolgandi. Uning oldidan pivo olib ketgan yigitni ham xotirasiga muhrladi. Militsiyaning shov-shuvsiz ish yuritayotganiga ishonchi komil edi. Shu sababli kecha Tal'atning uzatilgan qo'li muallaq qoldi. Agar Qamariddin shularni Asroga aytsa bormi, bola bechora adoyi tamom bo'ladi.

Asror Qamariddinnikidan ko'ngli ko'tarilib chiqdi. Bunga faqat pul olgani emas, balki o'sha odamning o'zi cho'kib o'lgani haqidagi xabarni haqiqatga aylanayotgani sabab edi.

Sinfiga kirib ajablendi: hech kim yo'q. Bolalar biron yoqqa ketishdimi yo yoppasiga darsdan qochishdimikan, deb o'ylab hovli tomon yo'l olganida zal tarafdin komsorgning ovozi keldi:

– Mirisayev, qayoqqa ketyapsan!

Asror nolloy zal tomon yurdi.

– Nimaga ma'ruzaga kirmading, nima ja-a aqlli bo'p ketganmisan, qani kir, tez, – dedi komsorg jahl bilan.

Asror zalga kirganida tepakal notiq ma'ruzasini yakunlayotgan ekan. Asror bo'sh o'ringa o'tirayotganida uning: «Shunday qilib, din afyun ekan, biz unga qaqshatqich zarba berishimiz zarur», degan gaplarini eshitib, suhbat mavzuini angladi. Notiq joyiga o'tirishi bilan zalda g'ala-g'ovur ko'tarildi. Ammo direktor o'rnidan turishi bilan barcha jimib qoldi.

– Tushunarlimi? – dedi direktor salmoqlab, – savollaring bo'lsa, beringlar.

«Savolni Zoirga chiqargan-da», – deb o'yladi Asror. U yanglishmagan edi, oldingi qatorda o'tirgan Zoir qo'l ko'tardi.

– Siz din bilan murosqa qilib bo'lmaydi, dedingiz. Men bu fikringizga qarshiman, – dedi u dabdurustdan. Notiq buni kutmagan edi, direktorga savol nazari bilan qaradi.

– Bu savolingmi yo munozara qilmoqchimisan? – dedi direktor tahdid ohangida.

– Unisiyam, bunisiyam, – dedi Zoir o'zini erkin tutib. – Men bir misol aytaman sizga: buvam namoz o'qiydilar. Urushga borganlarida ham namoz o'qigan ekanlar. Urushda ikkita orden olganlar. Keyin zavodda ishlab yana orden olganlar. Dadam namoz o'qimaydilar, menam Xudoga ishonmayman. Murosaga yo'l yo'q ekan, buvamni nima qilaylik endi?

Notiq kuldi:

– Buvang din emas, dindor. Dindorlarni qayta tarbiyalash kerak.

– Yana bitta savolim bor.

– Marhamat, savol-javobdan haqiqat yuzaga chiqadi.

– Siz machitni zulmat uyi dedingiz, unda diskoteka, restoranlarni nima deysiz?

– Kechirasiz o'rtoq, maqsadingizni tushunmadim, ularning dinga nima aloqasi bor?

– Diskotekadan, restoran, bardan chiqqan odamlar mushtlashadilar, bir-birlarini o'ldiradilar. Zulmat uyidan chiqqanlar

esa tinchgina uy-uylariga ketadilar. Jamiyat uchun qaysi biri zararli, shuni bilmoqchiydim?

Zoir shunday dedi-yu, nima uchundir orqasiga o'girilib qaradi. «Meni aytmoqchi?» deb o'yladi Asror. Uning diskotekalarga borib turishini Zoir bilardi. Hozir shunga shama qildimi yo «o'ldiradilar» deganda... Asrorning kallasiga shu fikr kelib yuragi uvishib ketdi. Keyin «yo'g'-e, u qayerdan bilsin», deb o'ziga-o'zi dalda bera boshladi.

Zalda boshlangan g'ovurni direktorning ovozi bo'ldi:

– Ismatov! Sen mahmadana, gapni chalg'itma, o'tir. Savoling ko'payib qolgan bo'lsa, darsdan keyin oldingga kirasan. Yana kimda savol bor? Yo'q bo'lsa, o'rtoq ma'ruzachiga maktab ma'muriyati nomidan minnatdorlik bildiraman.

Qarsaklar yangradi. Ikkita qiz gul olib chiqib notiqqa berdi. Direktor notiqni qarsaklar guldurosi ostida olib chiqib ketgach, sahnaga komsorg ko'tarildi.

– To'qqiz «A» qolsin, boshqalarga ruxsat, – deb e'lon qildi u. Zalda Asrorning sinfi qolgach, minbarga qalami bilan «to'q-to'q» urib, bolalarga tahdid bilan qaradi:

– To'qqiz «A»ga tushunolmay qoldim. Mirisayev jamoat ishidan bo'yin tovlaydi, adabiyot darsida insho yozmay chiqib ketadi, geografiya darsida o'zini tutolmaydi, ammo sinf jamoatchiligi, komsomol tashkiloti hech nima bilmaganday xotirjam. Sinf komsorgi qani? Karimberdiyeva, ish rejasini qayta tuz. Mirisayev axloqini komsomol majlisida ko'rish kerak.

– U komsomol emas-ku? – dedi komsorg qiz.

– Bilaman, biz bunday anarxiyaga yo'l qo'ya olmaymiz. Yaxshisi, bunday qilamiz: uni avval komsomolga o'tkazamiz-da, keyin sharmandali ravishda o'chiramiz. Endi Ismatovning bugungi axloqi haqida: men unda antiateistik kayfiyat sezdim. Sizning sinfingizda ateistik mavzuda alohida suhbat o'tkazamiz. Karimberdiyeva, eshitdingmi, yozib qo'y. Sen, Ismatov, buvangni urushda qatnashganini ro'kach qilma. Necha marta taklif qildik buvangni, biron marta uchrashuvga keldilarmi?

– Nimaga kelmasliklarini bilasiz-ku, Turob, sen aytgin.

– «Men birovlarga maqtanish uchun jang qilmaganman», deganlar. Lekin, ikkita «Shuhrat» ordenlari bor, o'zim ko'rganman.

– Bo'пти, buni bizga ahamiyati yo'q. Kelmasalar, yalinmaymiz. Lekin senga, Ismatov, diniy tashviqot o'tqazishingga yo'l qo'ymaymiz, bilib qo'y. Majlis tamom, sinflaringga boringlar.

Sinfga hamma kirishi bilan Asror Zoir bilan Turobni yoniga chaqirdi-da, cho'ntagidan pulni chiqardi.

– Dadam xafa bo'ldilar. Seni deb men ham gap eshitdim. Ma, bolalarga qaytarib ber, – dedi Zoirga. Keyin yuz so'mni Turobga uzatdi: – bu bizdan to'yona ekan.

– Kerakmas, – dedi Turob qo'lini orqasiga qilib.

– Olaver, – dedi to'satdan ular yonida paydo bo'lgan Otaulla, – olaver, to'yonadan yuz o'girish mumkinmas. Senam bir kun qaytararsan. Zoir, buni ham ber Turobga, sinfdan to'yona.

– Yo'q-yo'q, – Turob shunday deb orqaga tisarildi, – xafa bo'laman... maktabdan ketib qolaman, shunday qilsalaring. Hamma narsa bor, yetarli. Faqat ashulachi yo'q edi. Zoir, bolalarga qaytarib ber.

– Bo'пти, olmasang olma. – Zoir shunday deb pulni cho'ntagiga soldi. – Bozor qilmalaring.

Darslar tugagach, Asror ko'chaga chiqib, Dilfuzani kutdi. Dilfuza tanaffusda ham ko'rinmagan edi. Asror ancha kutdi. U chiqavermadi. Endi ketaman, deganida Zoir ko'rindi.

– Dulfuzani kutyapsanmi? – dedi Zoir unga yaqinlashib, – bugun kelmadi shekilli?

– Qayoqdan bilasan?

– Sening basharangdan bilaman, – dedi Zoir kulib.

– U menga singil qatorida, gapni boshqa yoqqa burma.

– Bilaman, darrov to'ng'illama, hazillashdim.

– O'zing nimaga qolib ketding?

– Komsorging bilan olishdim, ateistik mavzuda. Bilimini sinab ko'rdim.

– Qalay?

– Bir qo'ysam haqqim ketadi. Odam degan bilmagan narsasini bilmadim, deb tan olsa-yu, qo'lidan kelsa o'rgansa. «Hadeb valdiramay, o'qib-o'rganing», dedim.

- Yo'g'-e, shunday dedingmi? U-chi?

- Umi, sendan keyin mening axloqimni muhokama qilsa kerak. Yo birga o'tkazar?

- Yo'q, sen komsomol a'zosisan, sening po'stagingni alohida qoqishadi.

- Ulgurmaydi. Komsomol majlisida o'zini fosh qilib tashlayman. Institutda sirtdan o'qiydigan odamning, komsorgning, bilimi maktab o'quvchisidan past bo'lishi mumkinmi, deb masalani ko'ndalang qo'yaman. Komsorgni o'zimiz saylaymiz, duch kelgan odamni yuqoridan yuborishmasin, deyman. Nima, hozir hamma yerda boshliqlar saylanyapti. Bu yigit eplolmaydi komsorglikni. Haligadaqa ma'ruzachi chaqirib, ish qilyapman, deb kerilib yuradi.

- Bu gaping ham to'g'ri.

- Menga qara, rostdanam pulni dadang qaytarib berdilarimi?

- Ishonmadingmi?

- Adangni sal-pal bo'lsayam bilaman-da. Sen boshqasan, adang boshqa. Sen xumda katta bo'lgan bolasan. Gohi-gohida xumdan boshingni chiqarib qo'yasan-u, keyin dimiqib yashayverasan.

- Bu nima deganing?

- Viktor Gyugoning «Kulayotgan inson» degan asari bor. O'shanda bolalarni xumga solib boqishadi. Odamning tanasi o'sha xumga moslanib beso'naqay bo'ladi. Seni tanangni emas, ruhingni xumga tiqishgan. Odamga o'xshamaysan sen.

- Nimaga o'xshamayman?

- Menga qara, dovdur desam, dovdirmassan, go'l desam, go'lmassan. Adang nima desa ko'naverasanmi? Matematiklar maktabidan indamay ketishingni qara, galvars! Adangga besh yil childir makashlik qilarsan, balki, o'n yildir, keyin-chi? Boshqa bir otarchining quli bo'lib yurasanmi? Qiyin formulalarni yechishga yetgan aqling, shunga yetmadimi?

- Juda o'zingga bino qo'yib menga aql o'rgataverma. Bu vaqtinchalik ish. Men o'qishni tashlaganim yo'q-ku? Ho-

zir dadamga yordamim kerak. Ro'zg'or tebratish og'irligiga o'zingning ham aqling yetmaydimi?

- Ro'zg'orni sensiz ham tebratib oladi. Xo'p, adangning orqasidan ro'zg'or deb yuribsan, anavi bezorilar bilan-chi?

- Buni senga ming marta aytdim. Men borligim uchun ular senlarga tegmaydi. Bo'lmasa, ko'rardilaring kunlaringni.

- Ol-a, sendaqa himoyachidan o'rgildim. Menga qara, Otaulla bilan gaplashdim, haligi pulga chinni serviz oladigan bo'ldik. Nima deysan?

- Yaxshi o'ylabsan.

- Men hecham yomon o'ylamayman.

Muyulishda to'xtadilar. Shu yerda ularning yo'li ajraldi.

- Zoir, sen ko'p kitob o'qiysan. Dadam radioga yangi qo'shiq yozdirmoqchi ekanlar. Akmal Po'lat degan shoirning yangi she'rlarini topib berolmaysanmi?

Zoir bu gapni eshitib, Asrorga ajablanib qaradi.

- Adang so'radilarmi?

- Ha, ko'zing tushsa ol, devdilar.

- Adangni esi joyidami, bu shoirning o'lib ketganiga o'n yildan oshgan-ku?

- Sen qayerdan bilasan?

- Vey, istagan yozuvchingni so'ra, nechta bolasi, nechta xotini borligigacha aytib beraman.

- Unda... qaysi shoirning she'rlarini olsinlar?

- Erkin Vohidovni bilasanmi?

- «O'zbekim»ni yozganmi?

- Xayriyat, bilarkansan. Men ertaga kitobini olib kelib beraman.

Ular shu yerda xayrlashishdi. Zoirning kun tartibi Asrorga ma'lum: borib yuvinadi, ovqatlanadi, kitob o'qiydi, bir soatcha ko'cha aylanadi, keyin dars... «Menga xumda o'syapsan, deydi. O'zi-ku, xumda yashayotgan, bir xilda o'tadi kunlari. Gap desa qop-qop. Gaplariga qarab, hayot qonunlarini shu bola kashf qilganmi deysan», deb o'yladi Asror uning orqasidan qarab.

Aravachaga atalgan pulni hali Dilfuzaga bermagan edi. Shuni berib qo'yay deb Dilfuzaning uyiga yaqinlashib...

A'zamxonovani ko'rdi. Avvaliga nima qilishini bilmay taraddudlandi. A'zamxonova ham uni ko'rgan, berkinishning foydasi yo'q. Shu sababli Asror to'g'ri unga qarab yurib, yaqinlashganda salom berdi. Muallima Asrori birinchi marta ko'rayotganday boshdan-oyoq razm solib «Salom» dedi-da, yo'lida davom etdi.

Eshikni Dilfuza ochdi.

– A'zamxonova senikidan chiqdimi? – deb so'radi Asror.

– Ha... – shunday deb Dilfuza yerga qaradi, – tez-tez keladigan bo'lib qolgan.

– Tez-tez? Nimaga aytmovding?

Dilfuza javob o'rniga yelka qisdi.

– Nimaga keladi?

– Bilmadim... dadam... unga uylanadilar shekilli?

– A? O'zlari aytdilarmi?

– Ha. Bizga rahmi kelayotganmish.

– O'sha xotinda rahm bor ekanmi? Sen-chi? Sen nima deding?

– Mendan so'rasharmidi? Ukalarimni ham bolalar uyidan olib kelishadi shekilli. Seni... bezori bolalar bilan yurishingni aytdi dadamga. Dadamning jahllari chiqdi, ko'rinmaganing yaxshi ularga.

– Ko'rinmayman, bo'пти... balki uning kelgani chindanam yaxshidir. Ukalarining bilan birga bo'lasizlar.

Dilfuza yana yelka qisdi.

– Meni tushunmasa kerak, – dedi xo'rsinib. – U ming yaxshi bo'lgani bilan onamni unutilmayman-ku? Uni balki mehribon ayol sifatida qabul qilishim mumkindir. Lekin ona o'rnida ko'rolmayman. Bu unga borib-borib malol keladi.

Asror unga javoban tayinli gap ayta olmadi. Cho'ntagidan pulni chiqardi.

– Aravachaga ishlatarsan. Bolalar berishdi.

Dilfuza pulni oldi.

– Asror, nima qilay? Qochib ketaymi yo?

– Esing bormi? Qayoqqa ketasan? Avval kelsin-chi, uylaringga, keyin bir gap bo'lar?

– Keyin deysanmi? Mayli kelsin-chi.

Dilfuza shunday deb orqasiga o'girildi. Uning xo'rliqi kelgan edi, Asror sezdi.

– Ertaga birga ketamiz, – dedi uning ko'nglini ko'tarish maqsadida. Dilfuza bosh silkidi. Asror uning yelkalarini titrayotganini sezdi. Bu yoshda begona ayolni ona deb qabul qilishning naqadar og'ir ekanini Asror tushunmas edi.

O'z dardining malhamiga muhtoj yurgan Asror o'zganing qayg'usiga sherik bo'la olmas ham edi. Odamzodga qayg'u-alam botmonlab berilib, misqollab olinadi, deganlaricha bor. Bu navnihollar hayotning zaharli izg'iriniga bemavrid duch kelishdi. Hali yaxshi ildiz otmagan, surhchalari zaif, kurtakchalari endi ko'z ochayotgan daraxt niholini ko'z oldingizga keltiring. Iliq nafasi bilan tabiatni erkalab uyg'otayotgan quyoshga peshvoz chiqaman, deb turganida shamol yopirilsa, osmonni bulut qoplasa, so'ng sovuq yellar yetib kelib niholni bo'g'sa... Hozir Asror ham, Dilfuza ham shu sovuq yellar changalidagi navnihol holiga tushishgan edi.

Dilfuzaga, ko'ngli yarim bechora qizga onasining o'limi kammidi, otasining baxtiqaroligi kammidi?! Bunday bokira qizga bu yozug'ning nima lozimligi bor edi? Otasining uylanish niyatida ekanini, yana kim – o'z muallimasi A'zamxonova bilan turmush qurmoqchi ekanidan xabar topgach, hasratini kimga aytishni bilmay qoldi bu qiz. Hasratini toshga aytsa, tosh tars-turs yorilib ketmasmidi, daryoga aytsa, suv orqasiga oqmasmidi, osmonga aytsa, osmon qoq ikkiga bo'linmasmidi... Qiz bolaning hasratiga tosh chidamasa, suv chidamasa, osmon chidamasa... Yana ham shu mitti yurak chidar ekan. Dilfuza ichiga yutdi dardlari, hasratlarini. Onasining suratiga qarab soatlab gaplashib o'tirdi. Mana shu surat atrofida, oshxonada, mehmonxonada, yotoqda... begona bir ayolning yurishi ko'z oldiga kelganda chinqirib yuboray dedi. Biroq, lablarini tishlab, faryod yo'lini to'sa oldi...

Alamlar girdobida ezilayotgan damda anhor bo'yidagi voqea... U narida turgan edi. Ammo hammasini ko'rdi: tepkilashlarni ham, suvga otib yuborishganlarini ham... Hatto

Qamariddinning cho'ntak kavlayotganini ham ko'rdi. U maktabda bolalarning, ko'chada kattalarning mushtlashishganini ko'rgan. Lekin bunaqa yovuzlikka birinchi duch kelishi. Yodidan ko'tarilmaydi: kichkinaligida dadasi, onasi – uchovlashib mehmondan qaytishayotgan edi. Ro'parasidan ikki mast yigit chiqib dadasiga xiralik qildi. Dadasi bir nima degan edi, do'pposlab ketishdi. Onasi dod soldi. Dilfuzaning o'zi bo'lsa titrab «ada, adajon!» deb yig'lab turaverdi. U o'shandan keyin ko'p o'yladi, u odamlarga dadasi yomonlik qilmagan bo'lsa, nimaga urishadi, atrofda o'tib turgan odamlar nimaga oraga tushib, ajratib olishmaydi? Shunga o'xshagan savollari ko'p edi qizaloqning. Bu savollarga javobi ham bor edi: urganlar ham, ajratmaganlar ham yomon odamlar.

Anhor bo'yida begona odamni tepkilashayotganda Dilfuzaning qulog'i ostida onasi dod deb yuborganday bo'ldi. U o'n yillar naryog'idagi o'sha faryodni eshitdi. Eshitdi-yu, qo'rqib ketganidan quloqlarini kaftlari bilan berkitib oldi. Badaniga titroq turdi. Biroq, yig'lamadi. Tepkilangan odam suvga tashlangach, Qamariddin bir nima deb baqirdi. Dilfuza uning gapini anglay olmadi. Asror kelib uning bilagidan ushlab yugurdi. Dilfuza qoqilib-suqilib ergashdi. U anhor yoqasidan uzoqlashgani sayin onasining faryodi aks sado berib ta'qib qilaverdi. Uyiga kelib zinalardan chiqayotganida ham, ichkari kirganda ham eshitdi bu faryodni. Bu faryodga bolalarning hansirashi, begona ovozning ingrashi qo'shilib ketdi. Yotganda karavotning g'ijirlashi ham birovning ingrashiga o'xshab eshitilib, sakrab turib ketdi.

Momaqaldiroq guldirab, yashin chaqnagan mahalda Dilfuza ham Asror singari boloxonada edi. Momaqaldiroq gumburi uning yuragiga ham dahshat solgan edi. Ammo... uni yupatguchi, «Birdan yuzgacha sana...» deb maslahat berguvchi munis mehriboni yo'q edi. Tunni yolg'iz bir o'zi talvasada o'tkazgan qiz o'ziga mehribon bo'lgan yigitchaning taqdirini o'ylashga, uni himoya qila oladigan bahona qidirib topishga ham imkon topgan edi. «Kinoda edik...» o'sha ahvolda bundan durust bahona izlashga qurbi ham yetmas edi...

Hozircha Asror Dilfuza bilan xayrlashib, A'zamxonovaning maqsadini anglashga, qizning ahvoriga tushunishga harakat qila tursin. Dilfuza ham uyiga qaytib, onasining suratiga qarab iltijolar qilsin. Biz esa rayon militsiyasiga boraylik. U yerda Maqsud Soliyevni hayratga soladigan, g'azabini keltiradigan voqealar kutyapti.

ASPYURISH

yoxud mayor Soliyevni pensiyaga chiqarishga urinish haqida hikoya

Maqsud Soliyev idorasiga kelishi bilan navbatchi boshliq o'rinbosari yo'qlayotganini aytdi. Soliyev yo'qlovning boisi kechagi masaladir, deb o'yladi. U biroz yanglishgan edi. «Biroz» deyishimizning boisi – kutilmagan yo'qlovga kechagi voqea turtki bo'lgan, boshliq o'rinbosarining asosiy maqsadi esa o'zgacha edi. U mayorni kecha hech voqea yuz bermagandek, tunda telefonda gaplashmagandek xotirjam tarzda kutib oldi.

– Sog'liq qalay? – dedi u, mayorga sinovchan nazar tashlab.

– Yomon emas, – dedi mayor ham unga savol nazari bilan qarab.

– Kattalar bilan maslahatlashib, iltimosingizni qondiradigan bo'ldik. O'ttiz yil xizmat qilish katta gap. Xizmatlaringiz qadrlanadi. Biz bu masalani ham kattalar oldiga ko'ndalang qo'ydik. Inobatga olinadi. Arizangiz kimda edi?

Mayor maqsadga darrov tushundi. Demak, tuni bilan telefonlar olishuvi davom etgan. Oxirgi xulosa esa shu – uni pensiyaga uzatish. Mayor o'ttiz yil badalida jinoyatchilar bilan olishib yengilmagan edi. Kelib-kelib bir mishqi tufayli yengilib, kurash maydonidan chiqib ketadimi? O'ttiz yil vijdoniga quloq solib yashashga tirishdi, ishladi, kurashdi. Endi toza vijdon bilan pensiyaga chiqib ketaman deganda jinoyatni yopishga yo'l qo'yadimi? Bular nima deb o'ylashyapti? Bun-

dan to'rt-besh yil ilgari shunday qilishsa tushunarli – zamon zo'rniki edi. Bugun zamon o'zgardi-ku? Yoki bular zamon o'zgargani quruq gap, zamon hali ham zo'rniki, deb ishoni-shadimi? Tal'atning qonunga ishonmasligi to'g'ri bo'lib chiq-maydimi u holda?

– Ariza o'zingizdami?

Bu savol mayorni chulg'ayotgan xayollar bulutini tarqatib yubordi.

– Qanaqa ariza? Ariza yo'q, – dedi u dadil. – Menga qotillik-ni ochish topshirilgan. Shu ish bilan bandman.

– Bilaman. Ish og'ir, mas'uliyatli bo'lgani uchun maxsus guruh tuzildi. Unga bo'lim boshlig'i rahbarlik qiladi. Masala kelishilgan.

– Kim bilan?

– Men sizga hisobot bermayman, o'rtoq inspektor.

– Ha, albatta... nailoj. Hujjatlarni kimga topshiray?

– Bo'lim boshlig'iga.

– Ijizat bersangiz, telefon qilib olardim.

– Xonangizda ham telefon bor shekilli?

– Bor, ammo suhbatni o'z qulog'ingiz bilan eshitsangiz devdim.

Boshliq o'rinbosari ensasi qotib, telefon apparatini uning oldiga surib qo'ydi. Soliyev telefon nomerini tera turib unga qaradi. O'rinbosar «qo'lingdan nima kelardi», deganday o'zi-ni beparvo tutishga harakat qilardi. Lekin, mayorning ziyrak zehni uning ichidan qirindi o'tayotganini sezardi. Harholda bu kichkina odam – ijrochigina xolos. Hatto podpolkovnik ham ustalik bilan bu ishni o'zidan oshirib yuborgan.

– Allo, shahar prokuraturasimi? Mayor Soliyevman. O'rtoq Samandarov bilan ulang, iltimos.

Samandarovni eshitib, boshliq o'rinbosari sergak tortdi.

– O'rtoq Samandarov, Soliyevman, assalomu alaykum. Ish-lar yomon emas. Sizga aytganimday bo'lyapti. Mirtillayevning ishi bilan keldiyorovlar ishini shahar prokuraturasi nazorati-ga olish kerak deb o'ylayman. Ikkovining aloqasi bor, degan taxmindaman. Ha muhim. Sababmi, meni bu ishdan chet-

latishmoqchi. Bu yerdagilarmi, yo'q, eplasholmaydi. Tajriba ham yo'q, dadillik ham. Ha, ozgina halollik ham. Keldiyorovga bas kela olishmaydi. Respublika prokuroriga o'zingiz ma'lum qilasizmi? Yaxshi. Men ishni hozir topshirishim kerak ekan. Topshiraymi? Xo'p.

Mayor go'shakni qo'ydi.

- Respublika prokuraturasidan telefon qilishadi. Menga ruxsatmi?

Boshliq o'rinbosari o'rnidan turib Soliyevga g'azab bilan tikildi.

- Bo'limni obro'sizlantirishga nima haqqingiz bor?

- Yanglishyapsiz. Men haqiqatdan chekinmoqchi bo'lgan bo'limning obro'yini saqlab qolmoqchiman. Siz ham, boshliq ham, tuni bilan telefonbozlik qilgan kazo-kazolar ham chuchvarani xom sanabsizlar. Men dumini qisib qochadiganlar xilidan emasman. Boshliqqa aytib qo'ying, bunchalik qo'rqqoqlik qilish yarashmaydi u kishiga. Amal qo'ldan ketsa, keyinroq yana topish mumkin, ammo vijdon odamga bir donagina berilgan, u qo'ldan ketsa qaytarib bo'lmaydi. Arizam esa tayyor, shu ish yakunlanishi bilan ketaman.

Boshliq o'rinbosari zimmasiga yuklangan vazifaning bunchalik mushkulligini bilmagan edi. Ana endi, ishga shahar, respublika prokuraturasi aralashgach, nishonga faqat u ro'para bo'ladi. Keldiyorov, Keldiyorov (!) deb ko'kragiga mushtlayotganlar lip etib chetga chiqib olishadi. E, yo'q, u o'qqa ko'krak tutib beradigan anoyilardan emas. Boshliq o'rinbosari shu zahotiyog o'yindan chiqish yo'lini topdi.

- To'xtang, o'rtoq mayor, gapning o'g'il bolasini aytaymi? Menga tuni bilan uyqu berishmadi bular. Sizni pensiyaga kuzatish mendan chiqqan tashabbus emas. Yuqoridan keldi.

- Bilaman. O'zingizni oqlamang. Bir marta Keldiyorov ishini ham yopganlari ma'lum menga. Ammo menga bir narsa qorong'i: siz bilan men amal stolimizdan ajrab qolishdan qo'rqib, jinoyatchini qo'yib yuboramiz. U esa erta-indin kimningdir sho'rini quritadi. Ana shunda biz kimni ayblaymiz? Jinoyatchilar qatoriga o'zimizni qo'shamizmi? Siz yosh-

siz, faqat murosa bilan kun ko'raman, desangiz yanglishasiz. Uzoqqa bormaysiz.

Boshliq o'rinbosari istehzo bilan kuldi:

- Siz-chi? Murosasizlik bilan nimaga erishdingiz? Bir umr inspektorlikdan boshingiz chiqmadi.

- Gapingiz to'g'ri. Menga yuqori lavozimlarni ishonishmadi. Chunki meni vijdonan ishlashimga ishonishardi. Turli maqomga yo'rg'alamasligimni ham bilishardi. Tushunyapsizmi, ular mendagi vijdonning sotilmasligiga tan berishgan. Halol odamga yana nima kerak? Mana, ular sizni vijdonsiz deb bilib, shu vazifani yuklashgan, siz esa yaltoqlanib, ko'ngansiz. Axir bu sizga ko'rsatilgan ishonch emas, sizni haqoratlash-ku?! Endi do'ppi tor kelganda xoinlik qilib, o'yindan chiqmoqchisiz. Ijzat bersangiz, chiqib ishimni qilsam.

- Zamon o'zgarib, endi katta gapiryapsiz. Vaqti kelganda o'zingiz ham yopgansiz ishlarni. - Boshliq o'rinbosari yurakdagi yarani nishonga olgan edi. Soliyev boshini egdi. Hozirgi dadilligidan asar ham qolmadi.

- Vaqti kelganda yopganman ishlarni. Zamoni ayblamayman. O'zim aybdorman. Bo'shlik qilganman...

Maqsud Soliyev xonaga kirganida hamxonasi, o'tgan yili dorilfununni bitirib kelgan yigit boshini changallab o'tirardi. Soliyevni ko'rib chehrasi yorishib ketdi.

- E, Maqsud aka, bormisiz! Qayoqdan qidirsam ekan, deb turuvdim, boshim qotib qoldi, - dedi Eshboyev.

- Nima bo'ldi yana? Dunyodagi eng og'ir ishni senga topshirishdimi?

- Bunaqa ishni siz boplaysiz. Menga jinoyatchini ko'rsatib: tutib kel, deng, qotirib tashlayman.

- Nimaga tushunmayapsan, so'raydiganingni tezroq so'ra, vaqt ziq.

- Ikkita o'g'rilik bir kunda, bir xil usulda sodir bo'lgan. Jabrdiydalarning ikkalasi ham bir hafta burun chet eldan kelishgan. Uch yil ishlab topgan narsalaridan bir kechada ayrilishgan.

- Nimalar o'g'irlangan?

- Videomagnitofon, magnitofon...

- Fotoapparat, G'arbiy Germaniyani...
- Eshboyev mayorga hayrat bilan tikildi.
- To'g'ri, fotoapparat ham olingan. Qayerdan bilasiz?
- Shunchaki taxminimni aytdim. Magnitofonning markasi «Sharp»mi?
- Shunday.
- Qanday o'g'irlashgan?
- Avval telefon qilishgan. Professor Shouzoqovning nomidan.
- Kim u?
- Sharqshunoslik fakultetida bor ekan shunday professor, lekin u hech nimani bilmayman, deb turibdi. Xullas, bu ikki jabrdiyda shu fakultetda, shu professorning qo'lida o'qigan. Kechqurun to'rt yigitcha videomagnitofonga xaridor bo'lib kelishgan. Uyga kirgach, pichoq o'qtalishgan.
- Yigitchalarning ko'rinishlarini yozib oldingmi?
- Ha, nazarimda, ikkala uyni bir to'da bosgan.
- Vaqtini aniqladingmi?
- Birinchi uyga kech soat o'ndan besh daqiqa o'tganda kirishgan. Televizorda «Qayta qurish projektori» boshlangan ekan. O'n-o'n besh daqiqada chiqib ketishgan. Ikkinchi uyga soat o'n birlarda kirishgan. Vaqtini aniq bilisholmadi. Kino ko'rib o'tirishgan ekan.
- Qani, menga uylarini ko'rsat-chi xaritadan.
- Eshboyev ko'rsatdi, mayor chamalab ko'rdi.
- Mashinada yigirma daqiqalik yo'l. Sen uy egalaridan so'rab bil: kinoning qayeriga kelganda eshik qo'ng'irog'i chalingan. So'ng televideniye bilan bog'lan. Vaqtini aniqlash shart. Endi gap bunday: omadli yigit ekansan. Sen qidirayotgan buyumlarni men kecha tasodifan topganman. Xorijdan kelganlaringni chaqir, buyumlarni ko'rsatamiz. O'g'rilardan biri jingalaksoch, to'ladan kelgan bola emasmi?
- Ha, shunaqa deyishdi. Ko'rinishlaridan boyvachcha bolalar ekan.
- Hozir suratkashga kir, tunda bolalarning suratini olgan edi, tez tayyorlasin.

Soliyev shahar prokuraturasiga telefon qilib, voqeani bayon etdi-da, boshqarmaga kelishlarini so'radi.

Bir soat ichida hamma narsa ayon bo'ldi. Shahar prokurori Sanjar Keldiyorov va uning uch sherigini qamoqqa olish haqida sanksiya berdi.

Eshboyevning ishi o'ngidan keldi. Ammo Maqsud Soliyev boshlagan ish chap ketdi. U kalavaning uchini Keldiyorovdan qidirgan edi. Mirtillayevni o'ldirib keyin o'g'irlikka tushgan, degan gumonni aniqlash uchun hali ko'p urinish kerak. Pixini yorgan jinoyatchilar odatda shunaqa qilishadi. Kattaroq jinoyatni yashirish uchun kichikrog'iga qo'l urib atayin fosh bo'lishadi. Nahot keldiyorovlarning shunga aqlari yetgan bo'lsa? Bu tergov chog'ida ayon bo'ladi.

IKKI XIL O'LCHOV

*yoxud qamoq jabrini tortgan bolaning fikrlari
haqida hikoya*

Shu yerda endi bir dam nafas rostlashga to'g'ri keladi. Qissa avvalida aytganimday, bolalar axloq tuzatish mehnat koloniyasiga, Ahbor bilan uchrashuvga borishim kerak. Asarning shu qismini unga o'qib berishim lozim. Va'dani bajarish muddati yetdi.

Koloniya boshlig'i men bilan omonlashgach, Ahborning bir necha marta yo'qlaganini aytdi-da, uni chaqirtirdi. Biz Ahbor bilan kutubxonaga kirdik. Vaqtni tejash maqsadida men ortiqcha gap-so'z qilib o'tirmay yozganlarimni o'qiy boshladim. Oradan bir soatmi, ikki soatmi o'tdi, bilmayman. Harholda oxirgi bobni o'qiyotganimda tomog'im qurib, bir necha marta qisqa tanaffus qilishga to'g'ri keldi. Shunda ham Ahbor meni gapga tutmadi. So'nggi sahifani tugatganimdan so'ng ham biroz sukutda qoldi. Keyin o'zim kutgan savolni eshitdim. «O'zim kutgan» deyishimga sabab: kitobxonlar bilan uchrashuvda albatta birinchi savol shunday bo'ladi:

– Bu bo'lgan voqeami?

– Bo'lgan voqea ekaniga ishonyapsanmi?

Ahbor yetka qisib qo'ydi.

– Hammasi to'g'ri. Shunaqa bolalar bor bu yerda. Bir xillari hayotdan juda alamzada. Ozodlikka chiqishgach, ko'pga borishmaydi. Ularning maqsadi odamlardan o'ch olish, Qamariddiningiz shunaqa ekan. Hali u yana odam o'ldirsa kerak, a?

– Hozircha ayta olmayman. Seningcha kimni o'ldirishi mumkin?

– Haligi praktikant yigitni, Tal'atmididi? Uning militsiyadanligini bilib qolsa, o'ldiradi.

– Biladi-ku? Sezib qoldi-ku?

– Sezdi, ammo hali aniq ishonchi yo'q. Ishonsa, o'ldiradi, to'g'rimi?

Men uning shashtini qaytargim kelmadi.

– Ko'ramiz, – dedim kulimsirab. – Ishonmagan joylaring ham bormi?

– Salimning qo'rqib yotishiga ishonmadim. Ko'chada birov pichoq urib qochdi, deb doktorga borsa bo'lmasmidi?

– Yo'q, bularning ahvolidi bunday qilib bo'lmasdi. Vaziyatga yana jiddiy e'tibor ber: ular odam o'ldirishdi. Buning oqibati nima bo'lishini barchalari bilishadi. Ayniqsa, Qamariddin qo'rqadi bundan. Ikkinchi marta odam o'ldirishning oqibati ma'lum unga. Ikkinchi tomondan ular bu yaraga jiddiy qarashmadi. O'zi bitib ketadigan yara deb o'ylashdi.

– Endi Salimga nima bo'ladi?

– Biz sen bilan bo'lib o'tgan voqealar haqida gaplashaylik, kelajak haqida hozir fol ochmaylik.

– Uni asrab qolish kerak.

– Nima uchun? Axir jinoyatni u boshladi-ku? Yana bir tomoni – nashavand bo'lsa...

– U hali g'o'r, ko'p narsaga tushunmaydi. Oilasiga og'ir ekan. Oilasi o'ziga to'q bo'lsa, u yomon yo'lga kirmas edi.

– Keldiyorov-chi? Uning oilasi to'q-ku?

– Haddan tashqari to'q demaysizmi! Keldiyorovingiz o'g'lini taltaytirib yuborgan. Shu yerda ham bor o'shanaqa taltayganlar. Bolalarining ahvoli ma'lum-ku, lekin shunda ham

taltaytiraverishadi. Ularni yo'qlab kelishganda ko'rsangiz. Qamoqdagi bolani emas, izzatdagi bolani ko'rgani kelishganday. Savat-savat oziq-ovqat. Nazoratchi, tarbiyachilar ham ularga alohida muomala qilishadi. Bizni bilmaydi, sezmaydi, deyishadi-da. U bolalarning sharoiti boshqa, Salimdaqalarniki boshqa. Bu yerda ham ko'rinmas devor bor. Devorning u tomonidagi bola ayb ish qilsa ham ko'z yumiladi. Chunki ular tarbiyasi yaxshilangan bola sifatida muddatidan oldinroq chiqishi kerak. Bu tomondagilar sal toyib ketsa tamom: Dizodan¹ joy tayin. Muddatidan oldin chiqishga umid yo'q.

- Ota-onalari bu yerdagilarni ham qo'lga olvolishgan, deb o'ylaysanmi?

- Bilmaganday gapirasiz-a, shuncha kelib, kuzatib sezmadingizmi? Mayli, gapirmay, aytganim bilan isbotim yo'q, ig'voga o'xshab qoladi. Siz menga boshqa narsani tushuntirib bering: Qamariddin atrofidagi bolalarga yo'lto'sarlik qilishga ruxsat bermas ekan. Unda kinoxona oldida in qo'yib nima qiladi?

- Har bir kinoxonaning, bog'ning... xullas, odamlar ko'p to'planadigan joyning «o'z egalari» bor, buni bilsang kerak. Qamariddin - o'sha kinoxona atrofining xo'jayini. Bolalar unga kelajak uchun kerak. Qamariddin ularni odamlarga nafrat ruhida tarbiyalaydi. Toki ular ulg'ayib, birovga qasd qilsa, qo'li qaltiramasin, vijdoni qiynalmasin.

- Uning mehribonliklari... niqobmi?

- Yo'q, niqob emas. Bilasanmi, odam jinoyatchi bo'lib tug'ilmaydi. Uni atrof-muhit jinoyatchi qilib tarbiyalaydi. Mehribonlik Qamariddinning qonida bor. Ammo u hayotdan zada bo'lib o'sgan. Ana shu zadalik uning ruhiyatiga hukmron. Biroq, ba'zi-ba'zida bulutlarni yorib quyosh ko'ringanday, uning qonidagi mehribonlik yuzaga qalqib chiqadi. Qamariddinning baxti ham, baxtsizligi ham shu. Bu haqda yana gapiramiz.

- Menga yana bir narsa yoqmadi, aytaveraymi?

¹ Distsiplinarniy izolyator - koloniyadagi intizomni buzganlar saqlanadigan ichki qamoqxona.

– Ayt.

– Qissada nuqul yomon bolalarni ko'rsatyapsiz. Yaxshilar qani?

– Sen kelajakda tanqidchilardan kutayotgan savolimni berding. To'g'ri, bu asarni o'qiganda hamma yoqni yomon bola bosib ketganga o'xshashi mumkin. Lekin bu noto'g'ri tushuncha. Mening maqsadim – yomonlar to'dasini aks ettirish, yaxshilarni bundan ogoh qilish. Shunday ekan, asosiy e'tiborni shu to'daga qaratganim ma'qul. Yaxshilarning yaxshiligi yashirin emas, yomonlarning yomonligi zirhlangan bo'ladi. Barcha ana shu zirhni yorib, haqiqatni ko'ravermaydi. Mening muddaom shu zirhni yorib o'tishga bir harakat qilib ko'rish.

– Menga Asrorning insho yozmagani yoqdi. Uning o'rnida bo'lganimda men ham shunday qilardim. Agar shoshilmayotgan bo'lsangiz, biz yozgan insholarni o'qirdingiz. Olib kelaymi, tarbiyachimizga kelishingizni aytgan edim. Siz o'tirib turding, men hozir.

U shunday deb chiqib ketdi. U koloniyadagi tartib haqida gapirib achchiq haqiqatni ochgan edi. Men bir necha yillar muqaddam Farg'onadagi bolalar koloniyasida, keyin bu yerda bo'lib o'tgan mahbus bolalarning g'alayonlarini esladim. Tarbiyachilarning noto'g'ri muomalasi, vijdonsizligi tufayli poralangan qalblar junbushga kelib, betartibliklar yuz bergan edi. U damlarda bu haqda gapirib bo'lmasdi. Qarangki, nohaqliklarni bolalar sezmaydi, deb o'ylasharkan. Sezmas-mish-a! Ularning ziyrak zehni har bir narsani ilg'aydi. Men qalamga olgan Sanjar Keldiyorov ham bir necha oydan keyin bu yerga kelishi kerak. Keldiyorov vaqtni boy berdi, o'g'lini saqlab qololmasligini biladi. Endi u sud organlarini siquvga oladi. Keyin qo'lini bu yoqqa uzatadi. Ahbor aytmoqchi, Sanjar tarbiyachilarning alohida e'tiborida yurib, «tarbiyasi yaxshilangani uchun» muddatidan ilgari chiqarib yuboriladi. U qamoq nima, ozodlikdan bebahra yurish nima, jazo nimeligini bilmay issiq uyiga qaytadi. U balki esini tanib, yaxshi bo'lib ketar? Umidimiz ushalmay, u eski hunarini qilsa-chi? Jazo muddatini qisqartirgan sud, intizom buzilganini ko'rib

o'zini ko'rmaganga olgan koloniya tarbiyachisi jazoga tortilmaydimi? Afsuski, ular jazodan chetda qolishadi. Ularni ayblaydigan qonun yo'q.

Ahbor kirib, xayolim buzildi. U menga bir dasta daftar varaqlarini berdi. Chiroyli va badxat, savodli va chalasavod yozuvlar. Inshoning mavzui ajabtovur: «Baxt va baxtsizlik, ezgulik va yovuzlik haqida».

Bilmadim, bu mavzu kimdan chiqqan ekan. Baxt va baxtsizlik, ezgulik va yovuzlik haqida asrlar bo'yi necha-necha donishmandlar bahs qurganlar. Bu yerda, quyosh nurlari simtikonlar orasida o'tadigan joyda, qorovul itlar tinmay vovullab turadigan noxush go'shada baxt va baxtsizlik haqida nima deb yozish mumkin? Bilaman, koloniya faqat simto'siqlar emas. Koloniya - bolalar taqdiri, alamlari, dardlari jamlangan joy. Inshoga shubhasiz, shu alam, shu dard tushgan bo'lishi kerak.

- Avval o'zingnikini ol, - dedim Ahbarga.

Ahbor varaqlar orasidan husnixat bilan yozilgan inshoni olib uzatdi. O'qiyman:

«Bu yerda atrofga qarashni yoqtirmayman: baland devor, simtikon ortidan ko'cha shovqini eshitiladi, uylarning bo'g'otlari ko'rinadi. Bu tomlar ostidagi issiq xonalarda baxtiyor ota-ona, baxtiyor o'g'il-qiz yashaydi. Bu yerdan o'n-o'n besh chaqirim narida, xuddi shunday tom ostida bir oila yashaydi. Ular ham baxtiyor edilar. Endi-chi, bir o'g'illari sharmandalik tang'asi bilan simtikon ortiga tashlangach, bu oiladagi baxtiyorlik quyoshi so'ndimi? Men - baxtsizman. O'ynab-kuladigan davrimni qamoqxonada o'tkazaman. Ota-onam ham baxtsiz o'g'il o'stirdim, deb yayraydigan mahalda sharmandalik yukidan qaddi egilib, ko'cha eshigiga ko'z tikib yashaydi. Men ularni baxtsiz qilib qo'yганиm uchun ikki karra baxtsizman. Baxtli bo'lish uchun nima qilish kerak, bilmayman, harholda baxtni kutib uzoq yillar yashashim, kurashishim kerak».

Ahbor fikrimni eshitishni xohlamaganday darrov ikkinchi inshoni uzatdi:

«Baxt ozodlikdagi hayotdir. Istagan joyda o'qisang, istagan joyda ishlasang, ishing odamlarga ma'qul kelsa, baxt-lisan. Men bu yerda ham o'qib, ishlayapman. Lekin bu baxt emas. Yoshim o'n yettiga bordi. Otam bor. Ammo onam yo'q. O'z onang bo'lishi - baxt. Uch yil oldin otamni qamashdi. Bu otam uchun ham, men uchun ham ulug' baxtsizlik edi. Otam chiqadigan paytda men qamaldim. Baxt degan narsa bizga nasib etarmikan. O'g'rilik tufayli bu yerga tushib, o'ylayman: o'g'rilik qilishga hojat bo'lmasa, hamma narsa muhayyo tursa, hech nima qidirmay, sanqimay yashasang, baxtlidirsan. Cho'ntaging quruq bo'lsa-yu, o'g'rilik qilsang, so'ng qamal-sang - bundan ortiq baxtsizlik bormi?»

Ahbor uchinchi inshoni tutdi:

«Otam aroqxo'r edi, onamni urardi. Meni buvim olib ketib boqdilar. O'n ikkiga kirganimda buvimni mashina bosib o'ldirdi. Uyga qaytdim. Buvimnikida baxtli edim. Bu yerda otam endi onamga qo'shib, meni, hatto singlimni ham do'pposlardi. Bir kuni so'yil olib uni kaltakladim. Keyin uydan qochib ketdim. O'g'rilik qilib kun kechirdim. Endi baxt nimaligini bilmayman. Bu yerdan chiqib nima qilishimni ham bilmayman».

Kutganimdek bo'lib chiqdi: insholar - taqdirlar, alamlar majmuasi edi.

Tashqarida saflanish haqida buyruq yangradi. Suhbat qizib, kech kirganini sezmabmiz. Endi Ahbor safga chiqishi kerak. Ro'yxatdagilar nomma-nom chaqirilib, tekshiriladi.

Men koloniyadan qaytgach, yozganlarimni qayta varaqlab o'tirib, Ahbor bilan bo'lgan suhbatni, bolalar yozgan insholar-ni bir-bir esladim. Koloniyaga har bir borishim ruhiy ezginlik bilan yakunlanadi. U yerdagi bolalar, garchi shu jazoga loyiq bo'lsalar-da, baribir ularga odamning rahmi keladi. Bu bolalarni kimdir yo'l boshida ushlab qolishi mumkin edi, deb o'ylayman. Ammo qani o'sha «kimdir»? Nima uchun hech kim bolalarni ushlab qolmadi. Koloniyalar torlik qilib, yoniga qo'shimcha yotoqlar qurilyapti. Demak, o'sha «kimdir» oramizdan butkul yo'qolib ketyapti. Bu dahshat-ku, axir! Bu dahshatni qachon anglab yetamiz?!

Shu o'ylar meni bir necha kun yozuv stoliga yaqinlashtirmadi. Xayolim Asror, Qamariddin, Salimda emas, savol nazari bilan qarab qolgan Ahborda edi. Kunlar o'tib, asta-sekin yana Asrorning olamiga qaytdim. Ularning taqdiri yana meni o'ziga chorladi. Qo'lga qalam olib, asarning davomini yoza boshladim. Arosat olovida qovrilayotgan Asrorning yoniga qaytdim.

TOMCHI

*yoxud Asrorning ikki xil ona bilan uchrashuvi
haqida hikoya*

Dengizning behudud bag'rida, mavjlar orasida yashayotgan tomchi bir kuni tiniq osmonga mahliyo bo'lib, yuksaklarda yashamoqni orzu qilibdi. Quyoshga iltijo etgan ekan, uning munojoti qabul bo'libdi. Quyoshning iliq nurlari tomchini dengiz bag'ridan yulib olibdi-da, yuksaklarga ko'tara boshlabdi. Bu orada tomchini mahliyo qilgan tiniq osmon yuzini bulut to'sibdi. Quyosh nuri tomchini shu bulut ustiga qo'ndiribdi. Bu yer shunchalar sovuq ekanki tomchi diydirab oxiri muz parchasiga aylanibdi. Keyin bulut ustiga sirg'alib tusha boshlabdi. Sal pastroq tushgach, badaniga issiq o'tib, u yana asl holiga qaytibdi. Ammo shamol uni haydab ketibdi. Oqibatda, tomchi qadrdoni dengiz mavjlariga emas, qaqrab yotgan tuproqqa tushib singib ketibdi. Ko'kat ildizlariga ilashib yorug' jahonga chiqquncha esa ancha vaqt o'tibdi...

Anhor bo'ylab borayotgan Asror shu tomchi ko'yiga tushgan. U avval qo'rqib, keyin mahliyo bo'lib Qamariddinning osmoniga chiqdi. Endi yerga qay ahvolda tushadi? Tuproqqa singib, keyin qachon asl holiga qaytadi? Bu Asrorga noma'lum. Garchi odamlar «Mirqosim aka suvga tushib ketib o'libdi», deb yurgan bo'lsalar-da, uning ko'ngli tinchigani yo'q. Yolg'izlik uni temir tirnoqlari bilan bo'g'adi. Ko'ngli nima istayotganini Asrorning o'zi ham bilmaydi. Odamlardan qochishni xohlaydi, biroq bilan gaplashishga toqati yo'q. Ko'nglining bu mayliga itoat etsa, yana yomon - yolg'izlik changalida

to'lg'ona boshlaydi. Kech kirishini esa qo'rquv bilan kutadi. Qorong'i tushishi bilan o'sha odam – Mirqosim uning xonasiga kirib keladi. Qarashlari hech o'zgarmaydi, hatto kiprik qoqmaydi. Endi u Asrorga tashlanmaydi. Tomog'idan bo'g'maydi. Mo'min, itoatkor odamday jim o'tiradi, xo'rsinadi.

«Boshpanalaring yo'q edi. Otang endi ko'karib kelayotgan edi. Uyimdan joy berdim. Keyin uy olishida balogardon bo'ldim. Chaqaloqligingda ko'targan edim. Bag'ringa bosgan edim. Shu ko'kragimga tepding. Qattiq tepding. Hali ham og'riyapti. O'lgan bo'lsam ham og'riyapti. Sal ulg'ayganingda yelkamga mindirib o'ynatganman. Shu yelkamga ham tepding. Suyagimni sindirib yuborgansan shekilli, og'riyapti. O'lgan bo'lsam ham og'riyapti. Dadang opamning to'yiga bor-maganidan keyin «odamgarchiligi yo'q ekan», deb bordi-keldini uzib yuborgan edim. Sen meni tanimading. Men esa seni tanidim. Tepmasang bo'lardi, o'lmasdim. O'lganimdan xafa emasman. Bir kunmas-bir kun baribir ketaman-da bu dunyodan. Bolalarim hali yosh edi. Hech bo'lmasa o'n yildan keyin o'ldirsang ham mayli edi. Hozir uyimga bordim. Ezilib o'tirishibdi, boyaqishlar. O'zim ham ezilib ketdim. Chiday olmasdan chiqib ketib, sening oldingga keldim. Bilaman, sen endi urmaysan. Men ham senga tegmayman. Kel, yelkamga min, seni o'ynataman. Uzoqlarga olib boraman, yur...»

Asror javob berishga qo'rqardi. Itoatkorlik bilan o'rnidan turib unga ergashdi. Deraza oldiga yaqinlashganida Mirqosim yo'qolib, Asrorning ko'zlari moshday ochilib, qo'rquvga tushib o'zini orqaga tashlaydi.

Ko'zi ilindi deguncha yana o'sha ahvol.

Bu tongni ham shu ahvolda kutdi.

Oyog'i tortmasa ham maktabga ketdi. Ikki soat chidab o'tirdi. Tanaffus paytida diplomatini ko'tardi-da, chiqib ketdi. Keyingi kunlar ichida odamovi bo'lib qolgan Asrorning qilig'i sinfdoshlarini yana bir ajablantirdi. Ko'pchilik «pul yig'ib adasiga berganimizdan xafa» deb o'ylardi.

Kinoxona oldida Qamariddin yo'q edi. To'daga yaqindagina qo'shilgan ikki bola pista chaqib o'tirardi. Asror ularga

e'tibor bermay o'tdi. Bir-ikki kun avval anhorga yaqinlashsa, yuragi orqasiga tortib ketayotgan edi. Marhum suvdan sanchib chiqib uning yoqasiga yopishib olayotganday edi. Bugun oyoqlari shu anhor yoqasiga boshladi. Ne ajabki, bu safar suv yuzasida u odamning ko'zlari ko'rinmadi. Loyqa suv «hamma sirlarni yopib yubordim, xotirjam yuraver» deganday ohista oqadi. Bu sokinlik Asrorning yuragiga dalda berdi. Biroq, odam o'ldirilgan yerga yetganda o'zi sezmaganda holda to'xtab qoldi. Yana hammasi ko'z oldida gavdalandi...

...Uzoqdan odamning qorasi ko'rindi. Salim bilan Qamariddin turib undan sigaret so'rashdi. U odam: «Kutib turuvdilaringmi, haromilar» deb so'kdi. Qamariddin musht tushirdi. U odam kuchli ekan, bir urib Qamariddinni uchirib yubordi. Salim ham urdi, u odamni, «urug'ini quritish mana bunaqa bo'ladi», dedi. Keyin Salim birdan sonini changallab qoldi. Keyin Qamariddin turdi. Uning urgani ham yetardi, Asror nimaga qo'shildi? Balki Qamariddin urganda o'lgandir u kishi?..

- Nima qilib turibsan?

Asror cho'chib tushib orqasiga qaradi: Qamariddin o'qrayib turibdi.

- Nima bor bu yerda? - dedi u g'azab bilan, keyin Asrorning yelkasiga turtdi. - Qani yur, bu atrofga kelma devdim-ku! Yana darsdan qochdingmi? Bashkang ishlamay qolyaptimi? O'zingni tut!

Ular asta borishar, pivoxona oldida bo'sh shishalarni mashinaga ortayotgan Tal'at esa chekish bahonasida ulardan ko'z uzmay kuzatardi.

Ko'prikka yetganlarida Qamariddin cho'ntagidan beshta yuztalik chiqardi-da:

- Salimnikiga tashlab chiq, - deb Asrorga uzatdi.

- Nima deb beraman?

- Shunaqa bashkang chatoq-da. Kitobim bor edi, de. Keyin shu kitob ichida ekan, deb ber. Ayeroportda hammollik qilib yig'ardi, de. Bor. Ha, bugun gastrolga ketaman. Ikki-uch kun bo'lmasam kerak. Salimdan xabar olib tur.

Qamariddin shunday deb tez-tez yurib ketdi.

Asror esa boraymi-bormaymi, deganday qilib sekin-sekin odimlardi.

Salimning onasi hovliga ekilgan pomidor ko'chatlarini teshachopiq qilayotgan edi.

- Sanqi o'rtog'ing kelgani yo'q hali, - dedi u, Asrorning salomiga alik olib.

Asror kitobi borligini aytdi.

- Kirib olaver, bilasan-ku narsalarini. Koshki kitob o'qiydigan bola bo'lsa.

Asror kirib kitob axtargan bo'ldi. Holbuki, qidirishga hojat yo'q, singan oyoq o'rniga g'isht qo'yilgan mayib xontaxta ustida uch-to'rt o'quv qo'llanmasi chang bosib yotardi. Qo'liga ilingan kitobni olib, changini qoqdi. Hovliga chiqib ayolga yaqinlashdi.

- Opoqi, kitobning ichidan chiqdi, - dedi unga pulni uzatib.

Ayol qaddini rostlab, bir pulga, bir Asrorga ajablanib qaradi. U yuztalik pulni endi ko'rayotgan edi. Pulni qo'liga olib u yoq-bu yog'ini aylantirib ko'rdi.

- Rostakam pulmi? - dedi soddalik bilan.

- Rostakam bo'lsa kerak.

- Buncha pul?.. O'g'irlaganmi?

- Bilmadim... yo'q... Ayeroportda yuk tashirdi-ku, yiqqandir?

- Yiqqandir?.. Nimaga yig'adi? Qani, bu yoqqa yur-chi.

Ayol etagini qoqdi-da, uni bir tup bahaybat tut ostidagi supaga boshladi.

- O'tir, sen esli bolasan. Qurib ketgurimga o'xshamaysan. To'g'risini ayt, o'g'irlaganmi?

- Aytdim-ku?

- Aytganing qursin, seni. Hammollik qilib shuncha pul topib bo'larkanmi?

- Topsa kerak... topadi. Bitta chamadonga bir so'm oladi. O'ttizta tashisa, o'ttiz so'm. O'n kunda uch yuz so'm.

Asrorning hisobi ayolni ishontirdi shekilli, indamay qoldi. Keyin yelkalari silkinib yig'lay boshladi.

- Peshonam sho'r bo'lmay o'lsin, - dedi u burnini tortib, - peshonam sho'r bo'lmasa shu ammamning buzog'iga tegamanmi? Er ekan deb tegibman, tug'ish kerak ekan deb tug'averibman bu itvachchalarni. Bolam bechora shu yoshida chamadon tashib pul topsa-ya.. Men o'lgur uni o'g'ri deb yuribman. San qurib ketmagurning ham rahming kelmaydi o'rtog'ingga. Childirma chalishni o'rgatsang-ku yurardi yonlaringda. Odam bo'lib qolardi.

Asror shuni o'ylamagan ekan. Rost, kichkina nog'orani tiqillatib yursa bo'lardi-ku? Dadasi jon-jon deb ko'nardi. Besh-o'n so'm bilan qutulardi. Eh attang... «Shu ishlar tinchib ketsa, yonimga olaman», deb qaror qildi Asror. Ayol esa dard-kashga yolchiganday, hasratini to'kib solardi.

- Nimaga Xudoning qahriga uchrabman, bilmayman. Boshqalarga o'xshab oldiri-i-ib tashlasam g'azab qilsa mayliydi. Xudo bergani deb tug'avergan bo'lsam, nasibasini bermaydimi? San bilmaysan, ba'zan haftada bir go'sht yeymiz-a. Amaking o'lgur invalid bo'lib invalidmas, odam bo'lib butun odammas. Umidim Salimdan edi. Bu ham peshonamga sig'maydi shekilli, ko'nglim sezib turibdi. Sanqigani-sanqigan. To'g'risini ayt, rostdan musobaqadami?

- Rost, u zo'r boks tushadi.

- Yutsa pul oladimi?

- Oladi.

- Qancha?

- Bilmayman.

- Pul olsa mayli-ya, basharasini ko'kartirganiga yarasha bir kam-ko'stiga yaratadi. Pul to'plab qo'ygani yaxshi bo'libdi bolamning. Qishning g'amini yozda yeyish kerak. Ukalari bu qishni arang chiqarishdi. Qishlik kiyim olib qo'yaman. Odam bolasiga o'xshab yurishsin boyaqishlar.

Asror ayolning gaplarini eshita turib «rost gapiryaptilarmi yo lof uryaptilarmi», deb o'yladi. U biron-bir oila go'shtga yo nonga muhtojdir, deb o'ylab ham ko'rmagan edi. Uning nazari-da, muhtojlik o'tmishda qolib ketgan, hozir hamma yerda tinchlik, to'qchilik edi. Hozirgi gaplarni eshita turib o'zicha hisob-ki-

tob qildi. O'n uch jon kunda el qatori go'sht-yog' yeyman desa... pul chidaydimi? Non-choy yetib tursa ham katta gap. Demak... Asrorning otasidan xafa bo'lishi noo'rin. Yeb-ichirish, kiyintirish oson emas ekan-da? Asror shu yoshga yetguncha atrofga ziyrak razm solmaganidan ajablanadi. U hayot haqida fikrini serhasham to'ylar, puldor odamlarga qarab bicharkan. Shunday yonidagi odamlarning, do'stining oilasi xarob yashashiga e'tibor bermagan ekan. «Salimning otasi dangasa-da», deb o'ylab qo'ya qolarkan. Ota dangasa bo'lmagan taqdirda ham risoladagiday yashash og'ir ekaniga aqli yetmagan ekan. Mana hozir mana shu oddiy haqiqatni kashf qilib aqli lol bo'lib o'tiribdi. Ayol esa o'g'lining o'rtog'iga hasrat dasturxonini ochib qo'ygan. Gaplari oxirladimi yo bolaga gapirish befoydaligiga farosati yetdimi, harholda hasrat dasturxonini yopdi.

– O'rtog'ing kelib qolsa, aytaman, o'zi borib ko'radi seni. Bir amallab childirmakashlikni o'rgat, xo'pmi?

Asror u bilan xayrlashib, anhor yoqalab ko'prik tomon yurdi. Ko'prikka yetmay o'ramaga ko'zi tushib, to'xtadi. Gir-dob suv oqizib kelgan xaslarni ho'plab yutardi. O'ramaga xaslarni o'ray-o'ray to'satdan bitta ko'zga aylandi. Kattagina ko'z – o'sha odamniki. Xuddi bir ko'zini yumib, ikkinchisini Asrorga qadaganga o'xshardi. «Ko'rdingmi, endi mensiz bolalarimning ahvoli nima bo'ladi, kim boqadi ularni?...» Asror uni tepganda g'alati ovoz chiqargan edi. Hozir o'ramadan chiqqan ovoz o'sha odamnikiga o'xshab ketardi. Asror cho'chib orqasiga tisarildi. Keyin suvga qaramaslikka tirishib, tez-tez yurganicha ko'prikdan o'tib ketdi.

Kun tikkaga kelmagan, maktabdagi darslar tugashiga vaqt bor. Asror ko'p o'ylab o'tirmay yo'lni Qamariddinnikiga qarab burdi.

Salim mizg'ib yotgan edimi yo xayoli biron nima bilan band edimi, Asror kirishi hamon cho'chib tushdi.

– Hozir uyingga kirdim, – dedi Asror undan hol-ahvol so'ragach, – oyingni ko'rdim. Qamar pul beruvdi. – Asror shunday deb, pulni qanday berganini, onasining so'roqqa tutganini aytib berdi.

- Yaxshi bo'пти, - dedi Salim hazin jilmayib, - ukalarimga kiyim-bosh oladilar. Ukalarimni ko'rib yuragim siqiladi. Oyimga qiyin, mensiz qiynaladilar.

- Sensiz qiynalib... nima, bir haftada turib ketasan.

Salim ko'zlarini shiftga qadagancha javob berdi.

- Shu yotishda o'lib qolsam kerak. Tuzalsam ham qamalib ketaman.

- Bu nima deganing?

- Qamardan ajramayman men, bildingmi? O'g'rilik qilsa, o'g'rilik qilaman, odam o'ldirsa ham u bilanman endi.

- Salim! - Asror quloqlariga ishonmadi. Bu gapni o'rtog'i aytyaptimi, esi joyidami uning?

- Ha! - Salim ovozini balandlatib javob berdi. - Ha, bilib qo'y: Qamar bilan birga borganman o'g'riliklarga. Yana boraman. U mening otamdan aziz. Undan boshqa hech kimga kerakmasman. Maktabingga keragim bormi? Yo'q, uchga o'qiydigan bola kerakmas ularga. PTU kerakmas menga. Meni kim ishga oldi? Hech kim. Meni Qamar bag'riga oldi. Umrim bo'yi chizgan chizig'idan chiqmayman. Boyvachchalarni qiyrataman. Onam uchun, opalarim, ukalarim uchun, qiyrataman ularni.

- Onangga nima yomonlik qildi ular?

- Bilmaysanmi? - Salim tirsagiga tiralib qaddini ko'tardi. Yarasida og'riq turib aftini tirishtirdi. - Hammasiga o'shalar aybdor. Narx-navoni oshirib yuborishdi. Doktordan tortib o'qituvchilargacha poraga o'rgatishdi. Zamon shularniki. Istaganlarini yeydilar, istaganlarini kiyadilar, istagan qizlari bilan maishat qiladilar. Hech kimdan qo'rqmaydilar ular. Hamma narsa ularning qo'llarida. Maktabing ham, militsiyang ham, instituting ham ularning changallarida. Sen kallangga ishonib institutga kirmoqchisan? Kirib bo'psan. Dadang anov maktabdan chiqarib to'g'ri qilgan. Olim bo'lishing uchun pul kerak. Otangni to'yma-to'y yurib topgan puli yetmaydi, bilib qo'y.

- Men kirmoqchi bo'lgan institutga boyvachchalar yaqinlashmaydi. Matematika bilan pul topisholmaydi-ku ular? Xalq xo'jaligimi, yuridik yo sharq fakultetimi desang boshqa gap.

– Matematika bilan tirikchilik qilolmaysan. Ular topadi yo'lini. Shunday topadiki, Pifagoring ham hayron qoladi.

– Qamar menga pul bermoqchi. O'qimasang, o'ldiraman, deydi.

– To'g'ri aytibdi. Shu kallang bilan o'qimasang o'zimoq o'ldiraman seni. – Salim shunday deb jilmaymoqchi bo'ldi, ammo og'riq azobidan ingrab yubordi. – Men ukalarimni o'qitaman. Agar ularni ham sakkizni bitirib PTUGa jo'natishsa, maktabingga o't qo'yaman, qarab turasan.

– Ukalariningning o'qigisi kelmasa-chi?

– O'qigisi keladi. Pul bo'lsa, o'qishadi. Menda pul bo'ladi. Ularni o'qitaman. Opamning bolalarini ham o'qitaman.

– Gaplaringdan cholg'a o'xshaysan. O'qiging kelsa, avval o'zing o'qi.

– Menda sharoit yo'q.

– Bor, sharoit bor. Biz bilan birga yurasan. Qamarga aytaman, senga tegmaydi.

– Sen bilan? Otarchi bo'lamanmi? Jinnimisan?

– Ha, nima bo'пти, or qilasanmi?

– Or qilaman. Xafa bo'lmagin-u or qilaman. Undan o'g'rilik ming marta yaxshi.

– Sen bu yerda bekor yotaverib... g'alati bo'lib qolibsən.

– G'alati deysanmi?.. – Salim boshini yostiqqa qo'yib yana shiftga tikildi. – G'alatiman, to'g'ri. Ilgari bola edim. Qornim to'ysa bo'ldi edi. Bu yerda yotvolib o'yladim: endi bola emas ekanman. Faqat qorinni o'ylasam, itdan farqim yo'q ekan. Men nimaga shu ahvolga tushib qoldim, sen nimaga o'g'rilarining ichida yuribsən, Qamar nimaga o'g'ri bo'lib ketdi. Sen shularni hech o'ylaganmisan? O'ylamagansən. Nog'orachangni tiqilatib pul ishlashdan bo'shamaysən. Men esa o'yladim.

– Xo'p, o'ylagan bo'lsang o'ylagandirsən, sababini topdingmi?

– Topdim, – Salim shiftdan ko'zini olib, Asrorga tikildi. – Hammasiga odamlar aybdor. Odamlar bizni shunaqa qilib qo'yishdi. Shuning uchun ulardan o'ch olishimiz kerak. Sen bizga qo'shilmaysən. O'zing istasang ham qo'shmaymiz. Sening yo'rig'ing boshqa. Biz esa o'ch olamiz. Anavi odamni

qanday tinchitgan bo'lsak, boyvachchalarni, ablahlarni shunday tinchitamiz.

- U odam boyvachcha emas, ishchi ekan.
- Qayoqdan bilasan?
- Onam tanirkanlar.
- Suvdan chiqibdimi?
- Ha... Qamar aytmadimi? Ikkinchi kuni chiqibdi. Odamlar mastlikda cho'kib o'lgan deyishyapti.

- Boyvachcha bo'lmasa ham ablah. Bitta sigaret kimni o'ldiribdi, yo'q, deb qo'ya qolmaydimi bo'lmasa, nimaga so'kadi. Tirik qolganida ham tinchitib ketardim...

Asror do'stining gaplaridan gangib o'tirardi. Salim, uning nazarida, sog' odamning gaplarini aytayotgan emasdi. O'ch... tinchitib ketish... qandaydir vahshiy, yovuz, odamxo'rlarning gaplari bo'lib tuyuldi unga. Demak, u yaxshi kiyinib, «Volga» yoki «Jiguli»da yuruvchi har bir odamdan o'ch olishi mumkin. Harom pul topadigandan o'ch olsa bir nav, holbuki u ham Salimga yomonlik qilmagan, o'z aravasini o'zi tortib yuribdi. Salimga professor Qutbiddinov duch kelib qolsa-chi? Uni ham tinchitadimi? Dunyo tanigan olimdan ham o'ch oladimi? Qutbiddinovning aybi nima? Yaxshi topishi, yaxshi yashashimi? Mehnati evaziga, iste'dodi evaziga yaxshi yashayapti-ku? Unga yomon nazar bilan qarashga Salimning nima haqqi bor?

Asror Salimga shularni aytmoqchi edi, «nasha chekib olib dovdarayapti, yo yarasi og'rib, alamini kimdan olishni bilmayapti, tortishib, jig'iga tegmay», degan qarorga kelib, indamadi.

Ovozi yaqindagina rasta bo'lgan, turmushning achchiqchuchugini endigina sal-pal totgan bu ikki bola hayot falsafasini o'zicha talqin qilib, o'zicha tushunib, o'zicha xulosa chiqargan edi. Bolalik tasavvuri, bolalik sururi, yashash hamisha lazzatli, umr faqat yorug'likdan iborat degan tushuncha bolalik davri hatlab o'tilishi bilan birinchi qorong'ilikka, birinchi nohaqlikka... urilib, barcha sururlarni chilparchin qilib yuborgan edi. Ular bu qora nur, bu murtadlik, bu makkorlik, bu mo'ltonilik - hamma-hammasi yaqindagina paydo bo'lgan-u ularni bir-ikki hamla bilan tugatib yuborish mum-

kin, deb o'ylashardi. Bu marazlarning asrlardan-asrlarga, zamonlardan-zamonlarga turli ko'rinishlarda o'tib kelayotganini, chopsa chopilmaydigan, yoqsa yoqilmaydigan illatlar ekanini bilmaydilar hali. Ne-ne allomalar, ne-ne donishmandlar shu marazlar qurboni bo'lganidan ham bexabarlar. Buni bilish uchun hali uzoq yashashlari, kurashishlari, mag'lubiyat alamlarini totishlari, kurash alangasida yonishlari kerak. Hayotning beshafqat ekanini tushunib yetishlari lozim. Hozir hayotni o'z qarichlari bilan o'lchab, o'z idroklari bilan tasavvur etib, o'z yo'llarini belgilab qo'yganlar. Salimning yo'li aniq – borsakelmas yo'l. U Qamariddin ortidan ko'r odamday ergashadi. Asror, ilgari aytganimizday, uch yo'l qarshisida gangib turibdi. Avval Qamariddin ham chorladi uni. Endi ko'krigidan itaryapti. Nima qilsin u?

Ikki do'stni shu ahvolda bir qancha muddatga tashlash vaqti yetdi. Unutmagan bo'lsangiz ichki ishlar bo'limida mayor Soliyev Sanjar Keldiyorovni so'roq qilishi kerak edi. Endi siz bilan birgalikda ana shu tergov ishtirokchisi bo'laylik.

TERGOV

yoxud ishning chalkashib ketgani haqida hikoya

Keldiyorov samolyotdan tushdi-yu, xunuk xabar eshitdi: o'g'lini qamoqqa olishibdi. 126-modda bilan ayblashayotgan emish. Bu uch yildan sakkiz yilgacha degan gap emish. Agar ishxonasi kafillikka olsa, ish ancha yengillasharmish, ammo Sanjar zavoddan bo'shab ketgan emish... Bu ham yetmagan-day bolalardan nasha chiqqanmish.

Keldiyorov bularning hammasini badaniga hazm qila olmadi. O'g'li birovni urgan bo'lsa, to'polon chiqargan bo'lsa, tushunishi mumkin edi. Bola sho'x, birovni urgan bo'lsa-urgandir, derdi. Ammo o'g'rilik qilishi tasavvuriga sig'madi. Nimasi yetmayotuvdi, nimaga o'g'rilik qildi. Yegani oldida, yemagani ketida bo'lsa. Ko'ngli tusagan hamma narsa muhayyo etilgan bo'lsa. Yo mardlik qilib birorta o'rtog'ining gunohini bo'yni-

ga olib turibdimi? «Shunaqadir. Menga orqa qilib o'rtog'ini gunohini yengillashtirmoqchidir», deb o'yladi Keldiyorov.

Ammo nima uchun ishdan bo'shadi? Sakkizinchini bitirgach, kechkida o'qiyman, deb ikki oyoqni bir etikka tiqib turib oldi. Xo'p deyishdi. Avvaliga kunduzi ishlatishmadi. Hordiq chiqarsin, kechkida o'qish ham qiyin deyishdi. Keyin video bilan nasha g'alvasi chiqib qolgach, ishga joylashga majbur bo'lishdi. Bu yoqda zamon o'zgarib, noziklashdi. Ishni militsiya yopdi-yopdi qilgani bilan biron g'alamis chiqib qolishi mumkin, deb Sanjarni zavodga berishdi. Zavod kattalaridan biri, Keldiyorovning oshnasi, bolani o'z soyasiga oldi. «Zavod yo'llanma berib institutda ham o'qitadi, Xudo xohlasa, bizning o'rin begona bo'lmaydi» degan edi. Sanjarning bo'shab ketganini nechuk u bilmay qoldi? Keldiyorov mana shulardan garang edi.

Keldiyorov o'g'lining xatti-harakatlarini tushuna olmasdi. U Sanjartoyiga barcha sharoitlarni yaratib berishi barobarida farzandi unga yaqinlashmay aksincha uzoqlashib borayotganini hanuz fahmlamas edi.

Deydilarki, ustara sartaroshning qutisida zerikib tashqariga o'ynagani chiqibdi. Yuziga oftob urilishi bilan atrof charaqlab ketibdi. Ustara o'zining oftob nurida yal-yal yashnashidan g'ururlanibdi. «Sartaroshning qo'lida xo'rlangan ekanman-da, endi odamlarning basharasiga surtilgan sovunni, o'siq soqollarni qirtishlash uchun qaytamanmi, men bunga nomus qilaman», deb yuraveribdi. Shu asnoda yomg'ir yog'ibdi-yu, bir panaga berkinibdi. Oradan kunlar o'tib u yana tashqariga chiqib yuzini ochibdi. E, voh, bu nima ko'rgilik! Uning yuzini zang bosgan, oftob nuri yuzlarida ilgaridek o'ynamas edi...

Keldiyorov o'g'lining shu ustara holiga tushganini anglab yetmas edi. Rivoyatdagi ustara-ku, o'z manmanligining qurboni bo'ldi. Sanjarni esa oftobga - jimjima hayotga ota-onaning o'zi olib chiqdi. Bolaning yal-yal yashnashiga avvalo o'zlari mahliyo bo'lishdi. Mana endi, ustaraning yomg'irda qolganidan, oqibatda zang bosganidan xabar topib, hayratga tushib turishibdi.

Keldiyorov yordamchisi kuzatuvida rayon ichki ishlar bo'limi boshlig'i huzuriga kirdi. Podpolkovnik bunday tashrif-

ni kutgan, ammo Keldiyorov bunchalik tez yetib kelar, deb o'ylamagan edi. Shu sababli biroz dovdiradi. Unga qo'l uzatib ko'rishdi-yu, ko'ziga tik qaray olmadi. Bu o'jizligi uchun o'zi-ni shu ondayoq koyidi. «Nimadan qo'rqaman, aybdor u, men emas-ku», deb g'ijindi.

– Soliyevingiz bilan bir gaplashmoqchiman, – dedi Keldiyorov podpolkovnikning ro'parasiga o'tirib. Bu bilan «hamma gapdan xabarim bor», demoqchi bo'ldi.

Mayor Soliyev kirib kelganida Keldiyorov unga boshdan-oyoq razm soldi.

– O'rtoq Keldiyorov siz bilan tanishmoqchi ekanlar, – dedi podpolkovnik vaziyatni yumshatish maqsadida.

– Biz sirtidan tanishmiz, – dedi Keldiyorov sovuq ohangda. Bu bilan go'yo «vaziyatni yumshatishga harakat qilmang, men bu o'jar odamni yanchib tashlayman», demoqchi bo'ldi. U Soliyevga kiborlik bilan tikildi: – Siz juda qaysar odam ekansiz. Telefondagi iltimosim kor qilmabdi-da?

– O'g'lingiz ustidan jinoiy ish qo'zg'atilgan. Bu iltimos bilan bitadigan ish emas, – dedi Maqsud Soliyev. Tik turganicha so'roqqa tutilishi unga malol keldi. Shu sababli gapni kalta qilib chiqib ketmoqchi bo'ldi. Biroq, Keldiyorov o'tmas pichoq bilan so'yomoqqa qasd qilgan odamday yana gap qotdi:

– Iltimos bilan bitmasa nima bilan bitadi, pul bilanmi?

Bu gap Soliyevga shapaloq urgan bilan teng bo'ldi.

– Pul bilan ham bitmaydi o'rtoq Keldiyorov, – dedi g'azabli piching bilan, – bitish yo'li bitta.

– Katta ketmang, mayor... – Keldiyorov cho'ntagidan sigaret chiqarib labiga qistirdi-da, yordamchisi uzatgan gugurtni yoqib tutatdi. – Siz o'g'limni o'g'rilikda ayblamoqchimisiz?

– Hozircha shu modda bilan.

– «Hozircha» deganingiz nimasi? Boshqa ayb ham taqamoqchimisiz?

– Ish yakuniga yetmaguncha bir narsa deya olmayman.

Keldiyorov endi musht yegan odamday gangidi. «Nima deyapti bu odam yo atay laqillatyaptimi? Yo'-o'q, bunda bir gap bor. «Hozircha»sining oqibati yomon bo'lmasa go'rga edi...»

- Menga qarang, mayor, mana, boshlig'ingiz o'tiribdi. Men kichkina odam emasman, lekin siz bilan kelishishim mumkin. Sizga yangi uy olib beraymi, pensiyaga chiqar ekansiz, «Gaz-24» desangiz ham mayli. Yo o'g'lingizni o'qishga olib kirib qo'yaymi. Nima deysiz, tilang tilagingizni. Bola erkalik qilibdi, badnom bo'lmasin.

- Gapingizdan xuddi shahanshohga o'xshaysiz. Ammo men sizdan tilak tilaydigan qul emasman, - dedi Soliyev. - Hottamtoyligingizni asrab turing, bu yoqda sud bor, koloniya bor, balki ular tilab qolar tilaklarini.

- Shunaqami?.. - Keldiyorov «basharang qursin» deganday yuzini o'girdi. - Siz bo'shsiz, ketishingiz mumkin.

- Iltifotlari uchun rahmat, ammo meni siz emas, boshliq chaqirtirgan, - shunday deb qaddini g'oz tutdi. - Ketishga ruxsat eting, o'rtoq podpolkovnik.

Ruxsat tekkach, Maqsud Soliyev qabulxonaga chiqib, grafindagi suvdan quyib ichdi. G'azabini bosish uchun chuqur chuqur nafas oldi. Hovliga chiqib krاندagi suvda yuzini yuvdi. U boshliq huzuriga chaqirilganida Sanjarni so'roq qilishni boshlagan edi. Endi g'azab o'tiga mingan holda qaytib tergovni davom ettirsa, chegaradan chiqib ketishi mumkin edi. Shu sababli hovlida biroz nafas rostlab turdi.

Sanjar Keldiyorov va sheriklarining o'g'rilik qilganlari isbotlandi. Jabrdiydalar avval ularni rasmdan, so'ng yuzma-yuz uchrashuvda tanishdi. O'g'rilik eng ibtidoiy usulda, hech bir niqobsiz, hech bir aldovsiz sodir bo'lgan edi. Go'yo ular ishga militsiya aralashishi, oqibatda fosh etilishlarini bilmaganday, shunday kirishgan-u kerakli narsalarni olib chiqib ketaverishgan. Ular o'g'rilikka yo mast paytlarida, yo nasha ta'sirida borishgan, yo daxlsiz qolishlariga aniq ishonishgan, yo chindanam go'l bo'lishgan. Maqsud Soliyev uchinchi gumonga ishonmaydi. Unda to'rtinchi gumon ham bor: ular Mirtillayevni o'ldirgach bu jinoyatni yopish uchun o'g'rilikka borishgan. Harholda Keldiyorovning iziga shu qotillik tufayli tushib, yangi jinoyatni o'zi ham kutmagan holda ochdi. Agar uning asosiy maqsadi qotillikni ochish bo'lmaganida, Keldi-

yorovning ishini bugunoq tergov bo'limiga oshirib yuborardi. Ishning eng nozik, eng qiyin jihati endi boshlandi. Soliyev faqat bir narsaga garang: maqsad qotillikni yopish bo'lsa, nima uchun ikki xonadonni bosishgan? Bittasi ham yetib ortadi-ku?

...Sanjar Keldiyorovni so'roqqa olib kirishganda bolada sarosima yo'q edi. U bir-ikki tanbeh berib qo'yib yuborishadi, deb o'ylagandi. Kunduzi qo'lga olinib, tunni qamoqda o'tkazish ham uni sarosima bulutiga o'ray olmagan edi.

- Menga bir narsani tushuntirib ber, - deb so'roqni boshladi Soliyev, - O'g'rilik qilish senga nimaga zarur bo'lib qoldi? Biron nimaga muhtojliging bo'lmasa?..

- O'g'irlaganimiz yo'q, uch-to'rt kun ko'rib, qaytarib berardik.

- Demak, o'g'irlamading, qarzga olding, protokolga shunday deb yozamizmi?

- Ha.

- Xo'-o'sh... unda nima uchun pichoq o'qtaldilaring? Uch-to'rt kunga berib turishmagani uchunmi?

- Yo'q. To'g'risini aytsam, qo'yib yuborasizmi?

- Qani, avval ayt-chi?

- Biz sotib olmoqchi edik. Uchtaga bermadi. G'irt chayqovchi ekan u muttahamlar. Besh mingdan kamiga yo'q, deb turib oldi. Keyin... kechqurun bordik.

- Professorning nomidan boribsizlar, u odamni qayerdan bilasizlar?

- Sodiq o'qiydi o'sha yerda.

- Sheriging Somonovmi? Xo'p, demak, sotib olmoqchi bo'lgansizlar. Uch mingni kim bermochi edi, senmi?

- Pul yig'dik.

- Uch ming so'm-a, qanday yig'dinglar?

- Qanday... birinchi sinfdan beri yig'ardik. Keyin ishlab topdim.

- Ishlab topganing ma'lum bizga. Qani, ayt-chi, zavoddan nimaga ketib qolding?

- Ishlagim kelmadi.

- Mirqosim Mirtillayev ustang edimi?

- Ha.

- U bilan nimaga urishib qolding?

Sanjar «shuni ham bilasizlarmi?» deganday ajablanib qaradi.

- Men har qanday qorayaloqqa qul bo'lmayman, - dedi u ko'zini lo'q qilib.

- «Qorayaloq» deganing Mirtillayevmi?

- Ha, o'sha.

- Qul bo'lmayman, deganing nimasi, u seni quldai ishlatmoqchi edimi?

- Zavodda ishlagandan keyin qul bo'lmay nima?

- Mirtillayev seni nima uchun urgan edi?

- Zavodingniyam, o'zingniyam... deb so'kuvdim.

- Seni shuning uchun urdimi? Sen indamadingmi?

- Ha...

- Nimaga? Senday bolani bir qora ishchi ursa-yu, indamay ketaversang?

- Hamma narsaning vaqti-soati bor.

- Demak, o'ch olishni yuragingga tugib qo'ygansan?

- Men kaltak yeb indamay ketadigan so'tak emasman.

- O'shandan keyin Mirtillayevni ko'rdingmi?

- Yo'q.

- Eslab ko'r, balki ko'chada tasodifan ko'rgandirsan?

- Ko'rmadim.

- Uchratib qolsang, nima qilarding?

- Bilmayman...

- Sumka kimniki edi, nashani kim olib kelgan?

- Bilmayman.

Shu yerga kelganda Soliyevni podpolkovnik chaqirib olib, so'roq uzilgan edi. Maqsud Soliyev hozir hovlida nafas rostlay turib shu qisqa savol-javobni esladi. «Ishchini odam o'rnida ko'rmaydi, «qorayaloq» deydi. Uning nazarida, zavodda ishlovchi - qul, - deb o'yladi Soliyev. - Shunday fikrda yurgan bola ishchini o'ldirib suvga tashlab yuborishi mumkinmi? Mumkin. O'ch olishni yuragiga tugib qo'ygani yashirmaydi. U ishchidan shapaloq yeganini hech hazm qila olmagan. Pivo-

xonada Mirtillayevni tasodifan uchratib qolgan-u paytni boy bermagan. Balki o'ldirish niyati bo'lmagandir. Uch-to'rt kishi orasida koptok bo'lgan Mirtillayevni o'lib qoldi, deb o'ylab, qo'rqanlaridan suvga tashlab yuborishgandir?.. Eng og'ir savol shu. Bunga javob topishning o'zi bo'lmas. O'g'rilikni-ku, bo'yniga oladi. Lekin qotillikni bo'yniga qo'yish uchun dalil kerak. Dalilni balki Tal'at topar? Bugun ertalab pivoxona xo'jayini bilan uchrashdi. U Mirtillayevni ham, Sanjarni ham suratdan tanidi. Taniganda ham kutilmagan voqeani aytdi: Sanjar o'sha kuni pivoxonada bo'lgan. Mirtillayevni hamma-ning ko'zi oldida urib, chiqib ketgan. Endi nimaga tonyapti?»

Maqsud Soliyev pivoxona xo'jayiniga uchrashib, guvohnomasini ko'rsatganida u dovdirab qolayozdi. Rasmlarni ko'riboq, savol kutib o'tirmay, qo'rqqanidan hamma gapni aytib berdi. Mayor hozir uning javdirab turgan ko'zlarini eslab, miyig'ida kulib qo'ydi-da, ichkariga yurdi.

Xonasiga kiray deganda ichkaridan chiqayotgan ovozni eshitib, joyida to'xtadi. Eshboyev so'roqni davom ettirib, o'z usuliga sodiq holda Sanjarni siquvga olayotgan edi. U Soliyevga o'xshab gapni uzoqdan boshlashni yoqtirmasdi. Aybni shartta aytib, «bo'yningga ol!» deb turib olardi. Ba'zan qo'rqitardi. Ba'zan urishdan ham qaytmasdi. Soliyev uni ko'p ogohlantirdi, bo'lim boshlig'iga ham aytdi. Biroq, Eshboyev bari-bir o'zinikini ma'qullardi. Jinoyatchi – odamlikdan chiqqan shaxs, shu uchun ham u bilan odam tilida gaplashish shart emas, deb hisoblardi.

– Bo'yningga olsang olding, bo'lmasa qamoqda chiriyasan!

– Men o'ldirganim yo'q uni, bilmayman...

Sanjar asabiylashayotgan edi. Eshboyev bu takabbur, bezbet bolani bo'yin egishga majbur qilolmagan edi. «Ishni buzibdi, bachchag'ar», dedi Soliyev o'zicha keyin shart eshikni ochib, ichkari kirdi. Sanjar burchakda tik turar, Eshboyev undan ikki qadam berida stulga oyog'ini chalishtirib o'tirib olgan edi.

– Eshboyev, – dedi mayor, uning ishidan ranjiganini sirtiga chiqarmay. – Siz mana bu ikki odamni soat o'n sakkizga

yetkazib keling, yuzma-yuz uchrashtiramiz, – Soliyev shunday deb pivoxona xo'jayini bilan Imomaliyevning nomi yozilgan qog'ozni berdi. Eshboyev chiqib ketgach, mayor stullarni joyiga qo'ydi.

– O'tir, – dedi ko'zlari pirpirab turgan Sanjarga. Keyin hozirgi suhbatdan bexabarday, chala qolgan so'roqni kelgan joyidan davom ettirdi:

– Demak, sen Mirtillayevni ko'rmagansan?

– Ko'rmadim.

– Sen «Chehra» degan pivoxonani bilasanmi, hech kirganmisan?

– Kirmaganman.

– Unda mana bu protokolni o'qib, «gaplarim to'g'ri bayon etilgan», deb qo'l qo'y.

– Qo'ymayman, hech qaysi qog'ozingizga qo'l qo'ymayman. Savolingizga javob ham bermayman. Menga dadamni chaqirib bering, keyin gapiraman.

– Dadang bilan uchrashdim hozir. Lekin u bilan ko'rishganingning sira foydasi yo'q.

– Men sizni yomon ko'raman! Dadam sizni yo'q qilib yuboradi!

– Shuni bilib qo'y bola: men dadangdan ham zo'rroqlarini ko'rganman. Dadangga umid qilma. Meni yaxshi ko'rasanmi, yomon ko'rasanmi, sening ishing. Lekin savollarimga javob berishga majbursan. Hozir seni kameraga olib borib qo'yishadi. Yaxshilab o'yla. Javobdan bo'yin tovtasang, tergovni chalg'itsang, o'zingga qiyin. Ishni tezroq yakunlashga yordam bersang, jazo yengillashishi mumkin. Sen bilan bugun kechroq yana ko'rishamiz. Ungacha sheriklaring bilan gaplashay.

Navbatchi militsioner kirib Sanjarni olib chiqib ketdi.

Sanjarning ikki sherigi pivoxonada bo'lishganini, Sanjar bir kishini urganini, uni ajratib olib chiqib ketishganini tasdiqladi. Qolgan ikkitasi pivoxonaga kirishganini bo'yinlariga olishdi, ammo Sanjarning bir kishini urganini sira «eslasholmadi».

Eshboyev ikkala guvohni ham aytgan vaqtga yetkazib keldi. Sanjar va uning sheriklari yoniga yana to'rt bolani o'tqazib, avval pivoxona xo'jayiniga, keyin Imomaliyevga ro'para qilishdi. Pivoxona xo'jayini taysallab o'tirmay avval Sanjar-ni, keyin yana uch bolani ajratib ko'rsatdi. Imomaliyev esa ancha paysalga soldi. U bolalarni tanib tursa ham daf'atan ko'rsatishga qo'rqdi. Nihoyat, shular shekilli deb, Sanjar bilan uzun bolani ko'rsatdi. Sanjar jingalak sochli, ko'zga yaqin bo'lgani sababli da'vogar-jabrlanuvchilar ham, bu ikki guvoh ham tezda tanigan edi.

Soliyev Sanjar bilan pivoxona xo'jayinini olib qolib, boshqalarga javob berdi.

– Keldiyorov, demak, sen o'ninchi may oqshomida pivoxonada bo'lmagansan, shundaymi?

– Ha.

– O'rtoq Mamayusupov esa seni bo'lgan, urush chiqargan, deyaptilar.

– Yolg'on.

– Guvoh Mamayusupov, siz nima deysiz?

– Bu bola tez-tez kelib turardi, akaxon, ammo tinch kirib, tinch chiqardi. O'sha kuni nima Xudo urdi bularni, bilmayman. Okasi jonidan, bo'yningga olib qo'yaver, okalaringni qiy-nama. Kayfchilikda urib yuboribman, de, vassalom. Akaxon, bu bola ko'p urmadi. Bitta yoki ikkita urib qoldi. Keyin darrov ajratib olishdi. Pivolariniyam ichishmay chiqib ketishdi.

– Chiqib ketishganda soat necha edi?

– Soatga qaramabman. Savdoni bilasiz-ku?..

– Eslang. Pivoxonani nechada berkitishingiz kerak?

– Aslida-ku, to'qqizda. Lekin savdoga qarab... pivoning achib qolishi bor..

– Vaqtini esladingizmi?

– Esladim. Sakkiz yarimlarda. O'g'limning gapi bor edi, «ada vaqtlitroq ketay» deb so'rovdi. Sakkizda ketdi. Yarim soatlardan keyin... bular ketishdi.

– Balog'atga yetmagan bolalarga ichkilik sotish mumkin emasligini bilasizmi?

– Bular balog'atga yetmabdimi? Yo'g'-e, savlatini qarang, ot hurkadi. Bularni kap-katta yigitlar debman-da, bolaligini bilsam, yaqinimga yo'latmasdim.

– Bilgansiz, go'llikka solmang o'zingizni.

– O'lay agar...

– Bu bolaning otasini bilasiz-a?

– Bilaman, yo'q sal-pal eshitganman.

– Yaxshi, protokolga qo'l qo'ying. Hozircha bo'shsiz.

– «Hozircha»? Yana kelamanmi?

– Kerak bo'lsangiz, chaqiramiz.

– Xo'p bo'ladi, bosh ustiga, – u shunday deb qulluq qildi-da, imzo chekdi, keyin Sanjarga yuzlandi: – okasi jonidan, bular nima desa xo'p deyaver. Adangni malomatga qo'yma.

– Ishingni qil-e, so'tak!

– Keldiyorov! – mayor shunday deb stolni mushtladi. Bundan Sanjar emas, pivoxona xo'jayini cho'chib tushdi.

– Qo'yavering, akaxon, yosh-da, esi kirib qolar. Xo'p, men ketdim.

Mamayusupov so'roqda tulki, Imomaliyev esa quyon-yuraklik qildi. «Pivoxonada sal-pal janjal chiqqanini» esladi. Biroq, masofa uzoq, qorong'i ekanini pesh qilib, boshqa savollarga javob berishdan bo'yin tovladi. «Pivoxonada oralarida qizlar bor edimi?» degan savolga ham «ko'rmadim» dedi. U har bir savolga javob qaytarishdan oldin Sanjarga xavotir bilan qarab olardi. Nazarida, bu bola sapchib turib kekirdagini uzib tashlaydiganday edi.

Imomaliyev chiqib ketgach, mayor Sanjar Keldiyorov bilan yuzma-yuz qoldi.

– O'rtoqlaring ham Mirtillayevni urganingni tasdiqlashdi. Endi nima deysan?

– Hammasi yolg'on. Hammasini sotib olgansiz.

– Pivoxonadan sakkiz yarimda chiqqansizlar. O'ndan o'n besh daqiqa o'tganda o'g'rilikka kiringansizlar. Orada bir yarim soat vaqt bor. Shu oraliqda qayerda edinglar?

– Pivoxonada bo'lganim yo'q. Menga dadamni ko'rsatinglar.

Sanjar bilan gaplashishning foydasi yo'q edi. Uni chiqarib yuborib Soliyev yolg'iz qoldi. «Bolalar soat o'ngacha ko'chada yurdik, deyishyapti. Anhor bo'yida yo'l poylashmabdi. Lekin ular anhor yoqasida bolalar o'tirishganini ko'rishgan. Sanjarni tinchitish bilan ovora bo'lib kimlar o'tirganiga e'tibor berishmagan. Sanjar nima uchun hammasini rad etyapti? Hali ham otasiga ishonyaptimi? Bo'ynimga olmasam, chiqarib yuborishadi, deb o'ylayaptimi? Ular soat sakkiz yarimda chiqib ketishgan. Mirtillayev yana joyiga qaytib o'tirib pivo ichgan. Kim bilan o'tirgan? Kim bilan ichgan? Mamayusupov tanishi kerak. U bilan shu bugunoq yana gaplashishim kerak». Soliyev shu qarorga kelib o'rnidan turdi.

Endi u pivoxonaga bora tursin. Biz ikki do'st - Asror bilan Salim yoniga qaytaylik. Ularni tanlagan hayot yo'llari qarshisiga tashlab qo'ygan edik...

YUPANCH

yoxud Asrorning ziyofatdagi kechinmalari haqida hikoya

Dam-badam ingrab yotgan Salim og'riqqa chiday olmay voy-voylab yubordi. Asror shoshib bir qo'li bilan uning yelkasini ushlab, ikkinchi qo'lining kaftini peshonasiga qo'ydi. Peshonadan muzdek ter chiqqan edi.

- Salim, doktor chaqiraymi, hech kim bilmaydi-ku, bari-bir. U odamni ko'mib bo'lishgan-ku?

- Yo'q, kerak emas. Tuzalib qoladi. Qotgan joyi tortishib og'riyapti. Sen ketaver. Qamarning onasi ko'rsa, karvonsaroy qilib yubordilaring, deb javraydi. Ertaga bozor tomon o'tsang, qulupnay olib kel. Yegim kelyapti. - U shunday deb kuldon yonidagi sigaretni olib labiga qistirdi. Kuldon turgan stul ustidan, choyshab qatlaridan gugurt qidirdi. Uning barmoqlari sezilarli darajada titrardi.

- Shu yerda gugurt bor edi, qara, - dedi u.

Gugurt stul ostiga tushgan edi. Asror olib berdi. Salim sigaretni o't oldirib, yutoqib-yutoqib tutatdi. Asrorning di-

mog'iga nasha hidi urildi. Endi bu yerda o'tirishning foydasi yo'q edi. U asta o'rnidan turdi. Salim do'stining chiqib ketayotganiga ahamiyat bermadi.

Asror katta xonaga chiqqach, divanda oyoq chalishtirib, sigaret chekib o'tirgan Qamariddinning onasini ko'rdi-yu, shoshib qoldi. «Qachon keldi, gaplarimizni eshitgan bo'lsa-ya», deb sarosimalandi. Keyin salom berib chiqib ketmoqchi edi, ayol uni yoniga chaqirdi.

- O'tir, - dedi ro'parasidagi yumshoq kresloni ko'rsatib, - o'rtog'ingni ko'rdingmi?

Asror qirqqa borgan bo'lsa-da, chiroyini, tarovatini yo'qotmagan bu ayolning kipriklari uzun ko'zlariga, yarimochiq ko'kragiga qarashga botinmay, yerga boqqanicha, «ha, ko'rdim» dedi.

- Ahvoli tuzukmi?

«Nimaga so'raydi, o'zi ko'rib turibdi-ku?» Asror shu o'y bilan unga bir qaradi-yu, o'tkir nigohiga dosh berolmay ko'zlarini olib qochdi. Keyin:

- Yaxshi, - dedi sekingina.

- Hecham yaxshi emas, - ayol sigaretni yonida turgan kuldonga ezdi. Uning achchiqlangani shu harakatidan sezildi. - Bolani juvonmarg qilasanlar. Yarasi irib ketadi. Nasha chekaverib o'zini-o'zi o'ldiradi. Doktor chaqirish kerak.

- Menam shunaqa devdim, ko'nmayapti.

- Ko'nmayapti... Bir narsa bo'lib qolsa, kim javob beradi, senmi?

- Nega endi men?..

- Qamar ham shunaqa dedi. Hammang bir go'rsanlar, - u shunday deb ko'z o'rniga soat o'rnatilgan tilla uzugini buray boshladi. Uzukni chiqarib olmoqchi bo'ldimi yo asabiylashgandagi odati shu edimi, Asror tushunmadi. Indamay o'tiraverdi. Nihoyat, ayol tilga kirdi:

- Sen ularga o'xshamaysan. Boshqacharoqsan. Bilib turibman. Qamar ham seni yaxshi ko'radi shekilli. Qamar kamdan-kam odamni yoqtiradi. Sening baxting bor ekan. Qamar hatto meni ham yomon ko'radi. Haligacha aqalli bir marta

bo'lsin «ona» demadi-ya, meni! – ayolning ovozi titradi. – Axir men uni ko'chaga tashlab ketganim yo'q edi. O'zimni tutib olgunimcha bolalar uyiga berdim. Aybim shumi? Uning nimaga qamalganini bilasanmi?

Asror bosh chayqadi.

– Bilmaganing yaxshi. Lekin, men bilaman, – u bir nafas jim qoldi, xo'rsindi. – Ko'zim oldida yuz bergan hammasi. O'shandan beri undan qo'rqaman. Qamoqda yo'q bo'lib ket-sin, deb Xudoga nolalar ham qilganman. Hech zamonda ona bolasiga shunaqa tilak tilaydimi, a?.. Qo'rqardim undan, juda qo'rqardim.

– Nimaga gapiryapsiz menga bu gaplarni? – dedi Asror ajablanganini yashirmay.

– Eshit, jim o'tirib eshit. Qamar seni yaxshi ko'radi. Sen uni yo'lga solishing mumkin. Men undan qo'rqaman... Ona, demasa ham mayli, unga ayt, meni xoli qo'ysin. Kechalari ux-lolmayman, – uning ovozi yana titradi. – Uni eslasam yuragim taka-puka bo'lib ketaveradi. Mana, o'zing eshitib ko'r, – ayol shunday deb Asrorning qo'lini oldi-da, chap ko'kragiga bos-di. Asror uyalib qo'lini tortib oldi. Ayol bexos qilig'idan bola-niing izza chekkanini sezdi, biroq, o'zini bilmaganga olib, ga-pini davom ettirdi. – Manavi bolaga yo doktor chaqiringlar, yo boshqa yoqqa olib ketinglar. Menam odamman axir, meh-mon-izmon chaqirolmay ham qoldim. Aytasan-a, unga?

– Aytaman, – Asror shunday deb qutulmoqchi edi, ammo ayol uni yana gapga tutdi:

– Sen o'qiysanmi? Ha, bilinib turibdi, o'qiysan. Bularning birontasi ham o'qimaydi, o'qimaydiyam, ishlamaydiyam bu takasaltanglar. Sen nimaga bularga aralashib qolding? Bular seni ham turmaga tiqadi. Bilasanmi, buni? O'g'ri, muttaham hammasi, bilmaysanmi bularni?

– Qamar... yaxshi odam, unaqa demang.

– Yaxshi odam?.. Hm, – ayol istehzo bilan jilmaydi. – Yaxshi odam, degin?.. Ko'rasan hali uni qanaqa yaxshiligini... Lekin sen... – ayol Asrorning ikki yelkasidan ushlab silkidi, – gapla-rimni unga yetkaza ko'rma. Eshitsa, o'ldiradi meni... Shusiz

ham... – ayol uni qo'yib yuborib ro'molchasi bilan burnini chimdidi, – kunda ming o'lib, ming tirilyapman. Sen sekin tushuntir unga. Biror uy topib chiqib ketsin. Bu uy meniki emas, bir odam olib bergan. Kelib turishi kerak. Bilib qolsa, senlarga ham qiyin. Sekin tushuntir, xo'pmi?

Asror ayolning maqsadini tushunib «xo'p» deb qutuldi-da, o'rnidan turib, asta yurib chiqib ketdi. «Jinni xotin ekan-ku, – deb o'yladi Asror zinalardan tusha turib, – o'g'lini ham shunaqa deydimi? Uyidan haydaydimi? Qamarga aytaman, bu naqada bu xotin sotib, qamatib yuborishi hech gap emas...»

Asror ko'chada bora turib Salimning onasi bilan Qamariddinning onasini o'zicha taqqosladi. Uning bolalik tasavvuri, avvalo, tashqi ko'rinishlardagi farqni ilg'adi. Har ikki ayolning kiyinishi, gaplari, o'zini tutishi... Ularning har ikkisi ham baxtsizligidan nolidi. Afsuski, Asror hali yosh, yo'qsa hali ko'p narzlarni farqlagan bo'lardi. Aytaylik, har ikki ayol chindanam baxtsiz. Salimning onasi shu to'rt devor, shu bir parcha yer, sigirdan boshqa hech narsani ko'rmadi. Eng arzon kiyimlarni kiydi. Bola tug'ib, bola o'stirdi. Ularning ust-boshi, yemoq-ichmog'i bilan band bo'ldi. U ko'kragi yarimochiq ko'ylaklar, yasama kipriklar, ko'z o'rniga soat o'rnatilgan tilla uzuklar orzu qilmadi. Orzu qilgan bo'lsa ham o'zicha orzu qilgandir, ammo shularni kiysam, taqsam, deb sirtiga chiqarmagan. U faqat bolalarining ust-boshini o'yladi. Shu deb eri bilan ko'p marta qirpichoq bo'ldi. Qamariddinning onasi esa shu yoshga kirib o'zidan boshqa odamni o'ylamadi. Uning qayg'usi yo'q edi. Ayni chog'da baxti ham yo'q edi. Agar Salimning onasi bilan tanishguday bo'lsa, sira ikkilanmay uni baxtli derdi. Chunki uning bir etak bolasi bor, yomon bo'lsa ham boshida eri bor. Demak, qariganda xo'rlanmaydi. Uning-chi? Kimi bor? Qariganda kim qaraydi unga?

Asrorning hali bularga fahmi yetmaydi. Baxt haqidagi tushunchani bola bir xil, katta odam boshqa bir xil tarzda talqin qiladi. Shunday bo'lsa ham Asrorning bolalarcha zehni eng muhim bir narsani to'g'ri ajratdi: Salimning onasi yaxshi ayol! Uni xorlamaslik kerak! Buning uchun Salim Qamariddinning

ko'chasidan chiqishi shart. Asror buni aytadi Qamariddinga. Qamariddin yaxshi odam, tushunadi buni. Asrorga qanday yaxshilik qilayotgan bo'lsa, Salimga ham shunday mehribonlik ko'rsatishi aniq.

Shaharga astalik bilan oqshom qo'nmoqda edi. Asror oftobda qizigan baland uylar oralab shoshilmay yurib borar, xayoli bugungi uchrashuvlar bilan band edi. Uyiga yetib, temir garajning temir darvozalari ochiq ekanini ko'rdi. Dadasi endi keldimikin yo ketyaptimikin? U savoliga javob topishga ulgurmay, oq jiguli garajdan chiqib ko'cha o'rtasida to'xtadi. Dadasi mashinadan tushib, uni ko'rdi-yu, qovoq uydi.

- Qayoqda yuribsan? - dedi dag'al ovozda.

- Konsultatsiya bor edi, - dedi Asror ko'pchilik qo'llaydigan oddiy yolg'onni ishlatib.

- Konsultatsiyangdan o'rgildim, - dedi dadasi zardasi qaynab, - bor, asboblarni olib tush.

Asror itoatkorlik bilan qadamini tezlatib, zinadan ko'tarildi. Onasi uni ko'rib xursand bo'lib ketdi:

- Voy, keldingmi-yey, bolajon, adang yonib turuvdi-ya... Dadangning odatlarini bilasan-ku, sal vaqtlitiroq kelmaysanmi? Qorning to'qmi, ke, bir piyolagina choy ichib ol. Ichmaysanmi, bo'lmasa, tezgina tusha qol. Yorilib ketmasinlar dadang.

Ular qaysi bir mahalla guzaridan o'tib, torroq ko'chaga burildilar. Asror bu mahallaga to'y bahona avval ham kelgan, faqat nomi esida yo'q. Dadasining aytishicha, bu mahallada saxiy to'ralar yashaydi. Ular burilgan tor ko'chada o'nga yaqin mashina bir-biriga tiralib turibdi. Dadasi bexavotirroq joy tanlab, mashinani qo'ydi. Og'ir bir yumushni bajarayotganday pishillab turib rul bilan pedalga qulf ildi-da, mashinadan tushdi. Deraza tokchalariga rangdor chinni koshin terilgan, hafsala bilan zeb berilgan uy oldida yaxshi kiyingan, o'rta yosh xipcha odam kutib oldi.

- Keling, hofiz, keling, ko'zlar teshilib ketdi-ku kutaverib! Bunaqamas-da endi... Iye, asbob qani?

«Boshlandi» dedi Asror g'ijinib. Qayga borishmasin, avval o'zlari kirishar, duo-fotihadan so'ng Asror sekin chiqib tor,

doirani olib kirardi. Dadasi bu odatini sira buzmas edi. To'y-gami, ziyofatgami yig'ilganlar esa hamma vaqt shu asbob pay-rovida suyuq askiya qilishardi. Askiyalar bir xilda boshlanib, bir xilda tugar, odamlar dadasini kalaka qilishsa ham u qulluq qilib kulaverar, Asror esa ich-ichidan g'ijinib, asabiylashardi. Hozir o'sha payrov aynan takrorlangach, ular ichkariga taklif qilindilar. Hovlidagi orastalik uy egasining yaxshi did egasi ekanidan dalolat edi. Hovli o'rtasida marmar favvara, atrof-da gilos, olma daraxtlari, daraxt atrofi rayhon. Ular etak to-monga solingan katta uyga kirishdi. Uy, Asrorning chamasida, maktab zalidan sal kichikroq edi. Elliktacha odamga mo'ljal-lab tuzalgan dasturxon atrofida yigirmatacha mehmon qo'r to'kib o'tirardi. Dadasi ta'zim bilan kirib mehmonlar bilan so'rashgach, ulardan biri uzatgan choyni olib, Asrorga qaradi. Bu «asboblarni olib kir» degani. Asror bu vazifani bajargach, torni dadasiga berib, o'zi doirani qizitgani tashqariga chiqdi. Temir o'choqdagi olovga doirani tutdi. Oshpazlar uning salo-miga alik olishdi-yu, keyin unga e'tibor bermay, suhbatlarini davom ettirishdi:

– Ikkita to'rt pudli qozonda yuz yigirma kilo guruch dam-lashgan ekan, ertalab sakkiz bo'lmasdan changi chiqib ketdi. Oshna-og'aynini ham yiqqan ekanlar-da. Tamom bo'laman, demaydi. Mahalla raisi to'n kiydirib ulgurmaydi. Besh yuzta-cha to'n kiydirdi-yov...

– Odamgarchiligi bor-da. Bazmda hofizlarga gal ham teg-mabdi-yu?

– E, qanchasi xafa bo'lib jo'navordi. Sher kelgan joyda ularga nima bor?

– Salohiddin akaning ham to'yi zo'r bo'ldi, deyishadi?

– Zo'r-u, unchalik emas. Ziqnaligi bor-da, uning. O'zi pul degani achib-bijib ketgandir, lekin, sir boy bermaydi. Odam kam bo'ldi, qirq kilo guruch damlabdi.

– Yo'g'-e?

– Ana, Jo'ravoy oshpazning o'zi damlabdi. Xotin oshiga ham orttirib bergan bo'lsa kerak. E, aka, men sizga aytsam, gap tugundagi pulda emas, gap yigitning ko'cha ko'rmagan-

ligida. Zamon nozik deb o'tirasanmi, puling bormi, soch, o'yna, kul.

Ulardan birini uy egasi imlab chaqirmaganida gaplari hali-veri tugamas edi. Asror doirani qizdirib kirgach, dadasi bir juft ashula aytdi. Bu orada xona to'la boshladi. Odamlar qo'shiq so'zlarini tinglamas edilar. Xuddi xonada qo'shiq aytilmayotganday, bir-birlari bilan gaplashib o'tirardilar. Ularning quloqlariga faqatgina hofizning shirali ovozi-yu, tordan taralayotgan kuygina kirardi. Agar shu payt dadasi qo'shiqqa «E, g'ofil bandalar, razilligingizga borman», deb qo'shib aytib ketsa birov tushunib yetmas edi. Asror odamlarning bunday e'tiborsizliklariga ko'nikib qolgan. Qo'shiq tugagach, to'rdagi basavlat odam yonida o'tirgan, qotmadan kelgan qaldirg'och mo'ylovli yigit o'rnidan turdi.

- Tishe, o'rtoqlar, - dedi u billur qadahga sanchqi bilan urib qo'yib, - Akramxon akamning mehri Amudaryo ekanini ko'rib turibmiz. Bu dasturxonda yo'q narsaning o'zi yo'q. Nimaga shuncha ovoragarchilik? Shuning uchunki, Akramxon akamning akaxonlari, hammamizning meravoy akaxonimiz Zayniddinxon akamizning martabalari baland bo'ldi. Bir haftadan beri quling o'rgilsin xonalarni gullatib o'tiribdilar. Akramxon akamiz bundan xursandliklarini mana, biz bilan baham ko'rish uchun shu dasturxonni tuzadilar. Ming rahmat sizga. Oling, oldirmang. Birinchi qadahni Zayniddinxon akamizning sog'liqlari uchun ichamiz. Hamma o'rnidan turib ichadi. Zayniddinxon akamizga bundan katta martabalar nasib etganda ham shunaqa o'tirishaylik. Ichmagan nomard. Qani, ketdik...

Qadahlarning urishtirilishi qo'shiq boshlashga ishora edi. Ammo qo'shiq yarimlamay uzildi.

- Tishe, o'rtoqlar, endi so'z jonajon akaxonimiz Zayniddinxon akamlarga.

Qadahga sanchqi bilan urib odamlarni tinchitishga hojat qolmadi. Hamma shu gapdan keyinoq baravariga jim bo'ldi. Basavlat odam o'rnidan turib tomoq qirdi.

- Shunaqa ukaxonlarim borligidan xursandman. Mendan qaytmasa, Xudodan qaytsin. Akramxonning o'g'ilchasi bu yil

maktabni bitiryapti. Mana, domla Turdiyev bizning arzimas dasturxonimizga kelib o'tiribdilar. O'g'ilchani shu kishiga ikki qo'llab topshiramiz-da, a, Akramxon?

Notiqning bu yonida o'tirgan sariq sochli semiz kishi bosh irg'ab qulluq qildi. Notiq davom etdi:

- Bizdan qaytmasa, bolalarimizdan qaytadi, domla, dissertatsiyangizni boshlayvering, mana, xizmatda biz turibmiz. Ukaxonlarimizni ranjitmasangiz bas.

«Hali bu domla nomzod ham emas ekan-da? - deb o'yladi Asror, - mana shunaqa ziyofatlarda yeb-ichib, bularning pulini olib, Otaullaga o'xshagan savodsiz o'g'illarni o'qishga kiritadi. Shu pullar evaziga o'zi nomzod bo'lib oladi. Institut esa inkubatorga o'xshab savodsiz mutaxassislarni chiqaraveradi. Salim haq. Bunaqalarga kun bermaslik kerak. Hamma buzg'unchilikni shular boshlashadi...»

Asrorning g'ashi kelib, doira qizitish bahonasida chiqib ketdi. Qaytib kirsam o'sha «akaxon» hali ham gapiryapti. Asrorning nazarida, bu odam o'tirgan har bir mehmon sharafiga gap aytdi shekilli. Nihoyat, gap tugab, qadahlar urishtirildi.

Yana qo'shiq boshlandi. Bu orada oltin halli, kiyik tasviri tushirilgan kosalarda sho'rva tortildi. Qo'shiq uzilmadi. Ikkinchi qo'shiq yakunlanay deganda Asror eshikdan kirib kelayotgan kishiga ko'zi tushdi-yu, yuragi o'ynab, badani muzlab ketdi. Doirani chertayotgan barmoqlari o'ziga bo'ysunmay, usuldan chiqdi. Eshikdan o'sha odam - Mirqosim Mirtillayev kirib kelgan edi. Asror nima qilishini bilmay qoldi. Dadasi qo'shiqni tugatib, biqiniga turtib qo'ymaganida, haliveri o'ziga kelolmas edi.

Poygacroqda o'tirgan mehmonlar o'rinlaridan turishib u odamni yuqoriga o'tishga undashdi.

- Qani, Mirxalil aka, to'rga, Zayniddinxon akamizning yonlariga, - deb qistashdi.

Uning ismini eshitib Asror sal tinchlandi. Yangi mehmon ko'pchilikni bezovta qilgisi kelmay, to'rga chiqmadi.

- Mirxalil uka, bandalik ekan, akani ham berib qo'yibsiz, hozir eshitib xafa bo'lib o'tiribmiz, - dedi basavlat odam.

- Ha, endi, Ollohning irodasi shu ekan, mastlik qilib suvga tushib ketibdilar. Endi aybga buyurmaysizlar, bir yoqda azadorlik, bir yoqda bunaqa xursandchilik, tabriklab ketay deb keldim.

- Xo'p ajab ish qilibsiz, uka. O'tganlarning joyi jannatda bo'lsin, qolganlarning umrini bersin, qani, dasturxonga qarang.

Shu bilan ziyofat maromiga tushib ketdi. Qo'shiq avjiga chiqqanda to'rdagi basavlat kishi yonida bir dasta pul chiqarib, bitta elliktalikni ajratdi-da, oldidagi qulupnay po'choq solingan likopcha ustiga qo'yib uzatdi. Likopcha qo'lma-qo'l bo'lib, pulga pul qo'shilib hofiz tomon oqdi. Dadasi ashula aytishni to'xtatmagan holda bosh irg'ab minnatdorlik bildirdi. Bir mahal haligi odam ikkinchi likopchaga pul qo'yib uzatdi-da:

- «O'zbekim»ni oling, hofiz, - deb buyurdi.

Dadasi Navoiydan aytayotgan qo'shiqni shart uzib, «O'zbekim»ni boshlab yubordi.

- Oh, oh, oh, - dedi u kishi hali qo'shiq so'zlari aytilmay turib.

«Ma'nosini tushunarmikan bular, - deb o'yladi Asror, - o'zbekim deb oh-voh uradi, pul qistiradi-yu, bir joyda bir oila o'n bir bolani boqishga qiynalyapti, desang yuzlarini teskari burishadi. Salim haq. Salimni yo'lidan qaytarmasligim kerak. O'zim-chi? Bularga xizmat qilib yuraveramanmi?» Shu xayollar bilan Asror yana usuldan chiqdi. Dadasi unga qarab, bosh silkib usulga solib olgach, ashulasini davom ettirdi.

Yarim tun bo'lsa hamki, ziyofat tinmadi. Aljib, churillab qolgan mehmonlar ketma-ket qo'shiq talab qilishadi. Aka-xonlariga bo'lgan hurmatlarini bildirish uchun tinmay pul qistirishadi. Asror to'yima-to'y yurib hali bunchalik charchamagan edi. Oxiri barmoqlari qotib, o'ziga bo'ysunmay qoldi. Dadasi uning ahvolini tushunib, ashulani doira jo'rligisiz ayta boshladi...

Ular uyga tongotarda keldilar.

Asror toshday qotib uxlandi. Ziyofatga borganidan bir jihati quvondi - bu tun azoblarsiz kechdi.

Asror shuncha tunlar ichi birinchi marta osoyishta uyquga ketgan ekan, mayli, uni o'z holiga qo'yaylik. Bizni mayor Soliyev kutyapti.

CHIGALNING UCHI

yoxud mayor Soliyevning oyoqlari ostiga tuzoqlar qo'yilgani haqida hikoya

Pivoxona xo'jayini mayorni ko'rib esankirab qoldi. Pesh-taxta ortidan yugurib chiqib, qo'shqo'llab so'rashdi.

– Bir-ikki bola kiruvdi, chiqarib yubordim. Xo'p ko'zimni ochib qo'ydingiz-da, rahmat sizga.

– Mamayusupov, xotirangiz yaxshiga o'xshaydi. Eslab ko'ring: o'sha oqshomda Keldiyorov Mirtillayev o'tirgan stolga keldimi yo Mirtillayev bolalar o'tirgan stolga yaqinlashdimi?

– Bolalar huv burchakda o'tirishgan edi. Janjal ham o'sha yerda bo'ldi. Rahmatli Mirtillayev borgan bo'lib chiqadi-da. Uni shu bolalar o'ldirgani rostmi?

– Kim aytdi sizga?

– Hayronman, odamlar og'zida duv-duv gap. Qotillarni ushlabibdi, deb yurishibdi.

– Til besuyak-da, a? Endi yana bir eslang: Mirtillayev kaltak yeganidan keyin yana pivoxonada qolgan ekan, kim bilan o'tirgan edi? Uning hamsuhbatini ko'rsangiz taniysizmi?

– Taniyman. Sizga kerak bo'lsa taniyman.

– U odam keyin ham keldimi pivoxonaga?

– Pivo bo'ladi-yu, kelmaydimi? Kelgan, hozir ham shu yerda.

– Menga holiroq joy bering, keyin o'sha odamni sekin chaqirasiz. Yana pivoxonaga ovoza qilib yurmang.

– O'libmizmi, akaxon, bizam tushunamiz, ishingiz nozik.

U shunday deb pastak eshikcha orqali orqa hovliga yo'l boshladi. Bo'sh qutilarni qo'yib olib davra qurgan uch yigitga yaqinlashib sekingina nimadir dedi, uning gapini mayor eshitmadi. Uchala yigit ham baravariga unga qarab olishganidan sezdi, Mamayusupov vahima bir gap aytgan. Yigitlar:

– Gap yo‘q, akaxon, xafa bo‘lgan – o‘g‘ri, – deb o‘rinlaridan chaqqon turib, shishalarni ko‘tarishdi-da, mayorga salom berib, ichkari kirib ketishdi.

Mayor ularning o‘rinlarini egalladi. Zum o‘tmay Mamayusupov ellik yoshlardagi bir kishini boshlab keldi.

– Mana akaxon, Sobitboy birga bo‘lganlar rahmatli bilan.

– Kim o‘ldirgan ekan, o‘sha haromilarmi? – dedi Sobit, mayorning ro‘parasidagi qutiga o‘tirib. – Hammasini otish kerak.

– Otishdan avval qotillarni tutish kerak.

– Tutmadinglarmi?

– Tutmadik. Shuning uchun siz bilan gaplashib olmoqchiman.

– Akaxon, xizmatchilik, boraveraymi? – dedi Mamayusupov gapni bo‘lib. Ruxsat tekkach, minnatdorchilik bildirdi-da, ichkari kirib ketdi.

– Men uni o‘ldirishganini ko‘rmadim. Ko‘rganimda aytardim, – dedi Sobit.

– Urgan bolalarni taniysizmi?

– Kelib turishardi... boyvachchalar-da...

– Mirtillayevni-chi, uni tanirdingizmi?

– Uyam kelib turardi. Ilgari birga ishlaganman. Kelib qolsa, ulfatchilik qilardik.

– Ko‘p icharmidi?

– Yo‘q. Uch shishadan oshirolmasdi. Qovug‘i bo‘shroq edi uning.

– Siz... hozir qayerda ishlaysiz?

– Maktabda qorovulman.

– Zavoddan nimaga ketdingiz?

– Manavi savil yo‘ldan urdi, – Sobit shunday deb shishalarga imo qildi.

– O‘sha kuni Mirtillayevning puli ko‘p ekan, sezmadingizmi?

– Pulini ko‘rmadim-u, lekin uch-to‘rt kishini mehmon qildi.

– Siz nima uchun birga ketmadingiz?

– Shuncha pivoni tashlab ketamanmi? U xurmachasi-ga siqqancha ichdi. Keyin ketdi. Xotini yo‘q, bolalari yolg‘iz. Vaqtliroq borishi kerak. Men uyga erta borganim bilan odam keldimi, it keldimi deyishmasa. Shu yer bekilguncha ul-fatchilik qilib o‘tiranman-da.

Mayor qarasaki, Sobitboy deganlari hasratga tushadigan. Shu sababli uning ko‘ngliga qarab o‘tirmay gapini shart kesdi:

– Bolalardan kaltak yegandan keyin alami qo‘zib ko‘p ichib yubormadimi?

– Yo‘-o‘q, aytdim-u uchtadan ortig‘ini eplolmaydi, deb. Bu qurg‘ur hammaning ham xurmachasiga sig‘avermaydi-da, aka.

– Bolalar unga gap otishdimi, nimaga turib bordi ularning oldiga.

– Bolalar bir nimalar deb aljishayotuvdi, aniq esimda yo‘q, «qorayaloqlar sog‘ bo‘lsin», deyishdimi-yey, «qullar» deyish-dimi-yey, xullas, xaxolashaverishdi. Pivoxonani boshlariga ko‘tarib yuborishdi haromilar. Boyvachcha-da, pul ko‘p – ko‘ngliga siqqanini qiladi.

– Keyin nima bo‘ldi?

– Mirqosim turdi. Jingalaksochliga bir nima devdi, u urib qoldi. Urganini ko‘rmasim. Ajratishayotganini ko‘rdim.

– Bolalar chiqib ketishayotganda indashmadimi?

– Indashdi. So‘kishdi. Onasi ham qolmadi, xolasi ham qol-madi...

– «Hali kuningni ko‘rasan», «chiq, kutib turamiz» deyish-madimi?

Sobit o‘ylanib qoldi. Qulog‘iga qistiruvli yarmi chekilgan sigaretni olib tutatdi. Mayor uning javobini toqat bilan kutdi.

– Yo‘q, deyishmadi. Kutib turamiz, deyishmadi. Anavi jingalaksoch: «urug‘ingni quritaman, qorayaloq!» dedi. Buni aniq eshitdim.

– Mirtillayev bolani tanir ekanmi?

– Shogirdi ekan. Bola katta oxurdan yem yeganmas-mi, ishchilarni mensimabdi. Keyin Mirqosim bir shapaloq urib yuborgan ekan. Bola, nazarimda, shuning alamida yur-gan-da...

– Bolalar ketganidan keyin Mirtillayev nima dedi?

– «Bu haromilarning odam bo'lishi qiyin», dedi. Ammo juda to'g'ri gapni aytdi. Men bu gapga ming foiz qo'shilaman.

– Boshqa hech nima demadimi?

– Yo'q, keyin esga ham olmadik. Gapirgan bilan foydasi bormi? Biz gapiraveramiz, ular otalarining panojida ayshlarini surib yuraverishadi.

– Anhor bo'yidagi janjalni ko'rmadingizmi?

– Yo'q. Agar mabodo ularni ushlasangiz, hammasini oting, xo'pmi? Xalqning oldiga olib chiqib oting, ayamang sira.

Mayor cho'ntagidan bir dasta surat chiqarib Sobitga ko'rsatdi. U Keldiyorov va uning sheriklarini adashmay, bir zumda ajratib berdi. Shundan so'ng Soliyev unga minnatdorchilik bildirib, o'rnidan turdi. Sobit ichkari kirib joyiga o'tirdi. Maqsud Soliyev esa peshtaxtaga yaqinlashdi.

– Anavi yigitni taniysizmi, mendan pivo olgan edi? – dedi pivoxona xo'jayiniga Tal'atni ko'rsatib.

– Bu yigit yo'q edi u kuni. Keyin paydo bo'ldi. Qamoqdan yaqinda qutulibdi.

– Menga chaqirib bering uni, – mayor shunday deb iziga qaytdi.

Tal'at hayallamadi.

– Nima yangilik bor?

– Men bilan birga o'tirgan yigitlarni gumon qilmasa ham bo'ladi. Kissavur ular. Kunduzi avtobusda ishlasharkan. O'sha kuni bu yerga kelishmagan. To'yda bo'lishgan. Qamariddin degan bir yigitdan shubham bor. O'tirib chiqqan. Atrofida bolalar bor. Menga qayishmadi. Devning kuchi bor unda. Karatega usta. Menam bas kelolmadim. Bir o'spirinni anhor yoqasida ikki marta ko'rdim. Sal g'alatiroq. Qamariddin uni tanirkan. Bugun yetaklab olib ketdi. Shu to'dani o'rganish kerak.

– Nima uchun?

– Bu yerga jim kelib, jim ketarkan.

– Faqat shuning uchunmi? – mayor shunday deb Tal'atga sinovchan tikildi.

- Shugina emas. Qamariddin men bilan yakkama-yakka chiqdi. Menday bezori nima uchundir unga ma'qul kelmadi.

- Eski hunarini yig'ishtirgan bo'lsa-chi?

- Unda atrofiga nima uchun bekorchi bolalarni to'plab yuribdi? Eski hunarini yig'ishtirganiga ishonmayman men. Menga ro'yxosh bermagani - ehtiyotkorligidan. Nimadan ehtiyot bo'lyapti? Nimadan cho'chiyapti? Kissavurlar noz qilib o'tirishmadi. Meni saflariga qo'shishga tayyor.

- Sababini bilasizmi?

- Sababi... - Tal'at buni o'ylab ko'rmagan edi. Shu uchun xayolga toldi. - Sababi... Qamariddin kattaroq ish qilsa kerak. Yoki... u ishboshi emas, ijrochi bo'lishi mumkin.

- Atrofidagi bolalar-chi?

- Ularmi?.. Bilmadim, o'ylab ko'rmadim.

- Umuman fikrlaringizda jon bor. Kissavurlar o'tirib chiqqanmi?

- Yo'q.

- Qamariddinning ehtiyotkorligi sababi avvalo shu: u qamoqda xo'p pishib olgan. Kissavurlaringiz hali g'o'r. Qamariddin chindan ham sirli odamga o'xshaydi. Atrofidagi bolalar bilan qiziqib ko'rish kerak. Biron-tasining ismini biloldingizmi?

- Kissavurlar bittasini tanishar ekan. Salim degan bola, bokschi emish.

- Yoshi nechada?

- So'ramabman. Bo'lsa, o'n besh-o'n oltidadir?

- Guruhlar orasida raqobat sezilmadimi?

- Yo'q, hammasi o'zicha tinch.

- Shu hol sizga qiziq tuyulmadimi?

- Hammasi o'z ishi bilan ovora, bir-biriga xalaqit bermagandan keyin...

- Kalta o'ylayapsiz. Katta baliq borligini bilishadi bular. Katta baliq katta ishlarni mo'ljal qilgan. Shu sababli kichkinalar tinchdir. Kattasi kim, shuni aniqlash kerak.

- Mirtillayevni shu «katta baliq» o'ldirgan deysizmi?

- Yo'q, ular bunaqa oddiy odamlarga tegishmaydi. Lekin qotillar shular atrofidagilar bo'lishi mumkin. Agar bu yerda

zerikmagan bo'lsangiz, yana uch-to'rt kun yura turing. Endi chiqib, pivoxona xo'jayinini aytib yuboring.

Tal'at chiqqach, zum o'tmay Mamayusupov paydo bo'ldi.

- Bu bezbetni qayerdan topdingiz, xudobezori-ku, u? - dedi Soliyev o'rnidan turib.

- E, siz so'ramang, men aytmay. Ishga olasan, deb, to-mog'imdan g'ip bo'g'ib oldi. O'g'limni urib uchirib yubordi. Endi o'zingiz bir iloj qilib...

- Men aralashsam bo'lmaydi, sizni bir balo qilib ketishi hech gapmas. O'n kun chidaysiz. O'n kun ichida ishga kirishi kerak. Kirmasa, unda biz aralashamiz. Sizdan iltimos, odamlar og'zidan u-bu eshitsangiz, menga yetkazing.

- Bajonidil, akaxon. Sizga lozim bo'lsa, vujudimiz quloq-da.

- Ammo... o'zingiz gullab yurmang. Bilasiz-a, buning oqibatini?

- O'libmizmi, akaxon, biz ham o'qigan odammiz...

Mayor Soliyev pivoxona zalidan o'ta turib o'tirganlarga bir nazar tashlab oldi. «Bu yerga to'planganlar dunyoning birdan-bir yupanchi - shu shisha ichida deb bilishadi. Ana shu yupanch ertami-indin o'zlarini go'rga tiqishini anglasalar ham xira pashshaday yopishaverishadi, - deb o'yladi mayor tashqariga chiqqach. - Ha, xuddi xira pashshaning o'zi bular. Yo'q, pashshadan ham nodonroq. Pashsha-ku, oqibatini bil-may yopishadi shiraga. Bular-chi? Shu yerda janjal chiqib, ola-tasir bo'lib ketishi uchun birgina nobop gap kifoya. Hozir ularga «birodarlar, bu ishingiz chakki, uylaringga boringlar, bolalaringiz bilan yayrab o'tiringlar», desam, «militsiyaning shundan boshqa ishi yo'qmi?» deyishadi. Janjal chiqquday bo'lsa, «dod, militsiya qayoqqa qarayapti!» deb faryod uri-shadi. Bular-ku, endi o'nglanmas. Bolalar-chi? Ota bu ahvolda borib bolasining o'qishi-yu, qayerda yurgani bilan qiziqarmidi? Otasining ahvolini bilgan bola undan hayiqarmikin? Bola-niing yomon yo'lga kirishi uchun yana qanday sharoit kerak? Bolalar xilma-xil, oilalar xilma-xil, jinoyatlar xilma-xil... Oilasi nochor bo'lganidan bola jinoyatga kirdi, desang, o'ziga to'q oilalarning bolalari «mana men» deb turibdi. Amaldorning

bolasi desang, ishchining bolasi... Bular barchasi ko'rinmas ip bilan bog'langan. Bularni o'tmish sarqiti, desang, orada necha avlod o'zgardi. Qolaversa, bugungi jinoyatlar o'tmish zamonlar davrida bo'lmagan. G'arbning ta'siri desang, g'arbning yaxshi ishlari ham bor. Yaxshi ishlari turib, yomonlarini qabul qilishga sabab nima? Jinoyatchilar, ayniqsa bolalar, adolatga ishonishmaydi. Insonga ishonch berishdan ko'ra, undagi ishonchni quvib chiqarish oson. Ishonchni quvib chiqarishga g'arbdagilar hissa qo'shayotgan ekan, xo'sh, ishonchni kim beradi? Ota-onami, maktabmi, atrofdagi odamlarmi?...»

Maqsud Soliyev shularni xayolidan o'tkazib, bir zum to'xtadi-da, orqasiga pivoxonaga o'girildi. «O'sha yerda kayf qilib o'tirganlar kimga ishonch berishi mumkin?»

Mayor, kech bo'lib qolganiga qaramay, ishxonasiga qaytdi. Tal'at bilan bo'lgan suhbatdan so'ng uning ro'parasida yana bir yo'l ochilgan edi. U hozircha keldiyorovlarga nisbatan bo'lgan gumondan voz kechganicha yo'q. Mayor Tal'atning gaplarini fikr tarozisiga solib ko'rib «har ikki yo'l bir nuqtada uchrashmasmikin?» degan xayolga bordi. Agar Qamariddin ijrochigina bo'lsa, u yo pixi qayrilgan jinoyatchilar xizmatida, (balki teng sherikdir?) yoki boyvachchalar xizmatida. Harholda uning hayoti bilan qiziqib ko'rish zarar qilmaydi. Soliyev shu qarorga keldi.

Uyiga qaytib, xotining noxush kayfiyatda o'tirganini ko'rdi-yu, avvaliga uncha e'tibor bermadi. Lekin uning gaplarini eshitgach, hayratdan dong qotdi:

- Uyni topshirishimiz kerak emish. Bizga shaharning narigi chetidan ikki xonali uy ajratishibdi. Ijroqo'mdan kelib, tayinlab ketishdi.

- Bitta o'g'limiz oilasi bilan chet elda, ikkinchisi cho'lda, kelasi yil qaytadi, demadingmi?

- E, aytdim, gapga tushunarmidi ular...

Maqsud Soliyev shu shaharlik bo'lishiga qaramay, ukalari uylanadigan bo'lib, uy torlik qilib qolgach, ijara joy topib chiqib ketgan, o'n bir yil ijarama-ijara darbadar kezman edi. Mana shu keng-mo'l uyni olishgach, qanchalar xursand

bo'lishgandi... Endi uni topshirish?.. Bir o'g'li o'qishni tamomlagach, yo'llanma bilan cho'lga ketdi. Biri xorijda. Ikkovi oldinma-keyin qaytadi.

Soliyev bir uyum tikan ustida yotganday tuni bilan azoblanib chiqdi. Ertalab kechagi rejasi bo'yicha bolalar inspeksiyasiga emas, rayon ijroiya komitetiga qarab yurdi. Ijroqo'm raisi uni tanir edi, iliq kutib oldi. Mayorning gaplarini diqqat bilan eshitdi-da, xayolga toldi. «Raisning xabari yo'q ekan», deb o'yladi Soliyev. Ammo rais tilga kirishi bilan bu o'yning puch ekani ma'lum bo'ldi.

- Ilojimiz qancha, - dedi rais yelka qisib, - shunday ko'rsatma bor. Ikki minginchi yilgacha hammani uy-joy bilan ta'minlashimiz kerak.

— Mayor bu gapdan hang-mang bo'ldi. Asablari qaqshab, barmog'i titray boshladi.

- Yaxshi, - dedi u g'azabini yutib, - bizni ko'chirdingiz. Kelasi yili ikki o'g'lim oilasi bilan qaytsa, ularni qayerga joylashtirasiz?

- Bu o'shanda hal bo'ladigan masala.

- Siz menga bir narsani ochiq ayting: bu kimning buyrug'i?

- Kechirasiz, o'rtoq mayor, men sizga hisob bermayman. Men bilan bu ohangda gaplashmang.

- Bu buyruqning qayerdan chiqqanini aytmasangiz ham bilaman. Siz esa o'sha homiylaringizni ogohlantirib qo'ying: chuchvarani xom sanashibdi. Men uyni bo'shatmayman. Keldiyorovning ishini ham to'xtatmayman. Vaqti yetganda bu qilg'ingiz uchun siz ham javob berasiz.

Raisning gapi og'zida qoldi. Soliyev shart turib chiqib ketdi. «Qachongacha bunday ijrochilar birovlarning taqdirini hal qilib o'tiradi. Men-ku haqqimni qo'ymayman. Haq-huquqini tanimaydigan bo'sh-bayov odamlar-chi? Shu to'ralarning gapini gap deb bilib sarg'ayib yuraveradilarmi? Uni inson deb shu lavozimga xalq saylagandan keyin xalqqa qayishmay, «buyruq bajaraman», deb o'tirishini qara...» Mayor ichida bir so'kinib oldi.

Bolalar inspeksiyasida Mullaqo'ziyev uni kutib o'tirgan edi. Mayor hali g'azab otidan tushmagan, shu sababli ley-

tenant bilan sovuqroq omonlashdi. Mullaqo'ziyev buni boshqacha tushunib, o'zini oqlay ketdi:

- Kecha oqshom yo'qlagan ekansiz, uyma-uy yuruvdim.

Ota-onalar bilan gaplashadigan gaplar bor edi...

Mayor uning gaplarini eshitmaganday, muddaoga ko'chdi:

- Qamariddin Zayniddinov degan retsdivistni² taniy-sizmi? Ko'zi g'ilay, gavdali. Atrofiga bolalarni to'plarkan.

- Taniyman. Ularning «shtabi» kinoteatr oldida.

- Bolalar ro'yxatda turadimi?

- Shunaqalari ham bor, - leytenant stoli tortmasidan bir to'plam qog'oz chiqarib, varaqladi. - Sizga bergan ro'yxatimda bor edi, ular.

- Salim degan bola-chi? Bokschi ekan. Ro'yxatingizdan topmadim.

- Salim-mi? - leytenant o'ylandi, - bor shunaqa bola. Lekin u mening ro'yxatimda turmaydi, anhorning narigi betida yashaydi. U - Eraliyevning uchastkasi.

- Eraliyev shu yerdami. Chaqiring.

Leytenant dam o'tmay beso'naqay semirgan Eraliyevni boshlab kirdi.

- Ro'yxatda turadi shunaqa bola, - dedi Eraliyev, - sakki-zinchini bitirib, hunar-texnika bilim yurtiga borgan. Borgan-u, o'qimay ketib qolgan. Ishga kirmadi. Bekor sanqib yuribdi. Oilasi noboproq.

- Noboproq deganingiz nima? Ota-onasi icharkanmi?

- Yo'q, ko'p bolali oila.

- Ko'p bolali oila nobop bo'larkanmi, qayerdan topasizlar bunday gaplarni. Mullaqo'ziyev, qani yuring men bilan.

Salimning onasi ularni ko'rdi-yu, shoshib qoldi.

- Voy Xudo, kelinglar, tinchlikmi? - dedi xavotirlanib. Hovliga ikki militsionerning kirib kelishi uni tashvishga solgan edi.

- Tinchlik, opa, xavotirlanmang. Yo'limiz shu yoqqa tushgan edi, bir xabar olaylik, dedik. Turish-turmushingiz qalay?

² Bir necha marta qamalgan odam, ashaddiy jinoyatchi.

- Yo'-o'q, milisa turish-turmushdan xabar olmaydi, o'g'limga bir nima bo'ldimi?

- Salimbekkami? - mayor unga tikildi. - Undan nimaga xavotirdasiz? O'zi qani?

- O'zimi?.. O'zi musobaqaga ketgan.

- Qachon?

- Bir haftacha bo'ldi shekilli?

- Qayoqqa ketdi, aniq bilmaysizmi?

- Shuni so'ramabman... O'zini ko'rmadim, o'rtog'i aytib ketdi.

- O'rtog'i kim?

- Asror degan bola, birga o'qishadi. Juda esli bola u.

- Salimbek musobaqaga tez-tez borib turadimi?

- Ha... oyda bir boradi shekilli?

- Salimbek «musobaqa»dan qaytsa, ishga kirishi kerak.

- Bilaman, lekin hech kim ishga olmayapti. Boshqa bir milisa yigit uch-to'rt keldi, shunaqa deb. Bola bechorani ishga olishmasa nima qilaylik. O'zim ikki marta birga bordim. Bolabop ish yo'q deyishadi. Juvonmarglar hammasi pulga o'rgangan. Pul bersang, ishga oladi. Men bolalarimni boqaymi, pora uzataymi?

Mayorga ayolning hasrat daftari kerak emas edi, shu sababli gapni burdi:

- Salimbekning Asrordan boshqa o'rtoqlari ham bormi?

- Bordir, ammo ularni tanimayman. Kelishmaydi. Asror kelib turadi.

- Asror oxirgi marta qachon keldi?

- Kecha... yo'q, avvalgi kuni shekilli?

- Nima dedi?

- Kitobi bor ekan, olib ketdi.

- O'rtog'im qaytdimi, deb so'ramadimi?

- So'radi shekilli... Voy-ey bu kalamda gap turmaydigan bo'lib qolgan.

- Salimbekning Qamariddin degan tanishi hech kelganmi? Ko'zi g'ilay, baland bo'yli, yoshi ham kattaroq.

- Yo'q kelmagan... Nimaga surishtiryapsiz? Bir nima bo'lganmi o'zi, aytavering, o'zi anchadan beri yuragim g'ash.

– Hech nima bo'lgani yo'q. Biz... Salimbekning ishga kirgan-kirmagani bilan qiziqib keluvdik.

– Kiradi, kelishi bilan o'zim orqasidan tushaman.

Ular xayrlashib, yo'lni maktab sari burdilar. Maktab direktori leytenant Mullaqo'ziyevni yaxshi tanirdi, shu sababli ularni ko'rib uncha ajablanmadi.

– Havaskor bezorilarimizdan xabar olgani keldingizmi? – dedi u hazilnamo ohangda. – Maktabimiz hozir ancha tinch. Hamma imtihonga tayyorgarlik bilan ovora.

– Salim Bekjonov degan o'quvchingiz yodingizdami? O'tgan yili sakkizinchini bitirgan ekan.

– Yodimda, hunar bilim yurtiga yuboruvdik. Ketib qolibdi. Qishda sizlardan bir yigit keluvdi, maktabga qaytarib oling, deb.

– Olmadingizmi?

– Maktab karvonsaroy emas-ku? O'qishning yarmi o'tgan bo'lsa. Bola yomon o'qigani uchun bilim yurtiga yuborgan-miz. Keyin... u boshqa mikrorayonda yashaydi... Qadam olishi ham sal chakki deb eshitganman. O'zimiznikilar yetib ortadi.

– U bekorchilikdan bezib, jinoyatchilarga qo'shilib ketgan bo'lsa-chi?

– Unda bilmadim, – direktor zo'rma-zo'raki jilmaydi, – bu endi sizlarning ishingiz.

Bu gapni eshitib mayorning jahli chiqdi.

– Falsafangiz durust ekan, – dedi u, noroziligini yashirmay, – yomon o'qisa, qadam olishi chakki bo'lsa, ko'chaga chiqarib qo'yasiz-u, tashvishdan qutulasiz. Militsiya bekor qolmasin, deysiz-da, a?

– Kechirasiz, men pedsovet chaqirib qo'ygan edim, – dedi direktor mayorning g'azabiga chap berib.

– Salim maktabda boks bilan shug'ullanarmidi? – dedi mayor uning bahonasiga e'tibor bermay.

– Bundan xabarim yo'q, jismoniy tarbiya o'qituvchisidan so'raymiz buni. Chaqiraymi?

– Yo'q, kerakmas. Bizga hozir Asror degan o'quvchingiz kerak. To'qqizinchi sinfdan.

– Asror? U sizga nima uchun zarur bo'lib qoldi? Eng a'lochi o'quvchilarimizdan u. Yaxshi oilaning farzandi.

– Biz undan bir-ikki narsani so'rab olmoqchimiz.

Direktor o'rnidan turib, qabulxonadagi kotibaga Asrorni topib kelishni buyurdi. Keyin joyiga qaytib, bola tarbiyasining mashaqqatlari haqida gap boshladi:

– Hozirgi bolalar jilovni tuttirmaydigan bo'lib qolgan. Mana, eng yaxshilardan, deb yurganimiz Asror ham qiliq chiqaribdi. U sakkizinchidagi bir qiz bilan yurar ekan. Menga aytishsa, ishonmabman. Qizni tartibga chaqirdik.

– Nima uchun qizni?

– Qizning oilasi chatoq. Onasi yo'q. Otasi majruh. Bu qiz bolalar uyida buzilgan. Bolaning boshini aylantirgan. Asror – miyali bola. Matematiklar maktabida o'qigan. Birov yo'ldan urmasa, to'g'ri yurib, to'g'ri turadi.

Xonaga to'ladan kelgan ayol kirib, direktorning gapi uzildi.

– Mana, to'qqiz «A»ning sinf rahbari Sojida opa. Bu o'rtoqlar Asror bilan suhbatlashmoqchi ekanlar.

– Asror... yo'q. Ketib qolibdi, – dedi sinf rahbari, aybdor odamning ovozi bilan.

– Ketib qolibdi? – direktor qoshlarini chimirdi. – Qayoqqa ketadi? Nimaga ketadi?

– Mazasi yo'q shekilli... Shu hafta ikki-uch marta ketib qoldi. Sal g'alatiroq yurish-turishi.

– Qachondan beri shunaqa? – deb so'radi mayor, ularning savol-javobiga aralashib.

– Tushunmadim? – dedi sinf rahbari, unga qarab.

– Yurish-turishi qachondan beri g'alatiroq. O'ninchi maydan bu yog'ini eslang, – dedi mayor, savolga aniqlik kiritib.

– O'n birinchida... geografiya o'qituvchisi bilan urishib qolgan, keyin adabiyot darsida insho yozmay chiqib ketgan. Shundan beri bir kelib-bir kelmay yuribdi.

– Buni nimaga men bilmayman? – dedi direktor ovozini balandlatib, – u bilan gaplashdingizmi?

– Yo'q hali...

– Boring, sizga ruxsat. Pedsovetdan keyin gaplashamiz.

– Kechirasiz, yana bir savolim bor, – dedi mayor sinf rahbarini to'xtatib. – Geografiya o'qituvchisi bilan nimaga urishgan, bilmaysizmi?

– Nazarimda, anavi qiz tufayli. Qizni tartibga chaqirishgan ekan. Qiz Asrorga aytgan bo'lsa, achchiqlangandir?

– Asror ilgari ham shunaqa intizomsizlik qilib turarmidi?

– Yo'q.

– Ana shuning uchun ham darrov chora ko'rish kerak edi, – dedi direktor.

Mayor uning aralashuviga e'tibor bermay sinf rahbari bilan suhbatni davom ettirdi:

– Asror bezori bolalar bilan yurarmidi?

– Men ko'rmaganman... Lekin qizlar ko'rishgan ekan, kinoxona oldida o'tirarkan.

– Buni nima uchun menga aytmagansiz? – dedi direktor ovozini balandlatib.

– O'zim ko'rmaganimdan keyin...

Mayor sinf rahbarining noqulay ahvolga tushib qolayotganini sezib, unga ruxsat berdi. Keyin direktor bilan xayrlashib, izlariga qaytishdi.

– Mullaqo'ziyev, endi sizdan iltimos, bolalar sport maktablari bilan bog'laning. Salimning qayerda shug'ullanishini aniqlang. Shu kunlarda qayerlarda musobaqa bo'layotgani bilan ham qiziqib ko'ring.

Kinoxona oldidan o'tayotib ikkovlari ham beixtiyor daraxt soyasidagi o'rindiqlarga qarashdi. Oyoqlarini chalishtirib, sigaret tutatayotgan bolalar ularni ko'rib, sigaretlarini yashirishdi. Mullaqo'ziyev to'xtab: «Shamil» deb chaqirdi. Bolalardan biri yaqin kelib, salom ham bermasdan «nima ishingiz bor» deganday tikildi.

– Senga aytuvdim-ku?

Leytenantnint gapi oxiriga yetmay, bola «kino ham ko'rib bo'lmaydimi?» deb to'ng'illadi.

– Boshqa oshnalaring qani? – dedi Mullaqo'ziyev po'pisa bilan.

– Qanaqa oshnalarim?

- Salim qani, Asror qani?
 - Men ularga qaravulmi?
 - Kecha Salimga qo'shilib kimni urding?
 - Menmi? Qanaqasiga?.. Hich kimni urganim yo'q. Salim yo'q-ku?

- Qayerda u?
 - Bilmayman. Qaravulmi men unga?
 - Kecha bo'lmasa, o'tgan kuni urgansan. O'zingning kuching yetmaydi-da, a? Salim bokschi, nima bo'lsa shunga yugurasan. Senlarning dastingdan u qamalib ketadi.

- Hich kimni urganimiz yo'q. Sizni aldashgan.
 - Xo'p, hali tekshirib ko'ramiz. Bu yerda o'tirmalaring, bor.
 - Bola o'zicha to'ng'illab nari ketdi. Mullaqo'ziyev mayorga qaradi: - gumoningizda jon bor, o'rtoq mayor. Bu bolalar nimanidir yashirayotganga o'xshaydi.

- Agar bularda sir bo'lsa, talvasaga tushishadi. U holda biz ishni tezlatishimiz kerak.

Soliyev Mullaqo'ziyev bilan xayrlashib, ishxonasiga yo'ldi. U bugun Keldiyorov bilan yana bir gaplashmoqchi edi. Xonada Eshboyev yolg'iz o'zi nimanidir yozib o'tirardi.

- Keldingizmi? - dedi u boshini ko'tarib, - sizni izlab yurishibdi.

- Kim?
 - Shahar boshqarmasidan podpolkovnik Ziganshin.
 - Obbo... Keldiyorovni chaqirib gaplashmoqchiydim. Sen so'roq qilmadingmi?

- Keldiyorovni olib ketishdi.
 - Qayoqqa? - mayor ajablanib, Eshboyevga tikilib qoldi.
 - Shahar qamoqxonasiga. Shahar prokuraturasidan topshiriq bo'libdi. Ishga nasha aralashgani uchun o'zlari tergov olib borisharmish. Xullas, u yerdagilarda bizga ishonch qolmaganga o'xshaydi. Yo Keldiyorovga bas kelolmaydi bular, deyishganmi...

Soliyev shahar prokuraturasiga telefon qilib, ularning tushuntirishlarini diqqat bilan eshitdi-da, yengil tortdi.

- To'g'ri qilishibdi, - dedi u, go'shakni joyiga qo'yib.

- Balki to'g'ridir, lekin shaxsan mening izzat-nafsimga tegdi bu, - dedi Eshboyev. - Jinoyatni ochamiz, jinoyatchini tutamiz-u yana bizga ishonishmaydi. Nima men nashani qayerdan olishganini aniqlab berolmasmidim? Yo siz ularning qotilligini bo'yinlariga qo'yib berolmasmidingiz?

- Gap bunda emas. Keldiyorov hamma front bo'ylab hujumga o'tgan. Maqsad - uning payini qirqish. Sen xafa bo'la-verma.

- Menga nima, men ishni tergov bo'limiga oshirdim hisob. Sizning ishingiz chala, endi o'sha yoqqa borib so'roq qilaversiz.

- Yana shoshibsanda, bilarding-ku?

- Buyruqni bajardim, - Eshboyev shunday deb, teskari qarab esnadi.

- Ana endi o'zingga kelding. Yana bu kishining izzat-naflari bor emish. Senga qo'yib yubor, deb qattiqroq buyurishsa, qo'yib yuborarding.

- Yo'q, qo'yib yuborish - boshqa masala. Men vazifamni bajardim. O'g'rilar topildi, ushlandi, bo'yniga qo'yildi. Yana nima qilishim kerak?

- Eshboyev! Bilib qo'y: bunaqada uzoqqa borolmaysan.

- Siz-chi?

- Meni qo'yaver, sen yoshsan, o'zingni o'yla.

Soliyev shunday deb xonadan chiqdi.

Shahar boshqarmasining bo'limidan Ziganshin yo'qlagan bo'lsa, demak, kimdandir shikoyat tushgan. Kimdan bo'lishi mumkin? Soliyev bora-borguncha shuni o'yladi. Ziganshin, tilla halli ko'zoynak taqqan, tepakal kishi uni turib qarshiladi.

- Chaqirtirmasam o'zingcha kelay ham demaysan, - dedi u mayorga qo'l uzatib.

- Ish ko'p, bilasan-ku.

- Bilaman. Yana ilonning dumini bosibsandan. Pensiyaga chiqmoqchi eding-ku, yana nima g'alvalarga aralashib yuribsan?

- Hammasini bilsang kerak. Bekorga chaqirmagandirsan?

- Bilaman... bilaman... faqat ikkita mashina olib sotganingni bilmas ekanman. Shu rostmi?

- Ikkita olganim rost. Bittasini to'qqiz yil mindim, jiyanimga arzon-garovga sotdim. Keyingisi uyimda turibdi.

- Odam urib yuborganing-chi?

- Arxiv ko'tarilganga o'xshaydi-ku? Odam urganim ham rost. Lekin ayb o'sha odamda bo'lgan, u mast ekan. Menda ayb yo'q edi, hammasi tasdiqlangan.

- Kecha qo'lga olingan bolani uribsan?

- Tushunarli... Demak, Keldiyorovning qo'li bu yerga ham yetibdi-da? Nima qilay, pensiyaga chiqib ketaymi, shuni aytgani chaqirdingmi?

- O'pkangni bosib, ishingni qilaver, deb chaqirdim. O'zingga mahkam bo'l, deb tayinlagani chaqirdim. Oliftagarchiligini qarang-a, buning!

- Ertalab rayijroqo'mga kiruvdim. Uyni bo'shatishni talab qilishyapti. Shaharning shimolidan ikki xonali uy berishibdi.

- Ana, ko'rdingmi, sen qurshovga olingansan. O'ylab ishla. Tushkunlikka berilma. Boshqa gapim yo'q. Biz shikoyatni tekshirishga majburmiz. Sen bizga e'tibor bermay, ishingni qilaver.

«Sen ishingni qilaver...» Mayor Soliyev Ziganshin bilan xayrlashib chiqib uning so'zlarini esladi: «sen ishingni qilaver...» Aytishga oson. Birov oyoqlaring ostiga tuzoqlar qo'yib tashlasa-yu, sen hech nimani ko'rmaganday ko'zingni chirt yumib ishingni qilaversang...

Keldiyorovning nayranglari Soliyev uchun yangilik emas. Bunaqa ishlarni avval ko'rib dardini ichiga yutardi. «Ha, bularning bo'lgani shu-da», derdi. O'shanda Ziganshin aytganday «ishini qilaverardi». Endi-chi? Zamon o'zgardi, gaplar o'zgardi, nima, odamlar o'sha-o'sha nayrangboz bo'lib qolaveradimi? Keldiyorovlarning davr-u davroni o'tmadimi, faqat libosini o'zgartirdimi? Soliyev mana shu jumboqning tagiga yetmay hayron.

Soliyev «ishini qilaverish» maqsadida Qamariddinnikiga qarab yurdi. U xayollariga bandi bo'lib, dam g'azablanib, dam o'ziga-o'zi tasalli berib borardi. Keldiyorovlar uni sindirishni mo'ljallashgan. Boshqa odam balki yo'lidan qaytardi. Lekin

Soliyevning qaytishi sira mumkin emas. Agar qaytsa, iroda-si darz ketsa, u odam emas, qo'rqoq bir maxluqqa aylanadi. Yo'q, u uyi uchun kurashmaydi, yog'ilgan tuhmatdan kuymaydi. Barcha nayranglar uchun u birato'la javob beradi – Soliyevning ahdi shu. Soliyev Keldiyorovning maqsadini yaxshi tushunib turibdi. Keldiyorov undan shunchaki o'ch olmoqchi emas. Yo'q, bu toifalarning niyati o'zgacharoq bo'ladi. Ular ertani o'ylashadi. Ertami-indin keldiyorovtoifa odamning erkasi bir qiliq chiqarsa, tergovchiga yoki inspektorga «yaxshilikcha ishni yopdi-yopdi qil, bo'lmasa, mayor Soliyevday xor bo'lasan», deyish uchun ham kerak bu nayranglar. Soliyev chekinishni qanchalik istamayotgan bo'lsa, ular ham oddiy bir nozirdan zarba yeb indamay ketishni o'zlari uchun shunchalik or deb bilyaptilar. Ana shu oriyat ularning eng so'nggi pastkashliklarga boshlayapti. Maqsud Soliyev shularni o'ylab o'zicha mamnun bo'ldi: «Shuncha kazo-kazoning tinchini buzgan bo'lsam, chakki odam emas ekanmanda, a!»

Mayor to'g'ridan-to'g'ri Qamariddinning xonadoniga kirmay, uning ro'parasidagi eshik qo'ng'irog'ini bosdi. Uzun bo'yli, qaddi bukik qariya eshikni qiya ochdi. Soliyev o'zini tanitgach, ichkari taklif qildi. O'ng qo'ldagi kichikroq xonaga xontaxta qo'yilib, ko'rpachalar to'shalgan edi. Soliyev o'tirishi bilan uy bekasi – ko'rinishdan hali g'ayratini yo'qotmagan kampir kirib keldi. U salomga alik olib, mayorga boshdan-oyoq sinchiklab razm soldi.

– Men qo'shningiz Qamariddin haqida bir-ikki og'iz gap so'rasam deb kirdim, – dedi Soliyev, kampirning qarashidan g'ashi kelib.

– Nima balo, yana odam o'ldiribdimi? – dedi kampir, unga yanada qattiq tikilib.

– Nimaga unaqa deb o'ylayapsiz?

– Nimaga bo'lardi, odam o'ldirib o'tirib chiqqanmi? Endi milisa bekorga surishtirmas?

– Bekorga ham surishtiradi. U jazosini oldi. Endi to'g'ri yo'lga tushdimi-yo'qmi, ma'lum vaqtga qadar kuzatib yuramiz. Yigitning yurish-turishi qanaqa?

- Yurish-turishi binoyi. Tinchgina yuradi. Salomni kanda qilmaydi, - dedi chol.

- Siz tek turing, bilmasangiz mana men gapiray: hech kimga salom bermaydi. Gung-soqovning o'zi. Tumtayib yuradi. Ko'ziga qaragan odam qo'rqadi. Qamoqdan chiqqanidan keyin bir oy qo'rqib, uxlamay yotdim.

Soliyev qarasa, kampir tinmaydigan. Cholning jim bo'lib qolishidan ma'lumki, bu oilada birinchi so'z huquqi shu kampirga berilgan. Soliyev vaqtni behuda sarf qilmaslik uchun savol berib, kampirning gapini uzdi:

- Qamariddin ichib yurmaydimi, mushtlashmaydimi?

- Yo'q, - kampir gapi uzilganidan norozi bo'lib, bosh chayqadi-da, davom etdi: - tinch yurishga tinch yuradi. Lekin o'shanda qamoqdan qaytganda...

Mayor baribir uning bekorchi gapiga berilishiga yo'l qo'ymadi:

- Uylariga odam ko'p keladimi?

- Unaqa ko'p kelmaydi.

- Oxirgi marta kim keldi?

- Esimda yo'q.

- Bir bolani ko'rdik-ku, - dedi chol, - o'zing maqtading, «odobli bola ekan, qiroat bilan salom berdi», deding-ku?

- Siz tek turing. Degan bo'lsam degandirman. Esimga tushdi. Bir bola kelib-ketdi.

- Ilgari ham kelarmidi bu bola?

- Yo'q, bir martagina ko'rdik.

- Kattaroq yigitlar kelmaydimi?

- Yo'q. Qamoqdaligida onasinikiga bir odam kelib yurardi. Endi qo'rqib kelmayotibdi shekilli?

- Balki kelayotgandir. Sen qayoqdan bilasan, poylab o'tiribsanmi? - dedi chol.

- Siz tek turing, kelsa men bilaman.

- Qamariddinni oxirgi marta qachon ko'rdingiz?

- Ikki kunmi yo uch kun bo'ldi-yov. Ona-bola urishib qolganmi, onasi ostonada «uvoliga qolasan!» deb baqirdi. Bolasi

«ishing bo'lmasin!» deb ketvordi. Meni ko'rib salom ham bermadi. Odob degan narsa begona-da, unga.

– Rahmat, sizga, – mayor shunday deb o'rnidan turdi. Chol-kampir bilan xayrlashib, to'g'ri Qamariddinning uyiga qarab yurdi. Kampir to mayor ichkari kirguncha eshikni qiya ochib qarab turdi.

Qamariddinning onasi eshikni ochdi-yu, ro'parasida militsiya mayorini ko'rib, sarosimagaga tushdi.

– Nasibaxon Kamolovamisiz, salom, – mayor shunday deb unga hujjatini ko'rsatdi. – Mumkin bo'lsa, ichkari kirsam.

Ayol uni ro'paradagi katta xonaga boshlab yumshoq o'rindiqdan joy ko'rsatdi. O'zi esa mayorning ro'parasiga o'tirib, qo'lga sigaret oldi.

– Marhamat, cheking, – dedi u iltifot ko'rsatib.

– Rahmat, chekmayman, – dedi mayor uning kipriklari uzun ko'ziga tikilib.

Nasiba erkaklarning bunday tikilishiga ko'nikib qolgan-midi, harholda sir boy bermay sigaret tutatdi.

– Tinchlikmi? – dedi u tutun puflab.

– Tinchlik. Qamariddindan xabar olib ketay dedim. Yurish-turishi qanaqa, ishga kirganmi?

Ayol unga savol nazari bilan qarab qoldi.

– Qamoqdan qaytishi bilan ishga kirgan. Sizlarga hisob berib turardi-ku. Yo yangimisiz?

– Bo'limda yangiman.

– Sizlarni ham alg'ov-dalg'ov qilib o'zgartirib yotishibdimi? Hozir hamma yoqda shu ahvol. Bu yog'i nima bo'larkin?..

– Qayerda ishlayapti?

– «Orom» restoranida shveytsar. Yurish-turishi yaxshi. Mast-alast, darbadar yurmaydi.

– Munosabatinglar qanaqa?

– Yaxshi.

– Uch kun oldin «uvoliga qolasan» debsiz, kimni nazarda tutdingiz. O'shanda oralaringizda nima gap o'tdi?

– Ona-bola orasida nima gap o'tardi. Uni bolaligida detdomga berganman. Shuni eslayveradi, kechirmaydi. O'lgu-

nimcha ham kechirmasa kerak... Uvoliga qolasan... deb men o'zimni aytdim. Bunaqa siqaversa, adoyi tamom bo'lamanku...

- Shu ahvolda qanday birga turasizlar?

- Nima qilay, haydab chiqarolmasam?..

«Haydab chiqarolmasam»... - o'yladi mayor, - demak, undan bezigan, quvilsa jon-jon deydi. Lekin sir boy bergisi kelmayapti yo qo'rqarmikin o'g'lidan?»

- Hozir u qayerda?

- Ishda.

- Har kuni ishlaydimi?

- Tayini yo'q. O'zi uch kunda bir chiqishi kerak. Birovi kasal, birovining to'yi bor. Shveytsarlarning biri nog'orachi, boshqasi surnaychi, shularning o'rniga ishlaydi.

- O'ninchi mayda kechqurun qayoqda edi, uyga nechada qaytdi, eslaysizmi?

- Nimani?.. Ha, xayolim qursin, Qamariddin o'sha kuni ishda edi, birdan oshganda keldi.

«Tal'atning gapiga qaraganda, uni o'ninchi mayda pivoxonada ko'rishgan. Qiziq...» deb o'yladi mayor.

- Uyga o'rtoqlari kelib turadimi?

- Yo'q, uning o'rtoqlari bo'lmasa kerak. Bu yerga hech kim kelmaydi.

- Qamariddin kelsa, manavi chaqiriq qog'ozini berib qo'ysangiz. Ertaga soat o'n birda kutaman uni.

Mayor o'rnidan turayotib hozirgina ovoz chiqqan xona tomon qarab qo'ydi. Ayol buni sezdi. Chaqqon o'rnidan turdi-da, mehmonga jilmayish hadya etib, uni kuzatdi.

Soliyev ko'chaga chiqib avtomat telefon uychasiga kirdi. Xotini uni kun bo'yi kutib qon bo'lgandir. Mayor yanglishmagan edi. Xotini yig'lab yuboray, deb gapirdi:

- Bordingizmi kattasiga, yugurdaklari yana kelishdi.

- Bordim, xavotir olma, - dedi mayor xotinini yupatib. - Hammasi to'g'ri bo'ladi. Men bir soatdan keyin boraman.

Xotini indamay go'shakni joyiga qo'ydi. Shundan so'ng Soliyev bolalar inspeksiyasiga qo'ng'iroq qildi. Mullaqo'ziyev

uni kutib o'tirgan ekan, mayorning ovozini eshitiboq hisobot berdi:

- Aniqladim, o'rtoq mayor, Salim boks bilan muntazam shug'ullanmagan. Ikki yil oldin «Dinamo»ning boks maktabiga qatnagan. Besh-olti oy mashq qilgan. Keyin bolalar bilan mushtlashgani uchun chetlatilgan. Hozir hech qayerda bu yoshdagi bolalarning musobaqasi yo'q.

- Barakalla, leytenant. Endi gap bunday: ertaga soat sakkiz-u o'ttizda maktab oldida uchrashamiz. Asrorni topib, gaplashish kerak.

Mayor go'shakni joyiga ilib, yo'lovchi mashina to'xtatdi-da, «Orom» restoraniga jo'nadi. Restoran eshigiga odatdagiday «Joy yo'q» degan lavha osilgan, ostonada shopmo'ylov barzangi to'g'anoq bo'lib turib olgan edi. Mayor yaqinlashgach, u o'zini chetga oldi.

- Qamariddin shu yerdami?

- Qaysi Qamariddin?

- G'ilay yigit.

- E, umi... yo'q bu yerda. Javob so'rab ketgan.

- Siz... nog'orachimisiz?

- E, kim aytdi? Nog'orachi huv ichkarida, men karnaychiman. Lekin ishdan tashqari paytda. Pul to'lab, patent olib qo'rganman. Bu yog'i qonuniy.

- O'ninchi mayda to'ydamidingiz?

- O'ninchidami?.. Hozir... - shopmo'ylov ko'krak cho'ntagida do'mpayib turgan shapaloqdek yon daftarchani olib, varaqladi-da, bosh chayqadi. - O'ninchida to'y yo'q, ishda ekanman.

- Navbatingiz to'yga to'g'ri kelib qolsa, nima qilasiz? O'ringizga Qamariddin turadimi?

- Bunaqa gaplarni xo'jayindan so'ray qoling. Ichkari kirring, o'zlari bir nima demasalar... biz kichkina odammiz harholda...

Restoran direktori gapni biroz aylantirdi-yu, keyin o'rinbosarini chaqirdi. Mayor kutganday bo'lib chiqdi: o'rinbosar Qamariddinni shunchaki ro'yxatda turishi, aslida esa bosh-

qalar uning o'rniga ishlashini tan oldi. Direktor unga o'sha zahotiy oq hayfsan e'lon qilib, keyin vaziyatni yumshatishga urindi:

- Onasi boshqarmada ishlaydi, yo'q deya olmagan-da. UZR, endi qaytarilmaydi.

Mayor ertalab uyidan chiqqanida dilxun edi. Kunduzi ishlari, nihoyat, restorandagi suhbat uning ko'ngliga ravshanlik olib kirdi. Ish picha siljigan edi. U hali Qamariddin, Salim, Asrorlar Mirtillayev o'limiga daxldor ekanini bilmasdi, lekin bu guruh atrofidagi sir unga nimanidir va'da qilardi. Mayor Mirtillayev o'limiga keldiyorovlar aybdor degan gumonidan hali butunlay voz kechmagan, kelgusi so'roqlarda ko'p narsa aniqlanishiga ishonardi. Katta Keldiyorovning urinishlari mayorni battar sergaklantirgan, «faqat o'g'rilik uchun bolasini bunchalik himoya qilmasa kerak. U kattaroq jazodan qo'rqyapti. Mening o'g'rilarni emas, qotillarni izlayotganimni biladi-ku?» degan gumon miyasiga qattiq o'rnashib qolgan edi.

Mayor bugungi ishlaridan qoniqib, uyiga bora tursin. Biz esa Asrorga yuzlanaylik. Kunduzi u qayerda edi?

DARD USTIGA CHIPQON

yoxud Asrorning «trener» bilan suhbatida hikoya

Tal'at odatdagiday pivoxonadagi «ish»iga kelayotgan edi. Anhor bo'yida qotib turgan Asorni ko'rib, qadamini sekinlatdi. Asrorga yaqin kelib to'xtadi. Asror shu topda suv yuzasida «yonboshlab yotib olgan» Mirtillayev bilan suhbatlashardi.

«Bu yoqqa kelsang-chi, o'zingni qiynab nima qilasan, - derdi marhum. - Men gunohingdan o'tdim. Ammo militsiya gunohingdan sira o'tmaydi. Olib borib qamamaguncha tinchimaydi. U yoqda azobda yurganingdan ko'ra, kel, birga yashaymiz. Tashvish yo'q bu yerda: maktabdagilar jig'ingga tegishmaydi, har xil odamga ta'zim qilib, to'yima-to'y yurmaysan,

seni birov haqoratlamaydi, mal'unlarning ko'ziga qarab yashashdan qutulasan. Yoshingni yashading. Nimani ko'rding? Nima qizig'i qoldi?..»

Suv birdan harakatga kelib, Mirtillayev belanchakda yotganday chayqala boshladi. Mavjlar borgan sayin kattalashib, to'lqinlarga aylandi. To'lqinlar uni biroz otib o'ynadi-da, keyin yutib yubordi...

Ertalab maktab hovlisida aylanib yurib bir narsaga amin bo'ldi: odamlar Mirtillayevni o'zi cho'kib ketgan, deb o'ylaganlari bilan u o'zini bu yolg'on bilan yupata olmaydi, marhum uni har qadamda ta'qib qilaveradi. Bu qachongacha davom etadi? Bir umrmi? Yo vaqt o'tishi bilan o'sha mash'um kecha unutilib boriladimi? Unutilmasa-chi? Axir kun o'tgan sayin bu ta'qib avjiga chiqyapti-ku?! Nima qilish kerak? Militsiyaga borib aytsinmi, gunohini bo'yniga olsinmi? Jazolansa, balki yengil tortar? Qamariddin-chi? Salim-chi? Ularga nima bo'ladi, ular ham qamalib ketadi-ku? Dilfuza-chi? Otib tashlashsa-chi?.. Xayoliga kelgan bu fikrdan Asrorning vujudi muzlab ketdi. Xuddi atrofini militsionerlar o'rab turganday cho'chib, alangladi. Keyin beixtiyor tez-tez yurib ko'chaga chiqdi. Oyoqlari idrokiga bo'ysunmagan holda uni anhor sari boshladi. Anhorga yetib kelib o'sha odamni - Mirtillayevni ko'rdi.

- Ha, erkak, tushingni suvga aytyapsanmi?

Mirtillayevni «to'lqin yutgan» mahalda aytilgan bu gap qayerdan keldi - suv qa'ridanmi yo orqadanmi, Asror dastlab anglamadi.

- Ho', erkak, uxlama!

Asror shunda o'ziga keldi. Cho'chib, ovoz chiqqan tomonga - orqasiga o'girildi. Labiga sigaret qistirib olgan yigitni tanimadi.

- Tushingni suvga aytyapsanmi? - dedi yigit unga yana ham yaqin kelib. - Bekorchi bo'lsang, yur, ish bor.

Hozirgi ruhiy talvasa iskanjasidan hali to'la qutulmagan Asror uning gapiga tushunmadi.

- Qanaqa ish? - dedi ajablanib.

– Ana pivoxonada bo‘sh shisha ortamiz. Yangisi kelsa tushiramiz. Menga qarashvorasan. Pivoning zo‘ridan quyib beraman.

– O‘zingiz ichavering.

– O‘, erkak, qo‘rs ekansan-ku, a? Bilasanmi men kimman?

Asror «kimliging bilan nima ishim bor?» deganday unga bir qarab oldi-da, nari keta boshladi.

Tal‘at «men qamoqning tuzini totganman» deb do‘q urmoqchi bo‘ldi-yu, fikridan qaytdi. Bola bu ahvolda do‘q-po‘pisaga e‘tibor qilmasligi ham mumkin.

«Bu bola nima uchun suv bo‘yiga keladi? O‘zi tabiatan xayolchanmi yo bir dardi bormi?» Tal‘at uzoqlashayotgan Asror orqasidan qarab shularni o‘yladi.

Asror yigirma qadamcha yurib orqasiga o‘girildi. Yigitning hanuz qarab turganini ko‘rib qadamini tezlatdi. Endi u qayerga borsin? Kim dardiga malham bo‘ladi? Kim tashvishiga sherik bo‘ladi!.. Hech kim, hatto Qamariddin ham, Salim ham tushunishmaydi uni. Asrorning jazodan olib qolishmoqchi, uning o‘qishini istashyapti, o‘zlari kirgan ko‘chadan nari jo‘natishmoqchi. Niyatlari yaxshi, Asror bu uchun hatto quvonadi. Lekin, hozir unga shu kerakmi? Marhumning ko‘ziga ko‘rinayotgani, tinchlik bermayotganini kimga aytadi? U siqilganida ba‘zan dod deb yuborgisi keladi. Ammo, kim eshitadi uning alamli faryodini?! Yo‘q, hech kim yo‘q, Zoir eshitarmikan? Eshitishga eshitadi. Keyin chollarga o‘xshab nasihat qiladi. Otaulla-chi? Asrorning sharmandalik olovida qovrilishi bilan ishi bo‘lmay, pul yig‘ib otasiga bergan bolalar uning dardini tushunisharmikin? Yo‘q, bu bolalarga ishonib bo‘lmaydi. Ishonadigan odam bo‘lmasa, demak, chin do‘sti yo‘q ekan... Asror o‘zi kashf etgan shu haqiqatni tan olib ezildi. O‘n oltiga kiray deb qolibdi-ku, hali do‘st orttirmabdi. Birga o‘qib, birga yurgan bolalarni do‘st deb hisoblayveribdi.

Asror shahar markazidagi bog‘ga kirib, chekkaroqdagi o‘rindiqqa o‘tirdi. Ko‘zi o‘tgan-ketganlarda, xayoli esa turli o‘ylar to‘foniga bandi bo‘lgan Asror shu o‘tirishda uzoq o‘tirdi. O‘zicha turli rejalar tuzdi. Xayolan turli odamlar bilan suhbatlashdi. Ammo qancha o‘ylamasin, qancha fikrlamasin,

qorong'ilikdan yorug'likka chiqa olmadi. Xaltako'chaning ichida qolaverdi.

Bog'da ikki militsioner ko'rindi-yu, Asrorning badaniga yengil titroq yugurdi. «Balki shunchaki aylanib yurishgandir» deb o'ziga tasalli bermoqchi bo'ldi. Asror chetroqda, tor yo'lka yoqasidagi o'rindiqda o'tirgan edi. Militsionerlar keng yo'l turganda shu tomonga burilib qolishsa deng! Asror tamom o'zini yo'qotdi. «Qochish kerak!» deb o'yladi. Biroq, o'rnidan turishga holi kelmadi. Qochishga jazm qilib turganida ham bemador oyoqlari chalishib, yiqilishi aniq edi. Militsionerlardan biri unga tikilib qarab o'tdi. Asrorning vujudini muzdek ter bosdi. Agar ular to'xtaguday bo'lishsa, Asror dod deb yuborishi mumkin edi. Militsionerlar o'tib ketishgach, Asror chuqur nafas oldi. Nazarida, shu bir necha soniyada u nafas olmagan, yuragi ham urishdan to'xtagan edi. Chuqur nafas oldi-yu, vujudiga jon qaytib kirdi. «Bu yerda uzoq o'tirish mumkin emas!» deb o'ylab o'rnidan turdi.

U ko'chalarni yana biroz muddat darbadar kezdi-da, Dilfuzanikiga borishga qaror qildi.

Asror keyingi kunlar ichi o'z yog'iga o'zi qovrilib, Dilfuzani kam o'ylayotgan edi. Ular maktabga borar chog'i kelishilgan muyulishda uchrashmay ham qo'ydilar. Bunga maktabdagi tanbeh sababmi yo o'sha mash'um kechadagi voqeami, Asror bilmaydi. U hozir Dulfuzaning uyiga bora turib qizdan ancha uzoqlashib qolganini sezdi. U dastlab qizni himoyasiga olgan edi. Keyin u bilan yurish odat tusiga aylandi. Asror «aka-singildaymiz» deb yurgani bilan orada o'zi yaxshi tushunmaydigan g'alati his bor edi. Shu his uni qiz haqida o'ylashga majbur etardi. Kecha, avvalgi kuni... u Dulfuzani ko'rishga oshiqmadi, aksincha, uni ko'rmayotganidan mamnun edi. «Dilfuza bilan ko'rishsam, yana o'sha voqeadan gap ochadi, jig'imga tegadi», deb o'ylardi. Holbuki, Dulfuza o'sha voqeaning ertasiga «biz kinoda edik» deganidan so'ng, biron marta bu haqida so'z ochmadi. Unda nima uchun Asror o'zini qizdan olib qochdi? Muallimaning unga ona bo'layotganini eshitibmi? Asror yuragiga o't tashlab turgan hisning nima

uchun sovib borayotganini aniq bilmaydi. Bugun suv bo'yida turganida, bog'da o'tirganida do'sti yo'q ekanini his qilgach, Dilfuzani ko'rgisi keldi. Yo uni tark etgan his yana yuragiga qaytdimi? Asror buni ham bilmaydi.

Asror ikkinchi qavatga emas, yigirmanchi qavatga ko'tarilganday holdan toydi. «O'zi chiqib qolarmikin» degan umidda sariq charm qoplangan eshikka qarab yurdi. O'ylagani ro'yo bo'lmagach, qo'ng'iroq tugmasini bosdi.

Eshik ochildi... Asror ostonada Dilfuzaning otasini ikki oyoqda, tik holda ko'rsa hayratlanmas edi, hatto shu joyda o'z otasi yo onasini ko'rsa, ajablanmasdi: hozir esa hayratdan qotdi-qoldi: eshik og'zida geografiya muallimasi A'zamxonova uy kiyimida, peshband taqqan holda turardi.

A'zamxonova Asrorni kutmagan edi, shu sababli u ham biroz taraddudlandi. Bir-biriga, tikilib qarab turish uzoqqa cho'zilmadi. Muallima o'zini darhol qo'lga olib, xuddi uy bekasiday muomala qildi:

- Kelganing yaxshi bo'ldi, ichkariga kir, - dedi u muloyim ohangda. Uning zaharsiz gapi Asrorni taajjubga soldi. «Nimaga muloyim bo'lib qoldi, maktabga yoymasin, deb qo'rqdimi, nimaga «kelganing yaxshi bo'ldi» deydi, birovga aytib yurma, deb shipshitib qo'ymoqchimi?» Asror ostona hatlab kirayotib shularni o'yladi.

A'zamxonova uni to'g'ridagi katta xonaga boshladi. Dilfuzaning dadasi deraza oldida yangi aravachada, ko'chaga qarab o'tirgan ekan. Odam sharpasini eshitib, o'girildi. Asrorni ko'rib, birdan qoshlari chimirildi. Ammo nigohi A'zamxonovaning ko'zlari bilan to'qnashgach, jahl bulutini haydagan bo'ldi. Ammo sovuq qarashini ilita olmadi, Asrorning salomiga ham quruq alik oldi.

A'zamxonova oyoqlari yo'g'on, eski yumaloq stol atrofidagi stullardan birini tortib, Asrorga «o'tir» dedi. Dilfuzaning dadasi aravachasini yurg'izib uning ro'parasida to'xtadi. A'zamxonova esa uning o'rnini egalladi.

- Dilfuza ukalaridan xabar olgani ketdi, - dedi u, qo'llarini qovushtirganicha. - Ertaga borib ularni olib kelamiz.

Asror nima deyishini bilmay aravacha g'ildiragiga ko'z tikkancha jim turaverdi.

– Endi birga yashaymiz. Yetim qiz, yetim bola degan gap yo'q. Buning ma'nisiga yetasanmi? Dilduzaning bevosh yurishlariga chek qo'yiladi. Sendan iltimosimiz: qizimizni tinch qo'y. U o'qishi, oqila qiz bo'lib yetishmog'i kerak. Bizning niyatimiz shu, bunga erishamiz ham. Sen esa bizga xalal berma.

A'zamxonova «gapim ta'sir qildimi yo yo'qmi» deganday Asrorga tikildi. Asror uning qarab turganini bilmay, o'sha holda jim o'tiraverdi.

– Gapga tushundingmi? – dedi Dilduzaning dadasi sovuq ohangda.

– Tushundim, – dedi Asror past ovozda.

– Tushungan bo'lsang, toshingni ter, qadamingni bilib bos, bola. Bo'lmasa, xuddi putingni yirib tashlayman!

Uning gapi Asrorga og'ir botdi. Xayolida aylanayotgan, lekin aytishni istamayotgan gaplari tilidan bexos uchdi:

– Nima, men qizingizni yo'ldan uribmanmi? – dedi bosh ko'tarib. Shunday deyishga dedi-yu, otaning qahrli nigohini ko'rib yuragi orqasiga tortdi.

– Nimaga uning boshini aylantirasan, haromi!

– Men aylantiribmanmi?! – deb baqirib yubordi Asror. – Men... men... agar men bo'lmasam, qizingizni bolalar ko'ptok qilib tashlashardi! – Asror alam bilan shunday dedi-da, irg'ib turdi. Lekin yurishga ulgurmadi. Dilduzaning otasi uning yoqasiga chang soldi. Yaxshiki, A'zamxonova yugurib kelib «dadasi, o'zingizni bosing» deb uni qo'llariga yopishib oldi, bo'lmasa, qulochkashlab urib qolishi hech gap emasdi.

– Qorangni o'chir, haromi, kuyikkan bo'lsang, otarchi otangga ayt, bitta-yarimta o'yinчисini olib bersin. Agar qizimga ilakishsang...

– Bo'ldi, dadasi, o'zingizni bosing. Bu yog'ini men o'zim shaxsan nazorat qilaman.

Asror ularga qaramay, shasht bilan chiqib ketdi. «Qamar to'g'ri aytgan ekan, bundan uzoqroq yurishim kerak edi.

Shuncha yaxshilik qilib eshitganim shu bo'ldimi? «Dadasi» emish, darrov «dadasi» bo'lib qolibdi...»

Tashqariga chiqib o'n qadam ham yurmay Dilfuzaga duch keldi. Indamay o'tib ketmoqchi edi, qiz to'xtatdi.

– Uyga kirdingizmi? – dedi u sinq ovozda.

Asror javob bermadi. Baqirib yubormaslik uchun yuzini teskari burdi. Nima desin u qizga: dadang shunday-shunday bemaza gaplarni aytdi, desinmi? Shikoyat qilsinmi, hasratini ochsinmi? Unda o'g'il bolaligi qayoqda qoladi? Shu sababli ham u indamadi. Dilfuza uning yelkasiga kaftini qo'ydi.

– Kecha gaplashamiz, deyishuvdi. Sizga aytmoqchiydim uyimizga kelib yurmang, deb. Maktabda ko'rolmadim, ketib qolibsiz. Muyulishda ham kutmayapsiz...

Asror uning kaftini yelkasidan oldi. Bundan qiz ranjidi.

– Men sizga nima yomonlik qildim? – dedi yig'lamsirab.

– Tushuntirsang bo'lmasmidi? – dedi Asror.

– Nima deb tushuntiraman? Uyalaman... dadamdan qo'rqaman... Gapimga ishonishmaydiyam...

– To'g'ri...

– Endi nima qilamiz?

– Nima qilarding, onang nazorati ostida yurasan. Tur desa, turasan, o'l desa o'lasan. Sen o'qirkansan, oqila qiz bo'larkansan.

– Menga unaqa piching qilmang. Men... bu maktabda endi o'qimayman. Medtexnikumga kiraman. Bu uyda ham turmayman, yotoqxonaga chiqib ketaman. U uyimizda yursa, ko'zimga oyim ko'rinadilar. – Dulfuza o'krab yig'lab yubormaslik uchun og'zini kafti bilan to'sdi.

Asror dovdirab qoldi. Ko'p qavatli uyning nechta dezasidan necha juft ko'z ularga qarab turibdiykin? Dulfuzaning dadasi bilan onasi ham kiprik qoqmay tikilayotgandir?.. Asror shuni o'ylab, ketishga shoshildi.

– Nima qilay, texnikumga kiraymi? – dedi Dulfuza uni biligidan ushlab.

– Avval maktabni bitirib ol, – dedi Asror.

Shu payt yuqoridan qahrli ovoz keldi:

– Dilfuz!!! Kir uyga!

– Ertaga birga ketamizmi? Siz... maktabda g'alati bo'lib yuribsiz, bunaqada bilib qolishadi-ku? – Dilfuza savol berishga berdi-yu, javob kutmay uy sari shoshildi.

Asror ikkinchi qavat derazasiga qaradi. Qahrga to'la ikki juft ko'z unga qarab turardi. «Men ularga nima yomonlik qildim, – deb o'yladi Asror asta burilib ketarkan, – faqat yaxshilik qildim-ku. Meni hozir otarchining o'g'li, deb yomon ko'ryapti. Birdan qamalib ketsam-chi?!» Bu fikrdan Asrorning eti junjikib ketdi.

U haligacha kattalar bilan bu darajada to'qnash kelmagan edi. Arzimagan bir gap bilan, arzimas bir xatti-harakat bilan kattalarning fikrini o'zgartirib yuborishi, ularga yomon ko'rinib qolishi mumkinligini chuqurroq o'ylab ham ko'rman edi. Darhaqiqat, bir qiz bilan to'g'ri ma'noda yurganini boshqacha talqin qiladigan, boshqacha tushunadigan odam qamalib chiqqan bolaga qanday baho beradi?

Dard ustiga chipqon deganlariday, Asrorning bir dardi ikki bo'ldi. «Kasalvand odam og'ziga kelganini vaysaydi-da, shunga ham xafa bo'lamanmi» deb o'zini ovutishga harakat qildi. Endi alam bosilay deganda uning gaplari jaranglab qoladi-yu, g'azabdan yonib ketay deydi.

Oqshomga qadar shu o'tlar orasida yonib-kuyib, ko'chalarda sanqib yurdi. Kun bo'yi tuz tatimaganidanmi yo ko'p yurganidanmi, holdan toydi. Ko'ngli ayniy boshladi. Uyga borgisi yo'q edi. Borsam, yana o'sha odamga ro'para bo'laman, deb yuragi orqasiga tortardi. Dadasining qovoq uyishi, ilmoqli gaplari, do'qlari bu noxush uchrashuv oldida hech gap emas edi. Ilgari unga «odam uyidan shunday bezishi mumkin», deyilsa ishonmagan bo'lardi. Mana endi bu o'z boshiga tushib gangib yuribdi. Xayolidagi o'sha odamning xonasiga bostirib kirishi nima ekan, zaharli ilon chiqqan bo'lsa ham boradi uyiga. Boshqa iloji yo'q. Bu yerdan qochib qayoqqa bosh uradi? Uyidan-ku, qochar, shaharma-shahar sanqib yurar, ammo xotiralaridan qochib qutulolmaydi-ku?

...Eshikni onasi ochdi.

– Voy, keldingmi-yey bolam, – deb bag'riga bosdi.

Asror «nima bo'lgan o'zi?» deb ajablandi. Onasining xavotirlanib kutayotganini keyinroq bildi. Onasi uni ichkari boshlab divanga o'tqizdi.

– Qayoqlarda yuribsan shu paytgacha? – dedi u siniq ovozda.

Bola so'roqsiz kechikib ketsa ona odatda tergab, urishardi. Xavotirli daqiqalari, soatlari uni g'azab alangasiga tashlaydi. Lekin, Asrorning onasi boshqacha. Asror shu paytgacha uni sira g'azab otashida ko'rmagan. G'azabini ham, alamini ham, noroziligini ham ichiga yutadigan ayol u. Mana hozir ham o'g'liga dashnom berish o'rniga aybdor odamning siniq ovozida «qayoqlarda yuribsan shu paytgacha» deb so'rayapti.

– Dars tayyorladik...

– Kim bilan? – bu safar onasining savoli qat'iyroq chiqdi.

– Bolalar bilan...

– Ko'zimga qarab gapir, aldama. Diplomating qani?

Asror bu savolni kutmagan edi. Shu bois biroz chaynaldi.

– Berib yuboruvdim... Otaulla olib keldimi?

– Otaullamas... Darsdan ketib qolibsanku?

– Kim aytdi?

– Kim aytganini qo'yaver. Darsdan ketganing rostmi?

– Rost... – Asror shunday dedi-yu, bahona izlab o'yga tildi. Xayriyat, xayoliga durustgina bahona keldi: – avvalgi maktabimga borib konsultatsiya oldim. Ancha narsa esimdan chiqibdi.

Onasi bechora ishona qoldi. O'g'lining boshini mehr bilan silab qo'yib «Ovqtingni suzib beray» deb oshxona tomon yurdi. Asror garangsib turganida eshik shasht bilan ochilib, otasi shoshilganicha kirib keldi.

– Yaxshi, uyda ekansan, – dedi u Asrorga, – tez kiyin, ketamiz.

– Qayoqqa? – dedi onasi, oshxonadan chiqib kelib, – bugun to'yingiz yo'q edi shekilli?

– Tomsuvoq chiqib qoldi. Nozik odamlar, bormasak bo'lmaydi.

– «Tomsuvoq... nozik odamlar...» Demak, pul qistirilmaydigan, haq to‘lanmaydigan to‘ycha yoki ziyofat. Dadasi «nozik odamlar»dan g‘oyat hayiqadi. O‘lsa o‘ladi-ki, ularning gapini ikki qilmaydi. Shu «nozik odamlar»ni xafa qilmaslik uchun yaxshigina pul ishlab oladigan to‘ylardan ham voz kechgan vaqtlari bo‘lgan. Shunday ekan, Asror hozir dadasiga gap-so‘zsiz itoat etmog‘i shart. U erinibgina o‘rnidan turayotganida onasi joniga ora kirganday bo‘ldi:

– Mazasi yo‘q, o‘g‘lingizni. Buguncha bormasin. Qarang, rangida rang qolmabdi.

– Nima bo‘ldi?

– Bilmayman, ko‘nglim ayniyapti, – dedi Asror dadasidan najot kutib.

– Shirin choy ichib ol, o‘tib ketadi, bo‘la qol, – dedi dadasi.

Asror onasi tayyorlab bergan shirin choyni ichib, otasiga ergashdi.

Ularni tashqarida hech kim kutib olmadi. Ikkinchi qavatga liftga ko‘tarilishdi. Dadasi eshik qo‘ng‘irog‘ini bosdi. Emandan yasalgan eshikni havorang harir ko‘ylak kiygan, bo‘yniga ikki qavat dur tashlagan, qirq yoshlardagi xushro‘y ayol ochib, kiborona jilmayib qarshi oldi.

– Keling, hofiz, – dedi u mensimagan bir ohangda. – Qani, bu yoqqa marhamat.

Ular o‘ngdagi chog‘roq xonaga kirishdi. Xonada uch kishi o‘tirgan ekan, hofizning hurmatini joyiga qo‘yib, to‘rga taklif qilishdi. Ota-bolaga bir piyoladan choy quyib uzatib, suhbatlarini davom ettirishdi. Asror ularning gap-so‘zlariga qarab, pastdagi oq «Volga»larning haydovchilari ekanini angladi.

– Keldiyorov aka kelmabdilarmi, o‘g‘illarining ishi tinchimagan shekilli? – dedi choy quyib uzatgan oq sochli kishi.

– Kelsalar kerak, – dedi yonidagisi. – Xo‘jayin «Keldiyorov bilan gaplashib oladigan gapim bor» deganday bo‘luvdi. Nazarimda, o‘g‘lining ishi to‘g‘ri bo‘lgan. Shu ishni to‘g‘iray olmasa Keldiyorov yurgan ekan-da... Milisalar uni sovuniga kir yuvmagan hali. Zamoni o‘tib ketdi, deb fahmlashadi. Keldiyorovning zamoni o‘tmaydi.

- Tagi baquvvatmikin?

- Baquvvatki, u yoq-bu yog'i yo'q. Hamma tomoni pishiq. O'g'lini zavodga oddiy qora ishchilikka bergandi. Bit-ta-yarimta bezoriga qo'shilib qolganmi... Bolani taniyman, sal sho'xrog'-u ammo to'g'ri bola.

Eshik qiya ochilib, uy egasi Asrorning dadasiga im qoq-di. Dadasi darrov qulluq qilib, Asrorga qaradi. Asror g'ilofni ochib, torni oldi-da, dadasiga uzatdi. So'ng doirani olib, qizdirish uchun oshxonaga chiqdi. Oshxona keng va uzun boloxonaga ko'chirilgan ekan. Boloxona o'rtasidagi stol atrofida ikki xotin o'tirib chuchvara tugish bilan band. Qo'llari chuchvara tugishdan, og'izlari gapdan bo'shamaydi.

- Anavi to'rt qator shodamarvarid taqqan kimning xotini ekan, bilmaysizmi?

- Egamov deganniki, ijroqo'mdagi.

- Ko'ylagi o'ziga yarashmabdi. Juda tor qilib yuboribdi.

- Eriga yoqsa bo'пти-da, sizga nima?

- Eriga yoqish uchun kiyarmikin, yo...

- E, o'ling xudoyo siz, gap kavlamay...

Ular xiring-xiring qilishib pichirlashib ham olishdi. Aftidan ba'zi gaplarni bola oldida aytish noqulay tuyuldi shekilli.

Doirani qizdirib kirganda shofyorlar davrasiga yana bir yigit qo'shilgan edi.

- Shu g'alvalarni bittagina mayor boshlab yuribdimi? - deb so'radi oqsoch kishi.

- Ha, pensiyaga chiqadigan odam ekan, kelib-kelib akamga qasdlashadimi, surobi to'g'ri bo'lib qoldi o'ziniyam, o'zining qing'ir ishlari ko'p ekan, erta-indin dumini tugib yuborishadi.

Dadasi torning sozini yana bir ting'illatib tekshirib ko'rdi-da, o'rnidan turdi. Shofyorlarning suhbatini uzildi.

Keng xona, katta stol atrofida olti erkak, olti ayol o'tirardi. Dasturxon usti g'oyat did bilan bezatilgan edi. Erkalarga kostum kiygan, ayollar esa o'zlariga erinmay zeb berishgan edi. Ular hofizning salomiga bosh irg'ab alik olishdi. Hofiz ularning bir piyola choy quyib uzatishlarini ham, «eshitay-

lik» degan taklifini ham kutmayoq bir chetda tik turgan ko'yi qo'shiqni boshladi. Stol atrofida bo'sh stullar bor edi, ularni o'tirishga taklif etishmadi. Aftidan, hofizning nariroqda turgani afzal edi ularga. Asrorning dadasi bir juftgina qo'shiq aytdi. Dasturxon atrofidagilar go'yo qo'shiq aytilmayotganday ularga e'tibor ham bermay suhbatlashib o'tiraverdilar. Likopchalarga pul qo'yib uzatilmadi. «O'zbekim»dan oling», degan iltimoslar ham tushmadi. Qo'shiq tugagach, birov rahmat ham demadi, aksincha, dadasi «sizlarga xalal berganim uchun uzr» deganday ta'zim qilib, orqasiga tisarilganicha dahlizga chiqdi.

«Rahmat»ni kichik xonaga kirishganda shofyorlar aytishdi. Sho'rva ichishayotgan paytda uy egasi kirdi:

– Hofiz, temir daftarni oling, shanbaga xizmat bor. Nurilla Egamovich taklif qilyaptilar.

Dadasi kosani shosha-pisha dasturxonga qo'yib, qulluq qildi:

– Iye, ijroqo'mdagi akaxonimizmi, bosh ustiga, xizmatlariga hamisha tayyormizda.

– Temir daftarda to'y yo'qmi axir? – deb o'zicha hazil qilgan bo'ldi uy egasi.

– To'y bo'lsa-bo'lmasa, bir og'iz gaplari...

Asror ajablandi: dadasi bilib rozi bo'lyaptimi, yo nayrang qilyaptimi? Axir shanba kuni Turobnikida to'y-ku? Bolalar tashlab ketgan pulni olib qolgan-ku? Uy egasi chiqib ketgach, Asror dadasiga asta pichirladi:

– Shanba kuni zaklat olib qoluvdingiz-ku? O'rtoqlarim uch yuz so'm tashlab ketishuvdi-ku?

– Ishing bo'lmasin, – dedi dadasi jerkib, – bularning gapi-ni ikki qilib bo'larkanmi? O'rtog'ingni to'yiga odam topaman. Juda bo'lmasa, qochib ketayotganimiz yo'q, pulini qaytarib berasan...

Bu gap Asrorning boshiga gurzi bo'lib urildi. Yaxshiki ularning xizmatiga ko'p talab tushmadi. Yana ikki juft ashuladan so'ng ijozat berishdi. Yo'qsa, yuragi tars yorilib ketishi hech gap emas edi.

Asror uyga qaytishi bilan xonasiga kirib yotib oldi. To o'sha odam xonasiga bostirib kiringunga qadar o'rtoqlari oldida o'zini oqlash yo'llarini o'ylab yotdi. Qancha o'ylamasin, tayinli yo'l topa olmadi. Dadasi uni o'tmas pichoq bilan so'yib tashlagan edi. Bu azob unga ortiqcha bo'ldi.

Nonushta mahali «Maktabga boraymi-bormaymi, borsam, darsda qanday o'tiraman, bormasam, qayoqlarda daydiyman?...» deb o'yladi. Keyin Dilfuzaning «maktabda g'alati bo'lib yuribsiz» degan gapini eslab, hushyor tortdi. «Rostdanam ahmoqlik qilibman. Darsda o'tiravermaymanmi... bolalardan nimaga qochdim, yuravermaymanmi... Bugun odamga o'xshab borib, odamga o'xshab yuraman...» Shu qarorga kelib Asror o'rnidan turdi.

Muyulishda Dilfuza ko'rinmadi. «Onasi bilan ketgandir» deb o'yladi u. Sinfga kirishi bilan direktor yo'qlayotganini aytishdi. «Obbo, tarbiyaviy soati yetmay turuvdi. Komsorgning ishi bu, ikki tomondan toza olishadi». Shu xayollar bilan direktor xonasiga kirgan Asror militsioner bilan notanish kishini ko'rib qo'rqib ketdi. Militsionerni taniydi. Kinoxona oldida o'tirishganda bir-ikki kelib, tanbeh bergan. Sochlariga oq oralagan, lekin ko'rinishi baquvvat kishini endi ko'rishi.

– Asror degan a'lochi o'quvchimiz shu, – dedi direktor. Uning xotirjam, ayni chog'da muloyim ovozi Asrorga dalda berdi. – Asror, bu kishi uchastkamiz inspektori. Bu kishi esa «Dinamo»ning treneri ekanlar. O'rtog'ing Salimni qidirib kelishibdi.

Direktor «Vazifamni uddaladimmi?» deganday Soliyevga qaradi. Uning bu savol nazarini Asror uqmadi. Chunki u, shubhasiz, bu odamlarning o'zaro kelishib olishganidan be-xabar edi. Soliyev esa fursatni boy bermay direktorning gapiga gap ulab ketdi:

– Salim bizga hozir juda kerak. Bir oydan keyin Ittifoq birinchiligi. Uning vaznida boshqa tuzukroq bolamiz yo'q. Bizdan ranjib ketib qoluvdi. Arazi tugagandir, deb uyiga borsam, musobaqaga ketganmish. «Mehnat rezervlari» ilintirib olganiga o'xshaydi. Siz Salimning do'sti ekansiz, shundan xabaringiz bormi? «Mehnat rezervlari»ga boryatuvmidi?

Asror bunday savolni kutmagan edi, javobga shoshib qoldi.

- Buntsini bilmadim, - dedi u biroz dovdirab.

- Hozir Barnaulda «Mehnat rezervlari»ning birinchiligi bo'lyapti. Agar Barnaulga ketgan bo'lsa, gumonim rost chiqadi. Unda ahvolimiz chatoq. Salim hozir Barnauldami?

- Bilmadim... - Asror shunday dedi-yu, Salimning onasi hamma gapni aytganini anglab, qo'shib qo'ydi: - Musobaqaga ketdim, dedi. Qayergaligini so'ramabman.

Soliyev afsuslangan bo'lib bosh chayqadi.

- E, attang, sal kech qolibmiz, - dedi u sochini silab. - Musobaqa o'n to'rtida boshlangan. Ular o'n birinchida uchishgan. O'n birinchida ketibmidi?

Shu savolga kelganda Asror o'ylamay-netmay «ha», deb yubordi. Keyin «oldinroq ketgan edi» desam bo'larkan, deb afsuslandi.

- Salim kelsa, aytsangiz, menga uchrashsin. Harholda boksi-bizda o'rgangan-ku, endi arazlab yurmasin, - dedi Soliyev.

- Ha, shunaqa deb qo'y. Oliftagarchilik qilmasin, trenerlar hammaning ham orqasidan yuravermaydi... Bo'пти, darsingga bor, - dedi direktor, keyin po'pisa qilgan bo'ldi: - har xil uzunquloq gaplar yuribdi, imtihonlar yaqin, a? O'ylab qadam bos.

Asror sinfga qaytdi-yu, qulog'iga dars kirmadi. «Trener»ning gaplarini bir-bir aql chig'irig'idan o'tkazdi. «Militsioner, trener, Salim...» Asror xuddi shaxmat donalarini almashtirganday fikr surardi: «Trener, Salim, militsioner...», «Salim, militsioner, trener...»

«Salim arazlamagan, o'zlari haydashgan-ku? Trenerga Salim kerak ekan, militsionerga-chi?..» Ming o'ylamasin, Asror jumboqni yecha olmadi. Tanaffusda hovliga ham chiqmadi. Otaulla hazil qilgan edi, jerkib tashladi. Zoir kelib, «Senga nima bo'ldi?» deb so'ragan edi, «xumda o'tiribman» deb javob berdi. Zoir gapni ko'paytirmay «o'tiraver, yaxshiroq o'rnashib ol», deb nari ketdi.



Soliyev Asrorning javoblarini eshitib, ko'ngli ravshanlashdi. To'g'ri izga tushib olganini his etdi. «Sirlar sandig'i qulfining kaliti shu bolada» deb o'yladi-da, Mullaqo'ziyevga qaradi. Leytenant bu qarashning nimani anglatishini bilar edi. Uzoq so'rab, o'rnidan tundi-da, tashqariga chiqdi. To'g'ri kinoxonaga borib, avtomat-telefonda militsiya bo'limiga qo'ng'iroq qildi. Soliyev taxmini to'g'ri chiqsa nima qilishi lozimligini pishitib qo'ygan edi. Leytenant hozir shu rejani amalga oshirishga kirishdi. Soliyev esa direktor bilan suhbatni davom ettirdi:

– Kecha «Asror bir qiz bilan yuradi» deganday bo'ldingiz. Shu qizni ko'rishim mumkinmi?

– Mumkin, – direktor kotibani chaqirdi-da, Dilfuzani topib kelishni topshirdi. Keyin Soliyevga murojaat qildi: – qizga ham sizni «trener» deymanmi?

– Yo'q, shahar xalq maorifi boshqarmasidanman. Qizni bolalar uyidan kelgan devdingizmi?

Xonaga kirgan Dilfuzada ozgina hadik bor edi, Soliyevning ziyrak nigohi buni darhol sezdi.

– Qizim, men ahvolingizdan xabar olgani kirdim, – dedi Soliyev gapni uzoqdan boshlab. – Oilaviy ahvolingiz o'qishga ta'sir etmayaptimi?

Soliyev mo'ljalni to'g'ri olgan edi, qiz biroz xotirjam tortdi. Ammo savollar maqsadga yaqin kela boshlagach, hurkak ohu ahvoliga tushdi.

– Qizim, yashirmay qo'ya qolay: menga noxush bir xabar yetdi. Siz kinoxona oldida g'alati bolalar bilan to'planishib turrarmishsiz, shu rostmi?

Dilfuza boshini egib oldi, javob qaytarmadi.

– U bolalar kimlar, shu maktabda o'qishadimi?

Dilfuza bosh eggancha turaverdi.

– To'g'risini aytaver, bittasi Asrormi? – dedi direktor.

Dilfuza yana indamadi.

– Men ishonamanki, siz yomon yo'lga kirmagansiz. Odamlar noto'g'ri xulosaga kelishgan. Odamlar ham qiziq, yoshlar to'g'ri ma'noda do'stlashishsa ham gap qilishadi. Birgalikda

kinoga kirishsa olam alg'ov-dalg'ov bo'lib ketganday g'avg'o chiqarishadi. Siz Asror bilan yoki boshqa bola bilan yaxshi ko'ngilda do'st bo'lgansiz, to'g'rimi?

Dilfuza bosh irg'adi.

- Kinoga tushgan bo'lsangiz, filmning nomini ayta olasizmi?

- Nomi esimda yo'q, hindcha kino edi, - dedi Dilfuza past ovozda.

- Shu kinixonadami?

- Yo'q... boshqasida.

- Qaysi birida? - so'radi direktor zarda bilan.

- «Vatan»da...

- Qachon tushdilaring? - deb so'roqni davom ettirdi direktor.

- O'ninchida.

- O'shandan keyin tushmadinglarmi?

- Yo'q.

- Bo'пти, boravering, - dedi Soliyev, direktorning «tergov»ini to'xtatib. Qiz chiqib ketgach, kinoteatrga telefon qildi - o'ninchi mayda hindcha film ko'rsatilmagan ekan. Soliyev bu javobni eshitdi-yu, savol nazari bilan qarab turgan direktorga sir boy bermay «qiz to'g'ri aytibdi», deb qo'ya qoldi. Shundan so'ng soatiga qarab oldi-da, direktorga minnatdorchilik bildirib o'rnidan turdi.

U Qamariddinni soat o'n birga chaqirgan. Mirtillayevning o'limida bu yigitning nechog'liq ishtiroki bor, mayor buni aniq bilmaydi. Lekin uning izidan tushish oxir-oqibatda biron-bir jinoyatning ochilishi bilan yakunlanishiga ishonchi bor. Salimning g'oyib bo'lishi, Asrorning chalg'itishga urinishi, Qamariddinning ish joyi, bir necha kunlab yo'q bo'lib ketishi. Nihoyat, Dilfuzaning aldashi... Bular shunchaki gaplar emas.

Qamariddin mayorning xonasiga aytilgan vaqtda kirib keldi. U Soliyevni ko'rib muddaoni angladi. Mayorning oddiy kiyimda pivoxonada ko'rinishi, so'ng o'zini «Graf» deb tanitgan yigit... Demak, jar yoqasiga kelib qolibdi. Hozir chap bera olsa, marra uniki, yo'qsa, qo'lga tushadi, tamom.

Soliyev baquvvat bu g'ilay yigitga zimdan ko'z tashladi. «Shumi? Nimaga o'ldiradi, pul uchunmi?» degan savol bosh ko'tardi. Savol-ku, oson topila qoldi. Lekin javob-chi? Mayorning xayolidan «bu yigitni chaqirmay tursam bo'larkan», degan fikr o'tdi. Biroq, bo'lar ish bo'lgan, endi afsusdan foyda yo'q, gumon to'riga duch kelgan yigit ro'parasiga kelib o'tiribdi. O'zini erkin tutyapti. Bu xotirjamlik begunohlik alomati emas, yo'q zinhor, bu xotirjamlik – tergovchilar chig'irig'ini totib ko'rgan odamdagina bo'ladi xolos. Agar odam mutlaqo gunohsiz bo'lsa, shunchaki guvoh sifatida chaqirilsa ham biroz sarosimaga tushadi. Soliyev buni biladi. Jinoyatchilarning xotirjamligi ham, hatto berilajak savollariga ham Qamariddinning qo'rslik bilan javob qaytarishi ham ma'lum unga.

Soliyev Qamariddin bilan suhbat boshlashga oshiqmadi. Stoli ustidagi qog'ozlarni o'qib, u yer-bu yeriga belgi qo'ygandek bo'ldi. Go'yo bu harakati bilan yigitni zarur ish yuzasidan emas, balki shunchaki bir ko'rib qo'yish uchun chaqirganday o'zini loqayd tutdi. Orasida Qamariddinga ko'z tashlab qo'ydi. Qamariddin «mening asabim temirdan, istasangiz ming kecha-kunduz shu holda o'tira olaman», deganday xotirjam edi.

Mayor, nihoyat, «ish»larini bir chetga surib Qamariddinga tikilib qaradi.

- Ishlayapsizmi? – deb so'radi undan nigohini uzmay.
- Ishlayapman, – dedi Qamariddin bamaylixotir.
- Qayerda?
- Bilasiz-ku?
- Bilmasam-chi?
- Unda bilib oling, restoranda shveytsarman.
- Kecha ishda edingizmi?

Qamariddin kulib qo'ydi: jinoyat qidiruv bo'limining inspektori uyga borib surishtirganda ishxonaga bormas ekanmi? Buni Qamariddin yarim kechada uyiga kirib onasidan «xushxabar» eshitgandayoq fahmlagan. Uning hozirgi jilmayishida quvonch yeli emas, balki istehzo zahari zohir edi.

- Yo'q, ishda emasdim, – dedi u dangaliga ko'chib.
- Qaysi kunlari ishlaysiz, juft kunlarimi, toq kunlarimi?

- Tayini yo'q, kelishib ishlayveramiz. Men... umuman kam boraman ishga. Odamlarga ta'zim qilaverishga hushim yo'q. Gadoyga o'xshab ketaman. Atir sepaman-u qo'liga qarayman. Keyin o'zimdan-o'zim irganaman.

- Kelbatingizni qarang, boshqa ishga kirmaysizmi?

- Olishmaydi. Men Xudo urgan bandaman, bilasiz-ku?

- Bekor aytibsiz. Ishlashga bo'yingiz yor bersa, topar-dingiz.

- Shunaqami? Mana mening militsiyada ishlagim bor. Jinoyatchini sizdan ko'ra tezroq topishim mumkin. Chunki ularning uslublarini, yo'llarini yaxshi bilaman. Sizdan ko'ra kuchliroqman, epchilroqman. Undan tashqari sira pora olmayman, chunki pora olib xonavayron bo'lganlarni ko'p ko'rganman. Qarang, qanday ajoyib xislatlarim bor. Lekin siz ishga olmaysiz meni. Chunki menga ishonmaysiz - o'tmishim chatoq-da. Meni shunday yaratib qo'yganiga Xudoning o'zi ham hayron bo'lsa kerak. Vaqti kelib, u dunyoda so'roq beradigan paytimda men avval shart qo'yaman: siz avval meni bu holga tushishga majbur qilgan bandalar-ingizni olib keling, ular bilan meni yuzma-yuz qiling, ana undan keyin savol-javobingizni boshlang, deyman. Agar meni do'zaxda kuyishga hukm qilishsa, albatta o'shalar bilan birga yonib-kuyaman. Boshqacha hukmiga ko'nmayman.

Mayor uning gaplarini eshitib, ajablandi: «fikrlari binoyi, lekin nima uchun menga aytyapti bularni. Yo «o'tmishimdan afsusdaman, endi to'g'ri yo'lga tushganman» demoqchimi?» Soliyev shu xayolga borib uni chalg'itmaslik uchun gaplarini bo'lmay eshitdi. Yigit sukutga berilgach, so'radi:

- Kimlarni chaqirasiz, yuzma-yuz gaplashishga?

- Buni o'zim bilaman... Harholda hamkasblaringiz ham bo'lishadi u yerda.

- Yaxshi, endi lirik chekinishni bas qilaylik. Siz yaxshilab eslang: bayramdan keyin qaysi kunlari ishda edingiz?

- Bayramdan keyin... nima uchun qiziqyapsiz, bilsak bo'ladimi?

- Keyin bilib olasiz, hozir savolga javob bering.

– Bayramdan keyin bir kun ham ishlamadim. Yuragim siqilib Farg'ona tomonlarga ketuvdim.

– Qachon qaytdingiz?

– O'n birinchida ertalab.

– Demak, o'ninchiidan o'n birinchiga o'tar kechasi poyezdda bo'lgansiz?

Qamariddin shu savoldan keyin mayorning maqsadini to'la angladi. Vujudiga biroz muz yugurdi-yu, ammo darrov o'zini qo'lga oldi.

– Shunaqa bo'lib chiqadi o'rtoq mayor, – dedi xotirjamligini yo'qotmagan holda.

– Buni kim tasdiqlashi mumkin?

– Hujjat bor, – Qamariddin shunday deb cho'ntagidan poyezd biletini chiqardi.

– Ishingiz pishiq ekan, – dedi mayor, biletni olib ko'rib.

– Birovning mushugi harom o'lsa ham bizdan gumonsiraganingizdan keyin ishni pishiq qilishga majburmiz.

– Bu qaytish bileti, borish bileti-chi?

– Ketishda yo'lovchi mashinada borganman. Naqd ellikka tushganman. Kirakash bolalar bayram oldida shunaqa ishlab olisharkan. Dovondan o'tsa, besh soatlik yo'l. Besh soatda ikki yuz so'm. Yomon emas, a?

– Biletingiz menda tura turadi.

– Bemalol, faqat tilxat bering. Sizdan boshqalarga ham kerak bo'lib qolishi mumkin.

Soliyev tilxat yozayotganida telefon jiringladi. Go'shakni ko'tarib leytenant Eshboyevning ovozi eshitdi. Sir boy bermaslik uchun:

– Ha, o'g'lim, darslaring tugadimi? Men aytgan odamga uchradingmi? – dedi. Eshboyev uning maqsadini anglab: qisqagina bayon qildi:

– Mirisayev uchinchi tanaffusdan keyin maktabdan chiqdi. Izidan bordim. U to'g'ri 2^B-kvartal, 32-uyga bordi. Yettinchi yo'lakka burildi. Qaysi xonadonga kirganini bilmay qoldim.

– Endi o'g'lim, majlisda bo'lsa, chiqar, majlis deganlari bir soatdami, bir kundami tugaydi. Toqat qilib kutgin. Insti-

tutda o'qish oson deb o'ylovmiding? Ketidan qolma o'sha odamning. Ilojini qilsang, majlis tugashi bilan menga xabar ber. Ishim ko'p emas, balki borarman. Bilaman qayerdaligini, majlis o'tkazayotgan odamni ham taniyman.

Mayor go'shakni joyiga ildi-yu, Qamariddinga qarab oldi. Yigit uning gaplarini eshitmaganday o'tirardi. Soliyev tilxatni yozib, unga tutqazdi:

- Mana, oling. Uchastka inspektorining aytishicha, siz kinoxona oldida balog'atga yetmagan bolalarni to'plab o'tirmishsiz?

- Men to'plamayman ularni. Men yolg'iz o'tiraman, ularning o'zlari kelishadi atrofimga. Nima, haydab yuboraymi?

- Qiziq, nima uchun sizning oldingizga kelishadi?

- Yaxshi odam deb o'ylasha kerak-da. Axir ular sizlarga o'xshab pasportimni tekshirib ko'rishmaydi-ku?

- O'tmishingizni bilishmaydimi?

- Bilishadi, men ulardan yashirmayman. U yoqdagi gaplardan gapirib beraman.

- Gapingizda mantiq yo'q. «Yaxshi odam deb o'ylashadi», «pasportimni tekshirib ko'rishmaydi» deysiz-u yana «o'tmishimni yashirmayman» ham deysiz.

- Gapingiz qiziq, o'rtoq mayor, qamalib chiqqanlar orasida yaxshi odam bo'lmaydimi? Mana, siz yaxshi odamsiz. Piching qilayotganim yo'q, to'g'ri ma'noda aytyapman. Lekin, u bolalar sizning atrofingizda to'planishmaydi. Nimaga? Mili-tsiонер bo'lganingiz uchunmi? Yo'q, siz u bolalar bilan gaplasha olmaysiz. Birinchidan, vaqtingiz yo'q, ikkinchidan, nimaning gaplashishni bilmaysiz. Men ham yaqindagina bola edim. Men ham dildan gaplashadigan odamga zor edim. Yo'q edi shunaqa odam, eshityapsizmi, yo'q edi!

- Shunday odam yo'q, deb faraz qilaylik. Hozir siz bilan bahslashishga fursatim yo'q. Faqat bir narsani aytib qo'yay, agar siz haq bo'lganingizda atrofingizda besh-olti emas, besh yuz, olti yuz bola to'planardi.

- Siz bir kunda nechta bola bilan gaplashganimni sanamagandirsiz?

– Kerak bo'lsa sanayman. Siz ko'proq qaysi bolalar bilan birga yurasiz, menga shunisini ayting. Shamildan boshlayvering.

Qamariddin mayorga kulimsirab qarab turdi-da, uch-to'rt bolaning ismini aytdi. Asror bilan Salimning nomini tilga olmadi.

– Hammasining oti esimda turmaydi, – dedi u.

– Ha, ba'zilarini unutibsiz. Masalan, Salim degan bolani. Esingizdami, bokschi bola...

– Ha, Salimni unutibman aytishni.

– Hozir u qayerda, bilmaysizmi?

– Anchadan beri ko'rinmay qoldi. Farg'onadan qaytganimizdan beri ko'rmadim.

– Birga borganmidinglar?

– Ha, aytishni unutibman. Birga bo'luvdik safarda.

– Ko'rinmay qolganidan xavotirlanmadingizmi, uyiga borib xabar olmadingizmi?

– Uyini bilmayman. Shu kinoxona oldida uchrashib turardik. Ketayotganimni eshitib, ergashdi. Mendan nima ketdi, yonimga oldim.

– Yaxshi, sizga ruxsat.

– Rahmat, men savollaringizdan hech nimani tushunmadim – bir bog'dan keldingiz, bir tog'dan. Jinoyat qidiruv bo'limi bekorga chaqirmas retsidivistni?

– Vaqti kelsa, tushunasiz.

– Lekni aytib qo'yay: hozir zamon boshqa. Birovning aybini majburan yuklab qamavoradigan davrlar o'tib ketdi.

– Buni men juda yaxshi bilaman, xayr.

Qamariddin o'rnidan ohista qo'zg'aldi. Og'ir-og'ir qadam bosib, xonadan chiqdi. Ko'chada qadamini tezlatdi: mayor uni kuzatib turgandir. Tezroq uning nazari yetmaydigan yerga borib, o'ylab olishi kerak. Nima qilsin? Qochib, izini quritib ketsinmi? Yo taqdirga tan bersinmi? Yo mayorni chalg'ita olarmikin? Yo'q, bu qari tulkini aldash qiyinga o'xshaydi. Biletni olib qoldi. Endi vagon provodnigini topadi, so'raydi. U galvars o'zidan qo'rqib to'g'risini aytadi. Yo uni topib o'ldirib yuborgani ma'qulmi?

Militsiya binosidan uzoqlashayotgan Qamariddinni shu savollar iskanjaga olgan edi.

Bu savollarga javob topguncha uni xoli qo'yaylik. Deraza osha unga qarab turgan mayor Soliyev ham o'z ishlari bilan shug'ullanib tursin. Biz leytenant Eshboyev ko'z uzmay poylayotgan uyga boraylik. Asror izidan odam tushganini xayoli-ga ham keltirmay Qamariddinnikiga ketgan edi. Qani, boraylik-chi, u yerda nima gap ekan?

OQIBAT

yoxud barcha chigallarning yechilishi haqida so'nggi hikoya

Eshikni Qamariddinning onasi ochdi. Asrorni ko'rdi-yu, «Voy, Xudoyim, senmiding?» – deb ko'kragiga tuflagan bo'ldi. Asror uning «cho'chitib yubording-a», deyishini, so'ng qo'lini olib ko'kragiga bosishini kutgan edi. Xayriyat, bunday bo'lma-di. U kutilmaganda:

– Kelganing yaxshi bo'ldi-ya, – deb Asrorni ichkari bosh-ladi.

– O'rtog'ingning ahvoliga qara, – dedi u, Salim yotgan xona eshigini lang ochib. – Uvoliga qolasanlar, devdim-a!

Asror Salimni ko'rib, qo'rqib ketdi. Rangi dokaday oppoq Salimning ko'zlari yarimyumuq, nafas olishi og'ir edi. Xuddi birov bo'g'ayotganday xirillardi.

Asror unga yaqinlashib engashdi.

– Salim... – u Asrorning ovozini eshitmadimi yo tanima-dimi, indamadi. Ko'zini ham ochmadi – birday yotaverdi. – Salim! – dedi Asror balandroq ovozda. Salim bu safar ham ko'zini ochmadi. Bu ahvolni ko'rib, Asrorning qo'l-oyoqlari-dan jon chiqib ketganday bo'ldi. Orqasiga o'girilib, eshik ke-sakisiga suyanib turgan Qamariddinning onasiga qaradi.

– Hozir tez yordam chaqirdim, bu yoqqa yur, – u shunday deb karaxt turgan Asrorni qo'lidan tortib katta xonaga bosh-ladi. – Eshitib ol: uni tanimayman, seni ham. Uni yo'lakda be-hush uchratib qoldim, sen ko'chadan o'tib ketayotgan eding,

menga yordamlashding, tushundingmi? Angrayma, Qamarid-dinga uning ahvolini o'zing aytasan. Endi eslaringni yig'ib ol-laring. Shu paytgacha so'ramovdim, sen endi menga ayt: nima qiluvdilaring? O'g'rilikka tushdilaringmi yo birovni o'ldirdi-laringmi? Ayt! - u shunday deb Asrorning qo'lini siltadi.

Asror gapiray desa tili aylanmadi.

- Serraymay o'l, sen, - dedi ayol uni nari itarib. - Nima qil-gan bo'lsalaring ham kunlaring bitganga o'xshaydi. Izlaringga odam tushgan. Agar bu bola bir narsa bo'lsa, o'zlaringga yo-mon. Yaxshisi, tanimaymiz, deb turlaring.

Eshik qo'ng'irog'i chalinib, ayolning gapi bo'lindi.

Qamariddinning onasi doktorga «bo'lib o'tgan voqea»ni - notanish bolani yo'lakda behush uchratib qolganini, so'ng uni «ne azoblar bilan» bu yerga olib chiqqanini aytib berdi. Doktor Salimga yaqinlashdi-yu, darhol bilak tomirini ushladi. So'ng mijjalarini qayirib ko'rdi-da, eshik og'zida turgan As-rorga qarab:

- Tez pastga tushib shofyorga ayt, zambilni olib chiqsin, - dedi.

Salimni mashinaga joylashgach, doktor Qamariddinning onasiga qarab so'radi:

- Siz birga borasizmi?

- Menmi? Uni tanimasam... Shartmi? - dedi u bosh chayqab.

- Men boraman, - dedi Asror va doktorning ruxsatini kut-may mashinaga chiqib o'tirdi.

Doktor shofyorning yoniga emas, orqaga, bemorning yo-niga o'tirdi-da, darchani ochib, «tezroq hayda» deb buyurdi.

Mashina qiyomat qichqirig'ini chalib, yelib ketdi.

- Bu bolani taniyanmi? - deb so'radi doktor.

- Ha... yo'q... sal-pal taniyman, - dedi Asror garangsirab.

- Uyini bilsang, xabar qil, ahvoli og'ir.

Asror «doktor yana bir narsa dermikin» deb uning og'ziga tikilib qoldi. Lekin, u boshqa gapirmadi.

Kasalxonaga borishgach, Asror qabulxonada qoldi. Salim-ni ichkari olib kirib ketishdi. Asror ming xayolga borib, behol o'tirdi: «Salim o'lib qolsa, nima qilaman?», «Qamar qachon

keladi yo meni aldab qochvordimi?», «Salim qulupnay devdi, shuni yesa, balki tuzalib ketarmidi, nimaga olib kelmadim?», «Qamarining onasi nima dedi? Izlaringga odam tushgan dedimi? Kim tushadi? Maktabga borganlarmi?»

Bu xayoldan bir seskandi. Darvoqe, u maktabdagi savol-javobdan keyin talvasaga tushgan edi. Asror leytenantni tanirdi. Lekin, «trener»ni tanimadi. Uning «trener» ekaniga uncha ishonmadi ham. Trenerga Salim kerak bo'lsa, Asrordan so'raydimi? Salimni o'tgan yili o'zlari haydab yuborishgan. U boksga uncha qatnamagan ham. Biron-bir musobaqaga qatnashganini Asror eslolmaydi. Shunday ekan, uning trenerga zarur bo'lib qolgani Asrorga g'alati tuyuldi. Xo'sh, unda bu odam kim, nima uchun Salimni qidiriyapti? Yo o'sha g'ira-shirada birov Salimni tanib qolganmi?.. Asror darsda ana shu muammolar chig'irig'ida ezildi. Yuz o'ylasin, ming o'ylasin, savollarga tayin javob topa olmadi. Yuragi qafasdagi nochor qush kabi pitirlab, behalovat qildi. Oxirgi darsda o'tirishga toqati yetmay, tanaffus mahali sekin jo'nab qoldi. U «Qamariddinnikiga boraman» degan ahd bilan chiqmagan edi. Lekin, oyoqlari beixtiyor o'sha yoqqa boshladi. Axir u qayga ham borsin? Hozir unga kim maslahat beradi, kim to'g'ri yo'l ko'rsatadi? Qamariddin! Uning suyanadigan tog'i ham, qalqoni ham shu Qamariddin!

Asror panoh izlab kelib, kutilmagan musibatga duch keladi. Mana endi hammasi bir bo'ldi-yu, bolani bo'g'ib tashladi.

«Tez yordam»da kelgan vrach chiqib, Asrorni chaqirdi:

– Bu yoqqa kel, seni ketib qoldingmi, deb o'ylabman.

Asror unga itoatkorlik bilan ergashdi. Uzun dahlizdan yurib, o'ngdagi xonaga kirishdi. Telefonda gaplashayotgan oq xalatli kishi ularni ko'rib:

– Hozir, bir daqiqaga, men so'rab bilaman, – deb Asrorga murojaat qildi: – Bemorning ismi-sharifini ayt. Yoshi nechada, qaysi maktabda o'qiydi?

Asror imtihonga kirgan bilimi sayoz boladay duduqlanib javob berdi. Bu orada «Tez yordam»dagi vrach xayrlashib chiqib ketdi. Oq xalatli kishi esa telefondagi gapini davom qildi:

– Ha, o’rtoq kapitan, bu tan jarohati, hozircha pichoq urilgan degan taxmindamiz. Chamamda bir hafta, o’n kun avval. Qon ko’p yo’qotgan. Buning ustiga, infeksiya. Ahvoli og’ir, bir nima deya olmayman. Hamma choralar ko’rilyapti.

«Militsiyaga aytyapti!» Asrorning miyasiga birov cho’q-mor bilan urganday bo’ldi. Vujudini o’rab turgan bulut tarqab, fikri biroz ravshanlashdi. Undagi barcha tuyg’ular bulut bilan birga tarqab, faqat qo’rquvgina qoldi. Qo’rquv odamni tez chora-tadbir ko’rishga undaydi. Odam to’g’ri yo noto’g’ri qadam bosayotganini bilmasa-da, tez harakat qiladi. Qo’rquv odamni halokatga olib chiqmoqchi bo’ladi, ammo ko’p hollar-da buning aksi yuz beradi, qo’rquv to’g’ri tubsiz jarga boshlaydi. Asror hozir ana shu qo’rquv changaliga tushdi. Asta tisarilib, dahlizga o’tdi. Ehtiyotkorlik bilan, ovoz chiqarmay bir-ikki qadam bosdi. Keyin qadamlarini tezlatdi. Ko’chaga chiqib olgach, yugurdi. Qancha yugurdi, bilmaydi. Bozor oldidagi maydonda bir-ikki odamga urilib, so’kish eshitgach, o’ziga keldi. To’xtab turgan tramvayga chiqdi. «Endi Salimga nima bo’ladi? – deb o’yladi u. – Shu yaradan ham o’lib ketaveradimi? Endi uni pichoqlagan odamni qidirishadi. U odam esa o’lib ketgan. Endi kim aybdor? O’sha odam... u boshlamaganda...»

Asror o’sha manzarani eslab, alam bilan ingrab yubordi. Mushtumini qattiq qisdi. Birdan o’sha odamning ovozini eshitganday bo’ldi: «Ha, haromilar, kutib turuvdilaringmi, urug’ni qurutish mana bunaqa bo’ladi».

Asror hozir ham shuni esladi. Hozir ham savolga javob topmadi. Topa olmasdi ham. Pivoxona ichidagi mashmashadan na u, na boshqalar xabardor edi. Mirtillayev Salimni Keldiyorovning sherigi deb gumon qilgani ham ularga noma’lum edi. Bu gumonni Mirtillayev o’zi bilan birga olib ketdi.

Qani edi o’sha odam Asrorga endi ko’rinsa, endi xo’rsinsa, endi imlab chaqirsa... Asror unga aytadiganini endi biladi: «Biz emas, siz qotilsiz, siz yosh bir bolani o’ldirdingiz, keting ko’zimga ko’rinmang!» «O’ldirdingiz?.. – Asror xayoliga kelgan bu so’zdan seskandi. – O’lgani yo’q-ku? Ahvoli og’ir de-

yishdi. Doktorlarning hammasi shunaqa vahima qiladi. Yosh bola shu yaradan o'lib ketaveradimi? Yo'q!!!»

Asror o'rnidan turib o'zi sezmagani holda beixtiyor atrofga alangladi. Keyin xayolini jamlab «opoqingga xabar berib qo'yay» deb avtobus bekati sari yurdi.

Salimnikiga boraverishda anhor ko'prigidan o'tayotib suvga qaradi. Nima uchundir o'sha odam ko'rinmadi. Xuddi qotilligini bilib yashirinib olganday.

Salimning onasi odatdagiday hovlida ivirsib yurardi. Asrori ko'rib unga peshvoz chiqdi. Avvallari bunday qilmasdi, salomiga alik olib, ishini davom ettiraverardi.

- O'rtog'ing qani? - dedi u, salomga alik ham olmay. - Kecha milisalar qildirib kelishdi.

- Salim... kasalxonada.

- Qanaqa kasalxonada? Nima bo'ldi unga?

- Bilmadim... oyog'i singanmish...

- To'xta, meni birga olib borasan. Bir gap bor sen zumrashalarda.

Salimning onasi bir odmi ko'ylakni ikkinchi odmi ko'ylakka, oyog'idagi eski kalishni arzon tufliga almashtirib tezda chiqdi. Shoshganidan boshidagi oq surp ro'molni almashtirishni unutdi. Kasalxonaga yetgunlariga qadar: «Bir gap bor, sen zumrashalarda» deb uch-to'rt qaytardi. Asror indamadi. Baxtiga, ayol uni so'roqqa tutib, siquvga olmadi.

Asror uni to'g'ri qabulxonaga boshlab kirdi. Dahlizni ko'rsatdi-da, «o'ng qo'ldagi oxirgi katta eshikda o'tiradi kattasi» dedi. O'zi esa tez-tez yurib borayotgan ayol ortidan qarab qoldi. Dam o'tmay dahliz adog'idan «Voy, bole-em!» degan faryod eshitildi. Asror ko'chaga qanday chiqib qolganini o'zi ham sezmedi. Qaysi ko'chalarda, qancha vaqt yurganini ham bilmadi. G'ira-shira qorong'ilik tusha boshlaganida orqasidan kimdir chaqirdi. Ovoz tanish edi, ammo darrov ajrata olmadi. Ikkinchi marta chaqirganida tanidi - Qamariddin! Daraxt panasida turibdi: berkinyapti, demak, ahvoli chatoq.

- Bu yoqqa yur, - Qamariddin shunday deb qadamini tezlatdi. Asror shundagina atrofga alanglab, uyiga yaqinlashib

qolganini fahmladi. U ham qadamini tezlatib, Qamariddinga yetib oldi.

- Salim... o'ldi, - dedi u, tomog'iga nimadir tiqilib.

Qamariddin shart to'xtab, uni yoqasidan oldi.

- Kim aytdi?

- Bordim, do'xtir..

- Bekor aytadi, o'sha do'xtir. Bunaqa yaradan odam o'l-maydi. Yur, tez, gap bor.

Katta ko'chaga chiqib mashina to'xtatishdi-da, shahar chekkasiga yo'l olishdi. Kooperativ qahvaxonaga kirib, burchakdagi alohida bo'lmaga o'tishdi. Qamariddin yelkasiga osib yurgan sportchilarning charm sumkasidan bir shisha aroq chiqarib stul panasiga qo'ydi-da, xaltani Asror tomon surdi.

- Vaziyat o'zgarib qoldi, pullarning hammasini senga qoldiraman. Yarmi seniki. Yarmi... otishga hukm bo'lmasam, chiqqunimcha asraysan. Otilsam... Salim ikkoving bo'lishib olaverlaring. Bu pullar o'g'rilik emas, halol. Uni muttahamlar davlatdan o'g'irlashgan, biz esa ulardan tortib oldik.

Qamariddin shishani ochib qadahga to'ldirib quydi-da, seskanmay ichib yubordi.

- Bo'ladigan ish bo'ldi, bratishka. Ayb o'zimda. Senlarga gard yuqtirmayman. Mening borib yurgan joyim. Menga balo ham urmaydi. Ertalab o'zim boraman. Ammo bu kech hisob-kitobli ish im bor.

Ofitsiant ovqat keltirib qo'ydi. Qamariddin qadahni yana to'ldirdi-da, ichib yubordi. Ovqatdan bir-ikki cho'qilagan bo'ldi. Asror esa ovqatga qo'l ham urmadi.

- Bratishka, sen meni unutma! - Qamariddin shunday deb Asrorni quchib oldi-da, peshonasini peshonasiga bosdi. - Men yomon odam emasman, yaxshi odam bo'lishni istardim. Lekin, bunga yo'l qo'ymadilar.. - uning ovozi titradi. - Endi sen... odam bo'! Lekin, ehtiyotkorlikni unutma, seni ham egib tashlashlari mumkin. Men bo'sh keldim, sen bo'sh kelma. Ana puling bor, to'g'ri yo'lingdan ketaver. Biz hali uchrashamiz. Bratishka, dunyoda eng buyuk zot kim, bilasanmi, ona, a? Men bugun o'sha buyuk zotlardan birini o'ldiraman...

Asror seskanib boshini tortib olmoqchi edi, Qamariddin qo'ymadi.

– Ha, bratishka, shunaqa qilmasam bo'lmaydi. Sen mening sudimga bor, gaplarimni eshit, xo'pmi? Endi bor, hammasini unut. Avval qanday yaxshi bola bo'lgan bo'lsang, shundayligingcha yuraver.

Qamariddin uni qo'yib yubordi-da, cho'ntagidagi bitta o'ntalikni chiqarib, qo'liga tutdi.

– Mashina to'xtatib, uyingga bor. Men kechroq ketaman. Menga gapirma, jo'na! – shunday deb xaltani Asrorning yelkasiga ildi-da, yengilgina musht tushirdi.

Asror «Qamariddin chiqib qolarmikin» deb ko'chada ancha kutdi. Keyin asta yura boshladi. Qancha yurganini bilmaydi. Bir vaqt undan sal narida mashina to'xtab, undan... Qamariddin tushdi.

– Nima, uyingga yayov ketmoqchimisani? – dedi u zarda bilan. Asror mashinaga o'tirayotganda yelkasiga bir musht urdi. Bu galgi musht qattiqroq tushdi.

Qamariddin uyidan bir ko'cha berida mashinani to'xtattirdi.

– Shef, ukamizni sal nariga olib borib qo'yasiz, pulini shu to'laydi, – dedi-da, eshikni qattiq yopdi.

Asror ham uyiga yetmay mashinani to'xtattirib, tushib qoldi.

Onasi Asrori xavotir bilan kutyapti. Endi nima deb kirib boradi uyiga? Asror to'xtadi. Bir zum turdi-da, orqasiga qaytdi.

Bu orada Qamariddin uyiga yaqinlashib qolgan edi. U daraxt panasiga o'tib, derazasiga qaradi. «Chiroq yoniq, buyuk zot uyg'oqlar» deb o'ylab, sigaret chiqarib tutatdi. Bir-ikki chuqur-chuqur tortdi-da, uy tomon yurdi. Birdan muyulishdagi «Volga»ga ko'zi tushib to'xtadi. Yalt etib derazaga qaradi: chiroq o'chdi. U shoshib orqasiga chekindi. Qo'shni uy panasiga o'tib, kuzatdi: bir yigit uning yo'lagidan shoshib chiqib shu tomon kelaverdi. Qamariddin turgan yerga yaqinlashib, alangladi.

– Og'ayni, bitta chektirmaysanmi? – dedi Qamariddin joyidan jilmay.

Yigit unga yalt etib qaradi.

– Iye, Graf, bu yerda nima qilib yuribsan, meni qidirypasanmi?

Tal’at Qamariddinni tanidi, nima qilarini bilmay turib qoldi.

– Bu yoqqa kel, gap bor. Qo’rqma, tegmayman senga, kimligingni bilaman, – dedi Qamariddin.

Tal’at unga yuzma-yuz bo’ldi.

– Chektirmaysanmi?

– Men chekmayman.

– Aqlli bola ekansan. Lekin ishni bilmas ekansan. Birinchi ko’rishimdayoq bilganman kimligingni. Gap bunday endi: mayoringga aytib qo’y, o’zim bormoqchi edim ertalab, xalaqit berdilaring. Men ishimni chala tashlab ketolmayman, biroz kutishlaring kerak endi. Suvdan topgan odamlaringni men o’ldirganman. Tutingan ukamga pichoq sanchuvdi bir urib, suvga otib yubordim. Ma, pichog’ini olib qo’y, – u shunday deb ro’molchaga o’ralgan pichoqchani uzatdi.

– Bo’yingga olganing yaxshi, yur, – dedi Tal’at pichoqchani olib.

– E, yo’q, aytdim-ku, chala ishim bor, deb. Erta bo’lmasa, indin boraman, aytib qo’y.

– Qamariddin shunday deb ketmoqchi edi, Tal’at uning yelkasidan ushladi.

– E, og’ayni, bunaqa ishing menga yoqmaydi. Sen bilan yaxshilikcha gaplashdim-ku?

– Jinnilik qilma, yur.

– Shunaqami, yur bo’lmasa, – Qamariddin uning oldiga tushdi. Uch qadam yurmasdan keskin o’girildi-da, kaftining qirrasi bilan Tal’atning bo’yniga urdi. Keyin daraxtlarni panalab yugurib ketdi. Tal’at o’ziga kelib, o’rnidan turganida uning qorasi o’chgan edi.

... Asror uyidan uzoqlashgach, qadamini tezlatdi. U Qamariddinni bu mash’um ishidan to’xtatib qolishi lozimligini fahmlagan edi. Shu ongacha u Qamariddinning itoatkor quliday harakat qildi. Pulni ol, dedi – oldi; uyingga ket, dedi – ketdi. Lekin uni to’xtatib qolishi mumkinligi, zarurligini o’ylab ko’rmabdi. Mana endi aqli ishlab qoldi.

U Qamariddinning uyiga burildi-yu, to'xtadi. Qamariddinning yo'lagi oldida turgan «Volga», uning atrofidagi odamlarni ko'rib «Tamom!» deb o'yladi. O'zidan ellik qadamcha narida chiroq yorug'ida turgan «trener»ni ham, gardanini ushlab turgan «pivoxona ishchisi»ni ham tanidi. Tanidi-yu, oyog'idan mador ketib devorga suyanib qoldi. Keyin orqasiga tisarilib, uylarni panalab ketdi.

Oyoqlari uni anhor labiga olib chiqdi. «Nimaga bu yerga keldim? - deb o'yladi u, taqqa to'xtab. - Ha, pulni Salimlarnikiga tashlayman. Men nima qilaman shuncha pulni?..» U shu xayol bilan ko'prik sari yurdi. Suvda nimadir shalopladi. Asrorning nazarida, kimdir suvdan chiqqanday bo'ldi. Asror yugurdi. Ko'prikdan ham yugurib o'tdi. Salimnikiga yuz qadamcha qolganda taqqa to'xtadi. Salimning uyida chiroq yoniq. Ko'chada odamlar turibdi. Asrorning yuragi orqasiga tortib ketdi. «Salim... Salim...» deb pichirladi lablari. Asta orqasiga tisarildi. Toshga qoqilib yiqildi. Yelkasidagi charm sumka uchib tushdi. Kimdir xo'rsindi. «Kim xo'rsindi, Salimmi, yo anavi odammi?» deb o'yladi Asror o'rnidan turayotib. O'rnidan turdi-yu, boshi aylanib o'tirib qoldi. Yana kimdir xo'rsindi. Asrorning ko'zi tindi. Suvda nimadir shalopladi. Asror qaradi - baqirmoqchi bo'ldi, ovozi chiqmadi, bo'g'iq xirilladi. Suvdan o'sha odam bel barobar chiqib turibdi. Kuladi. Qo'lida qonga belangan Salim. Salim xo'rsinyapti...

«Sen kelmadim, mana, Salimni chaqirdim. U keldi».

«Qo'yib yuboring uni, o'zim boraman».

«Joningga tegdimi hammasi?»

«Jonimga tegdi».

«Kel bo'lmasa».

«Boraman, Salimni qo'yib yuboring. Salim, mana buni ol, Qamar berdi».

Suv shalopladi. Dam o'tmay qorong'ilik bosib turgan loyqa suvda Asror ko'rinmay qoldi.

Sportchilarning charm sunkasi esa yengil kemaday chayqalib-chayqalib to'g'on sari oqib borardi...

XOTIMA

Yarim tun. Onda-sonda osmon bag'rini, yer yuzidagi osudalikni buzib, samolyotlar uchib o'tadi. Chigirtkalar chirillaydi. Odamlar uyquda. Go'yo hamma yoq osuda, go'yo hamma yoqda xotirjamlik. Bizga shunday tuyuladi. Ammo biz bir necha soat yoki daqiqa ilgari qayerdadir, balki shu shaharda balki yiroq qishloqda o'g'rilik qilingan yoki odam o'ldirilgan bo'lishi mumkinligini o'ylamaymiz. Shunday voqeaga duch kelsak, jabrdiydalarga rahmimiz keladi, jinoyatchilarni la'natlaymiz. Keyin o'z yumush, tashvishlarimizga bandi bo'lib qolaveramiz.

Men hozir Asror va uning sheriklari haqidagi qissamga nuqta qo'yib shularni o'ylab o'tiribman. Atrofimizda Asroga, Salimga, Qamariddinga o'xshaganlar yo'q emas, bor. Biz ba'zan ularni ko'rmaymiz. Ba'zan ko'rib-ko'rmaganga olamiz. Ba'zan esa ochiqdan-ochiq nafratlanamiz, hazar qilamiz. Shu insofdanmi, deb o'ylayman. Shu ham odamiylikka kiradimi?

Qissaga nuqta qo'yildi. Ortiqcha gapga hojat yo'qdir. Endi uni erta yo indin bolalar koloniyasiga olib borishim kerak. Unda asarni Ahbor kutyapti. O'qib berganimdan so'ng u nima derkin? Asar sizning e'tiboringizga havola etilsa, siz nima deysiz, muhtaram kitobxon?

ALVIDO... BOLALIK

Qissa

«Hozir qo'limga miltiq berib qo'yishsa-yu, darvozadan otam bilan onam kirib kelishsa, shartta otardim. Ana undan keyin o'zimni ham otib yuborishsa mayli. Yo'q, avval sud bo'lishi kerak. Sudda gapirishim shart. «Bolasini tashlab ketgan ota-onaning jazosi shu», deyman. «Tirik yetimlar, hammangiz ablah ota-onalaringizni topib, otib yuboring. Yolg'on gaplar to'qib, ularni yaxshi odam qilib ko'rsatmang bir-birlaringizga. Ayamay, otib tashlang!» deyman. «Tirik yetimlarga miltiq beringlar!» deyman! Ana shundan keyin meni otishsa ham mayli...»

Mundarija

Muqaddima.....	3
Uyqusiz tun.....	7
Militsiyaga yetib kelgan xabar	14
Kecha qayerda edik?.....	20
Ashyoviy dalil	30
Alamzada odam	39
Bir ipning ikkinchi kalavasi.....	58
Xumda katta bo'lgan bola	76
Aspyurish	90
Ikki xil o'lchov	95
Tomchi.....	101
Yupanch	120
Chigalning uchi	129
Dard ustiga chipqon.....	150
Oqibat.....	171
Xotima.....	180

Adabiy-badiiy nashr

Tohir MALIK

ALVIDO...
BOLALIK

Qissa

<i>Muharrir</i>	Saidmurod XOLBEKOV
<i>Badiiy muharrir</i>	Bahriddin BOZOROV
<i>Texnik muharrir</i>	Dilmurod JALILOV
<i>Sahifalovchi</i>	Madina ABDULLAYEVA
<i>Musahhh</i>	Nigora G'ANIYEVA

28.500 so'ra.

Nashriyot litsenziyasi AI № 315. 24.11.2017.
2019-yil 7-iyunda bosishga ruxsat etildi.
Bichimi 84x108 $\frac{1}{32}$ Cambria garniturası.
Ofset bosma. 5,75 bosma taboq. Nashr tabog'i 8,5.
Adadi 10000 nusxa. 142-raqamli buyurtma.
Bahosi shartnoma asosida.

YOSHLAR NASHRIYOT UYI.
Shayxontohur tumani, Navoiy ko'chasi, 11-uy.

«Yoshlar matbuoti» MCHJda chop etildi.
100113. Toshkent, Chilonzor-8, Qatortol ko'chasi, 60.



www.book.uz
Onlayn kitob do'koni



ISBN 978-9943-5530-4-0



9 789943 553040